


Mirkarim Osim

Ajdodlarimiz fojiasi

YOSH KITOBXON KUTUBXONASI



Mirkarim Osim

Ajdodlarimiz fojiasi

Tarixiy qissalar



Yedda og'abzi

UO'K: 821.512.133-311.6

KBK: 84(5O')6

O - 80

Osim, Mirkarim

Ajdodlarimiz fojiasi [matn]: tarixiy qissalar / Mirkarim Osim. – Toshkent: Zabarjad Media, 2019. – 224 b.

ISBN 978-9943-5841-3-6

O'quvchilarimiz e'tiboriga taqdim etilayotgan kitobda Boborahim Mashrab, Mohlaroyim Nodira, Spitamen, Temur Malik, Jahon otin Uvaysiy kabi ajdodlarimiz hayot yo'li, ularning fojiali taqdirlari haqida hikoya qilinadi.


Qissalarni o'qir ekan, kitobxon yaqinlari hayoti uchun jon fido qilishga tayyor uyg'oq yurak, uyg'oq ruh bilan yashagan, atrofidagi insonlarning xatti-harakatlaridan og'ringan, insonlar taqdiriga yaxshilik olib kirishga intilgani holda kansitilgan, tahqirlangan ajdodlari bilan yuzlashadi.

UO'K: 821.512.133-311.6

KBK: 84(5O')6

ISBN 978-9943-5841-3-6

© Mirkarim Osim, «Ajdodlarimiz fojiasi». «Zabarjad media», 2019.



1047142
291

SINGAN SETOR



1. O'tmish bilan uchrashuv

– Namangan shahridin ketganimga o'n sakkiz yil bo'libdur-a. Tavba, vaqt ham tog'din ayqirib tushayotgan soydek tez oqib o'tar ekan. Yaqinginada shu ko'chalarni changitib yurar edik-ku! – dedi Mashrab jome yonidagi tor ko'chada eshagidan tushib. – Mana, uyimga ham yetib keldim. Nazarimda juma masjid ham, mahallamizdagi uylar ham kichrayib qolg'ondek.

– Bolalikda har narsa ko'zga katta ko'rindur. Esingizdam, yoshligimizda yog'och ot minib, mozor aylanib kelar edik. Keyin shu machit ichidin oqib o'tgan suvda "otlari" mizni sug'orib, alarni qantarar edik-da, o'zimizni havzaga tashlar edik, – deb javob qildi, yuz-ko'zini ajin bosgan Shodavlat iljayib. – Ba'zi vaqlarda nega otimga yem bermading, deb meni koyirdingiz.

– Xo'b vaqlar edi-da! Bolaligimiz shu ko'chalarda qolib ketdi.

Yuzini oq doka ro'mol bilan berkitgan bir ayol o'tib ketayotib ularning gaplariga qulq solib turdi-da, keyin tezgina jo'nab qoldi.

– Sen Qitmirni o'zing bilan olib ket. Buvim itni yomon ko'radilar, – dedi Mashrab o'ymakor qilib ishlangan pastgina ko'hna darvoza oldida to'xtab.

– Xavotir olmang, uni och qo‘ymayman, parvarish-layman. Bir burda non topsam, yarmi uniki, – dedi Shodavlat, tumshug‘ini ko‘tarib unga tikilayotgan qora itni silab.

Torgina tashqari hovlini supurayotgan novchagina ayol ko‘chada gaplashib turgan ikki kishining so‘zlariga qulq solib turdi-da, yuzi yorishib ketdi, birozdan so‘ng, darvozani lang olib, eshagini yetaklaganicha kirib kelayotgan Boborahimning oldiga yugurib keldi, uning yelkasini qoqib ko‘rishdi-da:

– Voy, aka, eson-omon... keldingizmi? – dedi hovliqib. – Tan-joningiz sog‘mi? Sizni ham ko‘rar kun bor ekan, kutaverib o‘lib bo‘ldik-ku! – Mashrabning singlisi o‘z og‘asini ko‘pdan buyon ko‘rmagan bo‘lsa ham, bosh-qalardan ajralib turadigan shakli-shamoyilidanmi, ishqilib uni darhol tanigan edi.

– Mana, ko‘rib turibsan, sog‘-salomatmen. O‘zlar ringiz bardammisizlar? Buvim sog‘-salomatmilar?

– Egamga shukur, hammamiz sog‘-salomatmiz.

– Buni qara-ya! Seni zo‘rg‘a tanibman. Bo‘ying yetib, uy-joyli bo‘libsan, eshitdim.

– Ha, ikki bolam bor, o‘ynab-kulib yurishibdur, ammo buvimlar ko‘rpa-to‘sak qilib olg‘onlar, ko‘zlar xira... Bizni tashlab ketganingizdan so‘ng firoqingizda yurak-bag‘irlari o‘rtanib, toblari qochib qolg‘on. “E joniof o‘g‘lim, voy ko‘rar ko‘zim”, deb yotadurlar...

– Andog‘ bo‘lsa, qo‘qqisdin oldilarig‘a bostirib kirmay. Shodlikdin yuraklari yorilib ketmasin tag‘in. Eshagimni og‘ilxonaga bog‘lab, tashqarida aylanib yuray. Sen ichkari kirib, mendin gap och: “Tush ko‘ribmen, falon-pistovon”, deb diydor ko‘rishmakka buvimni tayyorlab tur.

Sochlari ham, ajin bosgan yuzi ham qordek oqarib ketgan kampir devorga tirab qo‘yilgan yostiqla suya-

nib, o'zi bilan o'zi gaplashib o'tirar edi. Baland bo'yli qizi uning oldiga kirib, qiyshayib qolgan yostiqni, boshidagi doka ro'molini to'g'riladi-da, sekin gap boshladi:

– Buvi, men tongotarda qiziq bir tush ko'ribmen. Og'am ko'chadan eshaklarini yetaklab o'tib ketayotgan ekanlar, borib yelkalaridin quchay desam, oyog'im yurmaydur, alamimga chidolmay, yig'lab yuboribman.

– Yaxshi tush ko'ribsan, qizim. Xudo xohlasa, Boborahim bilan diydor ko'rishamiz. Kimki tushida yig'lasa, o'ngida shod bo'lg'ay. Ko'rismaganing yaxshi bo'libdur.

Ichkari hovliga kirib panada turgan Mashrab onasining ovozini eshitib hayajonga keldi. Yugurib kirib u bilan ko'rishgisi keldi-yu, o'zini arang to'xtatib qoldi. Nafasini rostlagandan keyin mayin ovoz bilan kuylay boshladi:

*Saharlar to'lg'onib, to'lg'onimda topgan bir bolang keldi,
Yuzi oq-u qizil guldek, shahidiy karbalong keldi.
Anodek mehribon qayda, atodek g'amgusor qayda,
Alardek ichkuyar qayda, g'arib o'lg'on bolang keldi.*

– Voy, o'g'limning ovozini... eshitgandek bo'ldim, – dedi kampir harsillab. – Tashqari chiqib qara... zora kelgani rost bo'lsa!

Yuzi yorishib ketgan qizi hovliga chiqib, og'asini yetaklab keldi. Boborahim ohistalik bilan onasi oldiga tiz cho'kib, uning qo'lini yuziga surta boshladi. Kampir uning boshi, yuz-ko'zini paypaslab, entikib turdi-da, birdan yig'lab yubordi.

– Egamga shukur, o'chgan chirog'im qaytadan yondi, – dedi u o'pkasini bosib. – Chiltanlar nazar qildi, xonadonim qayta boshdin obod bo'ldi... Balam, bir vaqt-lar, oshiqlarning ota-onasi bo'lmas, deb bizni tashlab

ketgan eding, o'rtanib qolavergandik. Mayli, taqdirda bori shul ekan. Ammo sendin xafa emasmen. O'zing daydi bo'lib tug'ilgan eding.

– Rost, men bir yerda uzoq turolmaymen. Cho'l-u biyobonlar, tog'-u toshlar, notanish ellarda kezib yurishni yaxshi ko'ramen. Ammo men bo'lgan shahar va qishloqlarda tig'i sitamdin yuragi pora bo'lg'on xalqni ko'rdir, o'zim falokatga yo'liqdim. Qashg'ar borib, ixlos tuzog'iga ilindim, yoshligim xazon bo'ldi...

– Sen aytma, men eshitmay. Ul tomondin kelgan devonalar boshingga tushgan ofatdin bizni xabardor qildilar, – dedi kampir ko'zyoshlarini ro'molining uchi bilan artib. – Jabr-u jafolar ko'ribsan, eshitib ko'nglim vayron bo'ldi. Balam, senda ayb yo'q, taqdiri azal shul ekan.

Boborahim suhbatni boshqa yoqqa burish uchun qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'larni so'ray boshladidi. Ularning ba'zilari o'lganini, ko'plari tirik ekanligini eshitib, mullo Bozor oxunddan gap ochdi.

– Bultur jon bahaq taslim etganlar, – dedi kampir xo'rsinib. – Taomdin so'ng borib, qabrlarini ziyorat qilib kelarsan.

Boborahim onasi bilan gaplashib o'tirganida singlisi o'choqqa olov yoqib, qozon osdi. Oradan ko'p o'tmay, dasturxon yozib, tovoqlarda ustiga bir qoshiqdan qiyima solingan serkashnich taom keltirib qo'ydi.

– Hay, hay, muncha shirin! – dedi Boborahim oshni xo'rillatib icharkan. – Qo'ling dard ko'rmasin, singlim.

– Ha, qo'li shirin, pazanda, bichish-tikishni ham biladur, xati ham chiroyli, – deb qizini maqtay ketdi kampir jonlanib. – Yozgan g'azallaringni anga ber, ko'chirib bergay.

– Yaxshi, she'rlarimni parcha-purot qog'ozlarga yozib tashlaganmen, kitoblarim ichida, – dedi Mash-

rab. – Qog‘ozga tushmagan g‘azallarim ham bor, alar yodimda, aytib turib yozdirarmen.

– Xo‘p, jonio bilan, – dedi singlisi xursand bo‘lib.
– Ko‘rgan-kechirganlariningizni ham aytib berursiz. Siz to‘g‘ringizda bir doston yozmoqni niyat qilg‘onman.

Kechga yaqin Mashrab ko‘chaga chiqib, Naman-gan soyi bo‘yidagi xonaqo tomon yo‘l oldi. Yo‘lda eski tanish-bilishlari bilan uchrashib, ular bilan hol-ahvol so‘rashib, soy bo‘yiga yetib borganini ham sezmay qoldi. Xonaqoning katta darvozasi lang ochiq, u ostona tepe-sidan tortib qo‘yilgan yo‘g‘on zanjir ustidan hatlab o‘tib, ichkariga kirdi-yu, o‘ng tomonda qad ko‘targan baland sag‘anani ko‘rdi. Shu on birinchi ustoz, quyuq qoshlari qop-qora bo‘lsa ham pahmoq soqoli qordek oqarib ket-gan mullo Bozor oxund ko‘z oldida gavdalandi.

Boborahim yetti yoshga to‘lganda onasi uni shu xonaqo ichidagi maktabga boshlab kelgani, bolalarni o‘qitib o‘tirgan mullo Bozor oldiga bir choponlik bo‘z bilan yettita non qo‘yib: “O‘g‘limni sizga topshirdim, o‘qiting, eti sizniki, suyagi meniki”, degani esiga tushdi.

Boborahim arab harflari yozilgan yog‘och taxtani ham ko‘tarib kelgan edi. Domla uni oldiga tiz cho‘ktir-gan edi-da, barmoqlari bilan harflarni ko‘rsatib: “Mana bu “Alif”, bunisi “Be” deb uni o‘qita boshlagandi. Bobo-rahimning zehni o‘tkir bo‘lgani uchun ikki-uch oyda hamma harflarni bilib olib, ularni bir-biriga qo‘shib: “Abjad, havvaz...” deb o‘qiydigan bo‘lib qoldi. Hammani hayron qoldirib, bir yil ichida “Chorkitob”ga tushdi.

Domlasiga nisbatan qalbida iliq bir his paydo bo‘lgan paytda xotirasining bir burchidan kelgan sovuq shamol ko‘nglini sovuta boshladidi. “Keyin meni Qashg‘arga jo‘natgan ham shu kishi edi-ku. U yerda yoshligim gulzo-rini xazon urdi, – deb o‘yladi Mashrab. – Lekin o‘zimda

ham ayb bor. Ilmimga mag'rur bo'lib, diniy masalalarda domlamni mot qilib uyaltirib qo'yar, ba'zi qiliqlarim bilan u kishining g'ashiga tegar edim. Mullo Bozor o'rnida har qanday boshqa odam bo'lganda ham meni Naman-gandan badarg'a qilib yuborgan bo'lar edi. Ammo Ofoq-xo'jadan ozor chekkanim uchun u kishi aybdor emas, boshimga bunday falokat kelishini qayoqdan bilsinlar? Birovga qasddan yomonlik qiladigan odam emas edi mullo Bozor oxund. Ko'ngli pokiza edi, devona edi".

U sekin yurib, qabr tepasiga kelganda ko'ngli gi-na-kudurat bulutidan qutulib, bag'riga iliq shamol ke-lib urilgandek bo'ldi. She'riyat ma'budasi qulog'iga shivrlagan g'azalni yoqimli ovoz bilan kuylay boshladi.

*Ma'rifatning gulzori mullo Bozor devona,
Oshiqlarning sardori mullo Bozor devona...*

Xonaqo ichida bo'lganlar nay sadosidek yoqimli ovozni eshitib, tevaragiga yig'ila boshladilar. Ular ning ba'zilari qo'l qovushtirib turar, ba'zilari barmoqlarining uchi bilan ko'z yosolarini artar edilar.

Mashrab kuylashdan to'xtab, bosh egib turganda qo'ng'ir sqqoliga oq oralagan ko'k ko'z bir chol uning oldiga kelib, yelkasiga qo'lini qo'ydi-da:

– Emdi shul yoqimli ovozingiz bilan piri murshid arvohlariga Qur'on o'qib yuborsangiz, – dedi.

Mashrab boshini ko'tardi, unga qarab: "Qayerdadir ko'rganmen bu odamni? – deb o'ylay boshladi. – E, ha, bu chol mullo Bozor oxundning yugurdaklaridan bo'lgan Muhammad Rizo shayx-ku!.."

– Kishi o'lgandan keyin Qur'on o'qishning foydasi yo'q, – dedi Mashrab unga o'girilib. – Har kim tirikligida qilg'on ishi, amaliga qarab ajrini ko'rgusidir. Men us-

tozimga o‘z g‘azalimni bag‘ishladim, shoyad arvohlari shod bo‘lsa. Shuni bilib qo‘ysinlarki, tilovati Qur‘on qazo qilg‘on kishi uchun emas, o‘qigan qori, mullo uchun foydalidir, alar azaxonadin chiqib ketayotganlarida muzdini oladurlar...

Shayx qo‘lini uning yelkasidan tortib oldi-da, ko‘k ko‘zlarini chaqnatib:

– Boring-e, hali ham shakkokligingiz qolmag‘on ekan! – dedi.

Boborahim unga tikilib turib, yoshligini esladi, achchiq-chuchuk xotiralar bilan to‘lgan o‘smirlik, yigitlik davri ko‘z o‘ngidan bir-bir o‘ta boshladi...

2. Umr bahorining tikanli gullari

Kechqurun oila a’zolari ayvonda bo‘z dasturxon atrofiga to‘planib, yog‘och qoshiq bilan xo‘rillatib ugra osh ichayotgan edilar. O‘n birga qadam qo‘ygan novchagina Boborahim hammadan oldin tovog‘ini bo‘shatib, uni nariroqqa surib qo‘ydi-da, to‘satdan:

– Aba, menga setor olib bering, – dedi.

Qirqqa kirgan bo‘lsa ham, qartayib oriq yuzini ajin bosgan, sochlari oqara boshlagan onasi osh ichishdan to‘xtab, unga tikildi-da:

– Aba emas, buvi deb chaqir meni. Biz namanganlik emasmiz, – dedi. – Ovora bo‘lma, o‘g‘lim. Setor emas, nog‘oraga ham pul yo‘q menda.

– Abdusattor aka o‘g‘liga setor oberipti.

– Ul puldor odam. Biz kunimizni bir amallab o‘tkazyapmiz. Boshingda otang bo‘lgandayam mayliyi-di. Sen alyorchi emas, mulloyi boamal bo‘lg‘aysen...

Boborahim mullolardan bozorlarda setor chalib al-yor aytuvchi sozandalarni ustun qo‘yardi. Onasining gapini eshitib, dunyo ko‘ziga qorong‘i bo‘lib ketdi.

– Aba, akamga dutor obera qoling, – dedi uning sochlari mayda qilib o'rilgan besh yashar singlisi. – Akam dutor chalsa, men o'yinga tushamen...

– O'yin tushgandin ko'ra, qo'lingga supurgi olib hovlini shupur! – dedi onasi zaharxanda qilib. – Sen katta bo'lg'oningda yallachi emas, ustoz bo'lg'aysen. Mayda bolalarni to'plab o'qitg'aysen.

– Men katta bo'lganimda sizdaqa ertadan kechga-cha ip yigiramen.

– Yaxshi niyat qil, qizim. Otang o'lgandin keyin bu og'ir ish mening boshimga tushdi, sening boshingga tushmasun.

Boyadan beri bir-biriga tutashgan qoshlarini chimirib, qovog'ini solib o'tirgan Boborahim indamay o'rnidan turdi-da, yalangoyoq holda ko'chaga chiqib ketdi. Bo'yi cho'zilib novchagina bo'lib qolgan o'g'li-ning qorayib, yorilib ketgan oyoqlarini ko'rgach, ona sho'rlikning yuragi achishib ketdi: "Kishilik ko'ylak olamen deb yig'ib qo'ygan pulimga etikcha olib bersam bo'lar ekan, – deb o'yladi u. – Setorga ham pul ortib qoladi. Sochim oqarganda yasanib yurishni kim qo'yipti. Menga bo'z ko'ylak ham bo'laveradi".

Qorni to'yib xursand bo'lgan qizchasi hovliga sakrab tushdi-da, arg'amchisini ikki uchidan ushlab, ustidan sakrab o'ynay boshladidi. Keyin qo'ng'iroqday ovozi bilan bidirlab, bir ohangda qo'shiq aytishga kirishdi:

*Charxim g'um-g'um etadur,
Marg'ilonga yetadur.
Marg'ilonning qizlari
Qizil olma ekadur.
Qizil olma pishipti,
Tor ko'chaga tushipti.*

*Tor ko'changiz tor ekan,
Yo'lda bazzoz bor ekan,
Ul bazzozning xotini
Shoyi ko'ylakka zor ekan...*

“Bazzoz ham o'lsin! – deb kulib yubordi ona. – Undan ko'ra xotiniga shoyi ko'ylak olib bersa o'ladimi... Ammo menga shoyi ko'ylak kerak emas, toleyimga bolalarim omon bo'lsa – bas!”

* * *

Boborahim yugurbanicha eshikdan chiqib, ma-halladagi katta masjid hovlisiga kirdi-da, hovuz labiga kelib, qip-yalang'och bo'lib o'zini suvga tashladi. Ko'chada o'ynab yurgan bolalar suvning shopillashi-ni eshitib, masjidga yugurib kirdilar, hovuz bo'yiga kelib, shoshib-pishib yechina boshladilar. Qiy-chuv ko'tarildi. Bolalar hovliqishib, baqirishib, suvda o'z hunarlarini namoyish qilishga kirishdilar, ularning ba'zilari quloch otib suza bilishlarini ko'rsatmoqchi bo'lar, ba'zilari kalla tashlab, anchagacha suv tagida qolib ketar, keyin hovuzning narigi tomonidan pish-qirib chiqar edilar. Qiy-chuv, shovqin-suronni eshit-gan malla to'nli, oq soqolli masjid imomi Abdulxoliq qori asta yurib hovuz bo'yiga keldi va hassasi bilan bolalarni quvlay boshladidi. Qip yalang'och tirmizaklar, turmaklab daraxtlarning butoqlariga qistirib qo'yan ko'ylak-ishtonlarini olib qocha boshladilar.

– Uyalmaysanmu, masjid hovlisidagi havzda yalang'och cho'milgani? – dedi imom kiyinayotgan Boborahimga o'qrayib. – Axir masjid xudoning uyi-ku!

– Xudo o'zi odamni yalang'och yaratgan. O'zingiz aytинг-chi, men bu dunyoga ko'ylak-ishton bilan ke-libmi edim?

Imom savolga javob bermay g'udrangancha supurgisi-ni yelkasiga qo'yib, oldiga kelgan qorovulga yuzlandi.

– Bul zumrashaning gapini eshitdingizmi? Bitta gap bilan meni mot qilmoqchi bo'ldi-ya! Oxirzamon bolasi-da! Astag'furullo!.. – Keyin Boborahimga tikilib to'ng'illadi: – Ko'cha changitib, yalang'och cho'milib yur-gandin ko'ra jamoat bilan ilm o'rgansang o'lasanmu?

– Emdi o'n bir yoshga qadam qo'ydim-u, mukka tushib ilm o'rganaymu? Balog'at yoshiga yetmasdin burun o'ynab qolay!

– O'ynab qol, shumtaka, o'ynab qol. Balog'atga yet-ganiningda muxtasibning darrasi es-hushingni joyiga keltirib qo'yar. – Afti bujmayib, peshonasi tirishgan keksa imom qorovulga o'girilib: – Bu valad kimning o'g'li? – deb so'radi.

– Marhum Valiboboning farzandi. Andin bir o'g'il, bir qiz qolg'on.

– Valibobo o'z o'g'liga yaxshi tarbiyat berolmabdi-da! Bul shumtaka biror maktabda o'qiydurmi?

– Hovva, taqsir. Aytishlaricha, zehni o'tkir emish. Haftiyakni tushirib savodxon bo'libdur. Xoja Hofiz g'azallarin sharillatib o'qiydur emish.

– Tavba, kattalardek savodxon bo'lsa ham, bolaligi qolmabdur. Yo devonamikin?

– Yo'g'-e, jinni – devona bo'lsa, shundog' ulug' odamning kitobini o'qib mag'zini chaqa oladurmi? Zehni o'tkir, idrokli bola. Mahallasidagi eroni, tojik bolalar bilan birga o'ynab yurib fors tilini o'rganib ol-gan. Alarning tilida chug'illashib gaplashganini bir necha marta eshitganmen.

– Tavba, o'tkirligi boshiga yetmasa edi. Agar o'zi-ni tiyib olmasa, bir kun emas, bir kun boshida kaltak singay, – dedi imom paxmoq soqolini siypab. – Ammo

devona bo'lsa – boshqa gap. Es-hushi joyida bo'lma-gan odamg'a ibodat qilmoq ham farz emas, ro'za tut-moq ham. Shariatning buyrug'i shul.

Imom bilan qorovul uzoqlashganlaridan keyin Boborahim kiyinib oldi. Ko'chaga chiqib ketayotganida: "Imom meni devona deb o'ylaydi shekilli, – deb g'udrani. – Mayli, nima desa deyaversin, bu zohidi yax. Agar menga tird'ilaversalar, o'zimni devonalikka solamen!"

* * *

Oradan uch-to'rt kun o'tgandan keyin, kechqurungi ovqat mahalida ona o'g'lini xursand qildi.

– Ko'cha-ko'yda emas, uyda chalib yursang, senga setor olib berayin. Biroz ortiqcha pulim bor. Yon qo'shnimiz Abdusattor tanburchiga aytib qo'ydim, senga yaxshi setor olib beradi, – dedi.

– O'-o', rostdanmi?! – deb o'rnidan sakrab turib ketdi Boborahim. – Buvijon nima ish buyursangiz, jon deb bajaramen, so'zingizni yerda qo'ymaymen.

Ko'pdan buyon orzu qilib yurgan maqsadiga erishgandan keyin Boborahim ipakdek muloyim bo'lib, onasining izmidan chiqmaydigan bo'lib qoldi. Juma kunlari onasi bilan bozorga chiqib ip sotish, oziq-ovqat xarid qilish ishlarida unga ko'maklashar edi. Bo'sh vaqtlarida qo'liga setorini olib asta "qulog'i"ni burar, boshini qiyshaytirib torlarini cherta boshlardi.

O'zi xushovoz, xotirasi zo'r bo'lganidan eshitgan kuylarini yodida saqlar, ovloqda xirgoyi qilib yurardi. Ba'zan Boborahimning o'rtoqlari uning setor chertib, sekin aytgan qo'shiqlarini zavq bilan tinglar edilar.

* * *

Boborahim balog'at yoshiga yetib, ingichka mo'ylovli yigitchaga aylandi. Oq ro'mol o'rab, ko'zla-

rinigina ko'rsatib yuradigan qizlar uning kelishgan qomati, bir-biriga tutashgan qoshlariga suqlanib qaray boshladilar. Maktabda o'qiladigan hamma kitoblarni ma'nisiga tushunadigan bo'lib qolgan Boborahimni ustozи o'ziga xalfa-yordamchi qilib oldi. Ba'zan uning ishi chiqib qolganida xalfasini qoldirib ketar edi. Boborahim mulla Bozorning to'rdagi o'rнiga – ayiq terisi ustiga o'tirib, peshingacha maktabdorlik qilar edi.

Bir kuni bolalar ozod bo'lib, uy-uylariga ketganlardan keyin o'z hujrasiga chekingan mullo Bozor uni huzuriga chaqirtirdi. Boborahim ostonadan hatlab o'tgach, ustozи yonida o'tirgan uning ikki muridi – Muhammad Rizo bilan Aliqulga ko'zi tushdi.

– Assalomu alaykum, ustoz. Chaqirtirgan ekansiz.

– Ha, – deb unga qaradi soch-soqoli oqarib, kipriklari tushib ketgan, paxmoq soqolli mulla Bozor alik olgandan keyin. – Biz hozir sen to'g'ringda so'ylashib o'tirgan edik. Yigitlik fasliga qadam qo'yib, yaxshigina g'azallar aytadigan bo'lib qolsang-da, ba'zi qiliqlaring bachkana. Bo'sh vaqtlariningda qo'lingda setor, goh soy bo'yida, goh qirda tentirab xonish qilib yurursen. Kel emdi, faqirlikni ixtiyor qil, setoringni tokchaga qo'yib, zuhd-taqvo bo'ryosi ustiga o'tir. Ertaga juma kuni honaqog'a kel, mardixudolar qatorida tur...

– E piri komil, – deb so'zini og'zidan oldi Boborahim do'rillagan ovoz bilan, – afsuski, ertaga xonaqog'a kelib, zohidlar bilan birga zikr tusholmaymen. Men yori jononamga, juma kuni uchrashamiz, deb va'da berib qo'yg'on erdim. Nazarimda ul zebo sanamining yuzidan taralgan nur hamma yoqni munavvar qilib turgandek. Qorong'i uyga berkinib huv-huvlagardin ko'ra o'shal ma'shuqam bilan uchrashib, jamolini tamosho qilsam bo'lmaydurmu?

Mullo Bozor yonida o'tirgan malla to'nli, qo'ng'ir soqolli muridi Muhammad Rizoga ma'noli nazar tashlab-qo'ydi-da, Boborahimga yuzlanib:

– Ma'shuqangiz borligidin bexabar ekanmiz, – dedi sizsirab. – Modomiki, uchrashamen deb so'z bergen ekansiz, boring. "Alva'dayi dayn", ya'ni va'da qarzdir, deganlar. Qarzni uzmoq er kishining ishidur.

Boborahim ta'zim qilib chiqib ketdi.

– Bul yigit sharorat yo'liga kirganga o'xshaydur, – dedi Muhammad Rizo ko'kish ko'zlarini chaqnatib.
– Ruxsat bersangiz, Alikul ikkovimiz ortidan borib, yori bilan uchrashib turganda ushlasak-da, yuziga qora surtib, huzuringizga olib kelsak...

– Maylingiz, – dedi mullo Bozor noxushlanib.

Ertasiga erta bilan olam nur daryosiga g'arq bo'lган paytda Boborahim oq yaktagini etagini belbog'iga qistirib, setorini qo'lga olib yo'lga tushdi. Bozor g'ovuri, olib-sotarlarning shovqini, zohidlarning huv-huvi bilan to'lган shahar orqada qoldi. Boborahim adirga ko'tarilib, o't-o'lan va rang-barang gullar hidi to'lган havodan to'yib-to'yib nafas oldi. Oshiqni quvonch bilan qarshi olgan shamol uning qulog'iga bir nima deb shivirlar, osmonda pirillagan to'rg'aylar chuldirab, uni qutlar edilar. Hasharotlarni asal bilan siylayotgan kapalakgullar kulib boqar, ichiga shabnam yig'ilgan lolaqizg'aldoqlar unga mayi nob so'nar edilar. Nafas olib turgan o't-o'lanlar hididan, yer hididan mast bo'lган Boborahim o'zini podshodek sezdi. Nazarida jamolining nuri yer yuziga tushib turgan zebo sanami guldek yuzidan pardasini ochmay karashma qilayotgandek edi. U qo'liga setor olib, baland ovoz bilan yuragi dardini izhor eta boshladi:

*Arzimni aytay bodi sabog'a,
Bizzin duo deb ul bevafov'a.*

*Ey yori jonim, ko'rsat jamoling,
Jonom tasadduq sen xush adog'a,
Ishqingda kuydim, ey sarvinozim,
Bir marhamat qil shoh-u gadog'a!*

Nariroqda, o'tasidan suv jildirab oqib tushayotgan soylikdagi butalar ustida shoxdan shoxga sakrab o'ynayotgan bir bulbul tanbur ovozini eshitib, chaq-chaqlab sayrab yubordi, havoda pirillab uchib turgan to'rg'ay unga jo'r bo'ldi. O'z ovozidan mast bo'lган Boborahim dam olish uchun yerga o'tirdi-da, keyin ko'rsichqonlar chiqarib tashlagan tuproq uyumlaridan biriga bosh qo'yib osmonga qarab yotdi. Nazarida butun koinot uning ko'ksiga jo bo'lgandek edi. Oradan yarim soatcha vaqt o'tgandan keyin o'rnidan turib, oppoq cho'qqilari yarqirab turgan tog'larga, ustiga samoviy nur yog'ilib turgan adirlar, vodiylarga suqlanib qaradi-da, sekin-asta shahar tomon yo'l oldi. Terlab-pishib katta masjid hovlisiga yaqinlashganda hovuzda cho'milayotgan bolalarning shovqinini eshitib, cho'milgisi kelib goldi. Tez-tez yurib ichkari kirdi-da, yechinib:

- Bolalar! - dedi. - Men hozir hovuzga kalla tashlayman-u, yo'q bo'lib ketaman.
- Bo'g'ilib o'lasiz-ku, - dedi pakana semiz bir bola.
- O'lmayman. Garov o'ynashasanmi?
- Bo'pti. Nimadan?
- Yuzta yong'oqdan.
- Maylingiz. Shoshmay yuzgacha sanaymiz, o'shanda ham suvdan bosh chiqarmasangiz, yutqizganimiz bo'lsin.

Boborahim suvgaga kalla tashlab yo'q bo'lib ketdi. Bolalar yuzgacha sanadilar, biroz turib qaytadan sanay boshladilar. Boborahimdan hamon darak yo'q.

- Nima balo, terak ildiziga boshi ilinib qoldimi?
- dedi garov o'ynashgan bola sarosimaga tushgan sheriklariga qarab.

- Yo'g'-e, o'zi suv tagida yotaveraman, degan edi-ku. Bekorga aytmagandir, - dedi oyog'i uzun jikkak bir bola. - Biroz kutib turaylik.

Shu payt masjidning kunjida yashirinib turgan malla soqolli o'griko'z kishi bolalar oldiga kelib:

- Haliyam chiqmadimi? - deb so'radi. - Bir balo bo'lganga o'xshaydur. Shu yigitning didosinimi, abasi-nimi, darrov chaqirib kelinglar!

- Abasi uyda charx yigirib o'tiripti. Hozir chaqirib kelaman, - dedi boyagi oyog'i uzun oriq bola.

- Mayli, borib chaqirib kel. Men nomahram kishi, bu yerda turmay, - dedi malla soqolli kishi uzoqlasharkan.

Oradan ko'p o'tmay, yuzini doka bilan o'rab olgan ona sho'rlik harsillab hovuz bo'yig'a keldi-da, entikib:

- Haliyam suv tagida yotiptimi? - deb so'radi. - Voy o'g'lim, yolg'izim, tirikmisan, o'likmisan?

- Tirikka o'xshaydi, - dedi semiz bola. - Suv tagida qimirlayotgani bilinib turipti.

- Voy, jonim balam, ko'rар ko'zim, yolg'izim! - deb faryod ko'tardi onayizor. - Dunyoda orttirgan bog'im-behishtim, suyangan tog'im sen eding, yurak-bag'rimni kabob aylama...

Boborahim suv ostida bir uchi suv betiga chiqib turgan qamish nay orqali nafas olib chalqancha tushib yotar edi. Qulog'iga uzoqdan yig'iga o'xshash bir ovoz chalingandek bo'ldi: "Hoynahoy, buvim kelib, dodlayotgan bo'lalar kerak, ularni xafa qilmay", deb suvdan bosh ko'tardi-yu, hovuzdan chiqib, qo'lida-gi qamish nayni uloqtirib yubordi. Hovuz bo'yidagi-lar sarosimaga tushganlari uchun buni payqamadilar

ham. Ona sho'rlik, "Voy, balam tirik ekan", deb yugurib kelib, badanidan suv oqib turgan o'g'lini quchoqlab oldi-yu, ho'ngrab yig'lab yubordi. Boborahim esa bir silkinib, onasining quchog'idan chiqdi-da, terak shoxiga qistirib qo'ygan ko'ylak-ishtonini kiyib, uyg'a yugurdi.

* * *

– Qani Boborahim? Nega aning yuziga qora surtib, qo'lini orqasiga bog'lab olib kelmadinglar? – dedi mullo Bozor horib-charchab kelgan Muhammad Rizoga.

– Ey, piri murshid, biz aning orqasidan yurib, adirg'a chiqdik, soydag'i tol tagida pusib yotdik, – deb hikoya qila ketdi Muhammad Rizo, negadir ovozini pasaytirib. – Ul hech qanday ayol zoti bilan uchrashmadi. Qo'liga setorini olib: "Ey yori jonim, ko'rsat jamoling" deb nola qildi. Biz yotgan yerimizda aning xonishiga qulq solib, mumdek erib ketdik...

Keyin u Boborahimning uyi tomon yo'l olganini, katta masjidga kelib, hovuzga o'zini tashlab uzoq vaqtgacha suv tagida qolib ketganini aytib berdi.

– Boborahim fisq-fujur girdobig'a tushib qoldi, deb o'ylagan edim, yanglishgan ekanman, – dedi mullo Bozor pahmoq soqolini qashib. – Hofiz va Navoiyning g'azallarini yod olib yurgan yigitdin yomonlik kelarmi edi? Suv ostida yotishida xudoning o'ziga ma'lum bir hikmat bor. Agar bul yigitni astoydil tarbiyat qilsak, tariqatimizning ustuni bo'lib yetishgay.

* * *

Xonaqo hovlisidan oqib o'tadigan ariqning chetida ibodatga kelganlar qator bo'lib tahorat qilayotgan edilar, Muhammad Rizo bilagini tirsagigacha yuvalturib yonidagi bir hamrohiga Boborahimning orqasidan adirga chiqib, ovora bo'lganligini gapirib berdi.

– Agar rostdan ham ma'shuqasi bilan uchrashib turganini ko'rsangiz ne qilar edingiz?

– Ne qillardik, qo'lini orqasiga bog'lab xonaqoga olib kelardik.

– Ma'shuqasini-chi?

Muhammad Rizo pichirlab bir nima degan edi, hamrohi xaxolab kulib yubordi. Shu payt yuqoriroqda tahorat qilayotgan bir murid:

– Hoy musulmonlar, tahoratingiz buzildi! – deb hay-qirdi; belbog'ini bog'layotgan Boborahimni ko'rsatib. – Anavi lain ariqqa qarab peshob qildi, suv harom bo'ldi.

– Men ham ko'rdim, – deb uning gapini tasdiqladi shu bugun sochini ustara bilan oldirgan bir murid ijirg'anib. Ba'zilar qaytadan tahorat qilish uchun soyga tusha boshladilar.

– Ushlanglar uni, adabini beramiz, – dedi birov. Mashrab esa qochishni xayoliga ham keltirmas, oddiy bir ish qilgan kishidek beparvolik bilan oq yaktagini to'g'rilab, ular tomon kelaverdi.

– Nima qilding, ahmoq? – deb so'radi Muhammad Rizo o'dag'aylab.

– Nima qilganimni ko'rgan bo'lsangiz kerak. Bilib turib, nega so'raysiz? Bolasini onasiga qo'shdim, xolos.

– Bu uyatsizning gapini qaranglar. Shariatni oyoqosti qilg'on bu aybdorni bog'langlar, piri murshidning huzurlariga sudrab oboramiz!

Unga tashlangan bir kishini Mashrab itarib yubordi, ikkinchisini chalib yiqitdi.

– Bir duo o'qib: "Kuf-suf!" deyman, biring ko'r, biring shol bo'lib qolasanlar, – dedi Boborahim yaqinlashib kelayotgan muridlarga qattiq tikilib.

Yig'ilganlar ko'zlaridan o't chaqnab turgan yigitning vajohatini ko'rgach, qo'rqib tisarildilar.

Bir muridi orqali voqeadan xabardor bo'lgan mullo Bozor ular oldiga kelib:

– Boborahim, yur men bilan! – deb buyruq berdi.

U itoatkorlik bilan orqasidan ergashgan shogirdini o'z hujrasiga boshlab olib kirganidan keyin:

– Bu nima qiliq? – deb so'radi.

– Ey, ustoz, ulamolarimiz, suv yetti yumalansa, halol bo'ladur, deydilar. Men peshob qilgan yerdin tahorat olayotgan zuhd-taqvo egalari oldiga oqib kelguncha suv yetti marotaba emas, taxminan yetmish marotaba yumalangan bo'lsa kerak, peshvolarimiz ko'zi bilan qarasak – suv halol. Nega ulamolar o'z so'zlarida turmaydilar. Axir, so'z bilan ish bir bo'lishi kerak-ku!

– Bas qil, ulamolarga til tegizma! – dedi mullo Bozor qovog'ini solib. – O'zingni bil, o'zgani qo'y. Ibdatni niyat qilgan odamlarning ko'nglini g'ash qilish – ulug' gunoh.

– Taqvolar deb kimlarni aptyapsiz? Ular shaytonning mardikorlari-ku! Riyokor muridlaringiz qishloq-ovul-larga chiqqanlarida sizning nomingizni sotib, sodda xalqni talaydilar, bir ko'ylakli bo'z yoki ro'mol sovg'a qilib, ko'chmanchilarning xotinlarini yo'ldan uradilar.

– Bo'ldi, gapnicho'zma. Sen bilan keyin so'ylashamen, hozircha hujrani bo'shat, meni yolg'iz qo'y!

Boborahim chiqib ketgandan keyin mullo Bozor o'yga toldi: "Agar bir chora ko'rmasak, Boborahim bundin ham xunuk qiliqlar chiqarib, bizni sharmanda qilishi turgan gap. Har gal ulamolarning so'zlaridin, kitoblardin mantiqsizlik topib, meni mot qilmoq-chi bo'ladur. Bir ilojini topib, andin qutulmoq zarur. Ammo qanday qilib?..."

U ajin bosgan peshonasini ushlab xayol surib o'tirgan mahalla mahalladagi katta machitning imomi mulla Abdulkholiq qori hujra ostonasidan hatlab o'tib:

– Assalomu alaykum, mullo Bozor oxund, – dedi qiroat bilan. – Nega boshingizni changallab oltirib-siz, nima tashvishlar peshonangizni tirishtirgan?

– Vaalaykum assalom. Kelsinlar, qani bu yoqqa. Kimning g’amini yerdim? Muridlar, shogirdlar g’amini yeypanda! – Ular hol-ahvol so’rashganlaridan keyin mezbon Boborahimning qiliqlarini gapirib berdi.

– Boborahim? Bizning mahallalik o’spirinmi? Andijonliklarning farzandi...

– Ha xuddi o’sha bolaning o’zi. Siz ham tanir ekan-siz-da! – dedi mullo Bozor ko’zlarini chaqnatib.

– Ha, taniyamen. Bolalik chog’ida, taxminan yetti yil ilgari, bizning masjid havzida yalang’och cho’milar edi. Tanbeh berganimda bir so’z bilan meni mot qilmoqchi bo’ldi. Agar yigitlik faslida ham shundog’ ishlarni qilib yurgan bo’lsa, ani darhol bul yerdin jo’natmoq kerak. Ofoqxo’jamning inilari Mahdum A’zam huzurlariga boring, shoyad ul kishidin bir yaxshi maslahat chiqsa...

* * *

Mullo Bozor darvozasi naqshinkor, ichkarili-tash-qarili muhtasham hovliga yaqinlashganida biroz to’xtab nafasini rostlab oldi-da, keyin sekin darvoza-ni taqillatdi. Ichkaridan qop-qora soqolli o’rta yashar darvozabon chiqib, mehmonga ta’zim qilgach:

– Qani, ichkariga, o’zlari mehmonxonada o’tirib-durlar, – dedi.

Mulla bozor zinadan chiqib mehmonxona poygo-higa qadam qo’yanida qorachadan kelgan, qotma, baland bo’yli Mahdumi A’zam o’rnidan turib salom berdi-da:

– E, keling taqsir, qani, to’rga o’tsinlar, – deb man-zirat qildi.

O'tirib yuzlariga fotiha tortganlaridan so'ng hol-ahvol so'rashdilar. Xizmatkor darhol dasturxon yozib, turli noz-ne'matlar keltirib qo'ydi. Mehmon bilan mezbon u yoq bu yoqdan gaplashib o'tirdi.

Mullo Bozor boshini quyi solib, Boborahimning qilgan ishlarini gapirib berdi.

– Iye, nega anga jazo bermadingiz? Ani yotqizib yalang'och badanig'a yigirma-o'ttiz darra urdirish kerak edi-ku! – dedi mezbon qizishib.

O'z shogirdiga yuragi achishgan mullo Bozor uni bunday jazodan qutqarish uchun darrov vaj topa qoldi.

– Devonani jazolamoq insoniylikka to'g'ri kelmas, deb o'ylayman.

– Andog' bo'lsa, o'shal yigitni aldab-suldab uzoq bir yerga otlantirmoq lozim. Ani Qashg'arga jo'natsak qandog' bo'lar ekan?

– Juda soz bo'ladi-da! Siz ko'nglimdagi gapni ayt-dingiz. Piri komil Ofoqxo'jam Boborahimni hidoyat yo'lig'a solib yuborurlar.

– Rost aytdingiz. Bir jihatdin buyuk og'omga sodiq navkar-mulozimlar, xizmatkorlar, o'tinchilar kerak. Shariat yolidan ozgan o'shal devona yigitni aldab-suldab, ko'nglida sayohatga havas uyg'oting. Yosh yigitlar uzoq yerkirada safar qilmoq, yangi-yangi yerlarni ko'rmoqqa ishtiyoqmanddurlar. Kelgusi hafta shanba kuni mullo Qozoqboyning karvoni Qashg'ar sari ravona bo'lg'ay. Arqasig'a amri ma'ruf qamchisi tegmagan o'shal yigit shul karvon bila jo'natilsa yaxshi bo'lur edi. Buyuk og'am aning bo'ynig'a itoat zanjirini tashlab, saodat yo'lig'a solg'usidurlar...

Mezbonning bu gaplari mehmonning yuragiga g'ulg'ula solib, ko'nglida shubha uyg'otdi. Nahotki Boborahim shundan-shunga borib, ilm-ma'rifat o'rganish o'rniga, qul kabi o'tin kesib, suv tashib yursa,

degan fikr yuragini o'rtagan, Mahmud A'zam huzuriga kelib maslahat so'ragani uchun pushaymon bo'layotgandi. U yana biroz gaplashib o'tirib, o'rnidan turdi. Mezbon xayrlashar ekan, unga ko'zini qattiq tikib:

– Shanba kuni mullo Qozoqboyning karvoni yo'lg'a chiqadur, – dedi. – Boborahimni albatta Qashg'ar sari yibormoq kerak, kelishdik, a?

– Ha, taqsir, kelishdik, – dedi mullo Bozor negadir shoshib.

* * *

– Balam, sening ko'ngling tiniq bir havzg'a o'xshar, beg'ubor oyina yanglig' o'z bag'rida yulduzlar to'la osmonni aks ettirar edi. Bora-bora iflos suvlar kirib, ani loyqata boshladilar. Emdi bul iflos ariqlarning yo'lini to'smoq, Muhammad Rizo yanglig' fosiqlardan uzoqlashmoq kerak. Sohibi kamol bo'lmoqni istagan kishi safar kamarin beliga bog'lab, rayozat chekib haqiqat yo'lin izlamog'i kerak, – deb gap boshladi mulla Bozor ro'parasida o'tirgan Boborahimga kipriklari tushib ketgan o'tkir ko'zlarini qattiq tikib. – Bu dunyo rohatin tark etmaguncha kishi diyonat daryosining sohilig'a yetolmag'ay. Balam, sen piri murshidimiz Ofoqxo'ja hazratlarining dargohlariga bosh urib bor. Alarning sof nafaslari ko'nglingni xira qilib turgan shubha bulutlarin tarqatib yuborg'ay. Yo hu, deb yo'lga ravona bo'l!

Riyokor va tamagir amaldorlardan beliga qovoq osib xalqni tovlab yurgan maddohlardan ko'ngli aynib yurgan Boborahim ustozining gaplarini eshitib, safar otiga mingisi, qorli tog'lar oshib, toshqin soylarni kechib, uzoqdan jannatdek ko'ringan Ofoqxo'ja dargohiga uchib ketgisi kelib qoldi. Mulla Bozor yuzi yorishib ketgan shogirdiga sinchkov nazar tashlab, otgan o'qi nishonga tekkanini payqadi.

– Ey ustoz, faqirlikni ixtiyor qilib, haqiqat yo'liga tushganim bo'lsin. Ul jannatmakon yerga qanday boramen, yo'l ko'rsating! – dedi Boborahim hayajon bilan.

Mulla Bozor chuqur bir entikib:

– O'g'lim, men sening g'amining yeb, hammasini o'ylab qo'yg'onmen, – dedi. – Kelasi hafta shanba kuni Qozoqboyning karvoni Qashg'ar sari ravona bo'lg'ay. Karvonboshi bilan o'zim so'ylashib qo'yamen, ko'ngling to'q bo'lsin. Modaringni ko'ndirsang – bas.

* * *

– Hech qayon yubormaymen! – dedi o'g'lining gapini eshitib yuragi qon bo'lgan ona sho'rlik. – Hali yoshsen, oqni qoradin, do'stni dushmandin ayira bilmaysen. Yot yurtlarda xor-zor bo'lisingni, ochyalang'och yurishingni istamaymen.

– Buvijon, meni yo'ldin urmang. Tavakkal kamarin belga bog'lab, safarga otlong'onmen.

– Volidayi mehriboningni qon qaqshatib ketmoq niyatidamisen? Yongan chirog'imni o'chirib, meni ado bo'lmas dardg'a ko'mib ketmoqchimisen? Yo'q, hech qayon ketmaysen! – dedi boshidan doka ro'moli tushib ketgan onayizor, o'g'lining yo'lini to'smoqchi bo'lganday ikki qo'lini kerib.

Boborahimga Ofoqxo'ja uzoqdan farishtadek begunoh, murdaga jon kirgizadigan otashnafas bir samoviy siyodek ko'rinar edi.

– Buvi, yo'limni to'smang. Men bul yerdin bosh olib ketishga azm qilg'onmen. O'zim Namangan shahrida bo'lsam ham, xayolim ulug' dargohda. Tabarruk bo'sag'alarda! – dedi Boborahim hayajon bilan.

– O'shal yerda boshingga bir balo kelmasaydi deb qo'rqamen, yuragim notinch, ko'nglim g'ash. Voy ba-

lam, yuragimning madori, nuridiydam. Onajoning aylansin qaddi-qomatitingdan!

Onayizor o'g'lining avzoyini ko'rib, xatarli yo'ldan qaytarolmasligini payqadi, safarga oq fotiha berishga majbur bo'ldi.

Shanba kuni tong paytida ularning uyi motamxonaga aylandi. Boborahim bo'z choponi ustidan belbog'ini bog'lab, bo'g'jamasini olib, eshik oldiga kelganda onasi faryod ko'tarib, uni bag'riga bosdi, ko'zlaridan shashqator yosh oqib turgan singlisi esa oyoqlaridan mahkam quchoqlab oldi.

– Meni qo'yib yiboring, buvijon, – dedi Boborahim o'zini yig'idan arang tutib. – Men o'g'lingizga oq fotiha beringiz.

U mehribonlik zanjiridan o'zini qutqarib olgandan keyin ko'z yoshlarini yashirinchalartib, eshikdan chiqib ketdi. Daraxtlarni silkitib g'uvillagan bodi sabo sovuq nafasi bilan uni notanish o'lkalarga chorlar edi.

3. Ixlos tuzog'i

Cho'llarni qoplagan chechaklar hididan mast bo'lgan bahor shamoli dadil qadam tashlab ketayotgan yigitga tegajog'lik qilayotgandek yaktagi etaklaridan tortqilar, yuzini siypalab, go'yo qulog'iga bir narsalar deb shivirlar edi. Qora qoshlari bir-biriga tutashgan, quralay ko'zlarini katta-katta, mo'ylovi sabza urgan, sochlari o'sib yelkasiga tushgan xushqomat yigit bir piyola sharob ichib olgan kishidek atrofga kulib boqib, yurishini tezlashtirdi. Qashg'ar shahri tashqarisidagi xonaqoning baland gumbazi, uning atrofini o'ragan qo'rg'onning kungiralari, sernaqsh darvozasi ko'zga chalingach, yuragi gupillab urib ket-

di, yelkasidagi xaltasini olib, yerga o'tirdi-da, pichir-lab duo o'qiy boshladi. Bu ixlosmand yigit mana shu xonaqoda istiqomat qiluvchi piri murshid Ofoqxo'jani ziyorat qilgani kelayotgan edi. Mana endi u o'sha ulug' dargoh bo'sag'asida turibdi. Nasib qilsa, shu bugun farishtamonand Ofoqxo'ja oyog'iga yiqilib, tabarruk etaklarini yuziga surtadi. Buning uchun u ham jisman, ham ruhan tayyorgarlik ko'rib qo'ydi. Qashg'ar yaqinidan oqib o'tadigan Qizilsuv nahrida cho'milib, rohat oldi, duoyi takbir bilan ruhini pokladi.

Ko'ngli ravshan tortgandan keyin o'rnidan turib, kungirador xonaqo tomon dadil qadam tashladi, darvoza oldiga yetib kelganda qora chophonli, chust do'ppili darvozabon yigit yo'lini to'sdi.

– To'xta! – dedi yo'lovchining ust-boshiga, oyog'ida-gi eski chorig'i-yu qo'lidagi setorga shubba aralash qarab. – Qayerliksen, qayg'a borasen?

– Namangonlikmen, Ofoqxo'jani ziyorat etgali ke-layotirmen.

– Laylak kelganiga bir hafta bo'lg'ani yo'q, ketindin namangonlik kepti-da, – dedi qorovul kulib.

Darvozaxonada o'tirgan eski sallali, malla chophonli, o'rta yoshli kishi tasbeh o'girishdan to'xtab:

– Ajab darveshsifat, xushsurat yigit erkan, qo'yib yubor, – dedi. – Nega ani kalaka qilayotirsen? Hoy yigit, bu yoqqa keling, xaltangizda ne bor?

– Assalomu alaykum, – dedi ziyoratchi yigit darvozaxonaga kirib, yelkasidagi xaltani yerga qo'yar ekan. – Tavakkal qilib yo'lg'a chiqqan kishi na talqon-u na qalqon g'amin yer, rizqini yo'ldin topar, – u xaltsidan uchta kitob chiqardi: – Xo'ja Hofiz, Lutfiy, Amir Navoiy devonlari. Yo'lda dilimg'a g'ayrat bag'ishlagan hamrohlarim shular. Yuragimga qil sig'may qolganda setorimning navosig'a qulq solurmen.

– Barakallo, chindan ham sheri mard ekansiz. Pirimizg'a sizdek yigitlar kerak. – Malla choponli murid yigitning oti, nasli nasabin surishtirdi.

– Otim Boborahim, harf o'rgatib, savodimi ni chiqorg'on ustozim mullo Bozor oxund menga Mashrab deb laqab qo'yg'on edilar.

– Borakallo, ustozingiz sizga topib laqab qo'yibdurlar, baayni uzukka ko'z qo'yg'ondek bo'libdur.

– Mashrabning ma'nisi ne? – so'rab qoldi darvozabon yigit.

– Mashrab – odat, xulq-atvor degani. Bul yigitning qiyofasi, yurish-turishidan ko'rinish turibdurki, xulqi o'ziga xos, – dedi malla to'nli murid va Mashrabga o'girilib so'zida davom etdi. – Mullo Bozor oxund qutbi olam, ya'ni Ofoqxo'jamning ixlosmand muridlari, devonayi barhaq, tabarruk zot erurlar. Alarning shogirdlari bo'lsangiz, siz ham haqiqat yo'lig'a tushgan mard yigitlardin ekansiz. Ofoqxo'ja kecha menga: "Mulla Qosim, og'zida kalimayi shahodat, belda kamari xizmat bo'lg'on yigitlardin topping", degan erdilar.

– Qarangki, dastyori beminnat o'z oyog'i bilan ke-libdur, – dedi darvozabon miyig'ida kulib.

Mulla Qosim unga xo'mrayib qarab qo'ydi-da: "qani yuring!" deb Boborahimni ichkariga boshladи. Xonaqoning hovlisi katta bo'lib, uning ikki tarafiga musofirlar uchun hujralar, o'tinxona, oshxona, otxona solingan, to'rda katta zikrxona, salomxona. Xonaqoning orqasidagi katta hovlida butun Qashg'ar viloyatining hokimi mutlaqi Ofoqxo'janing kanizak-cho'rilari chug'urlashar edilar.

Mulla Qosim ziyoratchi yigitni zinapoyada qoldi-rib, o'ymakor eshikni asta ochdi-da, salomxonaga kirib ketdi. Boborahim esa setorini qo'lga olib, baland ovoz bilan Ofoqxo'jaga bag'ishlagan g'azalini o'qiy boshladи:

*Dargohingga bir ojizi afgor kelibmen,
Arzi dilim etmoq uchun zor kelibmen...*

Katta salomxonaning to‘ridagi kursi ustida o‘tirgan Ofoqxo‘ja yosh ziyoratchining nay sadosidek yoqimli qo‘sning iga qulq solib, kulimsiradi-da:

– Kim u? – deb so‘radi.

Eshik yonida qo‘l qovushtirib turgan mulla Qosim bosh egdi:

– Dardig‘a davo tilab kelgan yigit.

– Chaqiring bu yoqqa o‘shal tolibi diydorni, – dedi Ofoqxo‘ja.

Mulla Qosim ta’zim qilib, orqasi bilan yurib chiqib ketdi, birozdan keyin qomati kelishgan, qora sochlari yelkasiga tushgan Boborahimni boshlab keldi. Yuzi ilhom nuri bilan yorishib, ko‘zlari chaqnab ketgan yosh yigit ikki bukilib salom berdi-da, pirning oyog‘iga yiqildi. Egnida oddiy kashmiriy to’n, hoji do‘ppisida misqoli salsa, soqoliga oq oralagan Ofoqxo‘ja yigitning qo‘lidan ushlab turg‘azib qo‘ydi. Kumush yoqali, zar to’nli ikki vazir – mulla Boqiy bilan mulla Soqiy hokimi mutlaqning ikki tarafida viqor bilan turardi.

– Huzurimizg‘a darmon tilab kelgan har bir sheri mardg‘a lutf-karam darvozasi ochiq, – dedi Ofoqxo‘ja qomatini tik tutib. U yosh shoirning ta’rifini eshitgani uchun ism, nasl-nasabini surishtirib o‘tirmadi. Ro‘parasida ixlos tuzog‘iga ilingan yigit turganini payqab karomatini ko‘rsatmoqchi bo‘ldi. O‘ng qo‘lini Mashrabning yelkasiga qo‘yib, ko‘zlariga qattiq tikildi. – Xizr nazar solg‘on yigit ko‘rinasiz. Xizmatimizda bo‘lsangiz, haqni botildin ayirib olursiz. Bilib qo‘ying, haqdin o‘zga hamma narsa yolg‘on. Siz ham, biz ham, dunyodagi barcha mavjudot ham bir-u borning shu’lasi... O‘rgumchak

og'zidin tola chiqargani singari, bir-u bor ham yo'qdin samovot kursisi, yer-u falakni yaratgan...

U bir ohangda gapirib, ta'sirchan yigitning yelkasi-ni silar, ko'ziga tikilib, aytgan so'zlarini takrorlar edi. Mashrab a'zoyi badani mumdek erib, qovoqlari og'ir tortayotganini sezdi, birozdan keyin ko'ziga og'zidan tola chiqayotgan katta o'rgumchak ko'rinish ketdi-yu, nogoh ko'z o'ngini zulmat qopladi, oyoqda turolmay, yiqilib tushdi¹.

– Karomatingizdin aylanay, xo'jam! – deb yuborishdi devor tagida qo'l qovushtirib turgan muridlar.

– Sirri asror pardasini ochib, bizni saodat yo'lig'a soling, yo qutbi olam! – deb chuldiradi mulla Qosim piri etagidan o'pib.

Hammani vahima bosgan. Ofoqxo'ja esa ko'zini yumgan ko'yи toshdek qotib turardi. Birozdan so'ng oyog'i ostida yotgan Mashrabga tikilib:

– Och ko'zingni, tur o'rningdin! – deb buyruq berdi.

Mashrab uyg'onib o'rnidan turdi, o'ziga kelgandan keyin kamoli ixlos bilan g'ayrioddiy ruhiy kuchga ega bo'lgan pirning qo'lidan o'pdi.

Nonvoy xamirni rosa ezg'ilab, unga istagan shaklni berib, tandirga yopganidek, Ofoqxo'ja ham charchab bo'shashgan ixlosmand muridini endi o'tga toblab, suvga tashlashi mumkin edi.

* * *

Xonaqoning xo'jaligi katta, keldi-ketdi ko'p. Nazrga paydar-pay qo'y-echkilar kelib turadi, qassoblar ularni bo'g'izlab, nimtalab ulgurolmaydilar. Doshqozonlar tagida lovullab yonayotgan olovning tillari doim go'sht so'rab yalanib turadi. Yalangoyoq muridlarning ba'zi-

¹ Bu holat gipnoz holati bo'lib, unda inson birovning ta'siri ostida uqlashi, behush bo'lishi kuzatiladi.

lari daryodan suv tashib, ketma-ket katta xumlarni to'ldiradi, ba'zilari to'qaydan o'tin kesib keltiradi.

Ovqat suzilayotgan mahalda halimxona tinmay tas-beh o'girgan malla choponli muridlarga to'lib ketadi. Ular qorinlarini to'yg'azib, g'ayratga kirib ketadilar.

Ichkarida esa cho'ri-kanizlar, Ofoqxo'janing bosh xo-tini Xonimning xizmatlarida. Xonaqo ertadan kechga-cha arining inidek g'uvillaydi. Bu yerdagi odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarini tushunib yetma-gan, hali aqli uyquda bo'lgan Boborahim bu muhitga shoirona tus berib, o'zini jannatga tushgandek his qil-lar, topshirilgan ishlarni bajonidil bajarar edi. U o'ziga o'xhash bechora bir murid bilan o'tin arralar, o'choq-ning kulini olar, doshqozon tagiga o't qalar edi. Kech-qurun ovqatlanib o'ziga kelgandan keyin u ba'zan qo'li-ga setorini olib, xonish qilar, uning atrofini yalangoyoq muridlar o'rab olar edilar. Yosh kanizaklar boshlaridagi ro'mollarini qiya yopib, eshik oldida Mashrabning yo-qimli ovoziga zavq bilan qulqoq solishardi. Mutaassib Qosim ularni ichkariga haydab yuborar, muridlarga har xil ish buyurardi.

Nihoyat, u bu voqealardan Ofoqxo'jani xabardor qilishni lozim topdi. Piri murshid uning gapini eshi-tib, bo'zarib ketdi-da:

– Ani har kuni erta bilan to'qayga – o'tin kesishga yuboring! – deb buyruq berdi. – Kechqurun charchab kelib, ilkiga setor olishga majoli qolmas.

Kanizaklarning Boborahimga qiziqib qolgan-lari to'g'risidagi gap uning yuragida rashk ilonini qo'zg'atib qo'ygan edi...

Ertasiga mulla Boqiy Boborahimning qo'liga o'n qu-loch arqon, bitta o'tkir bolta berib: "Sizning vazifangiz, har kuni to'qaydin bir eshak o'tin kesib kelish", dedi.

– Xo‘p, taqsir, – dedi Boborahim qo‘l qovushtirib. Shundan so‘ng har kuni azonda turib, eshagiga to‘qim urib, to‘qayga jo‘naydigan bo‘ldi. Yo‘lda o‘zini ovutish uchun u o‘z g‘azallarini kuya solib, xonish qilar, ko‘ngli ertalabki yomg‘irdan yashnagan tog‘dek umid chechaklari bilan qoplanar edi. Parrandalarning chug‘ur-chug‘uri bilan to‘lib-toshgan to‘qayga kelib, eshagini tushovlab, qo‘liga bolta olib, yovvoyi jiyda, tol, to‘rong‘ilarni kesib, bog‘lar edi...

Shu zaylda oylar ketidan oylar o‘tdi. Yoz o‘tib, qish keldi. Qish o‘z orqasidan bahorni ergashtirib kelib qoldi. Kuldek qorayib, qo‘llarini qadoq bosgan Boborahim hamon to‘qayga qatnagani qatnagan edi.

Xonimning xizmatida bo‘lgan bir cho‘ri qiz har kuni ibodat vaqt Ofoqxo‘jaga tahorat suvi olib chiqardi. Mashrab sernaqsh mis obdasta ko‘tarib turgan, qizil ro‘molini qiya yopingan bu chiroyli kanizakni ko‘rsa ham indamay yerga qarab o‘tib ketar edi. U begona ayolga, xususan, piri murshidning xizmatidagi cho‘rilarga tikilib qarashni kufroni ne‘mat deb bilardi. Lekin qiz tushmagur... qomati kelishgan, mo‘ylabi sabz urgan chiroyli yigitni ko‘rganda guldek ochilib ketar, ro‘molining bir chekkasini oolib, xiyol qiyiq, qora ko‘zlari bilan kulib qarardi-yu, darhol yuzini teskari o‘girib olardi. Gaplashishmagan bo‘lsalar ham, ko‘zga ko‘rinmas mehr iplari ularni bir-biriga bog‘lay boshlagan edi.

Bir kuni kechqurun Mashrab eshagini o‘tinxona oldida to‘xtatib, o‘tin tushirayotganda qoshiga o‘sma qo‘yib, kiprigiga surma tortgan qiz u yoq bu yoqqa qarab, unga yaqinlashdi.

– Bugun bak xushholsiz-go‘, – dedi u jon olg‘uvchi ko‘zlarini Mashrabga tikib.

– Ha, – dedi yuzi yorishib ketgan Mashrab. – Bugun savob ish qildim. Bir kiyikning bolasini ushlab

olgan edim, qo'yib yubordim, onasi meni alqay-alqay uni ergashtirib ketdi.

– Hamisha savob ish qilib jo'risiz. Umringizda ayb ish ham qilg'onmisiz? – dedi u kinoya aralash kulib. Keyin gapni boshqa yoqqa burdi. – Voy, etagingiz yog'ochga ilinib jitilibdi-g'o'. Chakmoningizni yechib bering, men tikib beray.

– Hozir. Oldin o'tinni tushirib bo'lay. Keyin yechib mana bu yerga qo'yamen.

– Yaxshi, yaktagingizni ham yeshib qo'ying, men juyub beramen.

Bu gapni eshitib Mashrabning qalbi muhabbat nuri bilan to'lib-toshib ketdi. Xursand bo'lganidan u o'zini qayerga qo'yishini bilmas, ashula aytgisi kelardi. Nazarida bugun qilgan savobli ishi unga sevgi xazinasining darvozasini ochib bergandek edi.

Bugun erta bilan odatdagidek to'qayga kelib, qo'liga bolta olganda o'ttiz qadamcha narida mo'ltilab turgan kiyikka ko'zi tushdi. Mashrab uni ancha yergacha ta'qib qilib bordi, kiyik o'qdek uchib ketdi-da, yana to'xtadi. Jonivor shu orada bolasi bordek uzoqqa qo'chib ketmas, qo'lida bolta ushlagan yigitni chalg'itib, cho'lga olib ketmoqchiga o'xshar edi. Yosh yigit iziga qaytib, orqasidan kiyikning ergashib kelayotganini payqadi va uni birinchi uchratgan joyida, o'tlar orasida kiyik bolasi yotganini ko'rди. "Kechagina yoki bugun saharda tug'ilgan bo'lsa kerak", deb uni qo'liga oldi. Mashrabning mehri tovlanib, bir qo'li bilan kiyik bolasini asta silab, uning shabnamdek jozibali ko'zlariga termildi. "Uyga olib ketib tarbiyalasammikin?" degan fikr ko'ngliga keldi-yu, lekin uzoqda namli ko'zlarini bolasiga tikib, yer tepinib turgan onasini ko'rgach, o'z fikridan qaytdi. "Qo'rqma, jonivor, bolangni olib ket-

mayman”, dedi yigit kiyik bolasini yerga qo‘yib, orqasiga qaytar ekan. Ona kiyik boltali yigitning uzoqlashgani ni ko‘rib, bolasi yoniga keldi, uni yalab turg‘izganidan keyin emizdi, so‘ngra gandiraklab yura boshlagan kiykchani ergashtirib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Uzoqdan ularni kuzatib turgan Mashrab, xursand bo‘lib o‘ziniadolatli bir ish qilgan podshodek his etdi va bugungi xursandchilik shu savob ishning oqibati deb o‘yladi.

* * *

Ro‘zixon bilan Mashrab odamlarning ko‘zini shamg‘alat qilib tez-tez uchrashadigan bo‘lib qoldi. Ular tezroq kun botish vaqtini sabrsizlik bilan kutishar edi. Bu vaqtarda jamoat jam bo‘lib ibodatga yig‘ilar, xonaqo hovlisida zog‘ uchmasdi...

Yosh kanizakning yoqut lablaridan muhabbat sharobini tatigan Mashrab esa bundan mustasno, u jannatdag'i havzi kavsar sharobidan ham voz kechgan edi.

Bir kuni kechki vaqt uchrashganlarida Ro‘zixon uning belidan quchib:

– O‘lgunimcha quling bo‘lay. U dunyog‘a ketishimu rizoman, – dedi.

– Boshimda otam, qo‘limda hunarim, turarga joyim bo‘lmasa, seni olib qayoqqa boramen? – dedi Mashrab.

– Fayzobodga borib, boylarning qo‘yini boqimiz. Tinch yoshomiz bir kapida.

Mashrab sevgilisining qorniga qulqoq tutib shivirladi:

– O‘sha yerda tug‘iladigan bolalar qorningda turib: “Dada, non, dada, osh!” deb yig‘lashyapti. Men ularni qanday boqamen?

– Qo‘ysangiz-o! – dedi qiz, uning peshonasidan itarib yuborib.

– Qayerga qochsak ham Ofoqxo‘jam bizni topib olg‘ay. Axir, u butun Qashg‘arning podshosi-ku! Yer-

ga kirsak qulog‘imizdin tortib chiqarg‘ay, osmonga chiqsak oyog‘imizdin...

– Bo‘lmasa Ili bo‘yig‘o qochib katayluq.

– U yerlar qalmoq xoni Xuntayshi ilkida. U Ofoq-xo‘jamning do‘ssti va xojasi. Qalmoqlar darhol bizni topib, Qashg‘arga qaytargusidirlar. Qayg‘a borsak ham boshimiz asorat domig‘a ilingusi, – dedi Mashrab.

O‘y-xayol domiga ilinib tipirchilagan ikki yosh yurak najot yo‘lini axtarar, biroq ozodlik darvozalari qulflog‘lik ekanini ko‘rib, o‘zlarini qayerga qo‘yishni bilishmas edi. Yigit har kuni o‘tin kesgani to‘qayga borib, ish bilan o‘zini chalg‘itmoqchi bo‘lar, qiz esa uning yo‘liga intazorlik bilan ko‘z tikar edi.

Bir kuni Mashrab to‘qayzorda quvvatdan qolgan bir cholga ko‘maklashaman deb odatdagidan kech qoldi. Ikkovlon to‘rt-besh bog‘lam o‘tin tayyorlagunlaricha kun botib, atrofni qorong‘ilik bosa boshladi. O‘tin yoradigan, suv tashiydigan, hovli supuradigan muridlar – Mashrabning do‘stlari xavotir olib: “Bechorani bo‘ri yeb ketmasaydi, kechalari to‘qayda yolg‘iz yurish xatarli. Och bo‘rilar, shag‘ollar ovqat qidirib izg‘ib yuradilar”, deyishar edi. Bu gaplar sevgilisini kutaverib ko‘zi to‘rt bo‘lgan Ro‘zixonning qulog‘iga chalinib, yuragiga g‘ulg‘ula solardi. U bir joyda turolmay, goh ichkariga kirib, o‘zini ovutish uchun biror ish bilan shug‘ullanar, goh uh tortib, yana tashqariga chiqar, ehtiyyotkorlikni unutib, xizmatkorlardan Mashrabning kelgan-kelmaganini surishtirardi. Uning bezovtaligi ba‘zi odamlarning ko‘nglida shubha uyg‘ota boshladi.

Mulla Boqiy bir kech Mashrabni qidirib topish uchun to‘qayga odam jo‘natmoqchi bo‘lib turganda, uning o‘zi kelib qoldi. Mashrab charchagan, ko‘zlar kirtaygan bo‘lsa ham, chehrasi ochiq edi. Do‘stlari

tevarak-atrofini o'rab olib, nima uchun kechikkanini so'ray boshladilar...

Ertasiga ertalab mulla Boqiy Ofoqxo'ja bilan yolg'iz qolganida Ro'zixondan shubhasi borligini, kecha Mashrab kechikib qolganida u bezovtalanib, uh tortib yurganini batafsil so'zlab berdi.

Ofoqxo'ja bu gapni eshitgach, yuragi ezilib ketgan bo'lsa-da, sir boy bermay:

– Rahmdil cho'ri, o'tinkashni bo'ri yeb ketmasaydi, deb tashvishlangan bo'lsa, buning ajablanarli yeri yo'q, – dedi.

Dami ichiga tushib ketgan mulla Boqiy tavoze bilan bosh egib qo'ydi, ichida Boborahimni qo'lga tushirib, jazosini berishga ahd qildi. U so'rab-surishtirib, Mashrab juda ko'p hollarda jamoat bilan emasligini bilib oldi va tajribali sayyoddek qayerlarga tuzoq qo'yish kerakligini dilidan o'tkazib, tasbehini o'gira boshladi.

Hamma yoq jimjit. Xonaqoda jamoat jam, muridlar Ofoqxo'ja atrofida to'planganlar. Yorug'lik qorong'ilik bilan qo'shilgan payt. Visol damiga mushtoq bo'lgan ikki yosh xuddi ohanrabo bilan temirdek bir-birining quchog'iga otildi. Ikkovi ham bir qadahdan boda ichgandek, atrofdagi narsalarni ko'rmas, quloqlar boldek shirin so'zlardan boshqa narsani eshitmas edi. Shu payt pana joyda yashiringan ikki devsifat murid birdan otilib chiqib, ularni bir-biridan ajratdi. Beixtiyor qichqirib yuborgan Ro'zixonning tovushini eshitib, mulla Boqiy ham ular ustiga yugurib keldi.

Mashrabning qo'lini orqasiga bog'lab o'tinxonaga tashladilar, Ro'zixonni esa sochidan sudrab ichkariga olib kirib ketdilar.

Ofoqxo'ja voqeadan xabardor bo'lsa ham, hech narsa eshitmagan kishidek vazmin va xotirjam edi. Ertalabki nonushtadan keyin u shoshmay salomxonaga

chiqdi. Odatdagidek, tosh kabi qotgan yuzida yasama ulug'vorlikdan boshqa ifoda yo'q, g'azabi ko'ngil xilvat-xonasida pinhon, negadir ko'zlar qontalash edi. Kursiga o'tirib, kashmiriy chophonining etaklarini yig'ishtirib olgandan so'ng qaddini rostlab, gunohkor yigitni boshlab kelishni buyurdi. Ikki murid qo'li orqasiga bog'langan Mashrabni qo'lting'idan ushlab olib keldilar.

– Qo'lini yechib qo'yinglar! – dedi Ofoqxo'ja.

Ikki qo'li bo'shagandan keyin Mashrab gurs etib pirining oyog'iga yiqildi va yalinib, afv etishni so'radi.

– Lutf-karamning ham chegarasi bor. Jinoyatni jazosiz qoldirish oqil kishining ishi emas, – dedi Ofoqxo'ja. – So'ngra o'ng tomonida turgan yordamchisi Soqiydan so'radi: – Xo'sh sharorat ko'chasiga kiran fosiqning jazosi ne bo'lur?

– O'lim, – dedi mulla Soqiy. – Ani qopga solib, minoradan tashlab yubormoq kerak!

Piri murshid so'l tomoniga burilib, mulla Boqiyga qaradi:

– Xo'sh, siz nima deysiz?

– Men ham shul fikrdamen, fosiqning qoni halol!

Ofoqxo'ja ko'zini yumib, go'yo adolat yuzasidan ish ko'rmoqchi bo'lgan podshodek o'yga toldi. U bog'ida ochilgan noyob gulni o'zidan oldin bir yalangoyoq muridi hidlagani uchun g'azabga kelgan edi. Rashk olovida yongan yuragi: "Mashrabni hoziroq qopga solib, minoradan tashlattirib yubor!" deb tursa ham aqli: "Ko'p oshiqma! – der edi. – Bu yalangoyoq shoir yigitning kambag'al muridlar orasida muxlislari ko'p. Qatl ettirsang, uni valiy deb yurita boshlaydilar. Sen valiy bir odamni o'dirtirgan bo'lib chiqasan. O'ylab ko'r!"

U chuqr mulohazadan so'ng bir qarorga keldi-da, yonini kavlab, mis va temir qotishmasidan qilingan muhrini qo'lga oldi. Sodiq muridi mulla Qosimni cha-

qirib, unga bir hokandoz cho‘g‘ keltirishni va muhrni olovga toblab qizdirishni buyurdi.

– Shariat halqasin uzib, sharorat yo‘lig‘a kirgan bu osiy banda o‘limga loyiq, – dedi u qovog‘ini uyib. – Ammo biz qasos olmoqni ayb, afv etmoqni hunar deb bilurmiz. Shul sababdin qonini o‘ziga bag‘ishladik. Ammo jinoyatni jazosiz qoldirish ham shariatga xilof. Shuni xotirda tutib, bu fosiq yigitni erlik quvvatidin mahrum etmakka qaror qildik.

Shuni deb, cho‘g‘da qizib tobiga kelgan muhrni das-tasidan ushlab, oldida bosh egib turgan Mashrabning bo‘ynidagi asab tomirlaridan biriga bosdi. Mashrab ko‘ksiga nayza sanchilgan odamdek ingrab yiqildi.

– Otxonaga olib boringlar bu fosiqni, Niyoz oxun ani axta qilib qo‘ysin! – deb buyruq berdi Ofoqxo‘ja.

Oradan biror soat o‘tgandan keyin behush Mashrabni nimqorong‘i hujraga olib kirib, eski po‘stak ustiga yotqizib qo‘ydilar. U o‘ziga kelgandan keyin ham qimir-lashga holi kelmay, ingrab yotdi. Kechga yaqin mudroq boshlagan edi, ko‘zi hujra eshigi oldida turgan Ajalga tushdi. U Mashrabga o‘qrayib qarab turardi, birozdan keyin Ajal boshini ko‘tarib, avzoyi o‘zgargan holda ti-sarila boshladi. “Tepamda nimani ko‘rdiykin?” Mashrab ko‘zini ko‘tarib yuqoriga qaragan edi, boshi ustida xush-mo‘ylov yoshlikni ko‘rdi. U labi uchgan kosani ko‘tarib turar, kosa chetidan ko‘z yoshidek tiniq suv tomardi. Bir tomchi suv Mashrabning peshonasiga tushgan edi, u cho‘chib uyg‘onib ketdi va ko‘kragiga tuf-tuflab, o‘ziga keldi-da: “Yaxshi tush ko‘rdim. Umr kosasi obihayot bilan to‘la ekan, uzoq yashayman”, deb o‘yladi.

Bir haftadan keyin Mashrab o‘ziga kelib, asta-sekin yura boshladi. Uning a’zoyi badanida quvvat qolma-gan, rangi sovuq urgan yaproqdek sap-sariq. Xonaqo-

da xizmat qilib yurgan yalangoyoq muridlar unga rahm qilib, tasalli berishardi. Butun dunyo ko'ziga qorong'i ko'ringan Mashrabga hech gap yoqmas, shirin so'z ko'nglini behuzur qilar edi. "Umrim xazon bo'ldi, endi uylana olmayman, bola ko'rmayman, – deb o'ylar edi u. – Piri murshidim hurliqodek kanizaklar qurshovida, ro-hat-farog'at ichida. Meni fosiq deb erligimdan mahrum etdi, o'zi bo'lsa – chiroyli cho'ri qiz qo'lidan obdastani olib, mustahab qiladi!..."

Sekin-asta ixlos tuzog'idan qutulib, boshda jannat-dek ko'ringan bu yer aslida fisq-fasod makoni bo'lgan botqoqlik ekanini anglatdi. "Tezroq bu makondan qo-chib qutulish kerak, – degan qarorga keldi u. – Ofo-qxo'jam sohibi karomat deb yursam, sohibi ozor ekan".

Kech kuz payti... Janub tomonga uchib, tepasidan dod solib o'tayotgan turnalarning qurey-qureylashi osmonni to'ldirgan... Shoir ular bilan birga issiq to-monlarga jo'nab ketishni istab qoldi. Cho'l shamollari g'uvillab safar kamarini bog'lashga da'vat etar edi.

Yigitning ahvolini tushungan tadbirkor piri murshid uning iltimosini darhol qabul qildi. Mulla Qosim: "Yo'l xarji uchun anga bir siqim yarmoq beringlar!" dedi. Xazinasini to'ldirish payida yurgan bu odamning pulini Mashrab qabul qilmasligini bilmas edi. Yo'lga otlangan Boborahim mis chaqalar qo'lini kuydirgandek, ularni darhol muridlarning oyoqlari ostiga sochib yubordi-da, ikkita arpa nonni beliga tugib, piyoda yo'lga tushdi.

* * *

Oradan bir necha oy o'tgandan keyin mulla Boqiy Yorkand, Xo'tan tomonlardagi odamlaridan Mashrab to'g'risida g'alati gaplar eshitdi va ulardan pirini ogoh qilishni lozim topdi. Bir kuni mulla Boqiy Ofoqxo'ja bilan yolg'iz qolganda:

– Pirim, Yorkand va Xo'tan taraflardin g'aroyib xabarlar kelmoqda, – dedi. – Boborahim Mashrab ul yerlarda axloq va odob chegarasidan chiqib, bizni is-nodga qoldiraturg'on g'azallar to'qib yurgan emish.

– Chunonchi?

– Yorkand hokimi ani hurmat qilib, o'rdasig'a chorlabdur, o'zining kimxob to'shagiga o'tirg'izib e'zozlabdur. Boborahim esa to'shakka o'tirib "Sayidsen, hojasen, zinhor mag'ruri nasab bo'lma" misrasi bilan boshlanaturgan behayo g'azalin o'qibdur. Xo'tanda esa shahar qozisig'a: "Boshingizdag'i sallani menga bering, umri bekorga o'tmoqda, ani yirtib yarmidin ishton, yarmidin ko'yak qilib olayin", debdur. Mashrab sallasi katta, zohidlarni, xo'jalarni ko'rsa avom oldida alarni shunday behurmat qilar emish. Sizning muridingiz bo'lg'oni sababidin hech kim anga ozor bermakni istamas emish. Itoat ipini uzgan bul yalangoyoqni tizginalab olmoq vaqt yetdi.

– Rost aytasiz, mulla Boqiy, – dedi Ofoqxo'ja mosh-guruch soqolini silab. – Bul savob ishni sizga topshirurmen. Ehtiyyotkorlik bilan ani Ili bo'yiga, qalmoqlar eliga jo'natmoq kerak. Toronchilar: "Yuring, Ili bo'yig'a borayluq", desalar bas. Darbadar hayotg'a o'rgangan yigit yo'q demagay.

– Sizning amringiz vojibdur, pirim, – deb qulluq qildi mulla Boqiy.

* * *

Erta bahor... Yomg'irdan keyin o'tlar, chechaklar bilan qoplangan yon bag'irlar oftobda rang-barang tusda tovlanar, soylar to'lib, raqqosalardek buralib oqar edilar. Yengil shamol esganda daryo sathida qizlar-ning sochiga o'xshash mavjlar paydo bo'lar, to'qaylar-

da qushlar qish uyqusidan turgan tabiatga madhiya o'qir, arilar yangi ochilgan dala gullariga qo'nib, yonma-yon turgan yorlarni bir-biriga qovushtirar edilar.

Nayzabardor qalmoqlar Ofoqxo'janing amri bilan Qashg'ar tomondan ko'chib kelgan yersiz dehqonlarni moldek haydab "yayloq" larga olib ketmoqdalar. Ular qalmoq xoniga toron, ya'ni bug'doy-arpa ekib berish uchun jo'natilganlar. Yuz-ko'zlarini chang bosgan bu sho'rliklar eski-tuski ko'rpa-to'shaklari ni, qaqr-ququrlarini ikki g'ildirakli aravalarga ortgan, ba'zilari bor-yo'qlarini eshaklarga yuklab, xotin, bola-chaqalarini ergashtirib ketmoqdalar. Ular orasida bo'z xaltasini orqalab, setorini quchoqlab olgan Mashrab ham bor. Odamlar dam olish uchun o'tirib, gulxan yoqqanlarida u setorini sozlab, o'z g'azallarini o'qiy boshlaydi, ko'ngli cho'kkan, horg'in odamlarni ovutib, duolarini oladi. Qorinlarni to'yg'izib olgach, soqchilar toronchilarni o'rirlardan turg'izib, olg'a haydaydilar. Nihoyat, bu olomon Ili daryosi bo'yiga yetib kelgandan keyin soqchilar boshlig'i xonning amriga muvofiq ularni "yayloq" larga jo'natadi.

Qalmoq xoni Xuntayshining qarorgohi baland bir tepalik yon bag'rida joylashgan bo'lib, uning oq o'tovi no'yonlarning rang-barang o'tovlari bilan qurshalgan, nayzabardor navkarlar ularni qo'riqlab turar edilar.

Kepchikdek yuzi qip-qizil, sochlariqa oq orala-gan qiyiq ko'zli xon o'tovning to'riga solingan to'shak ustida o'tirib, toronchilarni haydab kelgan soqchilar boshlig'ining ma'lumotini tingladi-da:

– Yaxshi, – deb chuqur nafas oldi. – Toronchilar-ning bir-ikki oylik oziq-ovqati bormi?

– Ba'zilari qo'y-echkilarini ham haydab kelganlar, talqonlari ko'p, ba'zilarida hech vaqo yo'q.

– Hechqisi yo‘q, ochlaridan o‘lmaslar. Tog‘larda ajriq o‘ti ko‘p, ildizlarini tuyib yeb, menga toron ekib bersalar – bo‘lgani, u yog‘i bilan ishim yo‘q.

– Ochlaridan o‘lmaydilar. Daryo va soylarda baliq ko‘p.

Xuntayshi jirkanib, yoniga tuflab qo‘ydi.

– Toronchilar orasida Mashrab otlig‘ namangonlik bir yigit ham bor. Setor chalib, jir-jirlab odamlarni yo‘l-yo‘lakay ovutib keldi. Men uni ajratib olib qoldim, toronchilarni ishdan qo‘yadi, deb qo‘rqaman. Bundan tashqari, agar ocharchilik boshlansa, fitna qo‘zg‘atishi mumkin. Qora xalqning unga ixlosi zo‘r.

– Uni olib qolib yaxshi qilibsan. O‘scha Mashrab degan yigitni Ko‘ksher yayloqiga tuya boqqani jo‘nat. U yerdagi tuyaboqar chol, menga bir yordamchi yuboring, degan edi.

– Bosh ustiga, shu bugunoq soqchi bilan jo‘nataman.

* * *

Ko‘ksher yaylovida sochlari oqarib, tishlari tushib ketgan bir qirg‘iz chol Mashrabni o‘z o‘g‘lidek kutib oldi, ustiga yirtiq qora namat yopilgan o‘tovida mehmon qildi. Bo‘g‘irsoq va tuya suti bilan siyladi. To‘yib ovqat yeb, kayfi joyiga tushgan Mashrab qornini silab cholning ajin bosgan yuziga qaradi:

– Bobo, men nima ish qilamen?

Chol qiyiq ko‘zlari bilan kinoyaomuz kulimsiradi.

– Bu jerda jumush ko‘p. Kunduzi tuya bog‘asin, tunda qo‘riqtaysin. Bo‘talarga jabiq jabarasan tunda, bo‘lmasa tishi-tishine tiybay qalat.

Boborahim chol bergen andozaga qarab namatdan yopiq bichib, kechalari bilan uni choklar, kunduzi dala da tuya boqardi.

Bo‘yni uzun, oyoqlari, o‘rkachlari beo‘xshov tuyalar beozor, suti odamga foydali. Jonivorlar bora-bo-ra Mashrabning so‘zlarini, erkalashlari, koyishlarini ham tushunadigan bo‘lib qolishdi... Ular beozor ko‘zlari bilan tikilib, go‘yo Mashrabning qalbidagi dardlarini anglar edilar.

Faqat bug‘rolar, ya‘ni erkak tuyalargina bahorning boshida xavfli bo‘ladi. Og‘izlaridan ko‘pik oqizib, qonli ko‘zlari bilan o‘qrayib qaraydi. Odamni oyoqlari ostiga olib, yanchib tashlashga tayyor turgan bug‘rolardan yosh tuyabon o‘zini ehtiyyot qilardi. Boshqa mavsumlarda ular beozor bo‘lib qolishlarini u bilardi.

Tuyalar faqat kunduz kunlari o‘tlar, kechalari esa cho‘k tushib, kavsh qaytarib yotardilar. Shoir shu yagona sirdoshlarini kechasi allavaqtgacha qo‘riqlar, keyin itini qorovul qilib qo‘yib, ozroq mizg‘ib olardi.

Mashrab yangi kelgan yili tug‘ilgan bo‘taloqlar ulg‘ayib, ona bo‘lishga hozirlilik ko‘ra boshladilar.

Ba‘zan shoirning yuragi siqilib ketar, o‘tkir ko‘zlari ufqda bir odamni ko‘rib qolgudek bo‘lsa, yugurib borib uni gapga solar, dunyoda nima bo‘layotgani ni bilishga intilardi. Boshqa vaqtarda uning yagona ovunchog‘i setor, suhbatdoshlari ko‘hna kitoblar edi.

Nihoyat, u kulfatga ko‘nib yuraversa, mashaqqat yuki borgan sari og‘irlashib ketaverishini angladi. Qachongacha odamlardan uzoqda xuddi tuyaga o‘xshab biyday cho‘lda yuraveradi?

Bir kuni tuyalardan xabar olgani kelgan tevachi orqali xonga arznama yuborib, o‘zini bu g‘urbatdan ozod qilishlarini iltimos qildi. Xuntayshi uch yil ishlab bir pul talab qilmasdan, oziq-ovqat so‘ramasdan xizmat qilgan Mashrabning arzini inobatga olib, uning o‘rniga boshqa odamni yubordi.

* * *

Daryoda cho'milib, sochini yog'och taroq bilan tarab olgan Mashrab, ko'k sholchadan tikilgan ajoyib to'nini kiyib, xonning qarorgohiga jo'nadi. U o'zini qafasdan ozod bo'lgan qushdek yengil his qilar edi.

Qarorgohga yaqinlashganida ro'parasidan bir to'da otliq qizlar kelayotganini ko'rib to'xtadi. Cho'lda yurib, tuya suti ichib, o'tkirlashgan ko'zlari bilan dugonalari o'rtasida kelayotgan qizil ko'yakli, lablari yoqut, ikki yuzi anordek bir qizni ko'rib, hayratda qoldi: olmos, inju taqinchoqlari yarqirab turgan bu go'zal yulduzlar qurshovida osmondan yerga tushgan to'lin oyga o'xshardi. Mashrab rang-barang kiyangan, bo'yinlaridagi zeb-ziynatlari nur sochib turgan bu qizlarning yo'lini to'sdi, setorini qo'lga olib, o'rtadagi oq arg'umоq ustidagi qizil ko'yakli xon qiziga qarab, naydek muloyim ovoz bilan kuylay boshladi:

*Kokiling anbar durur, jon ichinda jonon qiz,
Ko'zlarining axtar durur, yuzi mohi tobon qiz!
Lablaring erur la'ldek, yuzlaring qizil guldek,
Barcha sengakim quldek, xizmatingga qurban qiz!*

Qiz qomati mohir san'atkor qo'lidan chiqqan haykaldek kelishgan, qora qosh yigitning yoqimli ovoziga qulqoq solib, kulib qo'ydi. Onasi qirg'iz bo'lgani uchun u o'zbek, qirg'iz tillarini bilar edi. U g'azalning ko'p so'zlariga tushunmasa ham, bu she'r o'z sha'niga aytilgan madhiya ekanini angladi:

- Hoy, jigit, jo'ling bo'lsun, qay jerdensin? Ating neme?
- Otim Boborahim Mashrab. Ko'ksher yaylovidan kelayotirmen. Uch yil otangning tuyalarini boqib haq

olmagan edim, sening kulib boqishing, bir og'iz shi-rin so'zing uch yillik xizmatimning haqqi bo'ldi.

Xonning qizi uning gapidan zavqlanib kului.

– O'zingdi ko'rbusem-da, men elden uqtim, seni ko'ruvga kumar edim. O'z oyog'ingmen kelip, mana ar-nap ir aytqanining mening uchun ulken belek bo'ldi. Biza ga qo'noq bo'lg'in, seni siylab, izzatlab, qo'y so'ydirayin.

– Mamnuniyat bilan taklifingni qabul etgaymen! – deya Mashrab chetga chiqib, ta'zim qilib turdi.

Qiz jilmayganicha arg'umoqning jilovini siltab, daryo tomon yo'l oldi.

Oradan biror soat o'tmay, Boborahim tog' etagida joylashgan qarorgohga yetib keldi. Baland tepalik usti-ga qurilgan, tevarak-atrofini rang-barang chodirlar, o'tovlar o'rabi olgan, yoniga tug' tikilgan oq o'tov yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Mashrab tepaga yaqinlashishi bilan bir necha kishi yugurib kelib, hol-ahvol so'rashdi. Ular xon qarorgohida qolib, uning xizmatini o'tay bosh-lagan Qashg'arliklar edilar. Mashrab savollarga javob berib, tanish-bilishlarining hol-ahvolini so'rabi-su-rishtirdi, ularning gaplariga qaraganda ko'chib kel-ganlarning ba'zilari qazo qilgan, ko'plari tevarak-atrof-dagi "yayloq"larda bug'doykorlik qilayotgan ekanlar.

– Juring biz bilan, sizni bir o'tovg'a o'rinalashtirib qo'yoyluk, – dedilar ular.

Kechqurun Mashrab gulxan yonida bir parcha qo'y yog'i bilan tars-tars yorilib ketgan oyoqlarini moylab o'tirgan mahalda bir navkar kelib, xon o'z huzuriga chorlayotganini bildirdi.

– Hozir boramen, kutib tur, – dedi Mashrab qo'lida-gi yog'ni olovga yaqinlashtirib. – Chap oyog'imni ham moylaymen-u, libosimni kiyib, xon oldig'a borg'aymen.

Uni ikki gulxan orasidan o'tkazib, eshidiga ikkita nayzabardor qalmoq turgan oq o'tovga boshlab kirdilar.

Mashrab to'rdagi to'rtburchak to'shak ustida chordana qurib o'tirgan xonga emas, yonidagi qiziga ta'zim qildi.

Sochlariqa oq oralasa ham, tovoqdek yuzi qip-qizil Xuntayshi xaxolab kulib yubordi.

– Kimga ta'zim qilishni biladi bu yalangoyoq, – rostda, – yangi ochilgan gul turganda, nima qiladi tikan oldida bosh egib! – dedi u o'z tilida. Keyin yonidagi tilmochga ko'z tashlab qo'yib, Mashrabga yuzlandi: – Mayli, gunohingdan kechdim. O'zing halol yigit ekansen. Bizga qilgan beg'araz xizmating evaziga senga shohona in'omlar berish niyatidamiz. Nima kerak bo'lsa ayt, men hech narsamni ayamaymen.

Tilmoch xonning so'zlarini tarjima qilib, Mashrabga yuzlandi.

– Xonga ayt, menga hech narsa kerak emas, – dedi Mashrab qaddini rostlab. – Tilagim shuki, xon janoblari men bilan birga Qashg'ar tomonidan kelgan bechora toronchilarga rahm-shafqat qilsalar, ularni och qo'ymasalar, musofirlarga jabr-zulm qilmasalar...

– Ular bilan ishing bo'lmasin! Sen – namangonlik, ular qashg'arlik, o'zingga nima kerak? – dedi xon noxush vajohat bilan.

– Boya aytdim-ku, hech narsa kerak emas, deb.

– Odamlar aytganidek, avliyo ekansan. O'zing emas, birovlarni o'ylaysan. Umrimda sendek darveshni ko'rмаган edim. Uch yil xizmat qilib, bir yarmoq so'ramaydi-ya!

– Uch yillik xizmat haqini boyaga mening bir shirin so'zim uchun sotgan, – dedi qiz qalmoqchalab.

Xuntayshi yana xaxolab kulib yubordi.

– Boya aytib eding-a! Yodimdan ko'tarilibdi. Unday bo'lsa oramiz ochiq, – dedi Mashrabga kulib qarab. – Sen mening mehmonimsan, dasturxonimiz sen uchun

ochiq. Xizmatingga tayyormiz, xohlagan yeringga bor, g'azal aytib yuraver.

Mashrab tashqariga chiqqanda qarorgohda xizmat qilib yurgan toronchilar uning atrofini o'rab olib, xonning iltifotiga sazovor bo'lgani uchun uni qutlay boshladilar.

Shoir tevarak-atrofdagi yaylovlari, qishloqlarni aylanib, xushmanzara yerlarni tomosha qildi. Qayerga borsa, toronchilar uni tavof qilib, choponini etagidan o'par, qo'lini yuzlariga surkar edilar. Mashrab esa ularning ixlosini qaytarishga urinar, sadaqa pullarini olomon ustidan sochib yuborar edi. Uning bu qiliqlari ixlos ipini uzish o'rniya yanada mustahkamlar edi.

* * *

– Tim qora sochlaring tunga o'xshasa, yaltirab turgan ko'zlarining yulduzlarga, oppoq yuzing oyga o'xshaydi, – dedi Mashrab xonning qizini erkalab. – Agar uylanishga qodir bo'lsam, sendan yaxshiroq qalliq topolmas edim. Ammo men senga er bo'lolmaymen, sen menga xotin. Axir boray desam – uy-joyim, boshimda otam, q'limda hunarim yo'q. O'zim ovorayi jahon bo'lsam...

Toronchilar va oddiy qalmoqlarning Mashrabga ixlosi zo'r ekanini ko'rib Xuntayshi qizini unga berishga ahd qilgan, shu bilan xalqni o'ziga qattiqroq bog'lab olmoqchi bo'lgan edi. Uning maslahati bilan yangalar Mashrab bilan qizini bir o'tovga qamab qo'ygan edilar.

Qiz Mashrabning gapini eshitib asta kului:

– Uy, ne degen soda jigit ekansen, – dedi Mashrabning boshiga asta turtib qo'yib. – Otamday xong'a kuyov bo'lsang quruq qo'yar edimi seni? Boylig'ining juzden birovini berse jeter edi bizge, umrimizga jeter edi boyliq. Qalmoq ovulda turg'ing kelmese qirg'iz eliga boramiz. Uzoq bir yaylovda qora uy tigib, o'tirarmiz shu yerda.

Mashrab mahzunlik bilan boshini egib, yerga tikilib qoldi. Gapning po'stkallasini aytib, uning shaxtini qaytarmoqchi bo'ldi-yu, lekin bunga izzat-nafsi yo'l qo'ymadidi. Yonidagi jononaga: "Meni Ofoqxo'ja erlik quvvatidan mahrum, uylanish baxtidan bebahra qilib qo'ygan", deb ayta olarmidi!..

– Men insoniy muhabbat uchun emas, ishqqi haqiqiy uchun tug'ilganmen, peshonamg'a yozilg'oni shu! – dedi u hasrat to'la ko'zlarini huriliqoga tikib. Lekin qiz uning gapini tushunmaganini ko'rib, o'zining bir yerda turolmasligi, darbadar hayot kechirishga o'rganganini, shuning uchun uylana olmasligini tushuntirdi.

* * *

– Ha, nima bo'ldi? Nega yig'lab chiqayapsan. Xafa qildimi? – so'rashdi qalmoq xotinlar, ko'zlarida yosh bilan eshikdan otilib chiqqan qizdan.

– Xafa qildi. Menga uylanmasmish, o'z yurtiga ketmoqchimish!

– O'sha yalangoyoqqa oshiq bo'lib yuribsan-a!.. – dedi yangalardan biri zaharxanda qilib.

Xuntayshi bo'lgan voqeani eshitib g'azablandi: "Mendek xonga kuyov bo'lishni istamasa, darhol yurtdan chiqib ketsin!" dedi g'azabga kelib.

Mashrab bu yerdan tezroq jo'nab ketish zarurligini anglab, yo'l taraddudiga tushdi. Ertasiga erta bilan uni kuzatish uchun birtalay xalq to'plandi:

– Bizni tashlab nega ketib borasen? – dedi bir chol.
– Nazarimizda sen o'xshar eding bir podshoga... Billa jurginimizda g'eriblik bilinmas adi bizga.

Mashrab tars-tars yorilib ketgan oyoqlariga qarab:
– Rost, men podsho edim, falak gulistonimni xazon qilib, toleyim yulduzini beziyo, baxtimni qaro,

o'zimni gado qildi. Xayr, birodarlar, cho'llarda ozodlik shamoli g'uvillab meni o'z bag'riga chorlamoqda.

– Xayr, sheri mard, seni biz tutib turolmaduk. Sen olloning erka bandasisen, bir yerda muqim turolmay-sen. Osmon gumbazi sening boshpanang. Xayr! – dedi soqoli ko'ksiga tushgan bir chol.

Toronchilar yig'lab xayrlasha boshladilar. Mashrab eshagiga minmoqchi bo'lib turganida o'rtal yoshli bir xotin qo'lidagi qaychi bilan uning bo'yniga tushgan sochidan bir tutam qirqib oldi.

– Chechingizni tumor qilib osib yuraman balo-qazodan saqlar meni, – dedi. Yonida turgan xotinlar unga tashlanib, soch tolalarini tortib ola boshladilar.

Mashrab eshagiga minib yo'lga tushdi. Birozdan so'ng yoz kechalari uzoqdan eshitilgan nay sadosi kabi mayin va ma'yus qo'shig'i havoda yangradi:

*Meningdek intizor-u yo'lda hayron bo'lmasun hech kim,
Ko'karganda qurib, yer bir-la yakson bo'lmasun hech kim.*

4. “Ket, desang, Qashg‘ar ketay”

Mashrab toronchilar bilan xayrlashib Xuntayshining qarorgohidan uzoqlashgandan so'ng qulog'ini dikkaytirib yo'rg'alab ketayotgan eshagini boshini Qashg‘ar tomon burdi. Uning maqsadi yori jononi bilan uchrashgan joylarni tavof qilib, ilojini topsa, uning guldek yuzini bir ko'rib, so'ngra Namangan shahri sari yo'l olish edi.

Havo ochiq, asta qanot qoqib uchib o'tayotgan shabboda tol, jiyda navdalarini silkitib, barglarni o'yinga tushirar, Mashrabning bo'yniga tushgan qalin qora sochlarni hilpiratar edi. U ikki yuzi anordek,

qoraqosh yori bilan o'tkazgan shirin damlarni, uning uyg'ur tilida aytgan gaplarini eslab ma'yus jilmayib qo'yar, ot-aravalar yuraverib tep-tekis qilib yuborgan yo'l ustida yo'rg'alab ketayotgan eshagini yanada tez-roq yurishga undar edi.

Uch-to'rt soat yo'l bosib charchagandan keyin dam olish uchun tevarak-atrofdan qulayroq joy izlay boshladi. Tog' yon bag'rida o'tlab yurgan o'ttiz-qirq qo'y-ech-kilar, nariroqda tayoq ushlab turgan qozoq bolaga ko'zi tushib, eshagini o'sha yoqqa burdi. Cho'pon bolaning oldiga borib, yerga sakrab tushdi-da, shoshganidan salom berishni ham unutib qo'yan bola bilan hol-ahvol so'rashishib, qayerdanligi, bu qo'ylar kimnikiligini so'rab-surishtirdi. Shu payt nariroqda tumshug'ini oyoqlari ustiga qo'yib mo'ltirab yotgan qora it Mashrabning oldiga kelib dumini likillata boshladi.

– Zap iting bor ekan-da! – dedi Mashrab unga zavq bilan qarab. – Lekin bu bo'ribosar emas, ko'ppak ekan. Uni menga bersang-chi! Hamrohim yo'q, yo'lda yolg'izlik yomon.

– Meyli, olsang alag'o'y, bo'ribosar itterimiz bar, – dedi boyadan beri churq etmay turgan bola, tilga kirib. Iti notanish yo'lovchi qoshidan nari ketmagani ni ko'rib, u hayron qolgan edi.

Boborahim hamroh topganidan terisiga sig'may ketib qo'liga setorini oldi-da, qaynoq ilhom bilan chertgan ko'yi itga qarab, xush ovozda kuylay boshladi:

*Ey rafiqi bezabon, har yerda bo'lsak – biz ikov,
Xoh sahro uzra bo'lsak, xoh shaharda – biz ikov,
Mashrabo, yuz shukur qilg'ilki topding bir rafiq,
Qayda bo'lsak, qayda yoursak, yori sodiq biz ikov.*

It atrofida sakrab yurib, unga yopishar, o'yinga tushar, qozoq bola esa buni ko'rib qiqirlab kular edi. Mashrab boshda: "U setor chalib xonish qilayotganim uchun o'ynayapti", deb o'yladi-yu, keyin bu fikridan qaytdi. It hadeb so'l tomondan kelib osilaverar edi. "Chap tomondagi cho'ntagimda bir balo bormi?" deb uni timirskilagan edi, dastro'molga o'rog'liq bir narsani topdi. Ochib qarasa, pishirilgan jigar ekan. Toronchilar bilan xayrlashib, yo'lga chiqayotganida allakim cho'ntagiga solib qo'ygani esiga tushdi. Xursand bo'lib jigarni oldi-da, ikkiga bo'lib, yarmini itga tashlab, qolganini yana cho'ntagiga solib qo'ydi. It apil-tapil yeb bo'lib, Mashrabning qo'llarini yaladi. Mashrab cho'ntagiga urib qo'yib:

– Men bilan ketsang, yarmini kechqurun yeysan, – dedi. Keyin belbog'idan arpa nonni olib, yerga o'tir-di-da, qozoq bola uzatgan bir piyola ayronni ichib, tamaddi qildi. Qornini to'yg'azib, biroz hordiq chiqarganidan so'ng eshagiga minib, cho'pon bola bilan xayrlashdi-yu yana yo'lga tushdi. It esa "ketdim" deganday egasiga qarab qo'ydi, biroz ikkilanib turib, yangi egasi orqasidan ergashdi. Saldan keyin Mashrab Qashg'ar tomon ketayotgan otliq savdogarlarga qo'shildi.

* * *

– Assalomu alaykum, – dedi beliga qilich osgan darvoza qorovuli Mashrabni tanib. – Xush kelibsiz, qadamlari qutlug' bo'lsin. Sizni ko'rib xursand bo'ldim, buni qarang-a, eson-omon yurgan ekansiz.

– Ha, yuribman, – dedi Mashrab sochlari oqara boshlagan qorovulning ajin bosgan yuziga qarab. – Bola-chaqalar eson-omonmu?

– Xudoga shukur, katta bo'lib qolishdi.
– Mulla Qosim-chi?

- Ha, mulla Qosim ham, aning xojalari ham sog'-salomat. Qani, darvozaxonaga kiring. Eshaginzni anavi tolga bog'lang, yordamchi uni otxonaga kiritib qo'yadur, itingiz bilan ichkari kirmang.

Ular darvozaxonada u yoq bu yoqdan gaplashib o'tirganlaridan keyin, Mashrab:

- Uka, sizdan bir narsani so'ramoqchi edim, - deb gapni nimadan boshlashni bilmay, ikkilanib turgan edi, darvoza qorovuli:

- Bilaman ne demoqchi ekaningizni, - dedi biroz uyalinqirab. - Gapdi po'skallasini aytib qo'ya qolay. Siz bul yerdin ketgach, Ro'zixonni yoshi oltmishdan oshgan badavlat bir cholga nikohlab berdilar.

Mashrab bu gapni eshitib, o'zini qayerga qo'yarini bilmay:

- Uka, bir chilim sol! - dedi. Qorovul ham indamay o'rnidan turib devorga suyalgan chilimning sarxonasini qoqdi-da, uni yangiladi, chaqmoqtoshni chaqib, tamakini tutatib, Mashrabga uzatdi...

Qo'ra o'rtasidagi usti yopiq o'ra yonida tahorat qilayotgan mulla Qosim ichkariga dadil qadam tashlab kirgan Mashrabni ko'rgach, boshini ko'tarib, anqaygancha qotib qoldi.

- Iye, senmusan, hali ham tirikmisan, uka? - dedi u salomga ham alik olishni unutib.

- Ko'rib turibsiz, soppa-sog'man. Xojani tavof qilg'oli, sizni ko'rgali keldim, u yog'ini keyin aytib beraman.

Oradan ikki soat o'tgandan keyin, Ofoqxo'ja salomxonada o'z yaqinlari bilan suhbatlashib o'tirgani-da to'satdan:

- Boya, Boborahim kelibdur, degan gap qulog'imga chalingan edi, qayda qoldi u, nega salomga kelmadi?
- deb qoldi.

– Ul hali ham jomedha, sizga iqtido qilg'onicha qo'l qovushtirib tik turadur, – dedi mulla Qosim o'tirgan joyida miyig'ida kulib. – Bir hunar ko'rsatmasa edi, deb anga razm solib turdim, pichirlab forsiy tilida g'azal o'qidi.

– Vo ajabo! – deb yubordi Ofoqxo'ja yoqasini ushlab. – Borib xabar oling-chi, neni o'qiyotgan ekan?

Mulla Qosim o'rnidan turdi-da, orqasi bilan yurib chiqib ketdi. Oradan o'n-o'n besh daqiqa o'tgach, ta'zim qilib kirib, hoji do'ppisiga simobiy salla o'ragan piriga boshini qiyshaytirib qaradi:

– Hamon qo'l qovushtirib, tik turib baland ovoz bilan Xoja Hofizning g'azallarini o'qiydur.

Ofoqxo'ja, "Ana, ko'rdingizmi?" degandek tevarak-atrofdagi muridlarga qarab qo'ydi-da:

– Andin Mansur Hallojning isi keladur, – dedi. – Keling, ilkingizni fotihaga oching, shul yalangoyoq devona muridim haqqig'a bir duo qilayiq.

Muridlar qo'llarini ko'tarib, piri murshidning og'ziga qarab qoldilar.

– Iloyo, Mashrabning umri uzoq bo'lsin, tog'-u toshlar, cho'l-u biyobonlarda sayr etib, azza va jalla qudratini tamoshho qilsin, imoni mustahkam bo'lsin, oxiri Mansur Hallojning maqomig'a yetsun!

Bu duo emas, qarg'ish ekanini bilmagan muridlar:

– Omin! – deb yuzlarini siypalashdi.

Ular orasida ikki-uch kishigina Mansur "analhaq" (men xudo) degani uchun xalifa uni dorga ostirganini bilar edilar. Birozdan keyin cho'l shamolidan yuzi sal qoraygan Mashrab boshyalang holda salomxonaga kirib sohibi ozorg'a² salom berdi.

– Vaalaykum assalom, xush kelibsiz, safo kelibsiz. E, kelganingizdan bisyor xursandmiz! – dedi Ofoq-

² Mashrab bir g'azalida Ofoqxo'jani «sohibi ozor» deb atagan.

xo'ja, Boborahimning to'satdan kelib qolganidan ta'bi xira bo'lganini sezdirmaslikka urinib. – Qani, o'tiring, so'ylab bering – qay yerlarda bo'ldingiz, kimlar bilan uchrashdingiz?

Hamma voqeadan xabardor esa-da, bilib turib shu savolni bergan sohibi ozorga u qisqacha qilib, Xuntayshi bilan uchrashgani, uch yil uning tuyasini boq-qani va hokazolarni gapirib berdi.

– Achchiq-chuchukni tatib, ko'p kulfatlarni boshdin kechiribsiz, emdi oromgohingizni topdingiz. Dargohimizda dam olib o'zingizga keling, mullo Qosim sizga bir yaxshi hujrani ajratib, yemak-ichmaginegizdin xabar olib turgay! Salomat bo'ling!

Mashrab o'rnidan turib, ta'zim qilib chiqib ketdi.

Hovlida eski do'stlari: yalangoyoq o'tinkashlar, qorovullar, meshkobchilar, oshpaz, xizmatkorlar atrofiga to'plandilar. Ular bilan hol-ahvol so'rashib turganda yoshlikdagi do'sti, namanganlik Shodavlatni ko'rib Boborahim hayron qoldi.

– Iye, bul yerda na qilib yuribsan? Qay vaqt kelding? – deb so'radi u ko'zlarini katta ochib.

– Siz Namangondin ketgandin so'ng bir yil o'tgach, kelib edim, Ili bo'yiga ketgan ekansiz. Bul yerda sizning yo'qligingizni bildirmay o'tinkashlik qildim. Qaytganingiz yaxshi bo'ldi, ko'nglim to'ldi, – dedi pakanagina, yuz-ko'zini ajin bosgan Shodavlat kulimsirab.

– Bolalik davrimiz yodingdami? Yag'och ot minib, alarni Namangan soyidin sug'orib qaytar edik.

– Ha, yodimda. Siz ko'pincha: "Hoy Shodavlat, otlar och qolmasin, oxurlariga beda sol, xaltada yember", deb buyurar edingiz.

– Ha, umrimizning bahori o'tib ketdi, emdi dod desak ham qaytib kelmas.

Boborahim eski do'stlari bilan yana biroz gaplashib turdi-da, keyin:

– Yo'lda charchaganman, buning ustiga masjidda tik turib oyog'im toldi, menga ruxsat eting, borib orom olay, – dedi.

U hujraga kirib, po'stakka cho'zildi-da, anchaga-cha xayol surib yotdi, keyin ko'zi uyquga ketganini o'zi ham bilmay qoldi. Qorong'i tushib, hamma xuf-ton namozini o'qigani kirib ketganda o'rnidan turdi, bir vaqtlar sevgilisi bilan uchrashgan joylarni aylanib, uning shirin gaplarini eslab yurdi.

Boborahimning yana qaytib kelishi, hech narsa bo'lmagandek beparvo yurishi, kechqurunlari setor chalib, qo'shiq aytib, xizmatkor muridlarni ishdan qo'yishi Ofoqxo'janing g'ashiga tega boshladи. U bir vaj topib, Mashrabni uzoq bir yerga jo'natish ustida bosh qotirdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, o'zidan ozor ko'rgan bu odamdan qutulish uchun bahona ham topa qoldi.

Bir kuni Toshkentdan kelgan chopar uning huzuri-ga kirib, u yerda yuz berayotgan hodisalardan Ofoqxo'jani xabardor qildi, so'zining oxirida, mashhur eshon Xojayi Nurning qattiq betob bo'lib, o'lim to'shagida yotganini gapirib berdi. Hamkasbi, ixlos-mandi bo'lgan bu eshon to'g'risidagi mudhish xabar-ni eshitgach, qayg'urish o'rniliga xursand bo'lib iljayib qo'ydi, birdan ko'zlari chaqnab, yuzi yorishib ketdi.

Ertasiga u o'zining eng yaqin muridlarini, jum-ladan Boborahim Mashrabni ham huzuriga chorlab, shunday dedi:

– Sahar chog'i menga ayon bo'ldiki, toshkandlik mashhur eshon Xojayi Nur o'lim to'shagida yotg'on, shaytoni la'in aning imonig'a qasd qilayotg'on emish. Xojayi Nur yetti marotiba haj qilib, obro' orttirg'on zoti bobarakotdur. Orangizda bir sheri mard yo'qmi-

ki, Toshkand borib ul kishining imonini shaytoni la'in changalidin xalos etsa, alar imoni – nuri munavar bilan dorilbaqog'a safar etsalar...

Ixlosmand muridlar miq etmay, yerga qarab qo'l qovushtirib o'tirar edilar. Piri murshid ovozini pasaytirib, savolini yana takrorladi.

Bu gal ham hech kimdan sado chiqmadi. U savolni uchinchi marotaba takrorlaganda Mashrab o'rnidan turib qo'l qovushtirdi.

– Ey qutbi olam, ruxsat bersangiz, men Toshkand safarin ixtiyor etib, o'shal yerda shayton bilan jang-u jadal qilsam, – dedi. – Boyadan beri mendin martabasi va yoshi ulug'roq kimsalardin un chiqar, deb kutib o'tirgan edim. Avval o'ng tomong'a boqdim, soqollari oqarg'on mo'ysafidlar sukul saqlab turdilar, keyin so'l tomong'a boqdim: qora soqol xudojo'ylardin un chiqmadi. Eng oxir bu xatarli ishni bajarmoqqa sizdin ruxsat so'rarga jur'at etdim.

– Borakallo, sizdin shu gapni kutgan edim, – dedi sohibi ozor kulimsirab. – Siz dunyoning rohat-farog'atini tark etib, fano yo'lin chog'log'on mardi xudosiz. Biz fotiha berayik, siz ikki etagingizni belbog'ingizga bar urib, yo'lg'a ravona bo'ling.

U so'zini tamomlab, duoga qo'l ko'tardi. Fotihadan so'ng hamma o'rnidan turdi.

Boborahim Mashrab jo'nab ketish uchun eshagini to'qimlab turganda Shodavlat uning oldiga kelib:

– Men ham Toshkand boraman, qutbi olam siz bilan birga ketishga ruxsat berdilar, xizmatingizni qilib boramen, – dedi.

– Menga xizmatkor kerak emas, – dedi Mashrab ayilni tortib turib. – Sohibi ozorning xizmatlarini qilib yuraver, e Pirimast!³

³ Shodavlatni muridlar shunday nom bilan atardilar.

– Sizga xizmatkor kerak bo'lmasa, hamroh kerakdir, – dedi u ko'zlarini mo'ltiratib. – Og'ir mehnat jonimga tegdi, men ham sizdek dalada ko'kragimni to'ldirib nafas olishni, safar qilishni istaymen.

Mashrab yuz-ko'zini ajin bosgan pakana yigitga qarab, rahmi keldi:

– Mayli, hamroh bo'lib borsang, yo'q demayman. Tezroq bo'l!

– Eshagimga to'qim urilgan, yo'l xarji uchun ozroq pulim, yemak uchun bir xalta talqonim bor.

– Obbo sen-e! Menden burun tayyorgarlikni ko'rib qo'ygan ekansan, ketdik bo'lmasa...

Ular do'stlari bilan xayrashib, yo'lga chiqqanlari-da, Pirimast:

– Toshkandg'a necha kunda yetib boramiz? – deb so'rab qoldsh

– Tez yursak yigirma kunda.

– Iye, kechikmaymizmi? Ul vaqtg'acha Xojayi Nur qazo qilsalar, nima bo'ladur?

– Qazo qilsa – sening Asakang ketadurmi? – deb miyig'ida kului Mashrab.

– Axir, xudo ko'rsatmasin...

– E, o'lgudek sodda, go'l yigitsan-da! – deb uning so'zini bo'ldi Mashrab. – Sohibi ozor meni Qashg'ardin jo'natmoq uchun shul gapni o'ylab topganlar. Bilib qo'yki, shayton odamning ichida, ul hech mahal havodin uchib kelib odamg'a qasd qilmaydur.

– Qutbi olamg'a, shayton bilan jangi jadal qilib, Xojayi Nurning imonlarini saqlab qolaman, deb va'da beribsiz-ku!

– Toshkand borg'onda ko'rasan jangi jadal qili-shimni, – javob qaytardi Mashrab miyig'ida kulib.

5. Shayton bilan jangi jadal

Mashrab o‘zining sodiq do‘sti Pirimast bilan birga eshagini yo‘rg‘alatib borar, iti Qitmır, goh yer iskab orqada qolib ketar, goh oldinga o‘tib olib, qulog‘ini dik-kaytirganicha egasining yetib kelishini kutib turar edi.

Ofoqxo‘janing xizmatini qilib charchagan, aft-basharasi qorayib-bujmayib ketgan past bo‘yli Pirimast endi o‘zini qafasdan qutulgan qushday yengil his qilar, ashula aytgisi kelar, biroq peshonasi tirishgan o‘ychan hamrohini ko‘rib o‘zini tiyar edi.

Ular dovon oshib, cho'l-biyobonlarni bosib o‘tib, eshaklarini charchatmaslik uchun ba’zan piyoda yurib, o’n kun deganda Andijonga yetib kelishdi. U yerda bir kun dam olib, yana yo‘lga chiqishdi. Agar jadal yursalar, Toshkentga ikki haftada yetib borishlari mumkin edi.

Ajoyib tabiat manzaralarini tomosha qilib, tog‘ yon bag‘ridagi g‘orlarda, daraxtlar tagida tunab qolib, yo‘l-yo‘lakay suhbatlashib manzilga qanday yetganlarini payqamay qoldilar.

Toshkent oqshomi. Shahar g‘ovuri pasaygan, bozor qaytgan payt, savdogarlar do‘konlarini yopib, uy-uylariga, chetdan kelganlar o‘z qishloq va ovullariga jo‘namoqdalar.

Yuz-ko‘zini chang bosgan Pirimast hamrohini karvonsaroy darvozasi oldida qoldirib, eshagini yetaklaganicha ichkari kirdi-da, darvozaxonaning bir chekkasidagi so‘ri ustida chordana qurib o‘tirgan saroybonga salom berdi, keyin u yoq bu yoqqa qarab, past ovoz bilan bir nima dedi.

– Ha, bo‘sh hujra bor, kiraversinlar, eshitganmiz ul kishining ta‘rifin. Kecha Qashg‘arlik savdogarlar ne uchun kelayotganlarini aytib bergan edilar, – dedi

mosh-guruch soqolli, g'o'labirdan kelgan cho'tir saroybon o'rnidan turib. U darvoza oldiga chiqib, Mashrabni hurmat bilan kutib oldi.

– Qazo qilg'onlari yo'qmi? – so'radi ikkala eshakni no'xtasidan ushlab olgan Pirimast tashvish bilan.

– Yo'q hali, barhayotlar. Ammo hollari biroz og'irlashgan, – dedi saroybon bir unga, bir Mashrabga qarab. – Bilurmisiz ul kishi qanday ulug' zotdurlar? Din peshvolardin mashhur Xo'ja Nuriddinning nabitralari-ya! Huzurlariga hozir ravona bo'lg'aymisiz?

– Yo'q, ertaga, – dedi Mashrab pinagini buzmay. – Avval qorinni to'yg'azib, dam olib, yuvinib olayik.

– Shayton bilan jangi jadal qilmoq uchun kuch-quvvat to'plab, tayyorgarlik ko'rimoq kerak, – dedi Pirimast eshaklarini yetaklab otxona tomon yurar ekan.

Ertasiga Mashrab kechasi bilan yem-xashakni yeb rosa to'yib olgan eshagiga minib, hamrohi bilan itini ergashtirgancha darvozayi Samarqand tomon yo'l oldi. Egnida oq yaktak, belida bir necha marotaba o'ralgan qizil belbog', oyog'ida choriq, yelkasiga tushgan qora jingalak sochi asta hilpiraydi. Orqasidan tumonat odam ergashib boradi. Ular orasida ish topolmay yurgan mardikorlar, qirq yamoq chakmon kiygan gadoylar, yoshlar ko'p. Egasiga ergashib borayotgan Qitmirlar hech kimni uning yoniga yaqinlashtirmaydi.

Chorsuga yaqinlashganda shoir eshagiga teskari minib oldi.

– Iye, bu ne qilg'oningiz? Odamlar, Mashrab o'taketgan devona ekan, anga inonmang, deb gap tarqatadurlar-ku, – dedi yonida borayotgan Pirimast.

– Shuncha faqir-u fuqaro menga ergashib kelayotir, qanday qilib alarg'a orqa o'girib borayin? – dedi Mashrab ixlosmandlariga kulib qarab. – Davri-davron alarga yuzini teskari o'girgan. Xirsdin to'q mullolar ne de-

salar deyaversinlar, dillari tig'i sitamdan yara bo'lg'on xalq alarga inonmay qo'yg'on. Faqir-u fuqaro turli noz-u ne'matlarni yeb semirib ketgan amaldorlardan emas, haq so'zni aytg'uvchi devonalardin ko'proq karmat kutadurlar. Senga bir gapni aytib qo'yay, devona bo'lmag'uncha bul zamonda haq so'zni aytib bo'lmas.

– Rost, xaloyiqning sizga bo'lgan ixlosi buning da-lilidur, – dedi Pirimast kulimsirab.

Xonaqo darvozasi oldida banoras to'nli, simobiy sallali ulamolar, qozi-muftilar, odmiroq kiyingan mahlala ahli qo'l qovushtirib turar edilar. Hammalarining peshonalarini tirishgan, yuzlarida samimi yoki qalbaki tashvish alomati ko'rindi. Chunki ichkaridagi hujrayi xosida piri murshidlari Xojayı Nur jon taslim qilolmay alahlab yotar, ba'zan uning og'zidan uyat gaplar chiqib ketar edi. Muridlar: "Shayton g'olib kelibdi. Eshonimiz imonsiz ketmasalar edi", deb qo'rqrar edilar.

Mashrab xonaqo oldiga kelib, eshakdan tushgandan keyin muridlar egilib salom berdilar. Hamma uning Ofoqxo'ja amri bilan kelganini bilar edi.

Shoir itini ergashtirganicha ichkariga qadam tashladi. Xonaqoning bir burchidagi "Hujrayi xos"ning to'rida, kimxob to'shak ustida Xojayı Nur alahlab yotar edi. Mashrab ostonadan hatlab o'tib, unga salom berdi. Murid ovlab mol-dunyo orttirgan, qayta-qayta uylanib, dunyoning rohatini ko'rgan odamdan sado chiqmagach: "Holing shu ekan-ku, nima qilarding quruq aravani olib qochib!" deb o'yladi shoir. Unga aytadigan achchiq so'zlari g'azal ipiga marjonday tizila berdi:

*Men salom berdim senga, qilg'on ishoroting qani?
Mardi haqni bilgani emdi karomoting qani?*

*E'timodi qol⁴ etib, qolding aro yo'llarda sen,
Tinmayin shom-u sahar qilg'on tilovoting qani?*

Uning boshi tepasida o'tirgan inisi bilan o'g'li nima hodisa bo'layotganini anglamay, baqraygancha bir-birlariga qarab qolishdi. Shoир esa ularga parvo qilmay, bemor yoniga kelib tiz cho'kdi-da, Hofiz va Navoiyning g'azallarini o'qiy boshladи. Xojayi Nur pichirlab, bir nima deb g'udrandi-yu, keyin entikib nafas ola boshladи. U jon taslim qilgandan keyin Mashrab оrnidan turib:

– Iyagini tang'ib qo'yinglar, dorilbaqog'a jo'nadi! – deb tashqariga chiqib ketdi. Qitmır g'ingshib eshik oldida uni kutib turardi.

Ko'p o'tmay, xonaqoga to'plangan xaloyiq orasida "Xojayi Nur kalima keltirib qazo qilibdi, Devonayi Mashrab shayton bilan jangi jadal qilib, uning imoni-ni saqlab qolibdi", degan ovoza tarqaldi.

Shu vaqtgacha hech kim uddasidan chiqolmagan ishni qilib, mashhur Xo'jayi Nurning obro'sini bir pul qilgan shoир katta ko'chaga chiqqanda ixlosmandlari uni o'rab oldilar.

6. Hokimning sovg'asi

Mashrab bilan Shodavlat Xo'jand shahriga yetib kelganlaridan keyin "Chorshanba" karvonsaroyiga tushib, bir hujra olishdi. Eshaklarini qo'raning bir chetidagi qoziqlarga bog'lab, ko'chaga chiqishdi-da, daryo bo'yidagi katta tut tagida yotib dam olishdi.

Bahor payti, qirg'oq ko'm-ko'k maysalar, rang-barang chechaklar bilan qoplangan, tog' tomondan yelib kelgan xushbo'y bodi sabo yashil barglar bilan qoplana boshlagan tut novdalarini asta silkitar edi.

⁴ Diniy-falsafiy oqim.

Mashrab daryo bo'yidagi tut tagida rohat qilib yotgan mahalida zarbof chopon kiygan basavlat bir arbob uning oldiga kelib, otdan tushdi-da, ta'zim qilib:

– E mardi xudo, xush kelibsiz, safo kelibsiz! – dedi.
– Xo'jand shahriga tashrif buyurganingizdan behad mamnun bo'lган Oqbo'tabiy hazrati oliylari sizni o'z huzurlariga chorlayotirlar.

– Oqbo'ta? Kim o'zi? – deb o'rnidan turib o'tirdi Mashrab.

– Ul janob Xo'jand viloyatining hokimi erurlar.
– Borib ayt, agar hokimga kerak bo'lsam, oldimga o'zi kelsin, men bormaymen, – deb Mashrab yana yotib oldi.

Hokimga nisbatan bunday hurmatsizlikni umrida ko'rmagan mulozim esankirab:

– Xo'p... xo'p... Borib aytamen, – dedi.

Oqbo'tabiy mulozimining gapini eshitib, g'azablanish o'rniqa qiqirlab kulib yubordi.

– Kimki ul kishiga ixlos qilsa, nosazo gap aytur emishlar. Mayli, ne desalar ham xafa bo'lmaymen. Huzurlarig'a o'zim borayin, sovg'a-salom oborib o'r-dag'a chorlayin, darhol otimni egarlanglar...

Oqbo'tabiy hamon tut tagida yotgan Mashrabga yaqinlashib, otdan tushdi-da, ta'zim qilib:

– Assalomu alaykum, e, shoh Mashrab, shahrimizga qadamizing yetgan zamон kelib sizni yo'qlamaganim uchun meni kechiring, – dedi. – Hali ham bo'lsa shul arzimas sovg'amizni qabul aylab, bizga qo'noq bo'ling.

Uning mulozimi taxlog'liq chakmon ustiga ust-ma-ust qo'yilgan to'qqizta nonni Mashrab oldiga qo'ydi, boshqa bir navkar bo'ynidan bog'langan semiz bir qo'yni yetaklab kelib, arqonning uchini unga tutqazdi.

– Shul ishingni avval qilsang yaxshi bo'lur edi. Hay, mayli. Sen huzurimga tashrif buyurib, meni qarzdor qilib qo'yding. Emdi dargohingga borib, senga mehmon bo'lish men uchun ham farz, ham qarz bo'lib qoldi. – Mashrab shuni deb Shodavlatga yuzlandi: – To'qqiz non bilan shul qo'chqorni huv anavi yerda to'planib turgan yalangoyoqlarga eltid ber. Ani bo'g'izlab, etini pishirib, non bilan yesinlar.

Mashrab sovg'aga keltirilgan chakmonni kiydi, navkar jilovidan ushlab turgan arg'umoqning uzangisiga oyoq qo'yib, egar ustiga o'tirdi.

Baland tepa ustiga qurilgan o'rданing oldidagi maydonda juldur kiyimli, rang-ro'ylari sarg'aygan bir talay bandilar chordana qurib o'tirishar, tepalarida qurolli soqchilar qilich yalang'ochlab, ularni qo'riqlab turar edilar. O'tgan-ketganlar mahbuslarga bitta-yarimta non, bir qisim turshak yoki chaqa pul tashlab ketishardi. O'sha vaqtdagi odatga ko'ra, hokimlar mahbuslarni boqmas, ular xalqning xayr-ehsoni bilan kun ko'rар, xususan, juma kunlari sadaqa ko'proq tushar edi. Mashrab otini to'xtatib, ularga qarab qoldi.

Bukchayib qolgan eski paranjili kampir rangi bir holatda, bo'yni qiltiriq bandi yigitning oldida to'xtadi-da, qo'lidagi tugunni yechib, unga ikkita somsa uzatdi. Uning yonidagi boshqa mahbuslar ham qo'llarini uzatdilar. Ayol tugunidagi hamma somsalarini ularga bo'shatib berdi, ro'molini qoqib uh tortdi-da, ortiga qaray-qaray jo'nab qoldi.

– Islom olamida podsholar jabr qilg'uvchi bo'lsalar ham, faqir-fuqaroda rahm-shafqat bor, alar boshig'a kulfat tushgan yor-birodarlarig'a yordam qo'lini cho'zadurlar, – dedi Mashrab yonidagi hokimga yuzlanib. – Kel, sen ham alardin ibrat ol. Kattalikning izzati zulm-taaddiyda emas, shafqat-marhamatdadir.

Bir kishi aybini bo‘yniga olib, kechirim so‘rasa, afv etmak lozimdir. Sen rahm-shafqat qilib, yomon yo‘lg‘a kirgan shul mahbuslarni ozod qilib yubor. Uylariga – ota-on, bola-chaqalari oldig‘a ketsinlar.

Soch-soqoli oqara boshlagan bo‘lsa ham, hali ancha tetik, yo‘g‘on gavdali Boybo‘ta qovog‘ini uyib:

– Bular shariat hukmidin tashqari chiqqan o‘g‘rilar, kazzoblar, qanday qilib alarni bekordan-bekor bo‘shatib yuboray? – dedi. – Jinoyatni jazosiz qoldirmaslik kerak. Yumshoq va ko‘ngilchan bo‘lsang, yomonlar ko‘payib ketgusidir.

– Bil’aks, hukmdorlar insofli, boyonlar saxovatli bo‘lganlarida jurm-jinoyat bul qadar qanot yoymagan bo‘lur edi. Hukmdorlardaadolat yo‘q, boyonlar, amadorlar, qozi-muftilar xirsdin to‘q. Raiyatni band-u balog‘a qo‘yg‘on shohlarning o‘zları. Tag‘in ham o‘g‘ri va yo‘lto‘sarlarning ko‘payib ketmaganiga hayronman. Sen jabr qiluvchi podsholardin ibrat olma. Lutf-karam daryosidin labi tashnalarni bahramand qil, toinki alarning qalblaridagi ezgulik hislari voyaga yetsin. Gunohkorlarni afv etmakdin qanday lazzat olishingni bularni ozod qilib yuborgandin so‘ng bilursan. Agar mening aytganimni qilmasang, dargohingga qadam bosmayman.

Hokim o‘ylab turdi-da, keyin yuzi yorishib, ko‘zları chaqnab ketdi.

– Bugun yaxshi tush ko‘rgan, oppoq soqolli bir kishi boshimni silagan edi. Keling, sizning aytganingiz bo‘lsin, umrimda bir savob ish qilay. – U baland ovoz bilan mahbuslarga murojaat qildi: – Hoy bandilar! Eshitmadim demanglar! Biz bugun sizlarni bo‘shatib yuborishga ahd qildik. Ota-onalaringiz, bola-chaqalaringiz oldig‘a borib, alarni xursand qilinglar.

Ko'rgan-kechirganlaringizni unutib, to'g'ri yo'l topib olishga urininglar!..

Boshda mahbuslar uning gapiga ishonqiramay, ko'zlarini katta ochib turdilar. Yasovullar ularning oyoqlaridan kishanlarini yechib ola boshlaganlaridan keyin shodliklarini yuraklariga sig'dirolmay g'ovur ko'tardilar.

Oqbo'ta qirqtacha bandini qutqarganidan behad xursand bo'lib, Mashrab bilan birga O'rda tomon jo'nadi.

Ziyofatdan so'ng, fotiha o'qilib, dasturxon o'rtadan olingandan keyin, Oqbo'ta chap tomonida o'tirgan Mashrabga yuzlanib, shunday dedi:

– Mening o'n sakkizga kirgan bir o'g'lim bor. Dovyurak, qo'rquv na ekanin bilmaydur. Ba'zan mendin so'ramay do'stlari bilan yo'lbars oviga chiqib ketadur. Jang vaqtida yonidagi navkarlardin uzoqlashib, qilich yalang'ochlaganicha yov ustiga tashlanadur. Men anga shikast yetmasaydi, deb qo'rqaman, shul sababdin kechalari uyqumda halovat yo'q. Sizzin iltimos, qilich zarbidin, o'q zahmidin saqlanmog'i uchun anga bir duo yozib bersangiz, yonida olib yursa.

– Mayli, kotibingizga amr eting, menga qog'oz bilan qalam-dovot keltirsin.

Quyiroqdan joy olgan bitikchi buyruqni kutib o'tirmay sakrab o'rnidan turdi-da, aytilgan narsalarni muhayyo qildi. Chordana qurib o'tirgan Mashrab chap tizzasiga shildiroq qog'ozni qo'yib, o'ng qo'lidagi sovog'ich qalamni dovotga botirdi-da, o'z nomini uch marotaba yozdi. Uning yonida o'tirgan kotib nima yozar ekanlar, deganday bo'ynini qiyshaytirib qarab turardi.

– Men biror oyat yoki hadis yozib bersalar kerak, deb o'ylagandim. "Mashrab, Mashrab, Mashrab" deb bitdilar xolos, – deb yubordi u ajablanganidan o'zini tutolmay.

– Sen neni bilursan, nodon, – dedi Oqbo'ta yozilgan duoni qo'liga olib. – Bor, ishingni qil. O'g'lim ush-

bu duoni yonida olib yurgay. Hukmdorlarg'a maslahat berish sening ishing emas.

– Bul kecha yotib qolsangiz yaxshi bo'lur edi, – dedi u fotihadan keyin o'rnidan turib ketishga hozirlanayotgan Mashrabga yuzlanib. – Qosh qorayib qoldi, na qilursiz qorong'ida tentirab yurib.

– "Chahorshanba" karvonsaroyi men uchun bir qadam yo'l. Ul yerda do'stlarim meni kutib turibdurlar.

"Unga bir narsa in'om qilsam bo'lar edi, – deb bosh qotira boshladi hokim Mashrabni o'rda darvozasi-gacha kuzatib qo'yib. – Yo'l xarji uchun pul bersam, hoynahoy olmas. Oltin-kumushni, ipak, kimxob jomani xushlamaydur. Ha, topdim. Menga uzoq safarga otlanmoqchi bo'lgani to'g'risida gapirgan edi". – U yonidagi navkarining qulog'iga bir nima dedi-da, aziz mehmonni gapga tutib qoldi. Oradan ko'p o'tmay, navkar ustiga yo'lbars terisi yopilgan oq eshakni yetaklab kelib Mashrabga ko'ndalang qildi.

– Yo'q demay, mendin shul arzimas sovg'ani qabul qilg'aysiz, – dedi Oqbo'ta jilmayib. – Yo'l yurib charchamaydurgan hangi. Bultur o'zim otib o'ldirgan yo'lbarsning terisini oshlatib qo'yg'on edim, ul ham sizga nasib qilg'on ekan.

Mashrabning eshagi uzoq yo'l yurib juda holdan toygan, endi oqsay boshlagan edi. U hokimning sovg'asini mammuniyat bilan qabul qilib, unga tashakkur bildirdi va xayr-xo'shlashib, bir sakrab hangiga minib oldi-da, karvonsaroy tomon ravona bo'ldi.

7. Dor tagida

Boborahim Mashrab ustiga yo'lbars terisi tashlangan oq eshagini yo'rg'alatib, Shodavlat bilan birga Balx shahriga kirib keldi. G'ir-g'ir esgan bodi sabo shimol

tomondagi yashil dalalar, nokzor, anjirzor, olmazor bog'larning xushbo'y hidlarini olib kelar edi.

– Juda fayzli shahar ekan, – dedi Shodavlat uzoqlardagi baland tepalar, ularning etaklaridagi bog'laridan ko'z uzmay. – O'zimni go'yo Namangan shahrida yurgandek sezayotirman.

O'ylari bilan band bo'lgan Mashrab xayol surib borar, sergap hamrohining so'zlari qulog'iga kirmasdi.

Shakl-u shamoyili g'aroyib musofirlarni ko'rgan shaharliklar hayron bo'lib, orqalaridan qarab qolar, ba'zilari esa negadir ularga ergashib borar edilar.

Boshiga simobiy salsa o'ragan cho'qqisoqol bir mo'ysafid qo'lini baland ko'tarib:

– Hoy qalandar, bul dunyo rohatin tark etgan mardi haqqa o'xshaydursan, oting nima? – deb so'radi.

Mashrab eshagini to'xtatib, bir-biriga tutashgan qalin qoshlarini chimirgan ko'yi javob qildi:

– Otim Xudo!

– A? Nima?! – dedi gangib qolgan mullo atrofidagi-larga qarab. – Hoy musulmonlar, eshitdinglar-a? Bul betavfiq da'voyi xudolik qilayotir. Ani o'ldirmak kerak, tutinglar!

Mashrab beixtiyor eshakdan sakrab tushib, o'zini himoya qilish uchun shaylanib turdi, novcha bir yigit yelkasiga chang solgan edi, chapdastlik bilan uni chalib yiqitdi. Egasinging yoqasiga yopishgan ikkinchi bir yigitni Qitmır boldiridan g'archcha tishladi. Mashrab paytdan foydalanib, o'rda tomon qochdi. Iti vovillab unga hech kimni yaqinlashtirmas, mutaassib olomon esa shovqin-suron ko'tarib uni ta'qib etar edi.

Haramxonasida dam olib o'tirgan Mahmudxon ya-qinlashib kelayotgan shovqindan bezovtalanib o'rnidan turdi-da, darichadan Ark maydoniga mo'ralab qaradi.

Sochlari yelkasiga tushgan oq yaktakli bir kishini odamlar quvib kelayotganini ko'rib, navkarini chaqirdi:

– Yugur, ko'chaga chiq! Olomonni haydab, qalandarni qutqarib olib kel! – deb buyruq berdi. U chiqib ketgandan keyin yonida hozir bo'lgan shoyi choponli udaychiga yuzlandi: – Hojamqul, meng'a ayt, bul qalandar ne ayb qilishi mumkinki, ani ur-kaltak qilayotirlar?

– Navkaringiz Egamberdi hozir ani boshlab kelgay, shunda bilurmiz, – deb ta'zim qildi udaychi.

– Balx aholisi boshi uzra qilich o'ynatib kelsam dog'i, alarning bo'yinlarig'a itoat halqasin sola bilmadim. Agar bo'sh kelsang, saroyg'a bostirib kirishdan ham toymaydur bu bachchag'arlar.

– Sabr qilsinlar, – dedi hamon ark maydoniga qarab turgan udaychi. – Xaloyiqning ovozi boshqacha.

Har yelkasiga ikkitadin odam sig'adigan, bahaybat Egamberdi shosha-pisha qilichini yalang'ochladi-da, yaqinlashib kelayotgan olomonga:

– To'xtanglar, uy-uylaringizg'a jo'nang'izlar, bo'lmasa chopib tashlaymen! – deb baqirdi. Qizishib ketib o'rda darvozasigacha kelib qolgan odamlar to'xtab qoldilar, keyin sekin-asta tarqala boshladilar. Navkar esa Mashrabni yelkalariga oybolta qo'yib turgan soqchilar orasidan olib o'tib, xon oldiga boshlab kirdi.

– E, darvesh, nima ayb qilib edingki, xaloyiq seni shul yergacha quvib keldi, ayt! – dedi Mahmudxon yo'g'on ovoz bilan.

Mashrab harsillab nafas olgancha:

– Balx ahli... besabr... ekanlar, – dedi. – Berdisini aytmasdan turib... odamni urib o'ldirishdin ham... toymas ekanlar. Hammasini... hozir aytib berurman. Buyur... menga bir piyolada... suv keltirsinlar!

Mahmudxon qovog'ini uyib qars urgan edi, navkari Egamberdi kirib ta'zim qildi:

– Sharobdorg'a ayt, bir kosa gulob keltirsin! – dedi. Sharbat ichib o'ziga kelgandan keyin Mashrab bo'lgan voqeani gapirib berdi.

– Shaharga kirishim bilan, bir mullo “oting nima?” deb so'rab qoldi, men “xudoy” deb berdisini aytishga ulgurmay: “Tutinglar ani, da'voysi xudoliq qildi, o'ldirmak kerak!” deb jar soldi. Taassub bandsi bo'lgan odamlar it bo'lib meni quvladilar, men mushuk bo'lib qochdim.

Mahmudxon beixtiyor kulib yubordi. Keyin ro'molcha bilan qiyiq ko'zlari chetidan oqib tushgan ko'z yoshlarini artib:

– Xalqimiz besabr, bir odamni ko'rsatib: “Ur!” desalar, aybini surishtirmay ur-kaltak qiladurlar. Sen yaxshiyam o'rdaga qarab qochibsan, bo'lmasa, ahvoling chatoq edi. – U ro'parasida turgan shersurat Mashrabga hayrat aralash nazar tashladi-da: “Kim ekan bu qalandar?” deb o'z-o'ziga savol berdi, lekin “oting nima?” deb so'rashni o'ziga ep ko'rmadi. “Harnarsaga qiziqaverish mening martabamdag'i odamga yarashmaydi, kimligini bilib olarmen”, deb o'yADI u.

– Musofir-mujovirlarg'a eshigimiz doim ochiq, dasturxonimiz yozig'liq. Chopaverib qorning ham ochgandir, – deb xon ikki martaba qars urgan edi, bakovul kelib qo'l qovushtirdi. – Dasturxon yozib, ovqat keltir!

Yaqindagina o'zini xon deb e'lon qilgan Mahmud otaliq ko'chmanchi ota-bobolari odatiga rioya qilib, taxt ro'parasiga joy soldirdi. Mehmon betakalluqlik bilan dasturxon yoniga o'tirib non ushatdi-da, keyin bakovul keltirib qo'ygan sho'rvani qoshiq bilan kavlab, ichidagi go'shtni ostonadan o'tolmay turgan Qitmirga tashladi. “E, kimligi endi ma'lum bo'ldi. Devonayi Mashrab noraso so'zlar va qiliqlari bilan odamlarning

ixlosini qaytaradi, deb eshitgan edim. Xuddi o'zi!" deb o'yaldi Mahmudxon kulgisi qistab.

* * *

Shodavlat hamrohini himoya qilishga qodir emasligiga, janjalga aralashsa, olomon majaqlab tashlashiga ko'zi yetgani uchun noiloj turgan yerida qotib qoldi. Qo'l-oyog'i chaqqon hamrohi mutaassib odamlar qo'lidan qochib qutulishiga, Qitmir o'z egasini himoya qilishiga ishonar edi. Shovqin-suron uzoqlashgandan keyin ostidagi xo'tikni niqtab, oq eshakni yetaklaganicha olomon ketidan yo'l oldi. U Ark maydonining bir chekkasidagi chinor tagida to'xtadi-da, voqeanning nima bilan tugashini uzoqdan kutib turdi. Ko'p o'tmay o'rda darvozasiga yaqinlashib qolgan olomon tarqala boshladi; tarvuzi qo'ltig'idan tushib ortiga qaytayotgan odamlardan nima hodisa yuz bergenini so'rashga uning yuragi dov bermadi. Duvurga ergashib kelayotgan bir bolani ko'rib, imlab chaqirdi-da, gapga soldi.

– O'sha sochi o'sib ketgan kishini hech kim tuta olmadi, – deb javob qildi bola ko'zlarini o'ynatib. – Itiyam juda qopag'on ekan, egasiga yaqin kelgan odamni yoqasidan oladi-ya!.. Yo'q, hech kimni tishlagani yo'q... Bir mahal o'rdadan xon chiqib, qilichini o'ynatib bir baqirgan edi, hamma to'xtab qoldi. Xon o'sha sochi o'sgan kishini o'rdaga opkirib ketdi...

– Xudoga shukur, hech kim unga ziyon-zahmat yetkurmabdur, – xursand bo'ldi Shodavlat va hamrohining o'rdadan chiqishini sabr bilan kutib turdi.

Mashrab qornini to'yg'izib, o'rdadan chiqqandan keyin u yoq bu yoqqa qaradi, uning taxminicha, Shodavlat ketidan ergashib kelib, shu yaqin orada kutib turgan bo'lishi kerak edi. "Qayerda ekan?" deb ko'zi

to'rt bo'lib turganida uzoqdan Shodavlat kallapo'shini silkitib, qayerda turganligini ma'lum qildi.

– Hech yeringizga shikast yetkazmadilarmi? – deb so'radi u.

– Egamga shukur, sari mo'yimning bir tuki ham to'kilgani yo'q.

Mashrab boshidan kechirganlarini qisqacha gapirib bergandan keyin biror boshipana topish harakatiga tushdilar. So'rab-surishtirib shu yaqin orada katta bir karvonsaroy borligini bilib olishdi.

* * *

– Mahmudbiy qanday qilib xon bo'lib oldi? – deb so'radi Mashrab, soch-soqoli oqarib ketgan bo'lsa ham yoshlardek tetik, ko'zlar o'tkir saroybondan.

Ular nimqorong'i darvozaxonaning bir chekkasi-dagi so'ri ustida suhbatlashib o'tirar edilar.

– Mahmudbiy qatag'on urug'inining oqsoqoli, Qunduz shahri aning yurti edi, vaqtı-vaqtı bilan Badaxshonni talab, bo'shab qolg'on xazinasin to'ldirar edi. Buxoro amiri marhum Subhonqulixon yordami-la Balxni ham qo'lga kiritdi, – dedi saroybon va chilimni xo'rillatib, og'zidan pag'a-pag'a tutun chiqara boshladi.

– Bir xizmati bordir-da? Bekordan-bekorga Baldek shaharni anga topshirmagandir.

– Ha, Xiva hukmdori Anushxon yurish qilib Karmana va Samarcand shahrini zabit etganda Subhonquli Mahmudbiydan yordam so'ragan, ul fursatdan foydalanib, o'z otliqlari bilan yordamg'a shoshilgan va buxoroliklar bilan birga xivaliklarni parokanda etib, Samarcandni ishg'ol qilg'on. Bul xizmati uchun Subhonqulixon ani Balx, Qunduz, Badaxshonga hokim qilib tayinlagan. Ammo Balx aholisining ko'pchiligi: ming, qo'ng'irot va olchin urug'lari Mahmudbiyni

o'rnidan tushirib, Nodir Muhammadning nabirasi Solihxo'jani hokim qilib ko'tardilar...

– Sizning gapingizga qulq solib turib, boshim aylanib ketdi, – dedi Mashrab chilim tutunini kafti bilan haydab.

– Qunduzga chekingan Mahmudbiy tinch yotarmidi, – gapida davom etdi saroybon chilimni nari surib qo'yib! – Subhonquliga: "Solihxo'jani chaqirtirib ol, o'rniga nabirang Muhammad Muqim sultonni hokim qilib yubor, men anga otaliq qilay" degan mazmunda xat yozib yuboribdur. Subhonquli bul hiylakor odamning nayrangiga uchib, o'ziga sodiq bo'lgan Solihxo'jani Hindistonga jo'natadur, nabirasini Balxga hokim qilib tayinlayduri...

U hikoyasini davom ettirar ekan, Mashrabning ko'z o'ngidan avval rang-barang, keyin dahshatli manzaralar o'ta boshladi.

Mana endi, baland bo'yli, xushsurat yigit – Muhammad Muqim navkarlari qurshovida Balx shahriga yetib keldi. Mahmudbiy uni shahar bo'sag'asida karnay-sur-nay bilan qarshi olib, qulluq qiladi, o'z qo'li bilan unga zarrin libos kiygizib, belidagi oltin kamariga qimatbaho xanjar taqib qo'yadi, yugan va umildirig'i til-lodan ishlangan arabiy otni unga ko'ndalang qiladi. Yo hokimning og'zi qulog'ida, boshi osmonga yetib, aholisi mammunlik bilan uni kutib olgan shaharga doxil bo'ladi. Oradan ikki oy o'tar-o'tmas otaliq yosh hokimning huzuriga borib, uni avray boshlaydi:

– E, zoti ulug' shahzoda, siz hokim emas, mustaqil hukmdor, xon bo'lishga loyiqdursiz. Tokaygacha Buxorog'a qaram bo'lib, Badaxshon la'l konlaridin tushgan diram va dinorlarni, soliq pullarini ul yerga yuborib turursiz. Agar shul boyliklar o'zimizda qolsa, siz istiqomat qilg'on shul eski koshona o'rnig'a

muhtasham saroy soldirib, mamlakatimizni istaganingizcha tasarruf etar edingiz...

Bu gaplarni eshitib yosh hokimning boshi aylanib ketadi, bobosidek sultanat taxtida o'tirib, yurtni istagan-cha idora etishni orzu qiladi va xon bo'lishga rozilik beradi. Mahmudbiy va unga sodiq bo'lgan qatag'on urug'i, saroy ahli Muhammad Muqim sultonni oq kigizga o'tirg'izib, uni xon deb e'lon qiladilar. Haddan tashqari sermulozamat bo'lgan hiylakor otaliq yosh va tajribasiz xonni g'aflatda qoldirib, o'rgimchakdek makr va hiyla ip-lari bilan saroyni o'rab tashlaydi. Subhonqulixon o'lgan-dan keyin otaliq o'z niyatlarini amalgalashish payti kelganini angelaydi. Saroy atrofiga o'ziga sodiq bo'lgan yasovullarni qo'yib, bir kuni xonning hujrayi xosiga ki-radi-da, uning ko'ksiga xanjar sanchib chiqadi...

Mashrab boshini bir silkitib, ko'z o'ngida paydo bo'lgan bu mash'um manzarani quvib yubordi-da:

– Bu jinoyat jazosiz qolmag'ay, – dedi. – Xiyonat poy-devoriga qurilgan sultanat poymol bo'lg'usi, yaqin orada Mahmudxonning ko'ksiga qasos xanjari qadalg'usidur.

– Rost, ammo taqdirning sabri benihoya, haqiqat darhol qalloblikdin ustun chiqqa olmas ekan. Subhon-qulining o'g'li Ubaydullaxon jiyanining xunin olish uchun yurish boshlamoqchi bo'lib turganda Hisor va Samarqanddagagi yuz urug'i isyon ko'tarib, Mahmud-xon tarafiga o'tdilar, ichki urushlar boshlanib ketdi. Mana, yetti-sakkiz yil bo'ldi, hamon yurtda tinchlik yo'q... Imonim komilki, axir bir kun, siz aytgandek, bul xiyonatkor jazosin tortg'ay!

* * *

Mahmudxonning o'ngida ham, tushida ham halovat yo'q, ba'zan ko'zi ilinishi bilan ko'ksiga xanjar san-chilgan yosh Muqim sulton uning tomog'idan bo'g'ib

olar, shunda u dahshatga tushib, o'rnidan sakrab turib ketardi. Bir vaqtlar tog'ni ursa talqon qiladigan bu baquvvat odam uzoq yotgan bemordek oriqlab, bo'yni tirishib qoldi. Badbin xayollardan chalg'ish uchun u goho ichkilikka berilar, ba'zan devonalarga sadaqa berib, duo olar edi.

Mashrab unda kuchli ta'sir qoldirgan edi, u ba'zan shoirning qiliqlarini, gaplarini eslab iljayib qo'yar edi. So'rab-surishtirib, u Mashrabning Toshkent, Buxoro, Xatirchidagi sarguzashtlari to'g'risida ajoyib hikoyalar eshitdi, yana u bilan uchrashib, o'zini chalg'itishni istab qoldi, farroshni chaqirib: "Darhol o'shal qalandarni topib keltir!" deb buyruq berdi.

Farrosh karvonsaroya kelib, Mahmudxonning buyrug'ini yetkazishi bilan Mashrab darhol eshagiga minib, saroya ravona bo'ldi.

– Assalomu alaykum, e mardi haq, poyi qadamin-giz tekkan yerga balo jetmasin, – deya uni qarshi oldi xon taxt ustida o'tirib. – Bugun nechundir yuragim siqilib turibdur, shul sababdin...

– Kechasi yomon tush ko'rib cho'chib uyg'ongan-dursan, – deb uning so'zini bo'ldi Mashrab. – Rang-ing bir holatda, g'am-anduh yuki borgan sari og'irlik qilayotganga o'xshaydur.

– Topding'iz, shul sababdin duo olish maqsadida sizni bezovta qilishdin tortinmadim.

– Haqqingga duo qilsam, evaziga ne bergaysan?

– Bir hovuch oltin.

– Oltin palid va harom narsa, men uni qo'limga olishga hazar qiladurman. Bir shartim bor, ko'nsang iltimosingni bajo keltiray.

– Aytsinlar shartlarini.

– Duo evaziga bir soat taxtingda o'tirib, hukmron-lik qilsam...

– Hah-ha, – dedi xon g‘azabini yutib. – Agar podsholiqni qo‘ling‘izg‘a bersam, qanday farmonlar sodir bo‘lur edi sizdin?

– Men xazinador va mulozimlarimni yig‘ib, xazinadagi barcha oltin, kumush tangalarni faqir-u fuqaro boshlari ustidan sochib yuboringlar, deb buyruq berar edim.

– Shuncha azob-uqubat bilan to‘plagan boyliklarimni-ya? Shul taxt-toj uchun tizzamdin qon kechib, sovlig‘imdin ayrildim, kelib-kelib ani sendek yalangoyoqqa, oltin tangalarimni tagi past qashshoqlarg‘a berayinmu? Agar bir soatg‘a taxtimni senga bersam, uni bulg‘atar ekansan-da! – dedi xon sensirashga o‘tib, dag‘-dag‘ titrar ekan.

– Sen yurtni bulg‘atding, Balx aholisining qonini so‘rib, turar joylarini axlatxonaga aylantirding...

Birdan:

– Jallod! – deb baqirib yubordi xon.

– Xanjarim qong‘a tashna! – dedi belbog‘iga oybolta qistirgan, chap tomonida xanjari osilib turgan qizil choponli, davangir bir odam hozir bo‘lib.

– Haddidin oshib, xudoliq da’vo qilg‘on, tangrining yerdagi soyasini toptamoqchi bo‘lg‘on mana bu yalangoyoqni dorg‘a os!

– Bosh ustiga, – dedi jallod ko‘zlarini chaqnatib. Keyin Mashrabga qarab boshi bilan eshikni ko‘rsatdi.

– Sen kabi zolimdin rahm-shafqat so‘ramaymen, oyog‘ingga yotib yalinmaymen! – dedi Mashrab xonga nafrat bilan qarab. – Ammo bilib qo‘y, sening ham kuning bitgan. O‘rinsiz to‘kilgan qonlar, navqiron Muqim Sultonning xuni nohaq ketmas.

Mahmudxon titrab jallodga o‘shqirdi:

– Yo‘qot ko‘zimdin!

* * *

O'rdaning orqasidagi zindonning ro'parasida qora yog'ochdan yasalgan baland dor, uning o'rtasiga halqa qilib osilgan arqon havoda dahshat bilan chayqalib turar edi. Jallod dor tagidagi baland taxta so'ri yoniga shoti qo'yib, sirtmoqqa moy surtayotganida tekin tomosha payida yurgan bekorchilar yig'ilal boshladilar. Odamlar: "Qaysi o'g'rini osishar ekan, bildingizmi?" deb bir-birlari bilan shivirlashayotganlarida ularning yonida turgan cho'qqisoqol mo'ysafid tasbehini o'girib:

- Anavi da'voysi xudoliq qilg'on darvesh-chi, - dedi.
- Yodingizdamni, xaloyiq ani quvlab o'rda ostig'acha borg'on edi.

Yelkasiga oybolta qo'ygan soqchilar qurshovida kelayotgan oq yaktakli, sochlari yelkasiga tushgan mag'rur shoirni ko'rgach, xaloyiq negadir dong qotib qoldi. Ko'pchilikning rahmi kelib, unga hamdardlik bildira boshladilar, ammo cho'qqisoqollining og'zi qu-log'ida edi. Mashrab yonidan o'tib ketayotganida:

- Qayerga ketayotirsan? - deb so'radi.

Shoir unga bamaylixotirlik bilan qarab:

- Ma'shuqamni ko'rgali ketayotirman, - deb javob qildi. - Sen zohidi yax buning ma'nisini tushunmaysen!

Odamlar orasida qisilib turgan Shodavlat Mashrabni ko'rishi bilan o'pkasini tutolmay, yig'lab yubordi.

- Xayr endi, Pirimast, ko'p qayg'urma. Naman-gon borsang, yor-u yoronlarg'a salom ayt, - dedi shoir qandaydir ko'tarinki ruhiyat bilan, so'ng dadil dor tagidagi kursiga chiqdi-da, bo'yniga sirtmoq soldi. Bir lahma, butun hayoti, Namangon, Qashg'arda ko'rgan-kechirgan achchiq-chuchuk damlari ko'z o'ngidan o'ta boshladi, hayot ipi shu yerga kelib uzilishi zaruriy ekanligini u yaxshi bilar, shu sababdan chehrasi botib borayotgan quyoshdek sokin edi...

* * *

Shodavlat ming mashaqqat bilan o‘z shahriga eson-omon kelib, bo‘lib o‘tgan dahshatli voqealarni tanish-bilish, yor-birodarlarga gapirib berdi. Mashrabning singlisi dod-faryod ko‘tarib, sochlarini yuldi.

Gangib qolgan Shodavlat ba’zan Mashrab bilan birga yurgan yo‘ldan Bordonqo‘rg‘on tepaligiga ko‘tarilar, u bilan birga gulxan qalab dam olgan joylarda birpas o‘tirib, keyin soy bo‘yiga tushar edi. Bir kuni shunday sayrdan qaytib kelayotganda Iydgoh mahallasidagi xonaqoga kirayotgan qalandarlarni ko‘rib, ularga salom berdi-da:

- E piyri mardumlar, qaysi yerdin kelayotirsizlar?
- deb so‘radi.
- Balx shahridin.
- Ustozim ulug‘ shoir Boborahim Mashrabning qotili Mahmudxon hali ham tirikmu?

- Iye, gapdin xabaringiz yo‘qmi? – dedi oppoq soqoli ko‘ksiga tushgan bo‘lsa-da, yuzi tiniq, tetikki-na bir chol unga yaqin kelib. – Bultur Buxoro amiri qo‘sishin tortib kelib, Balx va Qunduz shahrini oldi. Shahrisabz o‘zbaklari qatag‘onlarni parokanda qilib, boyliqlarini tortib oldilar. Odamlarning aytishlaricha, askarlari tor-mor bo‘lgan Mahmudxon qochg‘oni joy topolmay, shaharning bir chekkasidagi kulbayi vayronag‘a yashirinibdur, yarim kechada “Qoch” degan ovozni eshitib, juftakni rostlamoqchi bo‘lib turganida tom bosib qolibdur.

- Oxir qasos xanjari ko‘ksiga sanchilibdur-da! – dedi Shodavlat ko‘zlari chaqnab.

JAYHUN USTIDA BULUTLAR

I

Xorazmshoh Abu Abdulloning amakivachchasi Abu Nasr ibn Iroq ma'rifatparvar va donishmand odam edi. U yuksak martabali amaldorlar bilan emas, ahli ilm-u fazillar bilan suhbatlashishdan zavqlanar, insonning ziynati zardo'zi chophon va tillo kamar emas, ilm-urfon, deb hisoblar edi.

Odatda podshohlar taxt-toj to'g'risida xayol suradi-gan yaqin qarindosh-urug'lardan qo'rqa dilar, ularni nazorat ostida saqlashga urinadilar. Abu Abdullo olim va fazil amakivachchasi dan hadiksiramas, unga qimmatbaho sovg'alar in'om qilib, ilm bilan shug'ul-lanishga rag'batlantirar edi.

Abu Nasr noyob kitoblarni sotib olish uchun Bag'dod, Shomga o'z odamlarini yuborib turar, kitob-xonasini qadimgi yunon faylasuflari, tabiatshunos-larining arab tiliga tarjima qilingan asarlari bilan to'ldirishga urinar edi. Falsafa va yulduzlar olami bilan mashg'ul bo'lgan bu olim yerdagi ishlarini ham unutmas, Xorazmshoh uzoq o'lkalardan kelgan elchilarни qabul qilganda zar yoqali kimxob chponi ni kiyib, beliga kumush kamar bog'lab, taxt ustida mag'rur o'tirgan hukmdorning o'ng tomonida qomatini tik tutib turar edi.

Xorazmshohning poytaxti Kot⁵ shahri Amudaryoning o'ng sohilida bo'lib, Buxorodan katta va undan obod edi. Daryoga yaqin bo'lgan tepalik ustiga qurilgan, uch qator devor bilan o'rالgan qal'a, peshtoqlari koshinkor baland jomelar, darvozalari tepasida sher surati solingan karvonsaroylar shaharga ulug'vor tus berib turar edi. Eron, Iroq va Movarounnahrdan Idil bo'yidagi shaharlarga, rus yerlariga qatnaydigan karvonlar shu shaharda to'xtab, keltirgan mollarining bir qismini pullab, kerakli mollarni sotib olar edilar. Kot shahrida yunoniyalar, Suriya, Iroq, rus savdogarlarini uchratish mumkin edi.

Abu Abdullo va Abu Nasr ilm va san'at ahliga homiylik qilganliklari uchun bu yerga turli mam-lakatlardan olimlar, san'atkorlar yig'ila boshladilar. Iste'dodli yoshlarni o'z atrofiga tortish ishtiyoqida yurgan Abu Nasr shahar tashqarisida turadigan zehni o'tkir, haddan tashqari qobiliyatli bir yetim bolaning ta'rifini eshitib, uni ko'rishni istab qoldi.

Bir kuni u o'z xonasida, xontaxta yonida o'tirib, bir kitobni mutolaa qilayotganida xizmatkori kirib, ta'zim qildi.

– Siz aytgan yetim bolani boshlab keldim.

Abu Nasr kitobni yig'ishtirib, tokchaga qo'ydi-da, devorga tirab qo'yilgan yostiqqa suyandi.

– Olib kir!

– Assalomu alaykum, – dedi ostonadan hatlab o'tgan bo'z choponli bola qo'l qovushtirib.

– Vaalaykum assalom! Kel, beriroq o'tir, – dedi uy egasi peshonasi keng, ko'zлari o'tkir bolaga diqqat bilan qarab. U ro'parasiga kelib tiz cho'kkandan keyin:
– Oting nima? Necha yoshdasan? – deb so'radi.

⁵ Kot – ilgarigi Shobboz shahri. Hozir unga «Beruniy» nomi berilgan.

– Otim Muhammad. O'nga to'lib, o'n birga qadam qo'ydim.

– Borakallo. Otangning otlari Ahmad bo'lsa kerak.

– Topdingiz. Otam men tug'ilmasdan burun o'lib ketgan ekanlar.

Abu Nasr yelkasiga yamoq tushgan bo'z choponli bolaning boshidagi qo'tir cho'girmasiga qarab o'yga toldi. U vaqtarda otasi noma'lum bo'lgan yetim bolalarni Muhammad ibn Ahmad deb yuritar edilar.

– Hozir seni boqayotgan ayol o'z onangmi?

Bola unga ajablanib qaradi, ko'zlarini katta qilib:

– Bo'lmasam-chi! – dedi.

Uy egasi taxmini to'g'ri chiqqanini fahmlab, gapni aylantirib o'tirmay, uni imtihon qilib, savodxon ekanligini aniqladi, Qur'onne tutilmay o'qiy olishini ko'rib, hayratda qoldi.

– Zehning o'tkir ekan. Sendek qobiliyatli bolalar ni o'qitib, voyaga yetkazish biz uchun ham farz, ham qarz. Istanasang, seni o'zimga shogird qilib olay.

– Biz kambag'al odamlarmiz, o'qish haqini to'lay olmaymiz.

Uy egasi uning javobini eshitib, beixtiyor kulib yubordi.

– Aqli bo'lsang ham, bolaligingga borasan-da! Sendan haq olib boyib ketarmidim! Tekinga o'qitib seni voyaga yetkazaman, qorningni to'yg'izib, usti boshingga qarab turaman. Yaxshi o'qisang – shuning o'zi kifoya. Ertaga shahardagi hovlimga onang bilan birga kel, gaplashib olurmiz.

Muhammad xursand bo'lib, o'rnidan turdi, boshiga baxt qushi qo'nganidan onasini xabardor qilish uchun uyiga yugurdi.

Onasi Abu Nasrdek mo'tabar zotga asrandi bolasi ni jon deb topshirdi. Shu kundan boshlab Muham-

mad ibn Ahmad ham, uning ona bo'lmishi ham muh-tojlik balosidan qutulishdi.

Muhammad shu vaqtgacha o'zi tengi kambag'al bolalar bilan cho'lga qatnab, shaharga saksovul kelti-rib sotar, onasi bilan tirikchiligin zo'rg'a o'tkazar edi. Endi bo'lsa uning usti but, qorni to'q, sahroga borib, qirchang'i eshagida o'tin opkelib sotish o'rniغا ilm o'rganish bilan mashg'ul.

Ibn Iroq unga hisob va handasadan, yosh olim Abu Sahl arab tili va tabiiyotdan dars bera boshladi.

Bir kuni ibn Iroq Abu Sahldan Muhammadning qanday o'qiyotganini surishtirdi.

– Odam bolasi shul qadar zehnli bo'ladur, deb o'yla-magan edim, – dedi yosh olim boshlarini chayqatib. – Har kuni o'n besh-o'n olti arabcha so'zni yodida olib qoladur. Miyasi charchamasin deb kunda o'ntadan ortiq so'zni o'rgatmaslikka urinaman. Charchab qolmasin, ko'z tegmasin, deyman-da!

– Qo'rqmang, zavq-shavq bilan ilm o'rgangan kishining miyasi charchamaydur, unga ko'z ham tegmaydur. Men sizga aytSAM, irodasiz, g'ayratsiz odamlargina ko'zikadurlar.

– Rost aytdingiz, – dedi yosh olim kulimsirab.

Muhammad bolaligini qo'ymas, bo'sh vaqtlarida o'zi tengi bolalar bilan birga cho'lga chiqib o'ynab kelardi. Bir kuni Abu Nasr qo'lida bir dasta o't-o'lan ushlab ke-layotgan shogirdini ko'rib, uni o'z xonasiga chaqirdi-da:

– Nega ruxsatsiz shahardan chiqib ketding? – deb so'radi.

– Kechiring ustoz, dalada o'ynab keldim. O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas, deydilar. Ilgari saksovul olib kelgani cho'lga chiqqanimda, har xil o'tlarni, ularning urug'ini keltirib, bir yunoniya sotar edim.

– Unday bo'lsa, foydali giyohlarning nomini ham bilarsan. – Ustoz uning qo'lidagi bir o'tni barmog'i bilan ko'rsatib: – Bu nima? – deb so'radi.

– Olabo'ta. Yunonchasi «ram-ram».

– Bu-chi?

– Za'far – «Anixus».

– Iye, sen bularning nomini qayoqdan bilasan?

– O'shal yunoniy o'rgatgan. Qo'ziqorinni «futr» deydilar.

– Barakalla. Keyinroq dorivor giyohlar xosiyatini o'rgatadurgan bir tabibga seni shogird qilib berurmiz. Hozircha arab tili, ilmi hisob va handasani o'rganib ol.

Ustoz shogirdiga nasihat qilar ekan, u shakli nonga o'xshagan, ichi bir necha qavat bo'lib, har qavatiga doiralar chizilgan asbobga tikilib:

– Bu nima? – deb so'radi.

– Usturlob. Qo'y, ushlama! – dedi Abu Nasr usturlobning bandidan ushlab olgan shogirdining qo'liga beozor turtib. – Keyin senga uning bandidan ushlab aylantirishni, oftob va oyning osmondag'i holatini belgilashni o'rgaturman.

* * *

Muhammadning zehni kundan-kunga ochilib, muallimlarini hayratga sola boshladi. Handasa va hisob ilmini yaxshi o'rganib, berilgan masalalarni mustaqil hal etadigan bo'ldi. U ibn Iroqning kutubxonasida o'tirib, kitob mutolaa qilishni yaxshi ko'rар edi. Bir kuni ustozi uning qo'lidan Arastuning «Moba'dat tabia» degan kitobini tortib olib, tokchaga qo'ydi-da:

– Bunday kitoblarga hali-veri tishing o'tmaydur. Hozircha Arastuni tinch qo'ya tur, Iqlidusning «Handasa»sini o'qi! – deb, qo'liga charm muqovali bir kitobni tutqazdi.

– Yaxshi tushunmasam ham, falsafiy kitoblarni o'qishdan zavqlanaman. Qulog'imga qadim zamonda o'tgan hukamolarning ovozi eshitilayotgandek bo'ladur. Mana, qulq soling... – U hozirgina o'qigan bir bobni yoddan aytib, ustozini hayratda qoldirdi.

Shundan keyin Abu Nasr shogirdining qo'lida qadimgi yunon hukamolarining asarlarini ko'rsa ham, indamaydigan bo'ldi. «Mayli, o'qiyyersin, yod olsin, axir bir kun tushunib oladi», deb o'yladi u.

Beruniy, ya'ni shahar tashqarisida tug'ilib o'sgan odam deb nom olgan Muhammad o'n besh-o'n olti yoshdayoq falsafa, mantiq va ilmi falakka doir asarlar ni o'qib tushunadigan, quyosh va sayyoralarning osmondagi holatini kuzatadigan bo'ldi.

Beruniy qadimgi yunon va O'rta Osiyo jug'rofiyunlarining asarlarini o'qishga kirishib ketdi. Batlimus⁶ o'z kitoblarida yer kurrasining globusini yasash yo'llarini o'rgatgan edi. Yigirma bir yoshga kirgan yosh olim qutri (diametri) yetti gaz keladigan katta globus yasadi.

Turli mamlakatlar, shaharlarning jug'rofiy mavqeyi, oralaridagi masofani belgilovchi chiziqlar chizdi. Xatti ustuvoning⁷ janubida quruqlik yo'q, deb o'ylagani uchun uni ko'k rangga bo'yadi. Bundan boshqa samoviy jismlar ustida bosh qotirish uchun usturloblar, burchak o'lchaydigan katta asboblar yasadi. Olib borgan mu-shohadalarini katta bir daftarga yozib bora boshladi.

II

Shu vaqtida Jayhun ustida falokat bulutlari paydo bo'la boshlagan edi. Gurganj amiri Ma'mun binni Muhammad Xorazmshoh Abu Abdulloni yiqitib, o'zi

⁶ Batlimus – Ptolemy.

⁷ Xatti ustuvo – ekvator.

yagona podsho bo'lish, poytaxtni Gurganjga ko'chirish niyatiga tushgan, urush ochish uchun bahona qidira boshlagan edi. Beruniy esa imkoniyat eshiklari yopilmasdan burun quyosh ustida olib borayotgan kuza-tishlarini oxiriga yetkazishga shoshilardi. Somoniylar xonadoni hukmron bo'lgan Movarounnahrda ham tinchlik buzilgan, lashkarboshilardan goh unisi, goh bunisi isyon ko'tarib, somoniylar davlatining chirigan ustunlarini silkitib, yiqitishga urinar edilar.

Xorazmshoh Abu Abdullo bu voqealarni tashvish bilan kuzatar, ularning o'z taqdiriga qanday ta'sir ko'rsatishi ustida bosh qotirar, lekin o'ylab o'yining tagiga yetolmas edi.

Bir kuni u tokchalari ganchkor, darichasi oltin naqshlar bilan bezalgan hujrayi xosida amakivachcha-si Abu Nasr bilan gaplashib o'tirganida shu to'g'risida gap ochdi:

– Sipohsolor Abu Ali ibn Simjur somoniylar boshiga bitgan balo bo'ldi. Mana, bir necha yildirki ul nobakor Nuh binni Mansurga qarshi isyon bayrog'ini ko'tarib, Movarounnahrning tinchini buzib kelmoqda. Kechagina Buxorodan kelgan chopar qiziq bir xabar keltir-di: «Nuh binni Mansur G'azna viloyatining hokimi Sabuktakin⁸ bilan aning o'g'li Mahmudni yordamg'a chorlabdur. O'ylaymanki, ota-bola isyonkor sipohsolorni ajal chohiga joylagaylar».

– Illoyo aytganing kelsin. Yurtning tinchin buzgan isyonkorlar o'limga sazovordurlar, – dedi Abu Nasr taxtdan tushib gilam ustida chordana qurib o'tirgan cho'qqisoqol Xorazmshohga qarab.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, Hazoraspdan kelgan noma Abu Abdulloni qattiq hayajonga soldi. Hazo-rasp hokimi somoniylarga qarshi tig' ko'targan Abu

⁸ Takin – biy.

Ali Simjurning yengilib, Xorazmga qochgani, hozir shahar yaqinidagi bir qishloqqa yetib kelganini bildir-gan va uni asir qilib olishga ruxsat so'ragan edi.

– Darhol asir olib, poytaxtga yuborsin, – dedi Abu Abdullo saroy vaziriga. – Qo'l-oyog'ini bog'lab, Buxoroga yuborgaymiz.

– Ijozat ber, so'z aytay, – dedi Abu Nasr Mansur.

– Avval o'ylashib ko'raylik. Bemaslahat ishning oqibati na bo'lishini o'zing bilasan. Ehtimol, Nuh binni Mansur aning gunohidan o'tib, Ma'mun ixtiyoriga yuborayotgandir. Agar biz...

– Nuh aning gunohidan o'tishi mumkin emas! – deb yubordi Abu Abdullo qizishib. – Qorabug'roxon Buxoroga yaqinlashganida Abu Ali aning tomoniga o'tib, shahar darvozasini ochib bergen edi. Nuh Buxoroni qaytib olgach, ul nobakor Balx hokimi sotqin Foiq bilan ittifoq tuzib, isyon bayrog'ini baland ko'tardi. Agar Sabuktakin o'z o'g'li bilan yordamga kelmaganida somoniylarning holi nima kechar edi, emdi ul nobakor mag'lubiyatga uchragan ekan, bizning vazifamiz ani asir olib, Nuh binni Mansurga topshirmoqdir.

Bunday shoshilinch qadam tashlashga qarshi bo'lgan saroy vaziri afv so'rab, bir so'z aytmoqchi edi, Abu Abdullo unga so'z bermadi.

– Abu Ali Simjurda mening xusumatim bor. Esingga bordir, Nuh bir vaqtlar menga Abivardni bergen edi. U isyonkor nobakor o'shal obod shaharni zabit etib, mening askarlarimni kiritmadi. Shuning alamidan chiqolmay yurar edim, emdi o'ch olmoq fursati keldi. Mening amrim shul: darhol ani asir olib, oldimga keltirsinlar! Biz aning dodini berib, so'ngra Buxoroga tortiq qilib yuborgaymiz.

Saroy vaziri noiloj bosh egib, farmoni oliy hozirlagani chiqib ketdi.

* * *

Yosh olim Amudaryoning g'arbiy sohilidagi bir ovloqda oftob davrasining eng baland nuqtasini aniqlashga urinib turganda, Abu Nasrning bir mulozimi uning yelkasiga qo'l tegizib:

- Sizga xalaqit bergenim uchun kechiring, – dedi.
- Sizni ustoz chorlayotirlar.
- Nima hodisa bo'ldi? Tinchlikmi? – deb so'radi Beruniy, oftobni kuzataverib qizarib ketgan ko'zlarini ishqalab.

– Tinchlik bo'lganida sizni bezovta qilmagan bo'lur edilar. Kot shahrini bosib olib, butun Xorazmga hukmron bo'lishni istagan Gurganj amiri, Abu Alini ozod etaman, deb yurish boshlagan emish. Bir hafta o'tmay, shahrimizni bosib olsa kerak.

– Xudo ko'rsatmasin u kunlarni. Gurganj amiridek zolim yurtimizga xoja bo'lsa, holimizga voy! Orqamizda taassub qamchisi o'ynagusidir... Siz manavi usturlobni ko'tarib oling, – dedi Beruniy boshqa bir asbobni qo'lga olib.

Yuz-ko'zini soqol bosgan mulozim eshkak eshar ekan, tinmay vaysar edi:

– Bir qozonda ikki qo'chqorning boshi qaynamas. Gurganj amiri bizning shohdan boy, askari ko'p... karvonsaroylar... qul bozorlari... ajnabiy savdogarlardan ozmuncha boj... tushadi, deb o'ylaysizmi?

Ular o'ng qirg'oqqa o'tib, qayiqni qoziqqa bog'ladi-lar, asboblarni olib, saroy tomon jo'nadilar.

Kechasi bilan uxlay olmay ko'zlari kirtayib qolgan Abu Nasr Mansur ibn Iroq shogirdini panaga tortib:

– Buyerdan ketish kerak. Anjomlaringniig'ishtirib, yo'l hozirligini ko'r. Tongda Abu Vafoning karvoni Ray shahriga ketar ekan, – dedi.

Beruniy hech narsaga tushunmay, unga savol nazari bilan qarab qoldi.

– Sen oftobni kuzataman deb, yerda bo'layotgan ko'p hodisalardan bexabar qolgansan. Hazorasp hokimi Abu Alini zanjirband qilib, bu yerga yuborganidan xabar topgan Ma'mun askar to'plab, safarga chiqqan emish. Biz Abu Ali Nuh binni Mansurdan qochib kelayotir, deb o'ylagan edik, holbuki, Buxoro hukmdori aning gunohidan o'tib, Gurganj amiri ixtiyoriga jo'natgan ekan!

– Amirga bahona topilibdur-da, Abu Alini ozod etmoqni bahona qilib, qilich yalang'ochladi, deng?

– Shundoq. Bizning sarkardalarimiz anga sotilgan. Uch-to'rt kun ichida amir poytaxtga bostirib kirsak kerak. Tezroq jo'na.

– Andog' bo'lsa, siz ham men bilan birga keting.

– Yo'q, shul yerda qolaman. Ketib qolsam, Gurganj amiri mening to'g'rimda shubhaga tushgusidur. Axir, men afrik'iylar urug'iidanman. Osmonga chiqsam – oyog'imdan, yerga kirsam – qulog'imdan tortadur. Yaxshisi, taslim bo'la qolay.

– Shundoq yurtimizni, sizdek aziz ustozni tashlab ketamanmi, a?

– Boshqa iloj yo'q. Odam o'zini xavf-xatardan olib qochmog'i lozim. Ehtiyyotkorlik qo'rkoqlik emas.

– Tajriba sohibi bo'lgan donishmand odamlarning maslahati saodat yo'lini ochib beradur, deganlar mashoyixlar. Yaxshi, menga oq fotiha bering, borib safar anjomini hozirlay!

Bolaligidan boshlab turli giyohlar va ularning xosiyatini bilishga qiziqqani uchun Abu Rayhon laqabini olgan Beruniy o'ziga kerakli buyumlarni bo'g'jomaga joylab, tong-saharda karvon bilan yo'lga chiqdi.

Yigirma ikki yoshga qadam qo'ygan bu yigit har ishning oqibati xayrli bo'lishiga, taqdir unga yomonlikni ravo ko'rmasligiga qattiq ishonardi. U hamrohlari bilan obod qishloqlar, suvsiz sahrolardan o'tib, yo'l azobiga bardosh berib, Tehron yaqinidagi Ray shahriga yetib bordi. Bu yerda u Gurganj amiri Ma'mun binni Muhammad Kot shahrini bosib olganligi, Xorazmshoh Abu Abdulloni asir qilib olib ketib, uni qatl ettirganini, buning ustiga Kot shahrining yarmini suv bosib ketganini eshitib, yuragi qonga to'ldi. Ustozi Abu Nasr ibn Iroqning holi nima kechdi ekan? Nahotki, amir uning ham hayot gulshanini mamot gulxaniga otgan bo'lsa?.. Yosh olimning musofirchilikda boshidan kechirgan kulfatlari bu tashvishlar oldida hech gap emasdi. U g'am-anduhlarini og'ir mehnat bilan, mutolaa va ilmiy mashg'ulot bilan yengishga urindi.

Bahor paytlari tog'larning ustini qalin bulutlar qoplab, jala quyib bergenida tog' yon bag'ridagi tosh, tuproqni sel oqizib ketadi, turli jinslardan tarkib topgan yumshoq toshlar parchalanib, shag'alga aylanadi, qirrali metin toshlar bir-biriga urilib sillqlashadi. Yoshi yigirma ikkiga qadam qo'yganda Beruniyni ham hodisalar seli yumatlib o'zi bilan birga janubga olib ketdi, uni fozil odamlar bilan o'zini olim hisoblagan maqtanchoq puldorlar, mag'rur podshohlar bilan to'qnashtirdi; uning tartibsiz, jo'shqin fikrlari muntazam bir shaklga kirib, voyaga yetdi. Berahm taqdir to'qqiz yil uni u qo'lidan bu qo'liga otib o'ynab, chiniqtirgandan keyin yana o'z yurtiga irg'itdi.

III

Tuya ustida bir maromda chayqalib kelayotgan qora soqol, qirg‘iy burun yigit uzoqdan ko‘zga tashlangan Gurganj qal‘asining baland minoralariga, oftobda koshinlari yarqirab ko‘ringan jome va madrasalarning peshtoqlariga suqlanib qarardi. Yuzida sarosima alomati yo‘qligidan, qomatini tik tutib, iljayib qo‘yishidan u ko‘p qiyinchiliklarni boshidan kechirgan, achiq-chuchukni totgan tadbirkor yigitga o‘xshardi. Karvon darvoza tagidagi xandaq ko‘prigidan o‘ta boshlaganda ba’zi yo‘lovchilarining ko‘zlari javdirab, yuzlarida tashvish alomati paydo bo‘ldi. Ammo qirg‘iy burun yigit esa beparvolik bilan chakmonining oldini yopib, belbog‘ini boshqatdan bog‘lab oldi. Ro‘molchasi bilan yuz-ko‘zining changini artib, orqaroqqa surilgan cho‘girmasini to‘g‘rilab qo‘ydi.

Eron, Iroqdan Sharqiylar Yevropaga ketayotgan savdogarlar Gurganjda to‘xtab o‘tadilar. Shahar aholisi kunda shahar darvozalaridan kirib-chiqib turadi-gan tuya karvonlariga o‘rganib qolgan, shu sababdan hijriya hisobi bilan 305-yilning⁹ ilk bahorida Jurjon shahridan kelgan bu karvon bir necha savdogar, karvonsaroy egalari va o‘n-o‘n besh bekorchidan boshqa hech kimni qiziqtirmadi.

Karvon shaharning eng katta karvonsaroylaridan biriga kirib keldi, tuyakashlar tuyalarini cho‘ktirib, saroy xizmatkorlari yordamida ularning ustlaridagi yuklarni tushira boshladilar. Bizning yigit esa boryo‘g‘ini jamlagan qopini qo‘ltiqlab, darvoza oldida turgan saroybon oldiga keldi, unga salom berib, bir

⁹ 1004-yil.

kecha yotib ketish uchun hujra so'radi. Saroybon yigitning yonida xizmatkori yo'qligini ko'rib, uning kambag'al bir mulla ekanini angladi. Mensimasdan:

– Gurganjga bиринчи келишингми? Нечун бир кеча yотиб кетмоқчисан? – deb so'radi.

– Yoshligimda shahringizga bir kelgan edim. Emdi shul yerda turib qolsam kerak. Obro'li bir odamga mehmon bo'lib kelayotirman. Yuvinmay-taranmay ul kishi huzuriga bormoqqa iymandim.

– To'g'ri, obro'li kishilar oldiga ozoda bo'lib borgan yaxshi. Qani, yuring, – dedi u negadir bu gal sizlab.

Saroybon yigitni zinadan ikkinchi qavatga olib chiqib, burchakdagi tor bir hujraga joylashtirar ekan, otini, qayerdanligini surishtirdi.

– Otim Muhammad, – dedi yigit noxushlik bilan. – O'zim Kot shahridanman.

Saroybon esa yigitning gaplashishga tobi yo'qligini ko'rib, uning nasl-u nasabini surishtirib o'tirmay, pastga tushib ketdi.

Yigit hujraga joylashib, bir oz dam olgandan keyin saroy yonidagi ko'hna mo'enchada yuvindi, kiyimlarini almashtirib, sartaroshxonaga kirdi. Sochini oldirib, soqolini qaychilatgandan keyin hujrasiga qaytdi. Kechasi miriqib uqlab o'ziga keldi. Nonushta qilib, oq tuya junidan to'qilgan chakmonini, yangi kavush-mahsisini kiydi-da, saroybon oldiga tushdi. Salom berib, Abu Nasr ibn Ali ibn Iroqning hovlisi qayerdaligini so'radi. Saroybon unga boshqacha nazar-la qarab, hurmat bilan:

– Janoblari ul kishiga mehmon bo'lib keldilarmi? Ul zotning kimlari bo'ladilar? – deb so'radi.

– Yaqin odamlari bo'laman.

– Shul gapingizni kecha aytmaysizmi? Yaxshiroq hujra topib bergan, hurmatingizni joyiga keltir-

gan bo'lardim. Axir, ul zot qadimiylar Xorazmshohlar urug'idan bo'ladilar-a! Nahotki, uylari qayerdaligini bilmasam! Men sizga bir odamni qo'shib yuboraman, uylarini ko'rsatib qo'yadur, – dedi saroybon.

Mehmon sernaqsh darvoza oldiga yetib kelgach, sa-roybonning xizmatkoriga javob berib yubordi-da, mis xalqani taqillatdi. Oradan biroz vaqt o'tgach, darvoza-ning chap tavaqasidagi kichkinagina eshik ochilib, so-qoli oqara boshlagan, cho'girmali bir odam ko'rindi.

– Assalomu alaykum, bobo, – dedi yigit.

– Vaalaykum... Xo'sh, xizmat?

– Siz bul dargohga yaqinda kelgan ko'rinasiz. Yo'qsa, meni tanigan bo'lur edingiz.

– Oriy, shundog'. Xizmatga kirganimga besh yil bo'ldi. Siz... kimlari bo'lasiz?

– Shogirdlari. Beruniy xizmatingizga keldi, desan-giz bas!

– Iye, Muhammad... Abu Rayhon, o'g'lim, senmi-san? – Ichkaridan hayajonli bir ovoz eshitildi. Boshi-ga cho'qqili duxoba taqya kiygan, keng peshonali, sochlari oqara boshlagan chol ichkaridan chiqib kel-di va musofir yigit bilan quchoqlashib ko'risharkan, ko'zidan tirqirab yosh chiqib ketdi.

– Qachon kelding? Yuking qani?

– Kecha... Yukim karvonsaroyda qoldi.

– To'g'ri shu yerga kelavermabsan-da. Seni farzand deb edim, axir...

– Meni ma'zur tuting, ustoz. Ust-boshim kir-chir bo'lganidan to'g'ri kelaverishga botinolmadim. Yu-vinib, liboslarimni almashtirishim kerak edi.

– Xo'p, mayli. Qani, ichkariga yur.

Uy egasi oltmishta borib qolgan bo'lsa-da, shax-dam qadam tashlab, shogirdini mehmonxonaga boshladi.

– Ajab imorat soldiribsiz, – dedi yigit.

Mehmonxonaga kirib ko'rpachaga o'tirganlaridan keyin yuzlariga fotiha tortib, hol-ahvol so'rashdilar.

Beruniy ganchkor tokchalardagi charm muqovali kitoblarga ko'z yogurtirib, kulib qo'ydi. Uy egasi uning xursand bo'lganidan zavqlanib:

– Senga kitob bo'lsa – bas. Oshni ham unutasan, nonni ham, – dedi. – Yodingdami, yoshligingda bir necha marotaba qo'lingdan Arastu, Aflatunning asarlarini tishing o'tmaydur, deb tortib olgandim. Sen tu-shunmasang ham o'qir, ba'zi joylarini yod olarding.

– To'g'risini aystsam, og'ir damlarda meni yupatgan, orom bergen shular bo'ldi.

Abu Nasrning yoshroq bir mulozimi dastsho' bilan qumg'on keltirib, mehmon, mezbon qo'liga suv quydi, dasturxon yozib, barkashlarda non, shinni, qand-qurs, yaxshi saqlangan uzum va bir kosa sharbat olib kelib qo'ydi. Beruniy xuddi o'z uyiga kelgandek nonni ushatib, kichkina bir bo'lagini shinniga botirdi-da, og'ziga solib chaynay boshladi.

– Sog'-salomatligingizni ko'rib, behad quvondim, – dedi u sharbatdan bir ho'plab. – Boshingiz uzra yelib o'tgan falokat shamollari sizga zarar yetkazmabdur. Gurganj amiri jonингизга qasd qilmabdur. Asli men ham yoningizda qolaversam bo'lar ekan.

– Yo'q, ketganining yaxshi bo'ldi. Amirni yomonlab yurgan sen tengi yigitlarning ko'pi nobud bo'ldi. Yoshligingdan sen ham tilingga ixtiyorsiz eding. Bul yerda qolsang, nima bo'lishingni xudo o'zi bilar edi. Musofirlik vodiysida oyog'ingga ranj-alam tikanlari qadalgan, yaxshi-yomon odamlar bilan to'qnashib, ruhing inkishof topganga o'xshaydur. Buni maktublaringdan, yozgan asarlaringdan angladim. Ray shahrida olimlik

da'vo qilgan zangin va omi bir odamdan xo'rlik ko'rib-san, Homid al-Xo'jandiy kabi olim bilan rasadxonada ishlab, ko'p narsalar o'rganibsan. Jurjon hukmdori Qobus saroyida izzat-hurmat ko'ribsan. Ul yerda yozgan «Osori boqiya»ngi o'qib, behad xursand bo'ldim.

Yosh olim boshini quyi solib, ustozining so'zlariga mammuniyat bilan qulq solardi.

– Qobus qandoq odam ekan? – deb so'rab qoldi Abu Nasr bir ozdan keyin.

– Nima deyishni ham bilmayman. O'zingizga ma'lum, ul siyosatli, uddaburon hukmdor, iste'dodli shoir va olim. Arab tilida yozgan she'rlari tahsinga sazovor. Ammo bir nuqsoni shulki, taaddini o'ziga hunar, afvni ayb deb biladur, andak xatosi uchun o'z amaldorlari va fuqaroning bo'yniga qilich urdiradur.

Shogirdining gapini eshitib, Abu Nasrning quyuq qoshlari chimirilib ketdi.

– Izzat-nafsi kuchli podshoning qahridan xudonning o'zi asrasin, – dedi chuqur nafas olib. – Ul to'g'rida men yaxshi gaplar eshitgan edim. Dovulning tovushi uzoqdan yoqimli eshitiladir, deb bekorga ayt-maganlar. Haytovur, senga ziyoni tegmabdur.

– Agar, sizning maktubingizni olmaganimda, holim nima kechishini bilmas edim. So'nggi vaqtarda Qobus mendan sha'nimga yarashmayturgan ishlarni talab qila boshlagan edi.

– Chunonchi, qandoq ishlarni? – deb so'radi Abu Nasr sergaklanib.

– Ul yurt ulug'lari va ajnabiy elchilarni qabul qilg'onda anga mulozimlik qilib turishimni talab etdi.

– Ya'ni, shundoq olim, mening xos mulozimim, deb kerilmoqchi bo'libdur-da! Kishining boshiga humo qushi qo'nsa, ko'ngli nimalarni tusamaydur. Tavba!

– Agar Ali ibn Ma'mun nomidan yozgan xatingizni ko'rsatmaganimda menga ruxsat bermas edi. Fe'limdi bilasiz, Qobus saroyida albatta boshimga bir falokat orttirar edim...

Mulozim taom olib keldi, keyin idish-tovoqlarni yig'ishtirib, dasturxonga ikki piyola sharbat keltirib qo'ydi. Ovqat mahalida ham, ovqatdan keyin ham ustoz bilan shogirdning suhbatini to'xtamadi. Nihoyat, Abu Nasr:

– Emdi Ali ibn Ma'munga salom berib kelaylik,
– dedi. – Garchi, otasi Xorazmshoh Abu Abdulloni yovuzlarcha qatl ettirgan bo'lsa ham, o'g'liga nisbatan yuragimda qatracha adovat yo'q, chunki otasining yomon ishlari uchun o'g'lini ayblab bo'lmaydur. Marhum Ma'mun binni Muhammad qilichidan qon tomgan berahm podsho edi, bizning avloddan ko'p odamlarning yostig'ini quritdi, ammo ko'p o'tmay, o'zi ham qilichdan o'ldi. Ammo o'g'li uning aksi, insofli, ma'rifatparvar odam. Rost, Ali ibn Ma'munning ham o'ziga yarasha nuqsonlari bor, ammo fazilatlari alardan ustunroq. Eng yaxshi xislati – ilm-fan arboblariga homiyligidir. Yur, saroy ahliga munosib liboslarni kiyib, dargohiga boraylik.

IV

Beruniy Gurganjga kelgan yili qiziq bir hodisa yuz berdi. Yosh olim samoviy jismlarning holatiga qarab ramazon oyining o'n to'rtinchini kuni, chorshanbag'a o'tar kechasi oy to'la tutilishini aniqladi va uni kuzatishga hozirlik ko'ra boshladi. Xuddi aytgan kuni¹⁰ qorong'i tushishi bilan oy yerning soyasiga kira boshladi. Avom xalq oyning kuyib ketishidan qo'rqib, hayajon ichra jom, chelak, tos chalib, falokatning oldini

¹⁰ 1004-yilning 5-iyulida.

olmoqchi bo'lar, mullalar esa, gunohimiz oshib ketganidan xudo bizni ogohlantirayotir, deb azon aytar edilar. Butun shaharni qiy-chuv bosgan, ammo Beruniy miyig'ida kulib, yer kurrasining oyga tushgan soyasi diametrini o'lchash bilan mashg'ul edi. Xorazm tuprog'iga qadam qo'ygan yili yuz bergen bu ajoyib hodisani u boshqalar kabi yomonlik emas, yaxshilik alomati deb bilar edi.

– Avom xalq bu hodisaning sabablarini bilmaganlaridan, xudoning qahri kelgani uchun shunday bo'ldi, deb osongina qutuladurlar. Ulamolar o'z nodonliklarini xudoning nomi bilan niqoblamoqchi bo'ladurlar, – dedi u Abu Nasrga turli handasiy shakllar, raqamlar bilan to'lib ketgan qog'ozni uzatar ekan.

– Bu gapingni mendan boshqa odamga aytma, din peshvolaridan qo'rmoq kerak, – dedi ustoz qog'ozni qo'lga olib, uni ko'zdan kechirarkan. – Iloyo, senga ko'z tegmasin. Aytganingdek, bul hodisa sen uchun ham, yurt uchun ham yaxshilik alomati bo'lsin.

Darhaqiqat, o'sha yildan boshlab Gurganjga har tarafdan olimlar kela boshladilar, shular qatorida ibn Sino ham bor edi. Ular Beruniy atrofiga to'planib, uning falakiyat va tibbiyot sohasida olib borayotgan ilmiy ishlarini kuzatib bordilar.

* * *

Ali ibn Ma'mun qattiq betob, saroy ahli oyoq uchida yurib, shivirlashib gaplashadi. Ibn Sino ipak to'shak ustida qimir etmay yotgan, rangi murdadek oqargan shohning tomirlarini ushlab, yonida turgan tabib al-Masihiyga ko'z qirini tashladi va bilinar-bilinmas bosh chayqab qo'ydi.

Tabiblar o'n uch yil taxtda o'tirib, bearmon hayot surgan, muhabbat sharobi va mayi nobni ortiq-

cha iste'mol qilib, endi darmondan ketgan podshoni o'limdan olib qolish taraddudida, sarkardalar, a'yonlar esa bir xonaga to'planishib, qazo qilsa, taxtiga kimni o'tirg'izamiz, deb bosh qotirishmoqda.

Ba'zilar taxtga podshoning to'qqiz yashar o'g'lini, ba'zilar inisi Abul Abbosni munosib ko'radilar, bir-birlari bilan talashib-tortishadilar.

Abul Abbos o'qimishli, xushfe'l, shu bilan birga maishatparast, irodasiz odam. Bu keyingi xislatlari mamlakatni istagancha tasarruf qilmoq niyatida bo'lgan a'yonlarga juda qo'l keladi. Toj-taxt tevaragida to'plangan olimlar, shoirlar, sozandalar ham uning podsho bo'lishini istaydilar.

Nihoyat, Abul Abbosning tarafdarlari ustun chiqib, boshiga humo qushi qo'ndi. U taxtga o'tirishi bilan ud-daburon va dono As-Suhaylini o'ziga vazir qilib oldi, Mahmud G'aznaviy va O'zgand xoni bilan do'stlik iplarini mustahkamlab, ichki ishlarni tartibga soldi.

Olimlar saroydagagi katta bir xonaga to'planib suhbatlashayotganlarida Abul Abbos Ma'mun ham bir chekkaga qo'yilgan taxt ustida jimgina o'tirar, munozara boshlanganida xuddi pahlavonlarning kurashidan zavqlangan ishqibozlardek jonlanib ketar edi.

Oradan bir necha yil o'tgach, baytul-hikmatning shuhrati har yoqqa tarqalib, dushmanlar ko'nglida hasad, do'stlar qalbida havas uyg'ota boshladi.

V

Yor-birodarlaridan bir nechasi, ibn Sino va Abu Sahl Masihiy G'aznaviy qo'liga tushmaslik uchun Xorazmdan ketib qolgach yuragiga qil sig'may qolgan Beruniy mehnat bilan o'zini ovutishga urinar edi. Keyingi vaqt-

larda u javohirlarning turlari va xosiyatlarini o'rganishga kirishgan edi. Balo o'qiga nishon bo'lmasdan burun bu ishlarini oxirigacha yetkazishga harakat qilar edi. Bir kuni doshqozonda achchiqtosh suviga kahraboni solib qaynatayotgan edi, saroydan farrosh kelib:

– Zoti oliylari sizni chorlayotirlar, zarur bir ish chiqib qolgan ko'rindur, – dedi.

Beruniy noxushlanib, qozon tagidagi olovni tortib, o'chirdi, kahraboni olib qutiga solarkan, u nima uchun qizardi ekan, deb bosh qotirardi. Miyasi bu qimmatba-ho javohirning sirini bilish bilan band ekan, ustidagi korjomasini yechib, yuvindi. Artinib bo'lib, qimmatba-ho shoyi to'nini kiydi, sallasini o'rab, saroya jo'nadi.

Hujrayi xosida o'tirgan yosh podshoh eshik yonida turib ta'zim qilgan olimni chaqirib o'ng tomonidan joy ko'rsatdi.

– Zarur bir ish chiqib qolmasa, sizni bezovta qilmas, ishingizga xalal bermas edim...

– Podshoning amri vojib, – dedi olim kimxob to'shakka o'tirarkan, rangi ro'yi ketib qolgan Abul Abbosga savol nazari bilan qarab.

– Biz uchun baxt eshigi yopilib, ranj-u alam davri boshlanganga o'xshaydur. Kecha G'aznadan qaytgan elchimiz noxush xabarlar keltirdi. Mahmudning vaziri Hasan Maymandiy elchimizni chaqirib olib: «Agar podshohingiz biz bilan do'st bo'lishni istasa, Xorazm masjidlarida juma namozida amiral-muslimin Mahmud G'aznaviy nomlariga xutba o'qitsin», deb maslahat berubbdur. Bu gappa nima deysiz?

– Xo'ja Hasan bamisoli Mahmudning zanjirdagi iti-da! – dedi olim o'zini tutolmay. – Aning akillashi-ga qulq solma. It hurar, karvon kechar. – Abul Abbos o'zidan o'n uch yosh kichik, bir chekkasi shogirdi bo'lgani uchun Beruniy uni sansirab gapirardi.

– Mahmuddek podshoning vaziri hech mahal o‘z hukmdoridan bemaslahat bir gap aytmasa kerak.

– Shundoq. Lekin biz bu gap vazirning o‘zidan chiqqan, deb guman qilishimiz, shul sababdan anga bovar qilmasligimiz kerak.

– Siz Mahmudni bilmayturganga o‘xshaysiz.

– Biladurman. Aning zabardast sarkardalari bor, zaif dushman ustiga balo-qazodek yopirilib boraturgan askarlari behisob. Biz bu baloni daf etish uchun aning dushmanlari bilan ittifoq tuzib, o‘zimizga do‘srlar orttirmog‘imiz zarur. Agar Turkiston xonlari bilan bir yoqadan bosh chiqarsak, Mahmud peshanamizga ham cherta olmas edi.

– Xonlar hokimiyat talashib, bir-birlari bilan bo‘g‘ishayotirlar. Qandoq qilib, biz bilan muttafiq bo‘lurlar!

– Agar alarni bir-birlari bilan yarashtirsak, bizdan minnatdor bo‘lib, beg‘araz do‘s ekanligimizga ishonch hosil qilgusidurlar.

Abul Abbos Ma’mun o‘ylanib qoldi.

– Mayli, men sarkardalar bilan maslahatlashib ko‘ray. Agar kerak bo‘lsa, O‘zgandga Mahmud Jandani yuboramiz. Ul dono va jasur odam. O‘zgandda elchi bo‘lib turganda xonlar orasidan do‘srlar orttirgan. Ammo... – Ma’mun ikkilanib turib qo’shib qo‘ydi:

– Hozircha Xorazmning chekkasidagi biror masjidda Mahmud nomig‘a xutba o‘qitsak...

Beruniy chuqur o‘yga toldi: «Afsuski amiral Suhaylidek uddaburon vazirni haydar yubordi, hozir ahvol mushkullashgan paytda undan bir ma’nili maslahat chiqarmidi?...» deb o‘yladi.

– Hozircha shoshmay turish kerak. Bul to‘g‘rida saraskarlar va raiyat boshliqlariga maslahat solmagan

yaxshi. Alarning kayfiyatları manga ma'lum, g'avg'o ko'targ'usidurlar.

– Mahmudning talabi rostmi, yolg'onligini bilmoq uchun G'aznaga odam yuborsak...

– Hozircha shoshmay tur. Avval o'ylashib ko'raylik, har mushkul masalani ham hal qilish yo'li topiladur.

...Oradan bir qancha vaqt o'tdi. Beruniyni yana sarroyna chorlashdi.

– Yuring, shoh hazratlari sizni istayotirlar, – dedi xos mulozim.

– Nima gap? Tinchlikmi? – deb so'radi olim rang-quti o'chgan mulozimga qarab.

– E, nimasini so'raysiz. Yurt ulug'lari saroy oldiga to'planib g'avg'o ko'tarmoqdalar, shoh hazratlarini haqorat qilmoqdalar...

Beruniy qasrga yaqinlashganda tug' ko'tarib, qilichlarini qinlaridan sug'urib, ovozlarining boricha baqirib so'kinayotgan askarboshilarni ko'rdi.

– Kerak emas bizga bunday nomard podsho! Ma'munlar avlodidan taxtga loyiq odam qurib qolgani yo'q!

– G'aznaviyning tovonini yalayturgan sotqin odam Xorazm taxtiga loyiq emas.

– Uyalmay-netmay, Mahmud nomig'a xutba o'qitaylik, deydi-ya! Xotinining so'ziga kirib, shul ishni qilayotir...

Kap-katta odamlar podshoning xotini, Mahmud G'aznaviyning singlisi Qaljani uyat so'zlar bilan so'kar edilar. G'azabdan titrab-qaqshayotgan yoshi ulug'lar orqasida turgan yoshlari Qalja to'g'risida bir nimalar deb hirninglashar edi.

– O'zingizni bosing, xaloyiq! G'azab vaqtida qilin-gan ishning oqibati afsus-nadomat bo'lg'ay. So'zlarin-gizni eshitdim. Siz haqlisiz, ammo ixtilofni tinchlik

yo'li bilan hal qilaylik. Men shoh huzurlariga kirib, bu achinarli hodisaning sababini bilib chiqay.

Qomatini tik tutib, baland ovoz bilan gapirgan Beruniyning so'zлari olovga sepilgan suvdek ta'sir ko'rgazdi. Bir gap bilan odamni o'ziga tobe qiladigan olimning vajohatini ko'rib, xaloyiq jimb qoldi.

– Mening maslahatimga kirmay, o'shal so'zni oraga solibdilar-da. Men sarkardalarning kayfiyatidan ogoh qilgan edim-ku! Bir kattaning so'ziga kir, bir kichikning, deganlar, – dedi Beruniy shoh huzuriga kirib, eshikni yopgandan keyin.

– Bo'lar ish bo'ldi, ustoz, otilgan o'qni emdi qaytarib bo'lmaydur. Nima qilib bo'lsa-da, alarni tinchiting. Ulug'larga nomimdan oltin-kumush va'da qiling. Mayli, pul ketsa ketsin, ammo qo'ldan saltanat uzugi ketmasin! – dedi rangi o'chgan Abul Abbos hayajon bilan.

Beruniy zinapoyaga chiqib, olomonga xitob qildi:

– Aziz birodarlar, ogoh bo'linglar! Shoh hazratlari sizning sadoqatingizni sinamoq uchun xutba to'g'risidagi gapni oraga solgan ekanlar. Ammo bul fikr ko'ngillari ko'chasidan ham o'tmagan ekan. Xorazm taxtiga sadoqatingizni, dushmanqa adovatin-gizni ko'rib, zoti oliy behad xursand bo'ldilar. Shoh hazratlari sarkarda va raiyat boshliqlarini huzurlariga chorlaydurlar. – Beruniy besh-olti mashhur kishining nomini aytib, ularni ichkariga chaqirdi.

Sarkardalar, boshlarida katta cho'girma, egnilarida zar yoqali oq chakmon, bellarida kumush dastali qilich, shukuh, salobat bilan yurib zinadan ko'tarildilar. Zar to'nli a'yонлар ularga ergashdilar. Ular qabulxonaga kirganlaridan keyin Beruniy shunday dedi:

– Zoti shohonalari sadoqatingizni ko'rib, har birin-gizga ming dinor va bosh-oyoq sarupo in'om qildilar.

Siz tushunmay ul zotning sha'nlariga malomat toshlarini otdingizlar. Salomxonaga kirib alardin kechirim so'rang, ortingizdan man ham kiryayman, chiqqanigizda bul yerda xazinador oltinlar bilan, saroy vaziri sarupolar bilan sizni kutib olg'ay.

Hozirgina Ma'munni sotqinlikda ayblagan a'yon va sarkardalar pulning daragini eshitgach, boshlarini quyi solib, salomxonaga qadam ranjida qildilar.

Mahmud G'aznaviy vaziri Xo'ja Hasan Maymandiy bilan yolg'iz qolgandan keyin:

– Qani, so'yla, Xorazmdan na xabarlar bor? – deb do'rilladi. U sakkiz qirrali, qimmatbaho javohirlar bilan bezalgan oltin taxtning yon suyanchig'iga qo'lini qo'yib, o'ng tomonida o'tirgan vaziriga burgut qarash qildi. Go'yo hozir dushman bilan chopqillasha-digandek egnida mayda po'lat simlardan to'qilgan kalta yenglisovut, belida oltin dastali qilich va xanjar. Burni qayrilgan, yelkasi sal bukchaygan, vajohatidan odam qo'rqa digan Mahmud yirtqich maxluqqa o'xshardi.

– Xorazm elchisi Mahmud Janda O'zgand shahriga behisob sovg'a-salomlar bilan borib, xonlar bilan uchrashibdur, alarni bahamjihat bo'lmoqqa da'vat etibdur. Olingan xabarlargaga ko'ra, elchi xonlarning kissalarini oltin, qo'yinlarini va'dalar bilan to'ldirib, maqsadiga erishganga o'xshaydur. Agar xonlar birlashib, Xorazm bilan ittifoq tuzsalar, alarning bo'yini ga itoat bo'yinturug'ini solmoq mahol.

Mahmud qovog'ini uyib, jimb qoldi.

– Qani, so'yla. Ikki yovni bir-biridan ajratib, avval birini, keyin ikkinchisini urmoq uchun nima qilmoq kerak?

Yovlarning bo'yinlariga itoat sirtmog'ini solishga mohir bo'lgan vazir o'z fikrlarini bayon qila ketdi.

Uning so'zlariga qulq solarkan, Mahmudning yuzi borgan sari yorishib, qahrli ko'zlari jilmayar, ora-sira makkor va sodiq vaziriga savol tashlar edi.

– Borakallo! – dedi u so'zini tamomlagach. – Ma-ning ko'nglimdagi gapni aytding. Ma'mun jasoratsiz odam, ani gapga ko'ndirmoq qiyin emas, ammo xorazmliklar o'jar va jangovar xalq. Agar Xorazm o'zaro urush olovi ichida qolsa, ani zabt etmak oson... Buning uchun ul yerga yana elchi yuborib, barcha jome-larda nomimg'a xutba o'qitmoqni mening nomimdan talab etmoq kerak. Ana o'shanda ko'rasan Xorazmda fitna bo'ronining boshlanishini. Biz fursatdan foy-dalanib, Xorazmni talon-toroj, Ma'munlar to'plagan oltin, kumushlarni yag'vo etgaymiz.

– Inshoollo, tadbir o'qlari orzu nishonasiga bexato borib tekkay!

– Omin, – dedi vazirning issiq nafasidan ruhlangan o'ta mutaassib Mahmud G'aznaviy. – Ammo biz yarim yo'lda qolishni istamaymiz. Sen aytgandek, O'zganda behad sovg'alar bilan Abu Nasr Mishkonni elchi qilib yuboraylik. Hiyla va makr bobida Mahmud Janda ustunmi yo Mishkonmi, o'zing ko'rasan.

Turkiston xonlari huzuriga elchi qilib yuborilgan odam ikki oy o'tmay G'aznaga qaytib keldi va Mahmudning huzuriga kirib, uni muvaffaqiyat bilan muborakbod etdi. Xonlar, agar Xorazm bilan orangizda nizo chiqsa, biz betaraf qolamiz, deb va'da bergen edilar. Mahmud G'aznaviyga keragi shu edi. U xur-sand bo'lib, yangi safarga hozirlana boshladi.

408-sanayiⁿ hijriyaning ilk bahori. Tog'dan esgan izg'irin odamning suyak-suyagidan o'tib ketadi. G'azna shahri shu sovuq kunlarda qizg'in janglarga hozirlanmoqda. Egniga po'stin, yoniga qilich osgan otliq askarlar nayzalar, dubulg'alar uchiga bog'langan bayroqchalarni hilpiratib, karnay, nog'ora sadolari ostida shahardan chiqib ketmoqdalar.

Kobul bilan Qandahor shaharlari o'rtasida, baland tog'lar etagida joylashgan G'azna shahrini Mahmud qaroqchilar uyasiga aylantirgan. Bu yerdan turib u goh Xuroson, goh Turkiston, goh Hindistonga bosqin qiladi, xalqlarni talab, qo'yni-qo'njini to'ldirib qaytadi.

– Bu safar askarlarimiz qay tomonga yo'l olmoqdalar, qay mamlakatning sho'ri quriydi ekan? – deb so'radi ko'k sallali bir kishi yonidagi sherigidan. – Axir sizning amakivachchangiz Xo'ja Hasanning xizmatkori-ku, bilsangiz kerak, mulla Qiyomiddin?

– Bul safar Xorazmning sho'ri quriydiganga o'xshaydur, – dedi Qiyomiddin. – Urush uchun osongina bahona topilib qoldi.

– Qanday bahona?

– Xorazm xalqi isyon ko'tarib, podsholari Abul Abbas Ma'munni va aning bosh vazirini o'ldiribdurlar, Ma'munning jiyani Abulhorisni taxtga o'tirg'izibdurlar. Shohimiz, kuyovimizning qotillarini jazolayman, deb safar kamarini belga bog'laganlar.

– Ajabo, Ma'mun aning kuyovimi edi?

– Iye, gapdan xabaringiz yo'q ekan-da, Ali ibn Ma'mundan tul qolgan Qaljani aning inisi Abul Abbas Ma'munga uzatgan edilar.

ⁿ 1017-yil.

– Tavba, podshohimiz singillarini siyosat quroli qilib, goh u hukmdor, goh bu hukmdorning qo'yniga sola berar ekanlar-da. Ishqilib, Qaljaning boshi omon bo'lsin. Isyonkorlar anga zahmat yetkazmabdurlarmu?

– Mahmud G'aznaviydek hukmdorning singlisiga taaddiy qilaturgan odamning boshi o'nta bo'lishi kerak. Isyonkorlar boshlig'i Aliptakin ani sovg'a-salomlar bilan og'asi huzuriga jo'natibdur. Erta-indin kelib qolsa ajab emas. Qalja ikki arning boshini yedi... – U shivirlab bir narsa degan edi, sallali kulib yubordi.

– Ehtiyot bo'ling, mulla Qiyomiddin, – dedi u o'zini tutib olib. – Bunday gaplar kishining boshiga falokat keltiradur.

– Sizga aytaman-da, og'ajon, bu gapni birovga aytib bo'larmidi!

* * *

Abul Abbos Ma'munning fojiali o'limidan so'ng ko'hna tarixning charxpalagi tezroq aylana boshladi. Ehtiyotkor Mahmud sovg'a-salomlar bilan singlisi va kuyovining qotillarini yuborishni talab etdi. Aliptakin uning birinchi talabini darhol qondirdi, o'ziga yoq-magan besh-olti amaldorning qo'l-oyog'ini bog'latib, ularni ham jo'natdi. Ammo Mahmud, harbiy hozirli-gi tugagandan keyin talabni kattaroq qo'ydi. U Aliptakinning o'zini zanjirband qilib yuborishni Xorazm-shohdan talab etdi. Hukumat boshida turgan shaxs, albatta, yurtning tinchligi uchun o'zini qurban etishni istamasdi. U urushga hozirlanib, o'zining yordamchilari Sayyodtakin va Xumortosh bilan ellik ming otliq arkar to'plab, Hazorasp yaqinida Mahmudni kutdi.

G'azna va Balxdan chiqqan dushman qo'shini Jay-hun daryosi bo'ylab shimolga tomon yurish boshladi.

Mahmud G'aznaviy qo'shinining ilg'or qismi Hazoraspqa yaqinlashganda Xumortosh o'z qo'li ostidagi qism bilan uni tor-mor keltirdi. Bundan xabar topgan Mahmud zudlik bilan yurib, Aliptakin ustiga tashlandi. Xorazm otliq askarlari karnay, surnay, nog'ora sadolari ostida dushman bilan chopqillasha boshladilar. Ahvoli mushkullashganda Mahmud fillarni ishga soldi. Besh yuz filning na'rsasi karnay, nog'oralarning tovushini bosib ketdi. Xorazm otlari hurkib, jang maydoniga yo'layolmay qoldi. Fillar xartumi bilan otliqlarni o'rabi olib yerga urar, bosib o'dirardi. Mayib bo'lgan otlarning kishnashi, odamlarning faryodi hamma yoqni bosib ketdi, o't-o'lalar qip-qizil qonga bo'yaldi.

Mahmudning qo'shini sarosimaga tushgan Xorazm otliqlarini o'rabi olib, qira boshladi. Aliptakin askarlaridan juda oz qismigina fillardan qutului, omon qolganlari asir tushdi.

Jang suronidan qizib ketgan Mahmud bandi qilib keltirilgan Aliptakin, Sayyodtakin va Xumortoshga ijirg'anib nazar tashladi-da:

– Emdi nima degan odam bo'ldilaring, – dedi xirillab. – Qo'llaringdan kelgani shu ekan-ku!

– Agar fillaring bo'l maganida biz dodingni berar edik, – dedi qo'li orqasiga bog'langan Xumortosh g'azab bilan.

– Sanlarni gapga bichgan. Mard bo'lsang, askaringni to'plab, urishib ko'r-chi! Qo'lingni yechdirib yuboram. Qani ko'raylik holingni. Fillarimni endi ishga solmayman... Ha, nafasing ichingga tushib ketdi-a? Xorazmliklarning orqasiga hali amri ma'ruf qamchisi tegmagan. Man ko'zlarining ochib qo'yaman.

– San – qaltabon¹² ko'p chirana verma. Sandaqalar dan nechtasi yurtimizga kelib ketgan.

¹² Qaltabon – qaroqchi.

Ko‘zlariga qon yugurgan Mahmud o‘zini tutolmay:

– Fil oyog‘i ostiga tashlanglar bul valadni! – dedi.

Katta bir qoyatoshga o‘xshagan beso‘naqay fil bo‘ynida o‘tirgan filbonning amrini bajo keltirib, oyog‘i ostiga tashlangan sarkardani ko‘kragidan bosib majaqladi.

Fillar oyoqlari ostida majaqlangan sarkardalarni qayrilma tishlari ustiga qo‘yib asta yura boshladilar.

– Gurganjga borg‘onimizda kuyovimizning go‘ri ustiga uch yog‘och o‘rnatib, bularni alarga mixlatib qo‘yamiz, – dedi taskin topgan Mahmud.

* * *

Omadi yurishgan toshyurak G‘aznaviy nifoq bo‘roni xarob etgan o‘lkani osonlikcha bosib oldi. Ma‘munlar to‘plagan oltin, kumush va qimmatbaho javohirlarga ega chiqdi...

Asir qilib olingan bir talay yosh askarlar va xalq ichidan tanlab olingan qizlarni soqchilar nazoratida G‘aznaga jo‘nata boshladilar. Tuyalarning ikki tomonidagi kajavalarda o‘tirgan qizlar piqillab yig‘lashar, bolalaridan ayrilib qolgan onalar ular ketidan yugurib, nola qilar edilar. Soqchilar tuyalar oyog‘i ostiga kelib qolgan kampirlarni turtib chetga surar: «Ovozlarining o‘chir!.. » deb o‘shqirar edilar.

Asirlar orasida Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr ibn Iroq, Abdusamad va boshqa odamlar ham bor edi. Ajal kelsa tayyor turgan Beruniy tuya ustida qomati ni tik tutib o‘tirar edi. U g‘amdan bukchayib qolgan hakim Abdusamadga achinardi.

Sochlariqa qirov tushgan Abu Nasr ibn Iroq esa ro‘molchaga tugib olgan bir hovuch ona yurt tuprog‘ini bag‘riga bosib, jonajon Vatani bilan vido lashar, ko‘zlaridan ikki betiga oqib tushgan yosh of tobda marvariddek yaltirar edi.

VII

Uzoq safardan qaytib kelgan Mahmud G'aznaviy shahar tashqarisidagi bog'da orom olmoqda. Atrofida-gi mevali daraxtlarning soyasi tushib turgan sarhovuz bo'yi salqin, g'ir-g'ir esgan shabada sakkiz qirrali oltin taxt ustida chordana qurib o'tirgan sultonning egnida-gi yengil ipak to'nni asta hilpiratadi. Qo'lida Gurganj ustalari naqsh solgan kumush qadah, qirra burni bir oz qizargan, xiyol qiyiq ko'zlarida tabassum.

Nifoq bo'roni xarob etgan Xorazmni osonlikcha zabit etib, behisob o'ljalar, ayniqsa, Ma'mun saroyi-ning shuhratini olamga yoygan olimlarni asir qilib olib keltirganidan behad mammun.

Afsuski, ular orasida ulug' donishmand ibn Sino yo'q. Mahmud Xorazmga yetib bormasdan burun u qayoqqadir qochib ketmish, ammo uni yer ostidan bo'lsa ham toptirgusidir. Axir, Mahmud G'aznaviy olim va shoirlarning homiysi sifatida ham nom chiqarmoqchi-ku!

Shu tobda uning ko'ngli donishmand odamlar suhbatini tusab qoldi, qars urib farroshni chaqirdi va dарhol xorazmlik olimlarni boshlab kelishni buyurdi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, hassaga tayangan, qoshlarigacha oqarib ketgan Abu Nasr ibn Iroq, qizil yuzli, barvasta Beruniy, qasidago'yligi aftidan bilinib turgan shoir Abu Mansur taxt ro'parasiga kelib, ta'zim qildilar. Sultan ularga iltifot qilib, yonidan joy ko'rsatdi. Kelganlar qalin turkman gilamlariga o'tirganlaridan so'ng sulton ular bilan hol-ahvol so'rashdi.

- Yo'l azobi orqada qolib ketdi, emdi jannatmonand poytaxtimiz G'aznada rohat-farog'at bilan umrguzaronlik qilinglar. Sizlar uchun imkoniyat eshiklari ochiq, sirlar qutisidan hikmat gavharlarini olib, qu-

log‘imga taqinglar, men hamyoningizni siymu zar bilan to‘ldiray. Hammasi sizning davlatimizga bo‘lgan ixlosingizga bog‘liq...

Uning gaplarini eshitib, Beruniyning ensasi qotdi. G‘aznaga yetib kelishi bilan Abdusamadni qatl ettirgan Mahmud endi o‘zini ilm-u ma’rifat homiysi qilib ko‘rsatmoqchi! Olim o‘zini tutolmay:

– Afsuski, qatorimizda ustoz Abdusamad Avval yo‘qlar, ma’rifat imoratining bir ustuni yiqilib tushdi,
– deb yubordi.

Bu gap Mahmudning g‘azabini qaynatgan bo‘lsada, o‘zini bosdi.

...Ellik yil ilgari somoniylarning sipohsolori keksa Aliptakin Mahmudning otasi Sabukni Nishopurdagi qul bozoridan sotib olgan edi. Asli oti Sevik yoki Sebik bo‘lgan bu majusiy turk yigitni keyinchalik ot minishni, qilich urish, o‘q otishni o‘rgandi va bu bobda boshqalarga dars beradigan bo‘ldi. Xo‘jasи og‘iz juftlamasdan burun uning nima demoqchi ekanini bilar va har buyrug‘ini aytganidan ortiq qilib bajarardi. Bir necha yil ichida u xizmat bosqichining eng yuqori pog‘onasi ga chiqib, takin (biy) degan unvonni oldi, Aliptakin o‘lgandan so‘ng G‘azna viloyatiga hokim qilib belgilandi va Buxoro podshosiga sidqidildan xizmat qila boshladi. Sabuktakinning o‘g‘illari ichida Mahmud o‘zining fahm-farosati, jasorati bilan ajralib turardi. Shu sababdan otasi uni doim o‘zi bilan olib yurar, unga sarkardalik san’atini o‘rgatardi. Sabuktakin o‘lgandan keyin qo‘sishin boshida bo‘lgan Mahmud poytaxtni osonlikcha ishg‘ol etib, o‘zini amir deb e’lon qildi. Somoniylar yiqilgach, Jayhunning so‘l tomonidagi yerlarni o‘ziga qaratib, mustaqil hukmdor bo‘lib oldi...

Mana endi Xorazmni ham zabit etib, ulug' bir mamlakatga hukmdor bo'lgan qulning o'g'li bilan ulug' olim ro'para kelib turibdi. «Nahotki, toj-u taxt, shon-u shavkat odamni shu qadar buzsa! – deb o'yla-di Beruniy Mahmudning ko'zlariga qarab. – Davlat tizginini qo'lga olganidan keyin o'z hamjinslarini unutdi, faqir-u fuqaroni, qullarni ezib, qonini icha boshladi. Bu qanday bedodlik!»

Abu Nasr Mansur shogirdining vajohatini ko'rib, uni kishi bilmas sekin turtib qo'ydi. Shundan keyin Beruniy yerga qarab, yuziga itoatkorlik tusini berdi.

Mahmud hozir g'azab qilish o'rinsiz ekanini fahm-lab, gapni boshqa yoqqa burdi:

– Ko'nglimni shubha tutuni bilan to'ldirgan bir savolga javob olmoq uchun sizlarni bu yerga chaqir-tirdim, – dedi u. – Kuni kecha tunyoqdan kelgan bir vakilni qabul etgan edim. Tili turkiy tilga biroz o'xshaydur. Gapdan gap chiqib, bizning tomonlarda yoz chillasidan qish chillasigacha quyosh botmaydur, qish chillasidan boshlab oftobni olti oy ko'rmaymiz, dedi. Axir, bir kecha-kunduz yigirma to'rt soatg'a barobar-ku! Nahotki, alarning bir kuni bizning bir yuz sakson kunimizga teng bo'lsa! Andog' bo'lsa, ul yerlarda musulmon kishi ro'zani qanday tutadur! Men uni kazzoblikda ayblab, zindonga tashladim. Ani qatl ettirishdan oldin so'zlari qanchalik to'g'ri ekanligini sizlardan so'rab bilmoxchi bo'ldim.

– Yaxshi ish qilibsiz! – deb yubordi Beruniy. – Ijozat bersangiz... sizni qiy nab qo'ygan bu savolga javob qilsam. – U hayajonlangandi, chunki gap bir begunoh odamning hayot-mamoti ustida ketayotgan edi.

Mahmud xo'mrayib: «Ayt!» degandek bosh irg'ab qo'ydi.

– Oftob ufq chizig‘idan pastda bo‘lgan vaqt ni biz tun deb ataymiz, – deb gap boshladi Beruniy. – Tun va kunning uzoqligi yil fasllariga va mamlakatlarning jug‘rofiy vaziyatiga bog‘liq. Ma’lumingizki, bu yerlarda qish faslida tun uzoq, kunduzi qisqaroq, yozda esa aksincha, kun uzoq, tun qisqa bo‘lur. Xatti ustuvoda, ya’ni yer kurrasining belbog‘ida tun va kun har vaqt bir-biriga bab-barobar. Bizda yilda ikki marotabagini kun bilan tun barobar bo‘ladur. Shimolga qarab ketgan sari qishda tunlar bizdagidan uzunroq, kunlar qisqaroq bo‘lur. Bas, shunday ekan, qutbga yaqin yerlarda qish faslida olti oy kecha, yozda olti oy kunduz bo‘lishi tabiiy holdur...

Olim o‘z fikrlarini har qanday odamga tushuntirishga mohir bo‘lsa-da, gaplari podshohga borib yetmaganini ko‘rib, boshqacha dalillar axtara boshladi. Dunyoviy ilmlardan bexabar, mutaassib Mahmudga faqat diniy dalillargina ta’sir qila olardi. Beruniy buni anglab, gapni boshqa tomonga burdi:

– Tunyoq odamlari islom dinini qabul qilmaganlar, – dedi u istehzo aralash jilmayib. – Shul sababdan xudo qish faslida alarga oftob jamolini ko‘rsatmasa, bunda hayron qolarlik narsa yo‘q.

Beruniyning bu gapi podshoga ma’qul tushib, iljayib qo‘ydi.

– Ana, o‘zingizga keldingiz, Abu Rayhon, gapla-ringiz emdi ma’no kasb etdi. Rostdan ham qutb tomonidan kelgan vakil meni aldamaganga o‘xshaydur, – dedi va eshik oldida turgan mulozimga vazir Hasanakni chaqirib kelishni buyurdi.

– Anovi tunyoqdan kelgan vakilni darhol zindondan chiqarib yubor, – dedi u boshiga kuloh, egniga ipak chopon kiygan vaziri huzuriga kelgach. – Ani xursand qilib, sovg‘a-salomlar bilan yurtiga jo‘nat!

– Bosh ustiga, – dedi Hasanak orqasi bilan yurib chiqib ketayotib.

* * *

Boshda Mahmud Beruniyning donoligiga qoyil qolgan bo'lsa ham, o'zining nohaq, uning haqli bo'lib chiqqani alam qilib ketdi. «Mendek ulug' podshoning oldida boshini nor tuyadek baland ko'tarib, mag'rurlik bilan javob berishini qara-ya! Bora-bora meni mensimay qo'yadi, bu valad! Agar hoziroq burniga buyda taqmasam, keyin jilovini tutqazmaydi», deb o'yladi u. Tevarak-atrofdagi odamlar xorazmlik olimni maqtaganlarida uning zardasi qaynab ketar, bu maqtovlar unga ta'nadek tuyular edi. Har safar: «Jilovlab olmasam, menga bosh bermay qo'yadi!» deb o'ylardi u.

Bir kuni Beruniy o'z hujrasida mutolaa qilib o'tirganida ostonada saroy mulozimi paydo bo'ldi.

– Xo'sh, xizmat? – dedi olim boshini kitobdan ko'tarib.

– Zoti oliy sizni ko'rmoqni istaydurlar.

Olim darhol yo'lga otlandi. U salomxona eshididan kirganda jamoat jam, sulton to'rdagi oltin taxt ustida, pastda olimlar, shoirlar qo'l qovushtirib o'tirar edilar. Beruniy ta'zim bajo keltirgandan so'ng ustozi Abu Nasr Mansur yoniga borib o'tirdi. Mahmud uni ko'rishi bilan qoshlari chimirilib, yuzida noxushlik alomati paydo bo'ldi-yu, keyin o'zini tutib olib, bosh irg'ab qo'ydi va u bilan hol-ahvol so'rashib bo'lgandan so'ng:

– Odamlarning aytishicha, dunyoda san bilmagan sir qolmagan emish, yer-u ko'kdagi barcha asrordan voqif emishsan, – deb qoldi.

– Qulqoqqa kirgan hargapga inonib bo'lmaydur, – dedi Beruniy boshini ko'tarib. – Eshitgan har gapni amalda sinab, aning qanchalik to'g'rilingini bilsa bo'ladur.

- O'zim ham san to'g'ringda eshitgan gaplarni sinab ko'rmoq niyatida edim. Dunyoning sirru asrori mahraming bo'lsa, qani ayt-chi, hozir shu eshiklarning qay biridan chiqib keturmen!

Salomxonaning sakkiz eshigi bo'lib, hammasi olimni yutishga hozirlangan ajdahodek og'zini lang ochib turar edi.

Beruniy, bu savolning ilmga taalluqligi yo'q, deb yuborayozdi-yu, lekin o'zini tutib:

- E shohi zamon, menga boshqa savol bering, - dedi. - Hozir yulduzlarning holati, alar orasidagi masofa yoki javohirlar turlari va xosiyatlari va hokazolarni so'rang, shundagina mening ilmi hikmat va falakiyot xazinasidan qanchalik nasibador ekanimni bilursiz.

- Agar yulduzlarning holati senga ma'lum bo'lsa, shularga boqib nima ish qilmoqchi bo'lganimni ayt olursan. Qaysi eshikdan chiqib ketishimni bir qog'ozga yoz, men ani to'shagim ostiga qo'yay. Chiqib ketgandan so'ng, yana qaytib kelib, xatingni o'qib, sening sir-asror olamidan qanchalik xabardor ekaningga qanoat hosil qilurmen.

Keksa Abu Nasr Mansur podshohnining aql oynasini safro bosganini va buning oqibati shogirdi uchun yomon bo'lishini his qilib, ko'ziga dunyo qorong'i bo'lib ketdi. Beruniy esa o'yga toldi. Sakkiz eshikning qay biridan chiqib ketishini oldindan bilib bo'lmaydi. Tavakkal qilib, falon eshikdan chiqib ketasiz, deb yozsa-yu, taxmini tasodifan to'g'ri chiqib qolsa, unda Mahmudning o'zi mot bo'ladi-ku. Buni u hisobga olganmikin? Janglarda g'animing niyatini payqab, kutilmagan tomondan hujum qilishni yaxshi biladi-gan Mahmud albatta buni hisobga olgan. U bir marotaba mot bo'ldi, ikkinchi bor mag'lubiyatga uchrashni istamaydi. Shuning uchun hech kimning aqliga

kelmagan ishni qiladi. Shu eshiklarning hech biridan chiqib ketmaydi. Olim shularni o'ylab, tevarak-atrofga ko'z yogurtirdi va to'satdan miyasiga kelgan fikrdan yuzi yorishib ketdi. Go'yo podshohning niyatini bilmoqchi bo'lgandek, o'rnidan turdi-da, usturlobni Mahmudning peshonasiga to'g'rilab, bandini aylan-tirdi. «Jinni bo'lib qoldimi shogirdim? Bu o'ta mas-xarabozlik-ku! Bu yerda usturlobga balo bormi? – deb o'yadi Abu Nasr Mansur tang qolib, lekin bir lahzadan keyin o'ziga kelib miyig'ida kului: – Dunyoviy ilmlardan bebahra Mahmudni kalaka qilish uchun shundan boshqa chora yo'q. Eshagiga yarasha tushovi. Bu safar ham Abu Rayhon podshoni mot qilsa ajab emas, lekin u buning oqibatini o'ylayotganmikin?...»

Beruniy esa podshoga eshittirib: «Qay eshikdan chiqib ketishlari menga ayon bo'ldi», deya juzdonidan bir varaq qog'oz, qalamdonidan davot va qalam oldi, bir narsalarni yozib, qog'ozni vazirga uzatdi. Abu Nasr munozaradan g'olib chiqqandek ko'ksini kerib yoniga kelib o'tirgan shogirdiga qaradi. Salomxonada bo'lgan olimlar, shoirlar podshoh bilan Beruniy o'rtasidagi bu olishuvning oqibatini sabrsizlik bilan kutar edilar. Mahmud qog'ozni qo'lida aylantirib, to'shagi ostiga tiqib qo'ydi-da, vaziri Hasanakka qarab, qoshini kerdi. Vazir chiqib ketgandan keyin taxtning ro'parasidagi devor orqasidan gursillagan ovozlar eshitila boshladi. Hamma ajablanib o'sha yoqqa qarab qoldi. Bir necha daqiqadan so'ng devor teshilib, biri qo'lida tesha, ikkinchisi misrang ushlagan ikki ustaning kallasi ko'rindi. Ular g'ishtlarni birin-ketin olib, oyoqlari ostiga qo'ya boshladilar. Ro'paradagi devorda odam bo'yi teshik paydo bo'lgandan keyin Mahmud G'aznaviy taxtdan tushdi va boshini ko'tarib o'sha teshikdan tashqariga chiqib ketdi. Hukmdorning qaysi eshikdan chiqib ketishini

bilmay boshlari qotgan ulamo va shoirlar unga tasanno o'qib, hayrat barmoqlarini tishlab qoldilar. Ko'p o'tmay, Mahmud vaziri Hasanak bilan salomxonaga kirib keldi. Hamma gur etib o'rnidan gurib, ta'zim qilganicha qotib qoldi. Mahmud taxtga o'tirganidan so'ng to'shak ostidan xatni olib o'qidi-yu, rangi quv o'chib ketdi. Ko'zlariga ishonmagandek yana o'qib, badanidagi har bir mo'yи tik bo'ldi. Nihoyat, do'rillagan ovoz bilan:

– Hammangizga javob, meni yolg'iz qo'ying! – dedi.

Hang-mang bo'lib qolgan odamlar o'rinlaridan turib, oyoq uchida chiqib ketdilar. Ular qog'ozda nima yozilganini bilmay, garang edilar. Eshikdan chiqqanlaridan keyin Abu Nasr shogirdiga savol nazari bilan qaragan edi, u:

– Xatga, hech bir eshikdan chiqib ketmaysiz. Ro'paradagi devorni buzdirib, teshikdan chiqib keta-siz, deb yozgan edim, – deb javob qildi.

– O'ylaganini topibdursan-da, farosatingga qoyil-man. Ammo bu qadar donolikning, hozirjavoblikning xavfli ekanini bilar eding-ku! Nega bunday qilding?

– Men bilan o'chakishgan odam oldida o'zimni yerga urolmaymen. Ko'lmak suvdek yuzimga pardatutib, jim turishga toqatim qolmaydur.

– San bilan o'chakishgan odam ulug' mamlakat podshosi ekanini unutmasang bo'lur edi.

– Na qilay, bo'lgan-turganim shul. Ba'zan aql tizginiñ izzati nafs ixtiyoriga berib qo'yurmen.

– Xudo o'zi sani falokatlardan asrasin!

Hamma salomxonadan chiqib ketgandan so'ng Mahmud vaziri Xo'ja Hasanakka shunday dedi:

– Jamiki olamning kaliti qo'limda deb mag'rurlanib ketgan Azozil Odam Alayhissalom oldida sajda qilmagani uchun jannatdan quvilgan, farishtalar

uning orqasidan tosh otib qolgan edilar. Beruniy ham kibr-u havoga berilib, ulug'larni mensimay qo'ydi. Xatni topshirgandan keyin ko'ksini kerib o'tirdi-ya! Adabini berib qo'yemoq kerak uning!

– Rost aytdingiz. Yuganga bosh bermay qo'ygan otni jilovidan mahkamroq tortib haydaydurlar.

– Xuddi ko'nglimdag'i gapni topding. Jazosini berib, ko'zini ochib qo'yaylik. Ikki qo'lini bog'lab, saroy tomidan tashlab yubormoq kerak!

Bu gapni eshitib, Hasanakning hushi boshidan uchdi. Saroy tomi shu qadar baland ediki, u yerdan pastga qulagan kishi til tortmay o'lishi muqarrar. U boshini ko'tarib, sultonga qaradi. Mahmud G'aznaviyning yuzi qizarib, ko'zlari o't sochib turar edi.

– Yo, shohi zamon. Qadimgi donishmandlar, g'a-zab vaqtida qilingan ishning oqibati pushaymonlik bo'lur, deganlar. Yalinib so'rayman, bul ishni ertaga qoldirsak...

– Men aytgan so'zimni qaytarib olmayman, – dedi Mahmud mushtini qisib. – Farmonimni bajo keltirishing shart, bo'lmasa boshing ketadur.

– Men boshimni siz uchun qurban qilishga tayyormen, e shohi zamon. Beruniy har qanday og'ir jazoga loyiq, ammo o'limga hukm qilmang. Tomdan tashlab yuborilsa, til tortmay o'ladur.

– O'ladurmi, qoladurmi – bu bilan ishim yo'q. Ammo so'zim – so'z!

Hushyor vazir podshohning amrini o'z bilganicha ijro etishga, lekin six ham, kabob ham kuymas qabilda ish ko'rishga qaror qildi.

– Har amringizga mute, har farmoningizga tobedurmen, – deya ta'zim qilganicha orqasi bilan yurib chiqib ketdi va mulozimiga saroy hovlisini sumpurtirib, tartibga keltirib qo'yishni buyurdi.

Beruniy hujrasida qo'li ishga bormay, falokat nayzasi qay tomondan kelib sanchilishini kutib turardi. To'rtta barvasta yigit hujrasiga bostirib kirishi bilan pinagini buzmay o'rnidan turdi. Yigitlarning biri qo'lini orqasiga bog'lamoqchi bo'lganida bir ijirg'anib, uning qo'lidan o'zini bo'shatib oldi.

– O'ldirmoqchi bo'lsang, qo'limni bog'lama. O'lim jari yoqasiga o'z erkim bilan borgaymen!

Uni sudrab saroy tomiga olib chiqdilar va qo'l-yog'idan ushlab hovli sahniga otib yubordilar. «O'ldim!» deb beixtiyor ko'zini yumib olgan olim paxta ustiga tortib qo'yilgan to'r ustiga tushib ko'zini ochdi. Chap qo'lining jimjilog'i sirqirab og'rir edi. Shu payt ikki yigit qo'ltig'idan olib, turg'izib qo'ydi.

Rang-ro'yi soqolidek oqarib ketgan Abu Nasr Mansur hassasiga tayanib, hujraga kirganda Beruniy to'rdagi to'shak ustida, oq latta bilan bog'lab qo'ygan jimjilog'ini ko'tarib yotar edi.

– Xudoga shukur, tirik qolibdursen. Hech yering lat yemadimi?

– Jimjilog'im chiqqan ekan, joyiga solib qo'ydim. Boshqa hech yerim shikastlangani yo'q.

– Ming qatla shukurki, omon qolibsen. Mahmud men o'ylagandan ko'ra makkorroq ekan. Seni tomdan tashlatib yuborib, tushaturgan yeringga paxta yoydirib qo'yibdur. Hushingni joyiga keltirmoqchi, ko'zingni ochib qo'ymoqchi bo'lgan-da!

– Rost aytdingiz, bundan so'ng ehtiyotkor bo'lmoq, ilm uchun o'z shaxsiy ozodligimizdan kechib, har qanday jabr-zulmga bardosh bermog'imiz kerak.

– Biz ilm bilan shug'ullanmoqqa qayerda imkon topsak, erkimiz o'shal yerda, – dedi Abu Nasr.

Ustoz bilan shogird yuraklarining chigilini yozish uchun allamahalgacha dardlashib o'tirdilar.

Bir kuni Mahmud G'aznaviy shahar tashqarisida, hovuz bo'yida qavat-qavat solingan gilamlar ustida chordana qurib o'tirib:

– Agar Beruniy hayot bo'lganda miyamni qotirgan bir muammoni yechib bergan bo'lur edi, – deb qoldi.

– Ijozat bersalar, uni yer ostidan bo'lsa ham topib keltiray, – dedi quyiroqda, shoir Unsuriy bilan yonma-yon o'tirgan Hasanak.

– Qanday qilib? Ajabo, sen o'shal kuni amrimni bajarmanmi eding?

– Xuddi siz aytgandek qilgan edim. Ammo janoblari ulug' olimni yana bir bor ko'rishni istab qolarsiz, degan andisha bilan aning hayotini saqlash uchun bir hiyla ishlatib edim. Bir qoshiq qonimdan kechsangiz, aytib berurmen.

– Ayt!

Vazir bo'lgan voqeani ipidan-ignasigacha gapirib bergandan so'ng Mahmud G'aznaviyning chehrasi ochilib, Beruniyni darhol huzuriga keltirishni buyurdi.

Yer tagida ilon qimirlasa biladigan Mahmud Beruniyning tirikligidan xabardor ekanligi, o'zini bilmaslikka solib yurganligi vazirga ayon edi. O'z hukmdorining riyokorligi, ustamonligini yaxshi bilgan vazir o'zini go'lllikka solib, qulluq bajo keltirdi.

Oradan birmuncha vaqt o'tgandan keyin Beruniy podshoh huzuriga kelib, ta'zim qildi. Podshoh biroz oriqlab, qirra burni kattalashib qolgan olimga razm solib, uning shahdidan tushganini, taqdirga tan bergenini, lekin aqli, jilovlab olingan irodasi hali ham sinmaganini payqadi. Oradan hech gap o'tmagandek u bilan hol-ahvol so'rashib, o'tirishni taklif qildi. Beruniy G'aznaviyning har xil ilmiy mavzularda olim-

lar bilan suhbat qilishni yaxshi ko‘rishligini bilar edi. Shuning uchun uning savollariga yotig‘i bilan javob berishga hozirlanib, yuziga xayrixohlik tusini berdi.

Mahmud bugun ertalab xazinasiga kirib, sandiqlardagi rang-barang javohirlarning tovlanishini tomosha qilib, ko‘ngli joyiga tushgan, shu sababdan chehrasi botib borayotgan quyoshdek sokin edi. U javohirlarning turlari va xosiyatlari to‘g‘risida gapirib berishni so‘radi.

– Javohirlarning eng qimmatlisi yoquttdur, – deb gap boshladi Beruniy. – Lekin alarning turlari ko‘p. Oq, ko‘k, sariq va qizil rangli yoqutlar bor. Eng qimmatlisi anor donasiga o‘xshab tovlanib turadur.

La’l esa yoqutga nisbatan yumaloqroq, qizil, tiniq va ravshan javohir turur...

Olim javohirlarning turlari va sifatlari to‘g‘risida gapirar ekan, Mahmudning ko‘ziga xazinasidagi rang-barang yoqutlar ko‘rinib ketgandek bo‘ldi va saxiyligi tutib ketib, vaziriga yuzlandi-da:

– Abu Rayhon Beruniy janoblariga egarlog‘liq arabiylot, ming dinor va xizmatini qilib turish uchun bir g‘ulom in’om qildim, xazinador va miroxo‘rga farmonimni yetkaz! – dedi.

Pastroqda chordana qurib o‘tirgan kotib chap tizzasi ustidagi qog‘ozga uning farmonini yozib qo‘ydi.

ISKANDAR VA SPITAMEN



Bo'tana suvli Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi qoyalar orasida ikki kishi qo'llarini peshonalariga qo'yib, so'l qirg'oqdagi manzarani ko'zdan kechirmoqda. Boshlarida ingichka uchli namat qalpoq, oyoqlarida uchi qayrilgan yumshoq etik, kamar bilan tang'ilgan bellarida qilich va o'q-yoy. Ularning biri o'rta yosh, baland bo'yli, sochlari oqara boshlagan, vajohatidan hukmdorlarga o'xshaydi. Ikkinchisi – undan kichikroq, g'o'labir, miqtidan kelgan, serharakat, ko'zlarini o'tkir odam.

Ular ko'm-ko'k tepaliklar, soyliklarga tikilgan minglarcha rang-barang chodirlarni, u yoqdan bu yoqqa yurgan yaltiroq dubulg'ali,sovutli yunon askarlari ni kuzatishmoqda. Barvasta kishi keng peshanasini burishtirib, uzoqdagagi chodirlar orasidan chiqib kelayotgan olomonga tikilib qoldi.

– Taxshod, qara, ular nima qilayotirlar? Bu nima jinnilik?

Bir to'da kishi daryo tomon kelayotgan edi. Ular oldida bir necha sozanda nay va do'mbira chalib kelardi. Echki terisiga burkangan, boshiga echki shoxi qadab olgan mast-alast odamlar soqollarini silkita-silkita ashula aytib, qadam tashlardilar. Ustiga yo'lbars terisi tashlangan oq eshak ustiga mingan yigit ham yelkasiiga echki terisi tashlab olgan, boshiga endi barg chiqarib kelayotgan tok novdalaridan gulchambar taqqan. Uning atrofida yuzlarini qizilga bo'yagan yarim yalang'och juvonlar raqs tushar, qo'llariga bo'g'zi in-

gichka sharob idish tutgan yigitlar esa ashulani baral-la kuylab kelar edilar.

Eron shohiga qarashli Kichik Osiyo shaharlarida yoshligidan askarlik burchini o'tab kelgan va yunon tilini oz-moz biladigan, ularning urf-odatlari bilan tanish bo'lgan Taxshod iljayib:

– Yunoniylar har bahor tok barg chiqargan paytda shunday vaqtichog'lik qiladurlar, – dedi. – Xursand-chilik va sharob xudosiga madhiya o'qiydilar, o'shal xudolarining oti allanima edi, esimdan chiqibdur. O'rtadagi eshak ustida o'tirgani – Iskandarning o'zi. Uning asli nomi – Aleksandr.

– Iye, rostdanmi? O'sha jikkak yigit ularning podshosimi, a?!

– Ha, yigirma yoshda taxtga o'tirgan Iskandar – Filipp posning o'g'li. U ota-bobolarining urf-odatlariga qattiq rioya qiladi. Qarang, Iskandar eshakdan yerga tushdi, ana, do'nglik ustiga chiqib, xonish qilayotgan hofizlarga qulqo solayotir...

Iskandar qadimgi yunonlarning odatiga amal qilib, Dionis bayramini o'tkazayotgani uchun uning sarkardalari, a'yonlari, ayniqsa, u bilan birga bir ona sutini emib o'sgan ko'kaldoshi Klit juda xursand edilar.

Keyingi vaqlarda Filippning o'g'li Eron shohlari saroyidagi ba'zi urf-odatlarni qo'llab, yaqin do'stlarining ta'bini xira qilgan edi. Chunonchi, Iskandar huzuriga kirganda tobelari eroniylar singari tiz bukib, yer o'pishlari kerak edi. Klit bunga qarshi bir necha marotaba norozilik bildirgan bo'lsa-da, podsho uning gapiga parvo qilmadi. Mana endi podsho do'stlarining ko'ngli uchun sharob xudosiga bag'ishlangan tantanalarda qatnashyapti.

Biroq, bu safar Iskandarning ko'ngli joyiga tushmadi. Negaki, o'z elida ibodatxonalar bilan qurshalgan

maydonlarda o'tkaziladigan bunday bayramda bokira qizlar qo'shiq aytib, uning atrofida raqs etar, ulardan atrofga ma'sumlik va iffat hidi taralar edi. Bu yerda esa qo'shin orqasidan ergashib kelgan yengiltak juvonlar uning tevaragini qurshab olganlar. U: "Tuf-e! Xo'ja-ko'rsinga o'tkazilayotgan bu bayram Dionis xotirasiga haqorat-ku! Qani o'sha pokiza qizlar, oppoq soqolli nuroniy chollar?.." deya xayolidan o'tkazib, kalta ko'ylaklari ostidan boldirlari ko'rinish turgan, yelkalari ochiq, yuzlariga upa-eliq surtilgan suyuqyoq qizlaraga nafrat bilan qarab qo'ydi.

Agar u vatandoshlarining e'tiqodlarini tahqir etish-dan qo'rmasa, hoziroq bu tantanalarni to'xtatar edi. Ammo na chora? Dionisning boshidan kechirgan sarguzashtlarini hikoya qilayotgan hofizning xonishiga sabr bilan qulq solish kerak. Taomil shu!

Olomon daryo bo'yidagi ko'kalamzorga yozilgan dasturxon yoniga o'tirib, ichkilik bazmini boshla-moqchi bo'lib turganida chakkasini qonli latta bilan bog'lagan, dubulg'ali, charm Sovutli bir jangchi ot choptirib kelib, egardan tushdi va tiz cho'kib:

– Ey, ulug' podsho, shumxabar keltirganim uchun meni afv et! – deb xirilladi.

– Ayt, nima gap? – Iskandar ustidagi echki terisi bilan boshidagi gulchambarni chetga uloqtirdi. Mulozimlar darhol unga uzun ko'ylakka o'xshash to'q qizil libosini kiygizib qo'ydilar. Iskandar kamarni bog'lab, dubulg'asini boshiga qo'ndirdi. U o'rta bo'yli, qotmaroq, ko'k ko'z, qirra burunli yigit, yaltiroq dubulg'a ostidagi ko'zlari chaqnab turardi. Yaqinda chap oyog'iga o'q tekkan – oqsoqlanib, hamon tiz cho'kib turgan jangchi tepasiga keldi.

– Uzrushanlar¹³ isyon ko'tarib, Kiropol¹⁴ shahridagi askarlarimizni qirib tashladilar. Jangchilarimizning juda oz qismigina tog'larga, to'qaylarga qochib qutuldi, – dedi jangchi yutinib.

Iskandar shapaloq yegan kishidek qalqib ketdi.

– A, nima deding? Uzrushanlar? Boshqa shaharlar-da ahvol qanday, bilmadingmi?

– Boshqa shaharlarda ham ahvol shu.

– Hammasi Spitamenning ishi. Uni qo'lga tushir-maguncha tinchimizni topolmaymiz. Hamma yoqqa ayg'oqchilarini yuborib, taqdiriga tan bergen xalqlar-ni oyoqlantirayotir u, – dedi Iskandar birozdan so'ng hayajonini bosib olib. – Xizmat hadyasiz qolmasin! Choparga sharob ichirib, mehmon qilinglar. Yax-shilab dam olsin, keyin biz bilan yo'lga chiqadi.

U darhol sarkardalarini to'plab, qisqacha kengash o'tkazdi. Iskandarning yaqinlari Sirdaryo bo'yida qo'shining bir qismini saklarga qarshi qoldirib, qol-gan qismini Iskandar va Krater boshchiligidida isyon-kor shaharlar ustiga yuborishni ma'qul ko'rdirilar.

Sir bo'yida yetti shahar isyon tug'ini ko'targan edi. Amudaryodan o'tib, Sirdaryogacha bo'lgan yerlarni osonlikcha qo'lga kiritganidan mag'rurlanib ketgan Iskandar: "Sug'dlar, uzrushanlar endi menga qarshi qo'zg'olon ko'tarmaydilar", deb o'ylagan edi.¹⁵

– Yunoniylar oyog'i kuygan tovuqday tipirchilab qoldilar, – dedi hali ham o'ng qirg'oqdagi qoyalar orasida turgan baland bo'yli kishi sherigiga. – Sug'dlar, uzrushanlar bosh ko'targanga o'xshaydurlar. Iskandar

¹³ Sirdaryoning so'l qirg'og'ida yashovchi tog'li xalq.

¹⁴ Kiropol yoki Kireshxata – O'ratega

¹⁵ Iskandar Zulqarnayn Eron shohi Doroni yengib, shimoliy Eron va Afg'onistonni bosib olgach, er.avv. 329-yilda 30 ming piyoda va besh ming otliq askar bilan Amudaryodan o'tgan edi.

ilonning yog‘ini yalagan odam. Boshda, Eron shohining zulmidan sizni ozod etaman, deb sug‘dlarni al-dadi. Uning gapiga laqqa tushib, poytaxt Maroqand¹⁶ darvozasini unga ochib berdilar. Ammo yunoniylar tog‘li xalqlarni talab, ularni qullik zanjiriga sola bosh-laganlarida bechoralarning ko‘zлari moshdek ochildi. Mana endi g‘alayon ko‘targan ko‘rinadurlar.

– Hammasi sizning ishingiz, e ulug‘ sarkarda, – dedi Taxshod hamrohiga hurmat bilan qarab. – Sizga Spitamen deb laqab qo‘yganlaricha bor. Ko‘zлari moshdek ochilgan el-ulusga siz bosh bo‘lsangiz, Iskandarni askar-paskari bilan qirib tashlaymiz.

– Hammasi o‘zimizga bog‘liq. Jang uchun astoydil bel bog‘lab, qo‘lga qilich olsak, quyosh tangrisi bizga yor bo‘lg‘usi. Shafqatsizlikni bizdan ko‘rsin Iskandar, – dedi Spitamen mushtini tugib. Nafasini rostlagach, Taxshodga o‘girilib, buyruq berdi. – Endi so‘zdan ishga o‘taylik, sen saklar yo‘lboshchisi Satrak o‘rdugohiga jo‘na! Unga salomimni ayt, boyta aytgan gaplarimni yetkaz!

– Xo‘p, jonim bilan. Buyrug‘ingizni bajarganimdan so‘ng xizmatingizga borurman.

– Yaxshi. Men endi Maroqandga yo‘l olay. Senga sog‘-salomatlik, ishingga rivoj tilayman. Xayr!

Spitamen o‘rnidan turib, jarlikda uchqur otlar bilan kutib turgan navkarlari oldiga jo‘nadi.

* * *

Yunoniylar dastavval baland devor bilan o‘ralgan G‘oza shahrini qamal qilib, manjaniqlardan o‘q ota boshladilar. Qo‘rg‘on himoyachilari faqat o‘q-yoy va tosh otadigan palaxmon bilan qurollangan edilar. Ular kamondan o‘q yog‘dirib, dushman askarlarini

¹⁶ Samarqandning qadimiy nomi

tutday to'ka boshladilar, shoti qo'yib qo'rg'on tepasiga chiqmoqchi bo'lganlarni esa uloqtirib tashlayverdilar.

Iskandar usti yopiq, g'ildirakli taranlar¹⁷ yasattirdi. Jangchilar bu taranlar bilan devor va darvozani urib buzdilar. Shaharni ishg'ol qilishda sarkarda Krater yarador bo'ldi. Nihoyat, yunonlar qattiq qarshilik ko'rsatgan shaharni bosib olgach, hamma erkaklarni qirib tashlab, ayollar va bolalarni qul qildilar.

Isyonkor Kiropolni Iskandarning o'zi bo'ysundi-rishga jazm etdi. U istehkomdan otilgan o'qlar yet-maydigan bir tepalik ustida jang manzarasini kuzatib turdi. Uzun shotilarni qo'yib qo'rg'on tepasiga chiqmoqchi bo'lgan yunon-makedon askarlarini himoyachilar nayza bilan qarshi olar, o'q, tosh yog'di-rib, ularni qulatib yuborar, tepadan katta toshlarni dumalatib, chorpovali taranlarni ham buzib tashlar edilar. Boshda qizishib jang boshlagan Iskandar o'z qo'shini katta talafot berayotganini ko'rib, shaharni boshqa usul bilan olish ustida bosh qotira boshladi. U manjaniqlardan tosh otishni davom ettirish to'g'risida buyruq berdi-da, o'zi bir to'da askari bilan shahar qo'rg'onini aylanib chiqdi. Bir joyda shahardan oqib chiqqan yomg'ir suvi devorning tagini teshib, xandaq hosil qilgan edi. Buni ko'rib Iskandarning ko'k ko'zlari chaqnab ketdi. Bir hiylani o'ylab, iljayib qo'ydi-da, qarrogohga qaytib, sarkarda Kraterni oldiga chaqirtirdi:

– Sen shahar himoyachilarini chalg'itish uchun nari-gi tomonda suron ko'tarib, yolg'ondakam hujum bosh-la, ammo o'z qo'shiningni mana bu darvoza yaqiniga to'pla! – dedi ro'parasidagi katta darvozani ko'rsatib. – Darvoza ochilishi bilan shaharga bostirib kirasan.

¹⁷ Taran – uchiga temir qoplangan uzun yog'och.

- Qanday qilib? Kim ochib beradi darvozani? - mash'al yorug'ida dubulg'asi yaltiragan baland bo'yli sarkarda yaralangan chap oyog'ini ushlab so'radi.

Iskandar uning qulog'iga bir narsa deb shivirlagan edi, ijirg'anib turgan sarkardaning yuzi yorishib ketdi.

Iskandar bir to'da soqchilarini ergashtirib, xandaq orqali shahar ichiga kirdi-da, kaptarga chovut solmoq-chi bo'lgan mushukdek darvoza tomon emaklab ketdi. Uning soqchilari tovush chiqarmay darvozaxonadagi soqchilarni xanjar bilan o'ldirib, bolta bilan qulflarni buzdilar va darvozani ochdilar. Yunon-makedon qo'shi-ni shaharga toshqin suvdek bostirib kirdi. Himoyachilar qo'rg'on tepasida, shahar ichida askar yo'q edi.

Shahar aholisi boshda nima voqeа bo'lganini bilolmay, sarosimaga tushib qoldi. Ba'zi sodda odamlar qo'rg'onga jin-ajinalar bostirib kiriyapti, deb o'ylab, duo o'qiy boshladilar. Keyinroq qo'lida uzun nayza, boshida dubulg'a yaltiragan makedoniyaliklarni ko'rib, ular ham tomlardan, pana joylardan dushmanga o'q va tosh yog'dira boshladilar. Shovqin-suron, chang-to'zon ichida tartibsiz jang boshlandi. Tong yorisha boshlaganda bir chol palaxmondan tosh otib, Iskandarni qulatdi. Navkarlari yelkasini ushlab qolgan podsholarini darhol o'rnidan turg'izib, yarasini bog'lab qo'ydilar.

Qo'rg'on tepasidagi himoyachilar esa iskanja orasida qolgan, ular ham tashqaridan, ham ichkaridan hujum qilgan dushmanni arang daf qilib turardilar. Nihoyat, mag'lubiyatga uchraganliklarini anglab, ruhlari tushib ketdi. Ularning ko'pi o'lgan, yaradorlar ko'p edi, bir qismi asir tushdi.

- Uzrushanlarning besh qal'asini zabit etdik. Endi ularning qolgan qismlari ham taslim bo'ladilar, - dedi Iskandar Kireshxata istehkomidagi kengashida. - Is-

tilo qilingan yerlarni saklardan himoya qilish uchun Yaksart bo'yida bir mustahkam qal'a qurishimiz lozim. Shundan so'ng sug'dlar ustiga yurish boshlaymiz. Uzrushanlardan asir olingan baquvvat erkaklar shu istehkomni qurib beradilar.

Sarkardalar uning gapini ma'qullab, qo'shimcha maslahatlar berdilar.

– Bu shaharga Aleksandriya deb nom beramiz. Yurtimizdan eng uzoqdagi Aleksandriya shu yerda bo'ladi, – dedi sarkarda Andromaxa.

Kengashda o'tirganlar uning gapini ma'qullab, Iskandarni quriladigan yangi shahar bilan qutladilar.

Yaksart (Sirdaryo)ning so'l qirg'og'ida yarim-yalang'och asirlar xarsang va xom g'ishtdan istehkom qurmoqdalar. Makedoniyaliklar qo'llarida uzun tayoq, asirlarni tezroq ishlashga undaydilar.

Ularni kuzatayotgan o'ng qirg'oqdagi ko'chmanchilar qoyatoshlar orasida turib, o'q va tosh otib, shahar qurilishiga xalal bermoqchi bo'ldilar. Iskandarning g'azabi qaynab, manjaniqlardan baravariga tosh otishni buyurdi. Toshlar orasiga yashirinib olgan saklar Iskandarni haqorat qila boshladilar:

– Hoy, Iskandar! Mard bo'lsang, daryoning bu yog'iga o'tib, biz bilan bellashib ko'r, – deb baqirdi bir ko'chmanchi baland ovoz bilan. – Echkinikidek shoxingdan ko'tarib, yerga bir uramiz-da, qiltiriqdek bo'g'zingdan pichoq tortib yuborurmiz. O'sha... xudoyingga sig'inib bir ma'rab yuborg'aysan!

– Seni chala tuqqan o'sha onangni ko'zingga bir ko'rsatib qo'yamiz! – dedi boshqasi musht do'laytirib.

– Bu yoqqa o'tsang-chi, echki boqib yurgan o'n besh yashar bo'z bola bilan seni bellashtirib ko'rgaymiz, o'shani yiqitsang – taslim bo'lurmiz.

Iskandar ularga o'qrayib qaradi-da, yonidagi til-mochga burilib:

– Bular nima deb baqirayotirlar? – deb so'radi.

Tilmoch saklarning so'zini biroz yumshatib tarji-ma qildi.

Jizzaki Iskandar bu haqoratlarga chidolmay, bir sap-chib tushdi-da, sarkardalarini to'plab, shunday dedi:

– Men daryoning narigi betiga o'tib, saklar bilan jang qilmoqchiman. Agar biz zudlik bilan harakat qilib, ularni tor-mor keltirsak, buning ovozasi har yoqqa tarqalib, varvarlarning yuragiga g'ulg'ula tu-shadi. Ammo ularning haqoratlariga parvo qilmay o'tiraversak, bizning sabrimizni qo'rqoqlikka yo'yadilar. Bular zaif ekan, deb har yoqdan isyon oloviga moy sepaveradilar. Keyin o'tni o'chirish qiyin bo'lib qoladi.

– Biz daryodan o'tsak, ular qochib, bizni suvsiz cho'l ichiga olib kirib ketadilar, – dedi ehtiyyotkor bo'lib qolgan Krater. – Yov qochganda qizishib ketgan askarlarimizni to'xtatish qiyin bo'ladi. Doro askarla-rining kuni kelmasin boshimizga...

Bu gapni eshitib, Iskandarning jahli chiqdi.

– Meni Doro bilan, makedoniyalikni varvarlar bilan solishtiryapsanmi? Hayf senga! Ehtiyyotkorlik ham evi bilan-da. Vaqt kelganda tavakkal ham qilish kerak. Taqdir va omad tangrisi Fortuna har vaqt tavakkalchiga yor va madadkordir!

– Masalani uzil-kesil hal qilishdan oldin xudolar-ning xohishini so'rash kerak, – dedi sarkarda.

Iskandarning amri bilan peshanasini oq latta bilan tang'ib olgan baland bo'yli, keksa qur'achi Aristandr qo'lida uzun pichoq bilan hozir bo'ldi. Mulozimlar qurbanlik so'yiladigan tosh ustidagi pardani olib tash-lab, uning yoniga og'zi tor ko'zacha keltirib qo'ydilar va tosh ustiga sharob sepdilar. Arqon bilan sudrab

keltirilgan bir qo'chqorni Aristandr so'yib bo'lgach, tosh oldida qo'lini baland ko'targancha Apollonga murojaat qilib:

– Ey, ro'yi zamin va falakka nur taratib, butun joni-vorlarga hayot bag'ishlagan quyosh va ziyo tangrisi, san'atkorlar homiysi Apollon, senga hamd-u sanolar o'qib, behad minnatdorchiligidizni izhor etamiz... – deya sig'ina ketdi. So'ng shodlik va sharob xudosi Dionis, taqdir va omad tangrishi Fortunaga hamd-u sanolar aytib, duo o'qishga kirishdi. Birozdan keyin Iskandarga yuzlanib: – Ey, mashriq va mag'ribning ulug' podshosi Aleksandr! – dedi tantanali ovoz bilan. – Senga ma'lum va ravshan bo'lg'ayki, mangu xudolar xohishingni ma'qul ko'rmasdilar va Yaksartning o'ng sohili-ga o'tsang, falokatga uchrashingdan bashorat berdilar.

– Hoy, Aristandr, gapimga quloq sol! – dedi u jahli chiqqanidan darak beruvchi g'alati ingichka ovoz bilan yana. – Sen ham bizga o'xshab o'ladigan oddiy odamsan, bas, mangu xudolarning xohishini yanglish tushungan bo'lishing mumkin. Men amindurmanki, sen aytgan so'zlar xudolarning irodasini to'la ifoda etmadi. Boshqatdan qurbanlik so'yib, iltijo qilib ko'r!

Aristandr podshoning avzoyini ko'rib, qo'rqb ketdi. Keyingi vaqtarda Sharq ta'siriga berilib, yunon xudolariga e'tiqodi susayib qolgan Iskandardan har narsa kutish mumkin edi.

Aristandr uning amrini bajo keltirib, yana bir qo'chqorni so'yib, munojot o'qidi va xudolar Yaksartning nariji betiga o'tish mumkinligi, yunonlar ozgina shikast yeb, dushmanga talafot yetkazishidan bashorat berayotganini aytdi. Saklarning qattiq qarshilik ko'rsatishi va ular bilan jang qilishga oshiqqan Iskandardarning shikast yeishi mumkinligini oldindan bilish uchun qur'achi bo'lish shart emas edi.

Eng oldin manjaniqlardan tosh otib, o'q yog'dirib, ko'chmanchilarni qirg'oqdan uzoqlashtirdilar, so'ngra chap qo'llarida to'rt burchakli qalqon, o'ng qo'llarida uzun nayza ushlagan askarlar, palaxmonchilar mesh-larga minib daryodan suzib o'tdilar va saklar bilan jang boshlab yubordilar. Iskandar fursatdan foydalaniib, dubulg'asida ot dumis osilib turgan, qizil ridoli suvoriylari bilan quyiroqdan suzib o'tdi va ko'chman-chilarga orqa tomondan hujum boshladidi. Qattiq jang vaqtida yo'l boshchilari Satrak halok bo'lgach, saklar pala-partish chekina boshladilar. Jangda qizishib ket-gan Iskandar ularni ikki kunlik yergacha quvib bordi, so'ng askarlariga dam berish uchun toshdan yasalgan haykallar qaqqayib turgan bir yon bag'irda to'xtashga majbur bo'ldi. Jangchilar, Iskandarning o'zi ham ustini po'panak bosgan, chetlaridan qiyoq o'sib chiqqan ko'lma suvdan ichib, chanqoqlarini bosdilar. Orqa-da qolgan piyodalar yetib kelgach, sarkardalar suv-sizlikni, askarlarning juda horiganini bahona qilib, chekinishni maslahat berdilar. Cho'lda saklarning asosiy kuchlari bilan to'qnashish ularni vahimaga solardi. Ko'lma suvni ichgan jangchilar bo'shashib qol-gan, Iskandarning ham mazasi qochgan edi. U sarkardalarning so'ziga kirib, chekinishga rozilik berdi.

Saklar Iskandarni jangga chaqirgan vaqtlarida Maroqand aholisi qo'zg'olon ko'tarib, shahardagi yunon-makedon askarlarning katta qismini qirib tashlab, shahar ichidagi mustahkam qal'ani qamal qilgan edilar. Qo'zg'olonchilarning boshida sarkarda Spitamen turardi.

Spitamen yoshligidanoq ot minish, o'q otish, ki-yik ovlash bilan o'zini chiniqtirgan. Yoshi yigirmaga yetganda Doro xizmatidagi Sug'diya satrapi (hokimi) Jonusyor uni harbiy xizmatga chaqirdi. O'sha vaqtida

zodagonlar o‘z boyliklari va mansablariga qarab o‘nlab, yuzlab xizmatkorlarini otga mindirib, qurollantirib, satrap ixtiyoriga kelishlari kerak edi.

Yosh Spitamen janglarda o‘zini ko‘rsatib, yuqori mansablarga erishdi, bora-bora sug‘dlardan tuzilgan otliq askarlarga boshliq bo‘lib oldi. Adolatli, qo‘li ochiq bo‘lgani uchun qo‘l ostidagi askarlar uni yaxshi ko‘rar, mard, jango var boshliqlarining bir og‘iz so‘zi bilan o‘zlarini o‘tga ham, suvga ham tashlashga tayyor edilar. U boshqa sarkardalar singari jangda qo‘lga tushgan o‘ljaning ko‘p qismini o‘ziga olib qolmas, topganini o‘ziga tobe odamlar bilan baham ko‘rib, ular chekkan mashaqqatlarga, shodliklarga sherik bo‘lar edi.

Bozor kunlarining birida odatdagidan ko‘proq usti-ga yuk ortilgan aravalar, otliq bozorchilar Maroqand darvozasidan kiraverishdi. Makedoniyaliklar bunga ko‘p e’tibor bermay: “Bugun bozor qizir ekan”, deb o‘yladilar. Ammo kechasi qo‘liga nima tushsa shu bilan qurollangan shahar ahli va bozorchilar qiyofasida shaharga kirgan Spitamen sarbozlari g‘aflatda yotgan dushman askarlarining yotoqxonalariga kirib, ularni qiraverdilar. Saharga qadar ur-yiqit davom etdi, ko‘chalar qonga bo‘yaldi. Tongga yaqin shahar xalq qo‘liga o‘tdi, qo‘zg‘olonchilar shahar istehkomini o‘rab oldilar va makedon askarlarini taslim bo‘lishga da’vat etdilar. Biroq juda baland devor bilan o‘ralgan istehkom taslim bo‘lishni istamadi.

Oradan bir-ikki oy o‘tgach, Spitamen askarboshilar va tajribali jangchilarni to‘plab, shahar devori ostidan oqib o‘tadigan Siyob suvi bo‘yidagi daraxtlarning quyuq soyasida maslahat majlisi chaqirdi. U baroq qoshlarini kerib, paloslarda chordana qurib o‘tirganlarni bir-bir ko‘zdan kechirib chiqdi. Qimmatbaho matolardan cho-

pon kiygan mag'rur zodagonlar, askarboshilar bilan bir qatorda jun choponlarining belini qayish bilan mahkam bog'lab olgan, xom teridan yumshoq etik kiygan qurolli sarbozlar, boshlariga namat qalpoq, egnilariga xom teridan kalta yengli kamzul kiygan ko'chmanchilar o'tiradilar. Spitamen ularni voqeadan xabardor qildi.

– Ayg'oqchilar keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Iskandar ustimizga Andromaxa va Karan boshchiliga bir falanga, ya'ni olti ming askar yuborayotgan emish. Uch-to'rt kun ichida ular shahrimiz bo'sag'asi ga yetib keladilar. Na qilaylik?

– Shahar aholisiga jar solurmiz, xalq qo'lida bor qurolyarog'ini ko'tarib chiqsin, qo'rg'on tashqarisida g'anim bilan mardlarcha olishurmiz, – dedi yosh zodagonlar dan Vardan. – Yo ularni shu yerda qirib tashlaymiz, yo shu qadimiy shahar bo'sag'asida yer tishlab, jon beramiz.

– Mana bu – uzoq o'ylamay jang boshlab yuboradurgan mard yigitning maslahati, – dedi Spitamen, ko'zları chaqnayotgan Vardanning mag'rur chehrasi ga boqib. – Tog'dan sel kelayotganda bir qishloq aholisi uning yo'lini to'solmaydur. Agar odamlar chap berib qolmasalar, toshqin suv ularni chirpirak qilib oqizib ketgusidir. Butun Yunoniston, Suriya va Misr dan kuch to'plab kelgan jahongir lashkari ustimizga seldek bosib kelayotir. Agar biz ko'krak kerib yo'lida tursak, bu oqim o'z to'lqini bilan bizni nest-nobud qilib yuboradur. Mardlik ko'zni yumib turib, o'zni o'tga tashlash emas, balki ustalik bilan ish ko'rishi dir. Biz Zarafshon bo'yidagi to'qaylarga chekinur miriz, bosib kelgan dushmanning och biqiniga solib qochg'aymiz, kulmang, Vardan, biz qochib yurib urushgaymiz, yunonlarning tinkasini quritib, keyin tor-mor etgaymiz.

U cho'lga chekinib, ko'chmanchi massagetlarni Iskandarga qarshi kurashga chorlash rejasini bat afsil gapirib, nihoyat o'z fikrini ma'qullatdi.

Spitamen o'z askarlari bilan Maroqanddan chekinib, Zarafshonning o'ng tomoniga o'tib oldi, jangchilarning bir qismini qirg'oqdagi to'qayda pistirmada qoldirib, o'zi cho'lga chekindi. Karan otliq qo'shinini daryordan olib o'tishi bilan to'qayda berkinib yotgan sug'd jangchilari ularni o'qqa tutdilar. Otlar jon teriga botib kishnaganlaricha yiqila boshladilar, oyoqlari ot ostida qolgan suvoriylar ham o'q yeb, yer tishlab qolaverdilar. Shu payt Spitamen otliq qo'shini bilan kelib, dushman ustiga sherdek tashlandi. Sug'dlar nog'ora va burg'ular sadosi ostida bog'-bo'stonlariga bostirib kirgan yovni ayamay qirardilar. Zarafshon qip-qizil qonga belanib oqa boshladidi. Karan boshchiligidagi askarlarning faqat kichkina bir qismi qochib, daryoning so'l qirg'og'iga o'tib olishga ulgurdi, xolos. Ular bu yerda turgan Andromaxa askarlariga qo'shilib, Maroqandga chekindilar va shahar darvozalarini berkitib olishga arang ulgurdilar. G'alabadan ruhlangan qo'zg'olonchilar shaharni qamal qilib, zabit etishga hozirlana boshladilar. Spitamen esa qo'lga tushgan hisobsiz o'ljalarni askarlariga bab-baravar bo'lib berdi.

Bu vaqtida Iskandar Yaksart daryosining so'l qirg'og'ida uzoq Iskandariya shahrini qurib bitirgan va unga yarador bo'lib, jangga yaramay qolgan jangchilari bilan ularning bola-chaqalarini joylashtirgan edi (jangchilar asir olingan ayollarga uylangan edilar). Karan qo'shinining tor-mor etilganligi to'g'risidagi xabar Iskandarning qulog'iga yetgach, u burg'u chaldirib, o'z askarlarini to'pladi va shitob ila isyonkor Maroqand ustiga yurdi. Yaxshi qurollangan behisob

dushman lashkarining yaqinlashib qolganidan darak topgan Spitamen massagetlardan askar toplash uchun qum ichiga chekindi. Bir vaqtlar Shiroq Doroning askarlarini dasht-biyobon ichiga olib kirib halok qilganidek, u ham Iskandarning askarlarini Qizilqumga aldab olib kirib, qirib tashlamoqchi bo'ldi. Biroq Iskandar uning hiylasini payqadimi, orqasidan quvib yurmadi, qo'zg'olonchilarga madad bergen qurolsiz qishloq va ovullar aholisidan o'ch ola boshladi, ulardan bir yuz yigirma ming kishini qilich damidan o'tkazdi.

Spitamen o'ziga sodiq bo'lgan olti yuz otliq askari bilan Zarafshon etagidagi bir ko'l yoqasida o'z chodirini qurban edi. Bu yerkarning tabiatи saxiy, havosi toza. Ko'lda baliq mo'l, atrofdagi biydek sahroda suruv-suruv kiyiklar yuradi.

U o'tovda, o'z qo'li bilan o'ldirgan yo'lbarsning terisi ustida o'tirib, Maroqanddan yetib kelgan darakchisi Taxshoddan yangi xabar eshitmoqda edi. Hali qirqa chiqmagan bo'lsa-da, chakka sochlari oqara boshlagan qahramon quyuq qoshlarini chimirib, noxush xabar keltirgan mitti ko'z, pakanagina, miqtidan kelgan Taxshodning og'ziga tikilib o'tirar, tashqaridan otlarning depsinishi, uzoqlardan ayg'irlarning kishnashi eshitilardi.

– Men saklardan umid kutgan edim, Iskandarni cho'l ichiga aldab olib kirib, askarlarini qirib tashlasalar kerak, deb o'ylagan edim, – deb gapida davom etdi yuz-ko'zini chang bosgan Taxshod. – Hukmdorlari Satrak men o'ylagandek tadbirli va ehtiyotkor sarkarda emas ekan. Yunoniylarining bir qismi qo'shinining orqa tomoniga o'tganini payqab qolib, g'azab bilan qilich yalang'ochlab, askarlarining oldiga o'tib oldi: "Hoy Iskandar, mard bo'lsang, maydonga chiq, yak-

kama-yakka olishamiz!" – deb nido qildi. Iskandar ahmoqmi, o'zidan ikki hissa baquvvat odam bilan bellashgani. Uning amri bilan qo'shini olg'a tashlandi. Satrak dushman askarlaridan bir nechtasini qilichdan o'tkazib, o'zi ham halok bo'ldi.

Ko'ziga dunyo qorong'i bo'lib ketgan Spitamen uning gapini oxirigacha eshitishni xohlamay:

– Sug'diyada ahvol nechuk? – deb so'radi.

– Iskandar askarlari Maroqand shahrini buzib tashlab, atrofidagi qishloqlarni yer bilan yakson etdi. Katta dehqonlar birin-ketin Iskandar qoshig'a borib, xizmatiga kirmoqdalar, ammo tog' ustida mustahkam qo'rg'oni bo'lgan Vaxshunvart taslim bo'lishni istamay, qarshilik ko'rsatmoqchi. Ul, sarbozlarimga bosh bo'l, deb meni xizmatga chaqirgan edi, men ko'nmadim.

– Xo'p, deganingda mushukdan qo'rqb, qafas ichiga berkinib olgan sichqonga o'xshab qolar eding. Hozir ozod – erkin jangchisan...

– Vaxshunvartning xizmatiga kirsam, ehtimol, meni kuyov qilib olarmi edi! Ko'histonda uning qizi Ravshanakdek go'zal jonona yo'q, – dedi Taxshod tim qora ko'zlarini o'ynatib.

– Avvalo, u sen kabi kichik dehqonning o'g'liga qizini xotin qilib bermas edi. Berganda ham boy zamindorning erka o'sgan erka qizi senga vafo qilmas, o'z yog'ingga qovurib, senga azob bergen bo'lur edi. Ravshanak sen kabi mard yigitga rafiqqa emas, podsholarga kanizak bo'lishga loyiq qizdir. Men ta'rifini eshitganman. Iskandarni yurtimizdan quvib yuborsak, seni o'zingga munosib bir qizga uylantirib qo'yajkmiz. Xo'sh, yana qanday xabarlar keltirding?

Taxshodning aytishicha, Iskandar askarlarining bir qismini Sug'diyada qoldirib, o'zi qishlash uchun Zariaspga (Balx yaqinidagi shaharcha) jo'nabdi. Xo-

razmshoh Farazman Iskandarga yordam uchun bir yarim ming askar jo'natibdi.

Keyingi xabar birdan Spitamenning qonini qaynatib yubordi. Sug'dlar, dahlar, saklar va boshqa xalqlar el-ulus boshiga tushgan falokatni daf etish uchun jon olib, jon berayotganlarida Xorazmshoh dushman bilan og'iz-burun o'pishmoqda edi! Shoshmasin hali u! Spitamen hali tirik, sug'dlar va ularning ittifoqchilari hali qilichlarini qinlariga solganlaricha yo'q. Bir kun emas bir kun xiyonatchi jazosini tortadi!

G'azab o'ti bilan yongan Spitamen darakchisiga javob berib, yolg'iz qolgach, yoshgina, ko'hlik xotini o'tovidan chiqib, erining yoniga keldi va xuddi mushukdek uning pinjiga suqilib, mayin ovoz bilan:

– Darakchi xushxabar olib kelibdurmu? Uyimizga qachon qaytamiz? – deb so'radi.

Spitamen xotinidan hech narsani yashirmas, shu sabbordan uni ahvoldan xabardor qilib, o'z rejalarini aytdi:

– Qishni shu yerda o'tkazib, ko'klamda Zariaspga yurish qilg'aymiz. Iskandarning och biqiniga solib, tinkasini quriturmiz. O'tgan yoz daryo bo'yida uning bir talay askarini qirib tashlagan edik, kelasi yoz undan ham ko'pini qilich damidan o'tkazajakmiz.

– Jang-u jadaldan hech zerikmas ekansan-da! – dedi xotini quralay ko'zлari ustida kerilib turgan ingichka qoshlarini chimirib. – Sochim safarda oqaradiganga o'xshaydur. Meni hech o'ylamaysan! Daryo bo'yidagi bog'imni, ota-onam, aka-ukalarimni sog'indim! Qani endi, qanotim bo'lsa-yu bu dashtlardan o'sha bo'stonlarga uchib ketsam. Qachon Zarafshon bo'ylaridagi bog'-u bo'stonlarda sozandalardan kuy, xonandalardan ashula tinglab, dunyoning rohatini ko'ramiz, a?

Spitamen xotinining sochini silab, vazminlik bilan:

– Yana biroz sabr qil, Zarafshon bo'yida zafar sharafiga katta to'y o'tkazgaymiz, – dedi.

– Bol tomgan tilingdan bir o'pay, – dedi xotini erining bo'ynidan quchib. – Iloyo aytganing kelsin. Sen bilan dunyoning u burchiga borishgayam tayyorman!

– Yonimda sendek jufti halolim bor ekan, albatta, men dushman ustidan zafar qozonajakman, jonim, – dedi Spitamen yorining belidan quchib.

Vaqt xuddi Zarafshon suvidek oshiqib oqib o'tmoqda edi. Ko'z yumib ochguncha bir yil o'tdi. Ko'zlarining atrofini ajin bosgan Spitamen Qizilqumda, tepe yon bag'riga tikilgan chodirda ikki qo'li bilan boshini changallab o'tirar, ko'z o'ngidan jang manzaralari birin-ketin o'tar, mash'allar yorug'ida Baqtra shahriga bostirib kirib, makedoniyaliklarni qirgani, so'ng chekinib, massagetlardan madad olib, Bog'ot shahrini olgani, Iskandar askarlarining pala-partish chekgani ko'z oldida jonlanardi. G'alaba qozongan kunlari ittifoqdosh urug'larning zodagonlari unga hamroh edilar, omad qushi boshidan uchgach, uni tashlab ketdilar. Qaynatasi – sug'd zodagoni Aropiy Iskandar tomoniga o'tib ketgandan keyin xotini tamoman aynib qoldi. Boshiga og'ir kunlar kelganda yostiqdoshi uni yupatish o'rniqa yana hasrat qila boshladi.

– Tinch qo'ysang-chi, axir! Nolishlaring qalbim jarohatlariga tuz sepayotir. Avvalgi xotinim tirik bo'lganda hozir ko'nglimni ko'targan, dalda bergen bo'lurdi, – dedi Spitamen boshini ko'tarib.

– Avvalgi xotiningni hech esingdan chiqarolmay-san. Ko'z ochib ko'rganing-da! Iloyo, u dunyoda ham o'sha mochag'ar Axraman dev changalidan qutulmasin! U go'rida ham tinch yotmay, jonimga azob bermoqda! Hoy, er, menga qara, avvalgi xotining Jonus-

yorning qizi bo'lsa, men ham Sug'diyaning manman degan atoqli zodagonining qizidurman.

– Otang Jonusyor bilan qo'shmozor bo'lzin! Ul Aropiy o'ziga o'xshash nomardlar bilan birga Iskandar oldida tiz cho'kib, oyog'ini yalab yotibdur.

– Otamni hadeb yerga uraverma, bir kuningga yarab qolar. Agar bosh egib Iskandar qoshiga borsang, otam gunohlaringni undan so'rab olg'ay.

– Bas qil! Men hech qachon dushman oldiga bosh egib bormayman. Ikkinchি bor bu gapni og'zingga olma!

Xotini birozdan so'ng pushaymon bo'lgan kabi:

– Meni afv et. Sen qahramonsan, men bo'lsam ojiza bir ayoldurman, – dedi.

U bosh egib chodirdan chiqib ketdi. Spitamen otasini yerga urgani uchun emas, balki birinchi xotinini armonli bir hurmat bilan eslagani uchun uning fig'oni chiqib ketgan edi. Kechgacha o'zini qo'yarga joy topolmay, cho'g' bosib olgandek tipirchilab yurdi. Yuragiga kirgan rashk iloni ichini kemirar, uni jinoyat sari yetaklardi.

Otasi Aropiy unga maxfiy xatlar yuborib: "Spitamenni yaxshilikcha bizga taslim bo'lishga ko'ndir, buni uddalay olmasang, unaqa arning bahridan o't!.." deb yozgandi. Spitamen esa xotini har safar taslim bo'lish to'g'risida gap ochganda sapchib tushar, ach-chiq-tizziq gaplar bilan uni uzib olardi. Erining bugungi gapi yosh juvonning qalbiga xanjar kabi san-chilib, yuragida bitmas jarohat qoldirdi.

Spitamen kechki ovqatdan keyin dong qotib uxbab qoldi. Mag'lubiyat va yo'l azobi uni qattiq charchatgan edi. Xotini esa uning yonida uxlayolmay chodir shiftiga ko'z tikib yotardi. Yarim kechada, butun lash-kargoh uyquga ketgach, tashqariga chiqib, bir aylanib keldi-da, o'rtadagi ustunga osig'liq qilichni qinidan

asta sug'urdi va bir zarb bilan erining boshini tanidan judo qildi. So'ng bir lahma yuzini teskari o'girib turdi-da, titragan qo'llari bilan erining boshini xurjunga solib, tashqariga olib chiqdi. Eshikda ikki ot bilan uning keksa xizmatkori kutib turardi...

O'rta Osiyo xalqlari qarshiligining ulug' timsoli bo'lgan Spitamennenning kallasini oyog'i ostiga keltirib tashlaganlaridan keyin Iskandar hayaonga tushib:

– Bunday qahramon har yuz yilda bir marta tug'iladi, uni alohida izzat-hurmat bilan ko'minglar! – dedi.
– Hammamiz ham o'yinqaroq bolaga o'xshagan mangulik qo'lida o'yinchoqmiz. U ulug' odamlarning kallalarini taxtaga terib, u yoqdan bu yoqqa surib o'ynaydi, butun olamning podshosi o'sha bola, biz uning piyodalarimiz!

U boshini quyi solgancha chodirga kirdi-da, bir qadah may keltirishni buyurdi.

Iskandar qishni Navtokda o'tkazib, ilk bahorda Hisor tog'laridagi eng mustahkam qal'ani – Sug'd qal'asini zabit etishga hozirlik ko'ra boshladi. Sug'd zodagonlaridan Vaxshunvart bu qal'ani mustahkamlab, o'ziga qarashli odamlar bilan berkinib yotardi. Qal'a tik qoyatosh ustiga qurilgan, uning baland devorlari ham toshdan, yuqoriga shoti qo'yib chiqish amrimahol, manjaniqdan tosh otib devorlarini buzib bo'lmas edi...

Iskandar o'z askarlari bilan bu istehkomga yetib kelganda haliyam tevarak-atrofdagi qor erib bitmagan, kunduz kunlari havo ilib, bahor shamoli essa-da, tungi izg'irin yerni muzlatardi.

Iskandar soqchilar boshlig'i Ptolemey bilan birga qor kechib, qo'rg'onnei aylanib chiqdi. Bu yerda qal'a devorlarini teshadigan g'altakli taranlar bilan ham bir ish chiqarib bo'lmasdi. Jahongir chuqur o'yga botib, kallasini chayqab qo'ydi. So'ng shaxdam qadam bos-

gancha qal'a darvozasi oldida turgan askarlar yoniga keldi. Dushmanning kuchini sinash uchun bu yerda turgan manjaniqlardan tosh otishni va uzun qalqonlar orqasiga yashiringan piyoda askarlariga yolg'ondakam hujum boshlashni buyurdi. Biroq qal'a devorlari ustida turgan sug'dlar palaxmonlardan tosh, kamonlardan o'q yog'dira boshladilar, yunon piyodalari esa bir necha safdoshlaridan ajrab, orqaga chekinishdi. Devor tepasidagi himoyachilardan biri baland ovozda:

– Hoy Iskandar, qanotli askarlaring bo'lса, bu qal'ani olg'aysan, yo'qsa, ovora bo'lma! – deb kului.

Arzimagan gapga ham g'azablanib ketadigan Iskandar tishlarini g'ijirlatib qo'ydi. Nima qilib bo'lса ham izzat-nafsi haqorat qilayotgandek qaqqayib turgan bu istehkomni zabit etishni ko'ngliga tugdi. U sarkardalari va tajribali keksa askarlaridan bir necha kishini chiqirib kengash o'tkazdi. Sarkardalarning ba'zilari Sug'd qal'asini uzoq qamal qilib, himoyachilarni och qoldirish va shu yo'l bilan bu qo'rg'онни olish mumkinligini aytdilar. Sabrsiz jahongir ularning gapini ma'qullamay, aftini bujmaytirib o'tirdi. Keksa askarlardan biri so'z so'rab, hujum bilan olish mumkin emas, deb hisoblangan qo'rg'onning orqa tomonidan tirmashib chiqishni maslahat berdi. Iskandar bu oddiy jangchining sodda so'zlariga qulqoq solarkan, yuzi borgan sari yorishar, ko'zlar chaqnar, sarkardadan emas, oddiy jangchidan shunday maslahat chiqqaniga sevinardi.

Kengashdan so'ng Iskandar chodir iplari tortib bog'lab qo'yilgan hamma temir qoziqlarni bir joyga to'platdi. Askarlarini yig'ib, qisqacha nutq irod etgach, shu qal'aga birinchi bo'lib chiqqan ko'ngillilarga juda ko'p pul va katta lavozim va'da etdi. Jangchilardan uch yuz kishi bu xavfli ishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

Qorong'i tushishi bilanoq qo'rg'on himoyachilarini chalg'itish uchun yunonlar darvoza tomondan hujum boshladilar, tonggacha tosh otib, shovqin-suron ko'tardilar. Qal'aning orqa tomonida esa uch yuz askar bir-birlarining yelkalariga minib, undan so'ng shoti qo'yib, tik qoyaga temir qoziq qoqa boshladilar. Tepagacha qoziq qoqib chiqish epchil va yosh jangchilar uchun hech gap emasdi. Tongga yaqin bir necha baquvvat va epchil askar yuqoriga chiqib olishga muvaffaq bo'ldi, ular pastga arqon tashlab sheriklarini ham tortib chiqara boshladilar. Uch yuz kishidan o'ttiz chog'li kishi yiqlilib, halok bo'ldi – yumshoqroq yerga qoqilgan qoziqlar, garchi ularning tagiga suv sepib muzlatilgan bo'lsa-da, odamlarning og'irligini ko'tarolmay, tushib ketgan edi.

Yuzlab qurolli askarlar tong yorishishi bilanoq qal'a devorlari tepasida turib, ro'mollarini xuddi qanot singari silkita boshladilar. Iskandar pastdan turib, darvoza tepasidagi himoyachilarga gap qotdi:

– Hoy, anqovlar, ko'ryapsizlarmi, mening qanotli askarlarim orqa tomondan qal'angizga chiqib oldilar, endi yaxshilikcha taslim bo'linglar!

Darvoza tepasida turganlar, yuqorida ro'mollarini silkitib turgan makedoniyaliklarni ko'rib, hang-mang bo'lib qoldilar. Hammadan burun Iskandar tomoniga o'tib ketgan xoin Aropiy darvoza tomon bordi-da, qo'lini og'ziga qo'yib:

– Vaxshunvartni chaqirib beringlar, gapim bor, – deb qichqirdi.

Darvoza tepasida yoshi elliklarga borib qolgan qora soqol, chiroyli bir kishi paydo bo'ldi. Aropiy u bilan so'rashib bo'lgach:

– Vaxshunvart, eski do'stligimiz hurmati, so'zimni yerda qoldirma, podshohi ro'yi zaminga taslim bo'l. Men undan gunohlaringdan o'tishini so'rayman, – dedi.

- Agarda mening va odamlarimning bir qoshiq qonimizdan o'tsa, taslim bo'lurmen.

- Darvozani ochib bersang, Iskandar bir odaming-ning ham burnini qonatmag'ay.

Vaxshunvart darvozani ochtirib, Iskandarning oldiga keldi-da, tiz cho'kib, o'zini uning ixtiyoriga topshirdi.

Mahalliy zodagonlar bilan yarashib o'z mavqeyini mustahkamlash niyatida bo'lgan Iskandar hech kimning qonini to'kmadi va moliga ham daxl qilmadi. Qal'ada jon saqlab kelayotgan zodagonlar dan bir nechasi o'rtada turib, Vaxshunvartning qizi Ravshanakni Iskandarga olib bermoqchi bo'ldilar.

- Bir qizim emas, o'n qizim bo'lsa ham jahongir ga berishga tayyordurman! - dedi Vaxshunvart yal toqlanib.

Iskandar qizni ko'rmoqchi bo'ldi.

Enagalar Ravshanakni yuvintirib-kiyintirib shohning istiqboliga olib chiqdilar.

- Men Roksanani¹⁸ joriya emas, xotin qilib olaman, - dedi Iskandar, qarshisida chiroyli boshini g'oz ko'tarib, mag'rur turgan qora ko'zli, lola yuzli go'zalga suqlanib boqarkan.

Katta to'y-tomosha istilochilar bilan zodagonlarni yarashtirdi. Iskandar yosh xotini bilan Maroqandga qaytib keldi-yu, Aropiyni xo'jako'rsinga podsholikka ko'tarib, mamlakatning butun inon-ixtiyorini makedoniyaliklarga topshirdi-da, o'zi Hindiston safariga otlandi.

¹⁸ Yunonlar Ravshanakka Roksana deb nom bergen edilar.

TEMUR MALIK



Xo'jandni ikki bo'lib oqqan Sirdaryoning o'ttasida, shahardan bir chaqirim quyiroqdagi orolda qadimdan qolgan bir istehkom bor edi. Chet el istilochilar va ko'chmanchilarga qarshi kurashda xalqning joni-ga ora kirgan bu ko'hna qal'aning burchlari o'pirilib ketgan, darvozalarining ba'zi yerlari buzilib, omonat bo'lib qolgandi. Boshiga og'ir kunlar kelganda Xo'jand ahli yana shu eski qal'aga panoh izlab keldi.

Chingizzon behisob lashkarlari bilan O'trorga yetib kelgach¹⁹, bu shaharni qamal qilib olishni o'z o'g'illari O'ktoy bilan Chig'atoya topshirib, Xo'jand shahri ustiga sarkardalari So'ktu bilan Uloq no'yonni yuborgan, o'zi esa katta qo'shin bilan Qizilqum orqali Buxoro tomon yo'l olgan edi.

Xo'jand viloyatining hokimi Temur Malik daryo o'ttasidagi qal'ani mustahkamlab, mo'g'ullar bilan jang qilishga jazm etdi.

Sir bo'yи ajoyib bir manzara kasb etgan: qirg'oqqa to'plangan kishilarni son-sanoqsiz qayiqlar va kemalar orolga tashimoqda, ketmon, bel, arra, anda-va, tesha, bolta ushlagan kishilar sabrsizlik bilan o'z navbatlarini kutmoqda edilar. Qal'a tepasidan yuzlarcha odamlar chumolidek uymalashib, devor va burchlarning shikast-rextini tuzatmoqdalar.

Hamma hasharchilar orolga o'tib olganlaridan keyin ish jadallashib ketdi. Havoga tutun kabi ko'tarilgan chang-to'zon, g'ala-g'ovur ovozlar ishning yurishib ket-

¹⁹ 1219-yil, sentabr

ganidan dalolat berardi. Kuch-quvvatni ayamay, ishtiyoq bilan ishlayotgan hasharchilar orasida o'qtin-o'qtin baland bo'yli bir kishi paydo bo'lar, o'zini hurmat bilan qarshilagan hasharchilarning ishlariga kushoyish tilab, ishda mahorat ko'rsatgan ustalarga tashakkur bildirar, sust ishlayotganlarga piching otib qo'yardi. Bu kishi Temur Malik edi. U ba'zan orqasidan ergashib yurgan mulozimining yelkasidagi xurjundan bir siqim tanga olib, yaxshi ishlayotgan kishilarga ulashib berardi.

Ikki hafta ichida qal'aning shikast-rexti tuzatildi. Qal'aga himoyachilar uchun bir yillik ozuqa, qurolyarog' tashib keltirildi. Mingdan oshiq bahodir va meraganlar, yuzga yaqin kemasoz ustalar istehkomga joylashtirildi. Xotin, bola-chaqalar, chollar tog'li qishloqlarga jo'natildi.

Temur Malik bola-chaqasi bilan xayrashish uchun hovlisiga kirdi. Xizmatkori Odina aravakash bilan sandiqlarni soyabon aravalarga ortayotgan edi. Ichkarida esa xotini bir yashar o'g'lini ko'tarib, erining kelishini sabrsizlik bilan kutib turardi. Xotini uni ko'rib yig'lab yubordi, o'g'li esa yaltiroq dubulg'a kiyagan otasini tanimay, qo'rqib ketdi, yuzini teskari qilib, onasining yelkasini mahkam changallab oldi. Temur Malikning ham ko'ngli buzilib, bo'g'ziga nimadir qadalgandek bo'ldi, tomog'ini qirib, xotiniga:

– Men o'lmay turib aza ochayotirsanmi? Ko'z yoshlariningni ayab qo'y, keyin kerak bo'lib qolar, – deya o'g'lini qo'liga olib o'pmoqchi bo'lgan edi, bola chin-qirib yig'lab yubordi.

– Hoy, ahmoq bola, o'z otangni tanimadingmi, a? Men senga o'yinchoq olib keldim, – deb boshidagi yaltiroq dubulg'asini olib qo'ydi-da, sopoldan qilingan qo'chqorni qo'ynidan chiqarib berdi. Bola o'yinchoqni olib, ovungach, xotiniga uqtirdi: – O'g'limni sen bilan

Odinaga topshirib ketayotirman. U sog'lom, mard va rostgo'y yigit bo'lib o'ssin. Yurtimizga botir askar va askarboshilar kerak. Xayr, o'zingni ehtiyot qil!

O'g'lini betidan o'pib, onasiga qaytarib berdi-da, tezgina tashqariga chiqib, sodiq mulozimi bilan quchoqlashib xayrlashdi-da, otashin xo'rsiniq aralash chuqrchuqr nafas olgan ko'yi vazmin odimlab ketdi.

Oradan bir hafta o'tar-o'tmas yigirma minglik mo'g'ul qo'shini Xo'jandga yetib keldi. Shahar bo'sag'asida Xo'jand merganlari va askarlar mo'g'ullar bilan jang qildilar, so'ng shaharga chekinib, tomlardan, darichalardan dushman ustiga o'q yog'dirib turdilar va shu bilan Temur Malik askarlarining orolga batamom o'tib olishiga yordam berdilar. Temur Malikning maqsadi – orolda turib, o'qtin-o'qtin dushmaniga hujum qilish va yigirma minglik mo'g'ul qo'shinini uzoq vaqtgacha shu yerda tutib turib, Xorazmshohdan madad kelganidan keyin ularni tor-mor qilish edi.

Mo'g'ullar qattiq jangdan so'ng shaharni ishg'ol qildilar, biroq daryo o'rtasidagi istehkom ko'krak kerib, ularni jangga chorlab turardi. Manjaniqlardan otilgan tosh ham, o'q ham qirg'oqdan uzoqda bo'lgan qo'rg'onga shikast yetkazolmasdi. Ammo baland qo'rg'on tepasida turib, qazonlardan²⁰ shig'ab otilgan yumaloq toshlar mo'g'ullarga ko'p talafot yetkazardi. Qo'rg'on himoyachilari dushmanning daryo labiga kelib qazon qurishiga va katta o'q-yoylardan o'q otishiga imkon bermadilar.

Qo'rg'on burchidan, shinak orqasidan uzun bo'yli, qora soqolli bir kishi uzoqlarga tikilgancha qarab turardi. Uning qalin qoshlari chimirilib, peshonasida chuqr bir chiziq paydo bo'ldi. Banogoh tog' tomon-

²⁰ Yumaloq tosh otadigan ibtidoiy to'p.

dan kelayotgan, ustiga tosh ortilgan qator-qator aravalarga uning ko'zi tushib qolgan edi. Aravalalar yonida qurolli mo'g'ul soqchilar og'ir xarsanglarni ko'tarib olgan kishilarni tayoq bilan urib haydab kelmoqda edilar. Ko'p o'tmay, bu odamlar daryo bo'yiga kelib, qo'llaridagi toshlarni bir yerga uyib qo'ydilar, so'ng kaltak ostida aravadagi toshlarni tushira boshladilar.

– La'nati mo'g'ullar bu toshlarni daryoga tashlatib, ko'tarma yasamoq va orolga kelib, qal'ani olmoq niyatida bo'ssalar kerak, – dedi Temur Malik, yonida turgan girdig' umdan kelgan bir yuzboshiga. – Buyuring, qazonlardan tosh otsinlar!

– Begim, nechuk alarga tosh ottiray, mo'g'ul orasi-da biznikilar bor. Toshning ko'zi yo'q, o'zinikini o'zgadin ajrata bilmas.

– Toshlarga buyuring, o'znikilarga tegmasun! – deb zaharxanda qildi Temur Malik. – Juda sodda odamsiz-da. O'zimiznikilarga meni achinmaydur deb o'ylaysizmi? O'znikilarga tosh tegmasun deb o'ltursak, mo'g'ul orol ostiga kelib, oyog'imizga bolta uradur.

Qal'a burchidan otilgan toshlar daryoga tosh tashiyotgan kishilardan bir nechtasini yerparchin qildi. Mo'g'ullar ishlarini to'xtatib, uni kechasi davom ettirildilar. Tun qorong'isida otilgan o'q va toshlar "ko'tarma" qurayotgan mo'g'ullarga va asirlarga ko'p shikast yetkazolmas edi. Bir necha kun ichida "ko'tarma" qo'rgonga ancha yaqinlashib qoldi.

"Agar ish shu zaylda davom etsa, ikki hafta ichida daryoni tosh bilan to'ldirib, qo'rg'on tagiga yetib keladilar, – deb o'yladi qal'a burchida turgan Temur Malik. – Tezda dushmanning bu ishini barbod qilmoq kerak. – U o'tirib, boshini ikki qo'li orasiga olganicha chuqur o'yga toldi. – Tezda kemalar yasamoq lozim. Bizni faqat kemalar qutqaza biladi!"

Tong otishi bilanoq duradgorlar, kemasozlar ishga tushib ketdilar. Temur Malikning o'zi ham qo'liga bolta olib, ularga ko'maklasha boshladi. Tayyor bo'lgan kemalarga ustunlar o'rnatib, ustini namat bilan yopdilar, atrofini ham namat bilan o'radilar. Namatlar ning ichi tashini sirkaga qorilgan ganch bilan suvadilar, o'q otish uchun tuynukchalar qoldirdilar.

Tong qorong'isida Temur Malik boshliq uch yuz bahodir yigit kemalarga o'tirib, qirg'oqqa yaqinlashdi. O'q-yoylardan mo'g'ul soqchilari ustiga o'q yog'dirib, sohilga chiqib olishdi. Uyquda yotgan mo'g'ul lashkargohiga tuyqusdan bosqin qilib, naridan-beri kiyinib chiqqan cheriklarni²¹ qilichdan o'tkaza boshladilar. Mo'g'ullar es-hushlarini yig'ib olgunlaricha bir talay askarlaridan ajraldilar.

Temur Malik uzun qilichini yalang'ochlab, lashkargoh o'rtasidagi ipak chodir tomon yo'l oldi. O'z boshliqlari uchun jon fido qilishga tayyor bir to'da azamat yigitlar Temur Malikni o'rab, atrofdan tushgan qilich zarblarini daf qilib borardilar. Temur Malik yon tomondag'i chodirdan yugurib chiqib, yo'lini to'smoqchi bo'lgan barzangidek bir mo'g'ulning yelkasiga qilich solib, ikki nimta qilib tashladi, so'ng baland ovozda:

– Hoy, So'ktu no'yon, mard bo'lsang, maydonga chiq! – deya qichqirib, mo'g'ul sarkardasini yakka-ma-yakka jangga chorladi. Biroq mo'g'ul lashkar-boshilari yakkama-yakka jang qilib, o'z mardliklari ni ko'rsatishdan ko'ra, ko'pchilik bo'lib, uyushqoqlik bilan dushmanni bartaraf qilishni afzal ko'rardilar. Shuning uchun So'ktu no'yondan sado chiqmadi. Yon tomonдан bostirib kelgan bir to'da mo'g'ul askarlari Temur Malikka ularning sarkardasi bilan qilichbozlik qilishga xalal berdi. U jang qilaturib sohil tomon che-

²¹ Cherik – askar.

kindi, mo'g'ullarning asosiy kuchlari yetib kelmas-danoq, yigitlari bilan kemalarga o'tirib, shinaklardan o'q yog'dirgancha orol tomon yo'l oldi.

Temur Malik mo'ljallagan ishini bajargan edi. Uning asosiy maqsadi – mo'g'ullarni chalg'itib, daryoga tashlangan toshlarni u yoqdan bu yoqqa otib tashlash, ko'tarmani buzish bilan mashg'ul bo'lgan yigitlariga ishslash uchun imkoniyat tug'dirib berish edi. Sohildagi qisqa muddatli jang vaqtida ko'tarma buzib tashlandi.

Besh-olti oygacha kurash shu zaylda davom etdi. Mo'g'ullar atrofdan haydab keltirilgan asirlarni urib, daryoga tosh tashlattirar, mudofaachilar esa o'q o'tmas kemalarida kelib, ularning ishlarini buzib ketar edilar. Lekin bu hol uzoq davom etmadi. Saflari siyraklashib borayotgan mudofaachilar oziq-ovqatdan qisilmaganlarida uzoq vaqt qarshilik ko'rsatishlari mumkin edi, biroq daryoga tashlangan qarmoqlarga tasodifan ilinadigan baliqlardan bo'lak yeydigan narsa qolmadi. Ochlik, uzoq vaqt bir yerda turib qolish – jangchilar ning ruhini tushirib yubordi.

Temur Malik qal'ani tashlab, chekinishdan bo'lak chora qolmaganini angladi. O'z safdoshlarini atrofida to'plab, ma'yus, lekin e'tirozga yo'l qo'ymaydigan ohangda gap boshladi:

– Birodarlar, ahli dunyo Rustami doston zamondan beri sizdek pahlavonlarni ko'rмаган edi. Shul damgacha qulqoq eshitmagan va ko'z ko'rмаган bahodirligingiz soyasida g'anim bir necha ming askaridin judo bo'ldi. Emdi chekinmoq vaqtı yetdi. Men boshda Xorazmdin madad kelur, deb o'ylagan erdim, yanglishibmen. Xorazmshoh butun lashkarini bir yerga to'plab, mo'g'ul ablahnı makaqlab tashlash o'rniga, askarlarini tarqatib yubordi. U do'stlar so'ziga emas,

pinjiga kirib olgan dushmanlar so'ziga kirib, shul ishni ravo ko'rdi. Ammo biz qurol-yarog'ni tashlamaymiz, safar kemasiga o'ltirib, yog'iy bir-la jang qila-qla, najot sohiliga erishurmiz...

Ranglari sarg'aygan yigitlar boshlarini quyi solib, indamay uning gapiga quloq soldilar. "Ajabo, shu go'zal shahrimizni dushman qo'liga topshirib ketaveramizmi?" degan fikr ularning yurak-bag'irlarini ezar edi.

– Ona yurtimizni unutmaymiz, kuch yig'ib dushman-ga yana urush solurmiz, g'animga hamla qilish uchun orqaga qaytmoq ayb emas. Bardam bo'ling, yigitlar!

Qora tun qanotlarini keng yoyib, shaharni bosib yotardi. Hamma yoq suv sepgandek jimjit. Ahyon-ahyonda nahang baliq suvni shaloplatib yuboradi. Xo'jand yaqinidagi tog' shahar uyqusini qo'riqlab tur-gan soqchidek qotib turibdi. Mo'g'ullarning lashkar-gohi ham sukunat ichida. Chekka-chekkaga qo'yilgan qorovullar ham nayzalariga suyanib mudramoqdalar.

Tun og'ib, kunchiqish tomon yorisha boshlaganda, bu jimjitlik to'satdan buzildi. Mo'g'ullar qarorgohida shovqin-suron ko'tarildi. Daryo ustidagi ajoyib bir man-zarani ko'rib, Chingiz askarlari bu o'nglarimi yo tush-larimi ekanligini bilmay qolgandilar. Uzoqdan yulduzlarga o'xshab ko'ringan mash'allar Sirdaryoning oqar tomoniga qarab tez sur'atlar bilan suzib ketmoqda edi. Soqchilar ro'y bergen ahvolni anglagach, shovqin ko'ta-rib, boshliqlarini bundan xabardor qildilar. Mo'g'ullar lashkargohi cho'p tiqib kavlangan qovog'ari ini kabi g'uvillay boshladi. Naridan-beri kiyangan askar bosh-liqlari u yoqdan bu yoqqa yugurar, dag'al ovozlar bilan buyruq berib, shirin uyquda yotgan sheriklarini oyoqqa turg'izishga urinar, so'kinar, dag'dag'a qilar edilar.

Minglarcha o'q-yoydan otilgan o'qlar usti namat bilan qoplangan kemalarga ta'sir etmasdi. Har ikki so-

hildagi mo‘g‘ul askarlari kemalarni ta‘qib eta boshlashdi. Kemadagilar esa yulduzlar va mash‘allar yorug‘ida jangni davom ettirib bordilar. Shinaklardan otilgan o‘qlardan dushman tutdek to‘kilar edi. Binokent shahrigacha kemalar jiddiy qarshilikka uchramadi. Xo‘janddagi mo‘g‘ul boshliqlaridan So‘ktu Binokentdagi mo‘g‘ul sarkardalariga choparlar yuborib, kemalarni to‘xtatish uchun chora ko‘rishni so‘ragan edi. Bu yerda mo‘g‘ullar daryoning u yuzidan bu yuziga zanjir tashlab to‘siq yasadilar. Kemalar zanjirga urilib to‘xtab qolganida mo‘g‘ullar xursand bo‘lganlaridan qiy-qirishib yuborishdi. Temur Malik ikki qavatsovut va dubulg‘a kiyib kema tumshug‘iga chiqdi. Uning qo‘li-da og‘ir po‘lat bolta yarqirardi. Ikki azamat yigit temir ilmoqlar bilan zanjirni ko‘tarib, kema burniga qo‘ydi. Temur Malik ikki qo‘li bilan ushlagan boltani baland ko‘tarib, bor kuchi bilan zanjir ustiga urdi. O‘z boshliqlariga umid ko‘zi bilan qarab turgan xo‘jandliklar yo‘g‘on zanjirning cho‘rt uzilib, shuvullagancha daryoga cho‘ka boshlaganini xursandlik bilan tomosha qildilar. Kemalar yana avvalgi sur’at bilan suzib ketdi. So‘ktu Sirdaryoning quyi tomonidagi qal‘alarni ishg‘ol qilish bilan ovora bo‘lgan Jo‘jiga choparlar yuborib, Temur Malikning oldini to‘sishni iltimos qildi. Jo‘ji Burgalik-kent degan qishloq yonida Sirdaryoga ko‘prik soldirib, uning ustiga qazon qurdirdi, merganlarini tizib qo‘ydi. Yo‘lni ko‘zdan kechirib borayotgan Temur Malik dush-manning ko‘prik qurbanini ko‘rib, kemalarni to‘xtatdi, qirg‘oqda turgan mo‘g‘ullarni o‘qqa tutib, sohilga ya-qinlashishni buyurdi. Mo‘g‘ullar shig‘ab otilgan o‘qlarga bardosh berolmay orqaga chekindilar. Temur Malikning yigitlari fursatdan foydalaniib, otlarni yetaklab tushirishdi va zarur qurol-yarog‘ va oziq-ovqatlarni

qirg'oqqa tashib olishdi-da, so'ng Xorazm tomon yo'l olishdi. Bo'ri galalari kabi kecha-yu kunduz o'zlarini ta'qib etayotgan yirtqich dushman bilan jang qila-qila, yo'lda qonli izlar qoldirib ketaverishdi. Kun sayin qahramonlarning safi kamayib borardi. Temur Malik yadarlar minib olgan otlarni oldinga o'tkazib, o'zi mergan yigitlar bilan eng keyinda borar, ta'qib etib kelayotgan dushmanni o'qqa tutib, ularni yaqinlashtirmasdi.

Qizilqum ichiga kirgan sari ta'qib etib kelayotgan dushmanning soni kamayib borardi. Faqat Temur Malikning boshini olib, boshliqlaridan mukofot olish niyatida bo'lgan eng ashaddiy kallakesarlargina izma-iz kelmoqda edilar. Uchqur otlarga minib olgan Temur Malik va uning do'stlari o'qtin-o'qtin orqalariga qayrilib o'q uzar, yuz-ko'zları changdan qorayib ketgan, oppoq tishlarini g'ijirlatib kelayotgan qottillarni ketma-ket qulatar edilar.

Nihoyat, Temur Malikning sadog'ida²² uch o'q qoldi. Bir o'qining uchi siniq edi. Uning orqasidan quvib kelayotgan uch mo'g'ulning biri:

– Otim Uloq no'yon, meni ulug' qoonning²³ o'zi taniydur. Barcha ulusning hukmdori Chingizxon nomidin seni taslim bo'lmoqqa da'vat eturman! – deb qichqirdi.

Temur Malik javob o'rniga sadog'idan uchi siniq o'qini olib yoy ustiga qo'ydi-da, Uloq no'yonni mo'ljalga olib otdi. O'q no'yonning o'ng ko'ziga sanchildi. Yonidagi ikki mo'g'ul uning ko'zidan o'qni tortib olish bilan ovora bo'lib turganlarida Temur Malik otini to'xtatib, orqasiga qayrildi.

– Hoy, mo'g'ullar! – deb zaharxanda kului u. – Ikkkingiz uchun sadog'imda ikki o'q qoldi, ikkingizni ham so'qir qilib qo'yaymi?

²² Sadoq – charmdan yasalgan o'qdon

²³ Qoon – xoqon.

Mo‘g‘ullar uni ta‘qib etishga yuraklari betlamay, ortlariga qarab qochishdi. Temur Malik o‘zining bir necha yigit bilan Xorazmga yetib kelgach, jangni davom ettiresh uchun u yerda askar to‘plab, yana Sirdaryo tomon yurish qildi. Dushmanga bosqin qilib, Yangikent shahri ni ozod qildi va mo‘g‘ullar tomoniga o‘tgan shahar hokimini dorga ostirib, o‘rniga boshqa bir sadoqatli kishi ni belgiladi-da, o‘zga shaharlarni dushmanidan ozod etishga oshiqdi. Biroq Qizilqumda o‘zlariga nisbatan bir necha hissa ko‘p bo‘lgan dushman bilan jang qilib, yengilganlaridan so‘ng, botirlar yana chekindilar. Temur Malik mashaqqatli yo‘l bosib, Eron tuprog‘ida mo‘g‘ullar bilan jang qilayotgan Jaloliddinga qo‘sildi...

Yillar o‘tdi, o‘z sarkardalariga va viloyat hokimlariga ishonmagan Xorazmshohning xohishiga ko‘ra o‘zlarini yakka-yakka himoya qilishga majbur bo‘lgan O‘rta Osiyo shaharlari birin-ketin Chingizzon tomonidan ishg‘ol qilindi.

Oradan o‘n besh yil o‘tdi, Damashq shahridagi bir karvonsaroyning darvozaxonasida sochlari oqargan baland bo‘yli bir darvesh o‘tirardi. U karvonsaroy ichida bo‘kirib turgan tuyalarni yo‘lga hozirlayotgan kishilarning ovozi-yu, bo‘taloqlarning bo‘zlashiga qu-loq solib, allakimni kutardi. Diqqat bilan qaragan kishi uning ustidagi jandasi, boshidagi kulohi gavdasiga mos tushmaganligini payqashi mumkin edi. Oradan bir soat vaqt o‘tgach, u o‘rta yoshli qora soqol bir kishining saroy tomon kelayotganini ko‘rib:

– Marhabo! – dedi o‘rnidan turib. – Yanglishmasam, siz Movarounnahr ketayotgan karvon boshlig‘i binni Muslimdursiz?

– Oriy, men o‘shal aytgan kishingiz bo‘lurman. Xo‘sh, xizmat?

– Faqir Sayhun²⁴ bo'yina sayohat etmoq niyatidurmen. Imkoni bo'lsa, meni ham hamroh qilib ol-sangiz, xizmatingizni qilib ketsam... Safarda foydam tegsa tegadurki, ziyonim tegmaydur. Yo'l xarjim...

– Sizni bul yerda kim taniydar? Kim sizga kafil bo'la olur?

– Meni saroybon Mustafo, bozor oqsoqoli Umarali taniydurlar.

– Yaxshi, surishtirib ko'rurmen, – dedi binni Muslim darveshni sinchiklab ko'zdan kechirarkan. – Yoshingiz qaytgan bo'lsa-da, baquvvat ko'rinursiz. Ot minmoq, qilich urmoqni bilurmisiz?

Darvesh bilinar-bilinmas miyig'ida kulib qo'ydi.

– Bu bobda soqchilaringizga saboq bera bilurmen.

Ibn Muslimga uning javobi yoqib tushdi. Yo'llar xavf-xatarli bo'lgani uchun karvonga qurol ishlata biladigan ishonchli kishilar kerak edi.

– Qani yuring, saroybon oldiga kirib so'zlashayik...

* * *

Sahar paytida ustiga yuk ortilgan tuyalar saroydan bo'kirishib chiqishdi, eng orqadagi tuyaning bo'yning osilgan og'ir mis qo'ng'iroq jaranglab yer-u ko'kni boshiga ko'tardi. Bu tuya ustida jandasining ichidan qilich taqib olgan kechagi darvesh o'tirardi. Biroq bu safar unga qilichini qindan sug'urishga to'g'ri kelmadи. Karvon yo'li tinch bo'lgani uchun hech qanday hodisa yuz bermadi. Qaroqchilar go'yo karvon soqchilari boshida tajribali bir sarkarda ketayotganini bilgandek edilar. Savdogarlar karvoni suvsiz cho'llar, yashnagan vohalar, bozorlari obod, serg'alva shaharlarni bosib o'tib, uch oy deganda Samarqandga yetib keldilar.

²⁴ Sayhun – Sirdaryo.

Baland bo'yli darvesh bu yerda karvonboshi va yo'lovchilar bilan xayrlashib Farg'onaga ketayotgan savdogarlarga qo'shilib oldi.

Kechki payt. Xo'jand muazzinlari birin-ketin taqvodorlarni namozi asrga chorlamoqdalar. Beliga kachkul osgan jandali darvesh irg'ay tayog'iga su-yanib, qing'ir-qiyshiq ko'chalardan asta bormoqda. U ahyon-ahyonda to'xtab, egalari tashlab ketgach xarob holga kelgan hovlilar ro'parasida to'xtar, so'ng yana indamay o'tib ketardi. Nihoyat, u katta darvozali hovli oldida to'xtab, bir lahma ikkilanib turgandan keyin xalqani taqillatdi. O'n besh-o'n olti yoshlar chamasidagi bir yigitcha darvozani ochib, darveshning kimligini surishtirdi. Darvesh javob o'rniga:

- Kimning o'g'lidursen? - deb so'radi.
- Men ulug' Temur Malikning o'g'lidurmen.

Ko'zidan duv etib yosh oqib ketgan darvesh yigitchani quchoqlab, peshonasidan o'mdi, keyin ko'z-yoshlarini artib:

- Agar otangni ko'rsang, tanirmi eding? - deb so'radi.

- Otam mo'g'ul bilan jang qilib chekinganida men go'dak ekanmen. Aning o'lik-tirigidin xabarimiz yo'q. Mushfiq onamning vafot etganlariga to'rt-besh yil bo'ldi. - Darvesh bu gapni eshitib xo'rsindi-da, "omin" degandek yuzini siypab qo'ydi. - Bul hovlida ilgarigi xizmatkorimiz Odina, aning xotuni va men turamiz.

- Odina tirikmi?

- Ha, menga ota o'rnida qolgan. Mana, o'zlari ham chiqib kelyaptilar.

Ichkaridan sochi oqargan mo'ysafid chiqib keldi.

- Nega hayallading desam, bul kishi bilan so'zlashib turgan ekansan-da, - dedi yigitchaga qarab. So'ngra darveshga yuzlandi:

- Assalomu alaykum, xo'sh, xizmat?
- Nahotki meni tanimasang? Shul qadar qarib-qartayib qoldimmu? - darvesh ko'zida yosh bilan Odinani quchoqladi, so'ng so'l qo'lining bir bo'g'ini kesilgan jimpilog'ini ko'rsatib:

- Endi tanidingmi? - deb so'radi.

Odina yig'lab u bilan qayta ko'rishdi, so'ng hangmang bo'lgan yigitchaga dedi:

- Bul kishi sening otang - ulug' Temur Malik. Nega ag'rayib turibsen, qo'lidin o'pib, tavof qil, hoy nodon.

Bir necha yil qarovsiz qolib, keyin shikast-rexti tu-zatilgan eski hovlida Temur Malik bir necha kun yotib dam oldi. Eski oshna-og'aynilar bundan xabar topib, uni ko'rgani kela boshladilar. Temur Malikning qaytib kelgani butun shaharga ovoza bo'lib ketdi. Lekin mo'g'ullar davrida avvalgidan ham boyib ketgan sav-dogarlar bu xabarni eshitib qo'rqdilar. Ular, bu Temur Malik emas, u allaqachon o'lib ketgan, bu odam esa ulug' sarkardaning nomini o'ziniki qilib olgan bir firibgar, deb gap tarqata boshladilar. Tabiiy, bu shov-shuvlar mo'g'ul boshliqlari qulog'iga yetmay qolmas edi.

Bir kuni qurolli soqchilar Temur Malikning hovlisini o'rab olib, uni saroyga olib ketdilar.

Chingizzxonning avlodlaridan biri - Qadon o'g'lon taxt ustida o'tirib, qo'liga kishan solingen Temur Malikka qiyiq ko'zlarini suzib, ishonchsizlik bilan:

- Rostdan Temur Malikmisen yoki boshqa odammisen? - deb so'radi. Soch-soqoli oqargan bu darveshnamo kishi Temur Malik ekanligiga uning ishongisi kelmasdi.

Qadon o'g'lonining yonida turgan bir ko'zli Uloq no'yon tutaqib:

- Xuddi o'zi... - deb yubordi. Temur Malik ham o'z dushmanini ko'rib g'azab bilan:

– Hoy Uloq, men ham seni bir ko‘rishda tanidim. Qizilqumda orqamdan quvib kelayotganingda uchi singan bir o‘q bilan o‘ng ko‘zingni ko‘r qilgan men edim-a! – dedi.

Uloq no‘yonning sog‘ ko‘zi yo‘lbars ko‘zidek chaqnab ketdi. U xonvachcha oldida tiz cho‘kib:

– Temur Malik mening yaqin do‘sralrim, tuvg‘onlarimning qonini to‘kkan, menga shikast yetkazgan. Ulug‘ Chingizzon haqqi, uni menga ber, xunimni olay, – deb yalindi.

– Mayli, olsang ol. Bir emas, o‘n Temur Malik bo‘lsa ham senga berardim! – Xonvachchaning ko‘zlarida istehzoli kulgi ko‘rindi.

– Hay, essiz, so‘l ko‘zingni ham ko‘r qilib qo‘yganimda bo‘lur erkan, – deya piching qildi Temur Malik dushmaniga qarab. So‘ng uning oldiga tushib, boshini tik ko‘targancha tashqariga chiqib ketdi.

NUR VA ZULMAT



1. Jahon Otin

Yo'lning ikki tomonidagi qator teraklarga qo'nib olgan zarg'aldoqlar saroy soqchilaridek o'qtin-o'qtin bir-birlarini chaqirib, qandaydir noxush ahvoldan xabardor qilayotgandek edilar.

Kechki payt. Daraxtlarning soyasi uzunlashib, bog'ga salqin tushgan. Zarbof, parcha, shoyi to'n kiygan saroy amaldorlari, beklar gerdayib, bog' o'rtasida-gi xiyobondan ko'cha tomon yo'l olmoqdalar. Xuddi shunday paytda eski paranjili bir ayol baland devor bilan o'ralgan o'rda bog'ining naqshinkor darvozasi oldiga kelib, saroy bog'iga kirmoqchi bo'ldi.

– Hoy, kampir, orqag'a qayt. Ne qilib tentirab yuribsan bul yerda? Ruxsati oliy bo'lmasa, hech kim saroyg'a kiritilmaydur! – deb baqirdi ag'darma etik kiygan xush mo'ylovli qorovul yigit, qilichini yarim beligacha sug'urib.

– Qo'rhma, temirtagingni qinig'a solib qo'y. Kallamni olishdan burun arzimni eshit, qorovul bola, – dedi ayol istehzo aralash. Uning do'q-po'pisadan qo'rqmaydigan o'ktam ayollardan ekanligi ko'rinish turar edi.

– Kech bo'pqoldi, ishing bo'lsa ertaga kelarsan.

– Qachon kelishim bilan sening ishing bo'lmasin. Men amirul-mo'minin huzurlarig'a kirmoqchimen.

– Onhazratning oldiarig'a? – shoshib so'radi yigit ko'zlarini ola-kula qilib. – O'zлari kim bo'ladurlar?

– Nima qilasan kimligimni surishtirib? Xo‘jayining qorovul begini chaqir!

Yigit darvozaxonaga kirib ketdi-da, chorpa hildan kelgan, o‘rta yoshli, mis kamariga qilich osgan bir kishini boshlab chiqdi.

– Xo‘sh, nima xizmat bilan keldilar? – so‘radi u qovog‘ini solib.

– Onhazratning huzurlariga kirmoq niyatidadurmen.

– Buning iloji yo‘q. Alar ayollarni qabul qilmaydurlar. Haramxonag‘a kirmoqchi bo‘lsangiz – uning yo‘li boshqa. O‘sanda ham chaqirilg‘on bo‘lsangiz. Qo‘lingizda tashrifnomma bormi?

– Yo‘q... ha, bor, mana! – Ayol paranjisi ichidan shaldiroq qog‘ozga yozilgan so‘nggi g‘azalini – arzi holini chiqarib, qorovul begiga uzatdi. – Yugurdaklarin gizdan birig‘a buyuring, buni haramxonaga olib kirib, Mohlaroyimning qo‘llarig‘a topshirsin.

Qorovulbegi qog‘ozni olib ichkari kirib ketdi-da, oradan chorak soat o‘tar-o‘tmas yugurib chiqib, ta’zim qildi.

– Marhamat qilsinlar. Sizni bu yigit poyiostonag‘acha kuzatib borg‘ay, – dedi yuzida bir tuki bo‘limgan eroniyl qul yigitni ko‘rsatib.

So‘nik ko‘zlari mo‘ltirab turgan, har bir buyruqni so‘zsiz bajaruvchi yigit qadam tashlashidan yosh juvonga o‘xshagan juldur paranjili ayolni saroy tomon boshladi. Ular xiyobondan yurib, koshinlari yaltirab turgan sernaqsh saroy tomon yo‘l oldilar, ikki yonida qurolli yigitlar turgan darvozadan o‘tib, katta qo‘ra orqasidagi haramxonaga yetib keldilar. Haramxona hovlisiga chor-burchak g‘isht yotqizilgan, to‘rt tomondagi imoratlarining devorlari naqshinkor, koshinlari yaltirab ko‘zni yashnatar edi. Mehmon ayol chachvonini ko‘tarib, de-

vorlardagi naqshlarni tomosha qilayotgan edi, chiroyli bir kanizak yugurib kelib, uning boshidan eski paranjni oldi-yu, jamolini ko'rib qotib qoldi. Uning ro'parasida chamasi yigirma uch-yigirma to'rt yoshga qadam qo'ygan qora qoshli, oq yuzli mohro'y bir ayol qomatini tik tutib, kulimsirab turardi. Shu payt jiyakli atlas ko'ylak ustidan baxmal nimcha kiygan yoshgina Mohlaroyim yugurib kelib, u bilan quchoqlashib ko'rishdi.

– Sizni ko'radig'on baxtli kun ham bor ekan, Jahon opa! Kelishingizdan bir-ikki kun ilgariroq bizni ogoh-lantirmaysizmi? Peshvoz chiqib, kutib olar edik, – dedi u sevinch aralash ginaxonlik bilan.

– Sizni ovora qilishni istamadim. O'z oyog'i bilan kel-gan mehmon atoyi xudo, deydurlar. Marg'ilon borg'on ba'zi ayollardan meni ko'rish orzusida ekanligingizni eshitdim, o'zim ham jamolingizga to'yib, suhbatingizni olishni istab yurardim. Vaqt(soati yetgan ekan, safar otiga mindim-u Qo'qon sari ravona bo'ldim.

– Ko'ngildagidek ish bo'libdur, opa. Sizni ko'rgim kelganda g'azallaringizni o'qib yuraman. Buni qarang, yozgan she'r laringiz o'zingiz kabi go'zal, yillar o'tgan sari husningizga husn qo'shilib, chiroyingiz ochiladi-ya!

Yuzidan nur yog'ilib turgan qora qosh saroy bekasi aziz mehmon bilan uchrashganidan behad shod edi.

Ular uch-to'rt yil ilgari, Umarbek Marg'ilon hokimi bo'lib turgan vaqtda o'rdada uchrashib turardilar. Uvaysiy taxallusi bilan nom chiqargan Juhonoyning g'azallari-ni o'qib zavqlangan yosh hokim ishtiyoq bilan she'r yoza boshlagan rafiqasi Mohlaroyimga ilmi aruzdan dars berish uchun uni o'rdaga chaqirtirgan edi. Akasi Olim zolim o'ldirilgandan keyin Qo'qonga ko'chib borib, taxtga o'tirgan Umarxon davlat ishlarini tartibga solish bilan ovora bo'lib, uni esdan chiqargan edi. Saroy shoirlari va

shoiralari davrasiga kelib qo'shilishni orzu qilib yurgan Uvaysiy o'z tashabbusi bilan bu dargohga yetib keldi.

Shodligidan chehrasi yashnab ketgan Mohlaroyim aziz mehmoni atrofida parvona bo'lib, uni mehmonxonaga boshladi.

Ganch bilan suvalgan, munaqqash tokchalariga til-la, kumush asboblar, xitoy chinnilari terib qo'yilgan ayvondagi baxmal ko'rpa cha ustida yoshi o'ttizlar-ga borib qolgan to'lagina ko'hlik bir ayol – haramning bosh xodimasi Xushholbibi chordana qurib o'tirardi. Uy bekasi bilan mehmon ayolning yaqinlashib kelayotgan-larini ko'rgach, mushtini yerga tirab, o'rnidan turmoq-chi bo'ldi.

– O'tiravering, ovora bo'l mang, opa, – dedi Jahon otin yugurib borib u bilan ko'rishar ekan. – Sog'-salomat yuribdurlarmi, o'g'il, qizlar omonmi?

– Xudog'a shukur, hammasi sog'-salomat... Xush kelibdilar, qani, yuqoriga...

O'tirganlaridan keyin Xushholbibi qo'l ochib, hur-matli mehmonga sog'liq, baxt-saodat tilab, duo o'qidi; ular yana hol-ahvol so'rasha boshlashdi. Keyin xodi-ma hovlining bir chekkasida qo'l qovushtirib turgan durkungina kanizakni ko'rib, bir imo qilgan edi, u xiyol o'tmay, yelkasida sochiq, qo'lida dastsho' va qumg'on bi-lan kelib, o'tirganlar qo'liga suv quydi, keyin dasturxon yozdi. Mehmon va mezbonlar u yoq bu yoqdan gapla-shib o'tirib, choy ichdilar. Nihoyat, Jahon otin uy bekasi-ga yuzlanib, dilida ardoqlab yurgan gapni o'rtaga soldi.

– Men ko'pdan buyon Qo'qon shahriga to'plangan nozimlarning mushoiralarida ishtirok etmoq orzusida yurardim, mana endi shu ulug' bo'sag'ada turibmen.

– Shoir va shoiralari davrasida sizning o'rningiz bo'sh turar edi. Kelganingizni bilib Onhazrat ham shod bo'lg'usidurlar.

– Shuni bilganim uchun tap tortmay kelaverdimda. Siz Marg'ilondan ketganingizdan keyin shahrimiz bulbuli uchib ketgan bo'stong'a o'xshab qolq'on edi...

Mavzu she'r va nafosat ustiga ko'chganidan keyin ular rohat qilib suhbatlashib o'tirdilar. Dasturxonga fotiha o'qilgandan so'ng Xushholbibi kulimsirab:

– Onhazrat hozir xonayi xoslarida bir necha shoir bilan suhbat qurib o'tiribdilar. Bo'shaganlaridan keyin kelganingizni bildirib suyunchi olish kerak, – dedi.

– Agar huzurlariga kirib, salom bersam-da, mu-shoira ga qatnashsam, so'nggi g'azalimni ularning muhokamasiga tashlasam...

Ikkilanishni bilmaydigan o'ktam Jahon otin eshikda poylab turgan eroniq qul yigit bilan birga haramxonadan chiqib, mahkamayi oliy tomon dadil qadam tashladi. Eroniy yigit shoiraning qo'lidan olgan qog'oz bilan xosxonaga kirib ketib, bir necha daqiqadan so'ng qaytib chiqdi-da, kulimsirab bosh irg'ab qo'ydi.

– Assalomu alaykum, – deb o'n bir yog'ochli keng-mo'l mashvarat xonaga dadil kirib bordi Jahon otin.

To'rdagi shahnishinda kimxob to'shakda chordana qurib o'tirgan to'la yuzli shirakayf xon qiyiq ko'zları bilan kulimsirab salomga alik oldi-da, shoiranı o'tirishga taklif etdi. Xonaning ikki tomonidagi atlas ko'rpaclarda bir vaziyatda o'tirgan, taxallusları ham, g'azalları ham bir-biriga hamohang shoirlar: Xijlat, Hayrat, Xislat, Nusrat, Muzmar, Mushrif va boshqalar hayron bo'lib, quyiroqda tiz cho'kkan shoira ga anqayib qarab qoldilar.

– Ro'parangizda taxallusları Uvaysiy bo'lg'on Jahon otin o'tiribdurlar, – dedi xon og'ir sukunatni buzib. – Biz Marg'ilonda hokim bo'lib turgan vaqtimizda bu yetuk shoira taklifimizga binoan o'daga kelib malikaga ilmi

aruzdan dars berib turar edilar. Yurt ishlaridan tinchi-gach, bu xonimni saroya chaqirtirmoqchi edik. Xuddi niyatimizdan xabardor bo'lg'onlaridek, o'z qadamlari bilan o'rdaga tashrif buyuribdurlar. – Xon shoiraning ta'rifini joyiga keltirib, qo'lidagi qog'ozni chap tomonida o'tirgan qop-qora soqolli Mahjurga uzatdi. – Bu so'nggi g'azallari bo'lsa kerak, o'qing.

Shoir qog'ozni olib, boshini biroz orqaga tashlab, zavq bilan o'qiy boshladi:

*Zaboningni keturgil, e shakar lab to'ti guftora,
Nechukkim marhamat bo'lsin necha mendek dilafgora.
Uvaysiy, yuz jafo ko'rsang, haqiqat yoridin doim
O'girma yuzni andin, solma ko'zni o'zga dildora.*

Xonning o'ng tomonida o'tirgan Fazliy ensasi qotib Mahjurga istehzo bilan qaradi-da, keyin yerga nigo-hini qadadi.

Quyiroqda o'tirgan shoir Mushrif zavqlanib ketib:

– Mana bu she'rni ma'ni daryosi tagidan oling'on durru gavhar desa bo'lur! – deb yubordi. – Safimizga haqiqatg'a oshiq bo'lg'on bir bulbuligo'yo kelib qo'shildi!

– Ofarin! – deb uning gapini ma'qullashdi boshqa shoirlar. Keyin she'r bo'stoniga kirib kelgan shoiraning ishiga kushoyish tilab, duoga qo'l ko'tardilar.

Ikki beti qizarib, ko'zları chaqnab turgan Jahon otin haramxonaga qaytgach, tomog'i-yu qulqlarini o'rab olgan ipak ro'molini yechib, boshiga tashladi-da, dugonalari yoniga o'tirdi va bo'lib o'tgan voqealarni bir-ma-bir aytib, ularni xursand qildi. Ancha fursatdan so'ng – o'rda bog'idagi daraxtlarning uchlari botayotgan quyosh nurida zarrin tusga kirgan bir vaqtida Jahon otin ketishga hozirlandi.

– Voy, qayoqqa? – deya bezovtalanib so‘radi uy bekasi. – Siz uchun alohida xona ajratib qo‘yg‘onmen, shu yerda istiqomat qilasiz.

– Men bir qarindoshimning uyiga mehmon bo‘lib kelgan edim, uzrimni qabul eting. Kechalari u yerda bo‘lsam, kunduzlari xizmatingizdamen.

Ziyarak uy bekasi uning: “Saroyda turolmayman”, demoqchiligini fahmlab, ma'yus kulimsirab qo‘ydi-da:

– Agar istasangiz, sizga yaxshi bir hovli topib beramiz, – dedi.

* * *

Uvaysiy haramxonada o‘zi uchun ajratilgan xonada kezinarkan, beixtiyor ochiq darichadan hovli o‘rtasi-dagi usti yopiq o‘ra yonida yuvinayotgan Umarxonga ko‘zi tushdi. O’ratepalik chirolyi bir kanizak obdas-tadan xonning qo‘liga suv quyayotganda, bir o‘rim so-chi chap yelkasidan osilib tushib, obdastaga ilashdi. Oppoq semiz yuzi yorishib ketgan xon kanizakning sochini avaylab olib, uning orqasiga tashladi. Uvaysiy ro‘parasidagi darichadan Mohlaroyimning ham qarab turganini, uning anordek yuzi oqarib ketganini ko‘rdi-yu, o‘zini panaga oldi. U o‘z singlisidek sevib qolgan malika uchun achinib, yuragi kuyib ketdi. Tokchadagi choynakdan bir qultum sovuq choy ichib, tashnaligini qondirmoqchi bo‘lganda, katta bir Quva anoriga ko‘zi tushdi. Darrov qo‘liga oldi-yu pichoq bilan dumini qirqib, bir necha joydan uzunasiga po‘stini tildi, bar-moqlari bilan to‘rtga ajratdi, cho‘g‘dek anor donalari piyolaga to‘kildi. Shu payt uning miyasiga: “Axir bu gumbazga o‘xshagan anorning ham biz kabi bag‘ri qon ekan-ku! Hamma tomoni baland qo‘rg‘on bilan o‘ral-gan o‘rda ham hasrat olovida yongan go‘zal kanizaklar bilan to‘la, ularning bekasi ham rashk o‘tida yonmoq-

da”, degan fikr keldi va birdan yuzi ilhom nuri bilan yorishib ketdi. U darhol xontaxta yoniga o’tirib, qo’liga qalam oldi-da, siyohga botirib yoza boshladи:

*Bu na gumbazdur – eshigi, tuynugidin yo‘q nishon,
Necha gulgun pok qizlar manzil aylabdur nihon.
Tuynugin ochib, alarning holidin olsam xabar,
Yuzlarida parda tortug‘liq turarlar, bag‘ri qon.*

Uvaysiy “Anor” degan bu she’rini Mohlaroyimga o‘qib berganda u haddan tashqari hayajonlanib, murabbiyasini quchoqlab:

– Voy opajon, qanday ajoyib she’r yozibsiz! – dedi. – Agar nafosat tarozusining bir pallasiga saroy shoirlari ning gazallarini, ikkinchi pallasiga shu to’rtlik qo‘yilsa, albatta sizning shu jajji she’ringiz bosib ketgusidir.

– Juda oshirib yubordingiz, malikam! – dedi qizarib, garchi bu maqtov unga yoqib tushgan bo’lsa ham.

* * *

Uvaysiy bir kuni haramxonaga kirganda bir kampir dasturxon ustida Xushholbibi bilan uy bekasiga bir narsalarni uqtirayotgan edi. Uvaysiy salom berib kiriши bilan u o‘rnidan turib, ko‘rishmoqchi bo‘ldi.

– O’tiring, o’tiravering, – deya yugurib borib, kampir bilan ko‘rishdi va hol-ahvol so‘rashgandan so‘ng oraga og‘ir sukunat cho‘kdi.

Birozdan keyin Xushholbibi o‘rnidan turib, “yuring” deganday Uvaysiyga imladi. Ikkovlari xoli bir xonaga kirganlaridan so‘ng Xushholbibi to’satdan:

– Kampirni tanidingizmi? – deb so‘radi, lekin savoliga javob kutmasdan gapida davom etdi. – U mashhur hofiz va shoir Haydar devonaning onasi, sizga sovchi bo‘lib kelibdi.

– Nima? Nima dedingiz? Sovchi?

– Ha. Haydar devona g‘azallaringizni o‘qib, sizga g‘oyibona oshiq bo‘lib qolg‘on ekan.

– Bo‘limgan gap. Yostiqdoshim vafot etgandan keyin ikkinchi er qilmayman, umrimni ikki bolamga bag‘ishlayman, deb ont ichganman.

– Qo‘ying-e! Hali o‘n gulingizdan biri ochilg‘oni yo‘q. U ham so‘qqabosh...

– Unday bo‘lsa boshqasini topsin, meni tinch qo‘ysin, ontimni buzolmayman. Jon opa, bir iloj qilib, kampirning tugunini olmay, qaytarib yuboring! O‘lsam ham unga tegmayman.

Xushholbibi uning rangi o‘chib, ko‘zlaridan alam yoshi chiqqanini ko‘rgach:

– Qo‘rqmang, singlim, sizni zo‘rlab hech kim erga bermaydi. Kampirga o‘zim javob qilaman. Men bor, bu yerda hech kim ko‘z yoshingizni to‘kolmaydi, – dedi.

Uvaysiy kechasi bilan bosinqirab chiqdi. Ko‘zi endi uyquga ketganda cho‘chib uyg‘onib ketar, uni vahima bosardi: “Bordi-yu, bu ishga xon aralashsa, ishim chatoq. Ilojini topolmay, arosat tuzog‘iga ilinaman. Tezroq bu dargohdan jo‘nab qolish kerak”.

– Bir kechada rangingiz somondek sarg‘ayibdur! Sizga nima bo‘ldi? – so‘radi Mohlaroyim ertasi nonushta vaqtida.

– Kechasi bilan validayi mehribonimni tushimda ko‘rib bezvtalanib chiqdim. Marg‘ilon borib, ularni bir ko‘rib kelmasam, kasal bo‘lib qolaman. Ruxsat bersalar, shu bugunoq jo‘nab ketardim.

– Nega muncha shoshyapsiz? Biror hafta sabr qiling, keyin bir gap bo‘lar.

Uvaysiyning rangi battar o‘chib ketganini ko‘rgach, Xushholbibi uning yonini olib, ruxsat berishlarini so‘radi.

– Mayli, bo'lmasa, – dedi Mohlaroyim o'zidan katta ikki e'tiborli ayolning iltimosini rad etolmay. – Men onhazratdan ruxsat olib beraman, ammo ikki-uch haftadan so'ng qaytib kelish sharti bilan.

– Bosh ustiga, – deb rozilik bildirdi Uvaysiy.

* * *

U: "Uyga ketyapmiz", deb quvongan ikki bolası bilan Qo'qon aravada Marg'ilonga yetib kelib, Childuxtaron mahallasidagi hovlisiga kirganda og'zi ochilib qotib qoldi. Katta hovlining bir tomonida – eski imoratlar ro'parasida baland qilib solingan mu-naqqash uy-ayvon unga kulib qarab turardi.

– Voy, bu imorati oliyni qachon qurdirdingiz? – so'radi Uvaysiy yugurib kelib, quchoqlab olgan onasidan.

– Eson-omon keldingmi, qizim? Seni, bolalaringni sog'indim-ku! – dedi sochlari oqarib ketgan bo'lsa-da, qaddi bukilmagan Chinni bibi. – Bu imorat... Nodira beginming buyrug'i bilan solingan. Olti oycha bo'ldi.

O'tirib, yuzlariga fotiha tortganlaridan keyin qizi onasiga nima uchun bu qadar shoshilinch bilan kel-ganining sababini gapirib berdi.

– Juda yaxshi qilibsan, qizim, – dedi Chinni otin. – Boshing ustidagi falokat bulutlari tarqalgandan keyin o'sha dargohga yana borsang borarsan.

2. Bo'z choponli jallod

I

Uvaysiy Qo'qonga qaytib kelganidan keyin Mohlaroyim unga o'rda yaqinidagi mahalladan bir hovli topib bergen edi. Shoira bo'sh vaqtlarida Ulfatoy degan qo'shni ayolning uyiga chiqib, u bilan ulfatlashib turar

edi. Bir kuni unikiga chiqqanida hovlining o'rtasidagi o'ra yonida jomashovda kir yuvayotgan ko'hlikkina bir qizni ko'rib: "Bu kim bo'ldiykin?" degandek unga qarab qoldi. Kokillarini sariq shoyi ro'mol bilan tang'igan sarvi qomat qiz kulimsirab, o'rnidan turdi-da, qo'lini yoniga artib, ta'zim qildi.

– Siz Ulfatoyning kimi bo'lasiz? – deb so'radi shoira uning yelkasiga qoqib qo'yib.

– Mening singlim, – deb undan oldin javob qildi yugurib kelib ko'rishgan Ulfatoy. – Oti O'g'iloy, haftada bir-ikki marta kelib menga qarashib turadi, hovlini supurib-sidirib, kirlarimni yuvib beradi.

– Baraka topsin, aqli qiz ekan, – dedi shoira ko'rpachaga o'tirganlardan keyin, kir yuvishga o'tirgan O'g'iloyning orqasidan yana bir qarab qo'yib. – Serg'ayrat, o'ktam qizga o'xshaydur, ko'zlar o'tkir...

– Topdingiz, kichikligida qo'ni-qo'shni bolalari bilan ko'cha changitib o'ynab yurar, ba'zi vaqlarda o'zi tengi o'g'il bolalar bilan urishib qolsa, ularning ababini berib qo'yar edi, keyin ayam uni ko'chaga chiqarmay qo'ydilar.

– Maktabga borib turarmidi?

– Ha, mahallamizdag'i otinoyidan saboq olib, savodini chiqarg'on, zehni o'tkir. Fuzuliyni o'qiy oladig'on bo'lgandan keyin maktabdan tortib oldik. O'n yettiga qadam qo'ydi, axir.

Kir yuvayotgan O'g'iloy gap o'zi ustida ketayotgani ni sezgandek, orqasiga bir qayrilib, jilmayib qo'ydi.

O'ttizga kirib "o'tin bo'lgan" Ulfatoy o'zi tengi Uvaysiying go'zalligidan zavqlanib: "Dunyoda baxtli ayollar ham ko'p", deb o'yladi. Ikki bolasi bilan beva qolgan shoira boshini qayoqqa urishini bilmay, Qo'qonga kelib qolganidan u bexabar edi. Uvaysiy suqlanib qarayotgan uy bekasining ko'nglidan o'tayotgan fikrlarni sezgan-

dek ma'yus kulimsirab, bosh chayqab qo'ydi. U yoq bu yoqdan ancha gaplashib o'tirganlardan keyin, u das-turxonga fotiha o'qib o'rnidan turdi. Xayr-xo'shlashib, tashqari hovliga qadam qo'yishi bilan ustaxonadan chiqib kelayotgan chiroyligina bir yigitga duch kelib, boshidagi ro'moli bilan yuzini berkitdi-da, uning salomiga alik oldi. Bu yigit Ulfatoyning eri, kosib Is-moilxo'janing xalfasi – yordamchisi Hayotjon edi.

"O'g'iloyning bu yerga tez-tez kelib turishidan bir gap borga o'xshaydi", – deb o'yladi shoira, lekin shu zahoti miyasiga kelgan bu fikrni quvib chiqarmoqchi bo'lgan-dek bosh chayqab: "Yo'g'-e!" deb qo'ydi. U ko'nglini shubha og'usi bilan zaharlashni istamasdi.

II

O'g'iloy opasinikiga kelib-ketib yurganida ba'zan Hayotjon bilan to'qnashib qolar, o'zini darrov chetga olib, chopganicha ichkari hovliga kirib ketar edi. So'ngroq Hayotjondan qochmaydigan, u bilan salomlashadigan bo'ldi. Ular bir-birlariga qiziqib qarar, har safar uchrash-ganlarida ikkovining ham yuzi guldek ochilib ketar, lekin dil rozlarini izhor qilishga botinolmas edilar.

Bora-bora belini shoyi belbog' bilan tang'igan be-qasam to'nli, xushsurat yigit qizning ko'z o'ngidan nari ketmaydigan bo'lib qoldi. Sevgi domiga ilingan yigit ham kecha-yu kunduz O'g'iloyni o'ylar edi. Keyinroq ular pana joylarda ehtiyotkorlik bilan uchra-shadigan bo'lib qoldilar...

Sevgi sharobi O'g'iloyning husnini ochib yubordi, guldek yashnagan ikki beti, chaqnagan ko'zlari go'yo yog'du sochib turardi. Uning go'zalligi to'g'risidagi ovozalar shaharga tarqalgandan keyin sovchilar kela boshladilar. Xursand bo'lism o'rniga negadir, tashvish-

ga tushib qolgan ota-on: “Hali qizimiz yosh, uy ishlariiga o‘rganib, es-hushini yig‘ishtirib olsin”, deb javob qilar edilar. Ammo qozikalonning inisi Sayid Murodxo‘ja sovchi yuborganda O‘g‘iloyning otasi ikkilanib: “O‘ylashib ko‘ramiz, qarindosh-urug‘lar bilan maslahatlashib, keyin javob qilarmiz”, deb dudmal javob qildi.

Sayid Murodxo‘ja boy, baobro‘ odam bo‘lsa ham, yoshi ulug‘, xotini o‘lgan, bolalari katta bo‘lib qolgan kishi edi. “Qizimni bersam, bolalari uni chiqishtiri-sharmikin?” deb o‘ylar edi gangib qolgan ota. Lekin qizi uchun oladigan qalin puli, mol-hol cholni vasvasaga solar: “O‘g‘iloy davlatga erishgandan keyin eriga ko‘nikib ketar, boshida aqli bor-ku, yaxshi gap bilan o‘gay bolalarini ham o‘z tomoniga og‘dirib olar”, deb ko‘nglini xotirjam qilmoqchi bo‘lar edi u.

Ota-onasining nega peshona tirishtirib yurganlari dan xabardor bo‘lgan O‘g‘iloy bir kuni ayasiga:

– O‘lsam ham, xotini o‘lgan cholga tegmayman, u eri o‘lganni topib olsin, – dedi.

– Hoy, uyalmaysanmi shu gapni aytgani?! – dedi sochlari oqarib qolgan ona ikki barmog‘i bilan yuzini sidirib. – Birov eshitmasin bu gapni. Qiz bola ota-onasining so‘zini ikki qilmay, nima desalar “xo‘p” deyishi, erga chiqqandan keyin esa arning izmidan chiqmasligi kerak.

– Meni qozikalonning inisiga qul qilib sotmoq-chimisiz, aya? – dedi O‘g‘iloy qoshlarini chimirib.

– O‘lsam ham sochim bilan o‘scha boyning hovlisini supurmayman. Bilaman, sizlar qalin puli olib, qo‘yin-qo‘njingizni to‘ldirmoq niyatidasiz. Undan ko‘ra meni qul bozorga opchiqib sotinglar.

– Hoy, ovozingni o‘chir! – dedi ko‘zlari qinidan chiqib ketayozgan ona. – Dadang eshitib qolsa, boshingda kaltak sinadi-ya!

– O‘zim xohlamag‘on odamg‘a tekkandan ko‘ra tayoq yeb o‘lganim yaxshi! Meni kuyovga chiqarish uchun ko‘p shoshilmang, vaqt kelganda o‘z tengimni topib olarman.

– Voy o‘lay, nimalar deyapsan! Uyat-e! Yana shu gapni aytsang, seni o‘zim kaltaklayman! – dedi kam-pir savag‘ichni qo‘liga olib.

– Uring, o‘ldiring meni! – deb orqasini tutib berdi qizi. Ona sho‘rlikning tayoq ko‘tarishga qo‘li borarmidi!

III

O‘g‘iloy bir qarorga kelgandan keyin ikkilanib o‘tirmas edi: “Asli o‘g‘il bola bo‘lib tug‘ilishim kerak edi-yu, taqdir ekan-da, – deb peshonasiga shapatiladi u jahl bilan. – Nima, er kishi qilgan ishni xotin-qizlar qilol-maydimi, shoshmay tursinlar o‘scha sayid, xojalar!”

U xon qo‘shinida xizmat qiluvchi akasining qoziqda osilib turgan beqasam choponini qo‘liga olib, u yoq bu yog‘ini ko‘zdan kechirdi-da, ko‘ylagi ustidan kiyib oldi. “Sal uzunroq ekan, mayli”, – dedi va sochini turmaklab, ustiga akasining qalpog‘ini qo‘ndirib oldi. Bu paytda ota-onasi xufton namozini o‘qiyotgan edilar...

Hayotjon xo‘jayinining uyidan o‘z kulbasiga qaytib, tokchadagi qorachiroqni yoqqan paytda birov ko‘cha eshigini asta taqillatdi. Negadir uning yuragi urib ketib, torgina hovli sahniga tushdi-da:

– Kiravering, – dedi.

Eshik ochilib, qomati kelishgan bir yigit ichkari kirdi.

– Xush kelibdilar. Sizga kim kerak?

– Xuddi Hayotjonning o‘zginasi kerak, – dedi yosh mehmon mayin ovoz bilan unga juda yaqin kelib.

Uy egasi uni ovozidan tanib, xursand bo'lib ketdi:

– Unday bo'lsa uyga kirayik.

Ular ostonadan o'tib, qorachiroq lipillab yonayotgan xonaga kirganlaridan keyin O'g'iloy boshidan qalpog'ini olib, tokchaga qo'ydi-da, turmaklangan sochlarni orqasiga tushirib yubordi, chophonini yechib, qoziqqa ilgach:

– Boshimni qayerga urishimni bilmay siznikiga keldim, meni haydamang, – dedi entikib. – Dunyoda sizdan boshqa ishonchli odamim yo'q.

– O'zingizga qanday inonsangiz, menga ham shunday inonavering. O'g'iloy boyga tegib ketadi deb g'am-g'ussada edim, mana endi ko'nglim tinchidi. Ertaga... domlani chaqirib kelay, bir piyola suv bilan bizni nikohlab qo'ysin.

– Yo'q, bu ishni keyinga qo'yib tursak. Har qanday domla ham bir kun emas, bir kun og'zidan gullab, sirimizni olib qo'yadi. Anavi Sayidxo'ja boshqasiga uylanib, ko'ngli tinchigandan keyingina nikoh o'qitib, taqdirimizni birlashtirsak. Hozircha yoningizda do'stingizdek yuraversam.

– Qanday qilib? Qo'ni-qo'shnilar...

O'g'iloy uning nima demoqchi bo'lganini anglab, shunday dedi:

– O'tkir pichog'ingiz bilan sochimni qirib tashlasangiz, men yigit qiyofasiga kiraman.

– Mayli, – dedi Hayotjon ko'zları tashvishli javdirab, uni xursandchilik shoshirib qo'yan edi. – Men hozir... qumg'onda suv isitay, siz sochingizni yuvib yumshating... Ammo shunday kokillaringizni qirib tashlashga qo'lim borarmikin?

– Boshqa iloj yo'q. Tinchiganimizdan keyin sochimni o'stiraman, avvalgidan qalinroq bo'lib chiqadi.

O'g'iloy sochini oldirib, yuvinib kelgandan keyin ikkovlon choy ichishga o'tirishdi. Yalang'och boshiga chust do'ppi, egniga beqasam to'n kiyib, yoshgina yigitga o'xshab qolgan O'g'iloyning jamoliga qarab o'tirgan Hayotjonning ko'nglida ikki his: achinish va shodlik hislari bir-biri bilan kurashar edi. Bora-bora ko'ngli yotsirash, achinish hislaridan musaffo bo'lib, shodlik va sevgi alangasi uning qalbini yorita boshladи.

Ular vaqtning qanday o'tganini sezishmas, beg'ubor sevgi shabadasi ularni mast qilib, ko'ngillarini ko'kka ko'targan edi. Sof muhabbat hissi bilan sug'orilgan kunlar birin-ketin o'taverdi. Hayotjon sir boy bermay, avvalgidek xo'jayininig ishlarini hafsalan bilan bajarib, uni xursand qilishga urinar edi. Ismoilxo'ja usta undan mamnun, ishlari yurishib ketganidan xursand, lekin xotini Ulfatoyning kundan-kunga mazasi qochib, rangi sarg'ayayotganiga hayron bo'lar: "Nima bo'ldi sen-ga?" deb so'rasa, u: "Tobim qochganga o'xshaydi, ma-zam yo'q", deb javob qilardi.

Ulfatoy singlisi qayerdaligini bilar, lekin bu haqda hech kimga og'iz ochishga jur'at etmasdi. U tasodifan ikkala yoshning imo-ishora bilan gaplashayotganlari ni ko'rgan, taxmini qanchalik to'g'riliqini bilish uchun u tashqariga chiqib, tirkishdan ustaxonaga mo'ralab, yanglishmaganini sezdi.

IV

Shariat qonun-qoidalariga fuqaroning qanchalik rioya qilayotganlari, bozordagi tosh-tarozuning tekshirib turuvchi bosh rais o'z mahkamasida mirshab-boshining hisobini tinglab o'tirar edi.

– Kechasi Taqachilik mahallasida bir uyga bostirib kirib sharob ichayotg'on to'rtta qimorbozni ushlab ol-

dik, – dedi belidagi qilichining dastasini ushlab o‘tirgan qora soqolli mirshabboshi ko‘zlarini chaqchaytirib. – Ular qamoqda, hukmingizni kutib turadurlar.

Katta sallali bosh rais:

– Ertaga ularni ko‘chada aylantirib yurib sazoyi qilmox lozim, – dedi tasbeh o‘girishdan to‘xtamasdan. – Birining orqasiga musallas solingen xumchani bog‘lab qo‘ymoq kerak. Keyin har birining yalang‘och badanig‘a yigirma besh darra urib, jazolarin berurmiz.

U gapini tugatgani ham yo‘q ediki, kichkinagina oq sallali, soqoli, mo‘ylovlarining osti qirilgan, katta yoshli bir kishi salom berib kirib keldi.

– Vaalaykum assalom... e-e, kelsinlar! – dedi rais o‘rnidan turib, qozikalonning inisi bo‘lgan Sayid Murodxo‘ja bilan qo‘l berib ko‘rishar ekan. – Sihat-salomatmilar? Qarindosh-urug‘lar?..

– Xudog‘a shukur, hammalari eson-omon, – dedi mehmon shoyi to‘nining etagini yig‘ishtirib kursiga o‘tirar ekan, fotihaga qo‘l ochib. – Qani, omin!..

Ular yuzlarini siypaganlardan keyin rais eshik yonda turgan mirshabboshiga: “Chiqib turing”, degandek boshi bilan ishora qildi. Yolg‘iz qolganlardan so‘ng u:

– Eshitishimizga qaraganda, xayrli bir ish boshlamoq niyatida ekansizlar, – dedi. – Axir, zavjangizning vafot etganiga olti oycha bo‘ldi, boshni ikki, oyoqni to‘rtta qilib olmoq fursati keldi...

– Tinchgina yursam bo‘lar ekan, – deb uh tortdi qozikalonning inisi. – To‘y boshlayman deb qaytaga g‘alva orttirdim. Gapning po‘stkallasini aytib qo‘ya qolay. Ahdi nikohimg‘a oladig‘on qiz: “Men xotini o‘lgan odamg‘a tegmayman”, deb uyidan qochib ketibdur. Ota-onasi qayerga ketganini bilmay, hasrat ichida qolibdurlar.

– Ular yo‘qolgan qizlarini axtarib yurgan bo‘lsalar, biz topib bergaymiz, – dedi rais ko‘ngliga yomon bir fikr kelgan bo‘lsa ham, riyokorlik bilan kulimsirab.

– Ularning mahallasi, qarindosh-urug‘larining turar joylarini, oila a’zolari nomini aytib bersangiz – bas.

Sayid Murodxo‘ja unga shu ma’lumotlar kerak bo‘lishini bilgani uchun tayyorgarlik ko‘rib kelgan edi.

– Xo‘p, bizga to‘rt-besh kun muhlat bersinlar, – dedi rais uning gapini oxirigacha tinglab.

Bir haftadan keyin “Baxtsiz kuyov” mahkamaga kelganida bosh rais gapni cho‘zib o’tirmay:

– Yo‘qolgan uzukni topdik, – dedi tasbehini cho‘nta-giga solib. – Xufiyalarimiz Ismoilxo‘janing xalfasi Hayotjonning uyiga bir hafta ilgari bir yigitcha mehmon bo‘lib kelganini ma’lum qildilar. Biz kalavaning uchini topg‘ondek bo‘ldik. O‘tgan kuni yarim tunda yasovullarimiz o’shal xalfaning uyiga bostirib kirib, ikkovini qo‘lg‘a oldilar. So‘roq vaqtida ma’lum bo‘ldiki, ularning biri sochini oldirib, erkak qiyofasig‘a kirgan qiz – O‘g‘iloy ekan. Hozir ikkovi ham qamoqda.

Rangi o‘chib, dag‘-dag‘ titray boshlagan Sayid Murodxo‘ja:

– Shunday deng, ha-ha! Alarning jazolarini bermoq kerak! – dedi. – Toshbo‘ron qilib, o‘ldirmoq kerak... Ikkovini ham...

– Albatta, ota-onha so‘ziga kirmay, uyidan qochib ketib, sochin oldirg‘on qiz ham, uning oshig‘i ham sangsor qilinmog‘i lozim... – U g‘azabga kelib, o‘zini yo‘qotib qo‘ygan obro‘li hamsuhbatini chalg‘itish uchun gapni boshqa yoqqa burishga urindi.

– Afsuski, Umarxon davrida o‘qig‘on ayollarning martabasi oshib ketdi. Qizlar matabining son-sanog‘i yo‘q. Nodira, Uvaysiy, Mahzunalar yor vasli, ishq-muhabbat borasida g‘azallar yozib, zohidlar sha’niga tosh

otmoqdalar. Men sizga aytsam, xotunlar erlar uchun, uy ishlari, bichish-tikish uchun yaratilganlar. Afsuski, bizda bul haqiqatni unutmoqdalar...

“Rost, – deb o‘yladi “baxtsiz kuyov” tishlarini g‘ichirlatib. – Agar men olmoqchi bo‘lgan qiz savod-siz bo‘lganda, ota-onasizidan chiqmagan, ishq-muhabbat to‘g‘risida xayol surmagan bo‘lar edi. Endi uni muhabbat shaydolari bo‘lgan qizlarga ibrat bo‘lsin uchun toshbo‘ron qilib o‘ldirish kerak, anavi yigitni ham. Birinchi toshni o‘zim otaman!”

V

Qilgan ishidan pushaymon bo‘lgan O‘g‘iloyning ota-si ko‘chaga chiqolmay, ko‘rpa-to‘sak qilib yotib olgan, g‘amdan soch-soqoli oqarib ketgan edi. Ba’zan u yotgan burchakdagi uydan: “Oh-oh!” degan faryod eshitillardi. “Men – nafs ovorasi, nima qilar edim qizimni bavlat odamg‘a uzatmoqchi bo‘lib! – deya o‘z-o‘zi bilan gaplashar edi u kuyib-pishib. – Birovga muhtoj emasdik, tirikchilik o‘tib turar edi, ustimiz butun, qornimiz to‘q edi-ku! Tamagirligim boshimga yetdi. O‘g‘iloyning fe’lini, o‘jarligi, o‘ktamligini bilar edim-ku! Oh, oh!”

Kampir ko‘z yosollarini ro‘molining uchi bilan arrib, eri yotgan uyg‘a darichadan asta mo‘ralab qarar, uning gaplariga quloq solar edi.

Bir kuni Ulfatoy ularni ko‘rgani kelganda onasining bir burchakda yig‘lab o‘tirganini ko‘rdi-yu yurakbag‘ri qon bo‘lib ketdi.

– Ko‘zimning nuri, erka qizimdan ayrilib qoladig‘onga o‘xshayman, – deb hiqilladi kampir katta qizi bilan ko‘rishar ekan. – Bu nima ko‘rgulik-a! Peshonam qurg‘ur sho‘r ekan, koshki edi, bu dunyoga kelmasam, uning jabr-u jafosini tortmasam!

– Noumid bo‘lmang, ayajon. Haliyam bo‘lsa singlimni qutqarib qolish yo‘li bor.

– Meni yupatish uchun aptyapsanmi bu gapni? – deb so‘radi kampir, atrofini ajin bosgan ko‘zlanini mo‘ltiratib. – Tezroq aytay qolsang-chi! Qanday qilib qutqarasan?

– Shoshmasdan gapimga qulqoq soling, aya, – deb sekin gap boshladi Ulfatoy onasining qoqshol qo‘lini silab. – Jahon otin degan bir qo‘shnim bor, g‘azal yoza-dig‘on juda bilimdon ayol. Xon hazrat uni Marg‘ilon dan chaqirtirib olib kelganlar, Mohlaroyimg‘a bayt yozishni o‘rgatsin, deb. Agar otinoyimning oldilarig‘a chiqib, unga iltijo qilsam, Mohlaroyimni hol-ahvolimizdan xabardor qiling, shafqat qilib, singlimni zolimlar qo‘lidan qutqarib olsinlar, desam...

– Zora xudo ularning ko‘ngliga rahm solsa-yu erka qizim o‘limdan omon qolsa, – dedi kampir, pirpaygan oq sochlari ni ro‘moli tagiga tiqib. – O‘sha otinoyining oldiga chiqqaningga nima deyishingni avval yaxshilab o‘ylab ol. Shoshmasdan hammasini gapirib ber.

– Bundan xavotir olmang, ayajon. Nima deyishimni o‘ylab qo‘yg‘onman. Xudo bizdek benavolarg‘a rahm-shafqat qilar!

VI

– Bosh rais va qozikalonning mahkamalarida nima gaplar bo‘layotg‘onidan doim xabardorman, – dedi Umarxon Nodiraga ma’nodor kulimsirab. – O‘shal xushsurat yigitga maftun bo‘lg‘on chiroyli qiz so‘roq vaqtida: “Men shariatga xilof ish qilmadim, ona qornidan tushgan boladek pokman. Boshimiz ustidagi xavf-xatar buluti tarqalg‘ondan keyin nikoh o‘qitib, er-xotin bo‘lmoqchi edik”, deb qozi va muftini mot qilibdur. Ular maslahatlashib, bir qarorg‘a kelibdurlar, ya’ni qiz

sochini oldirib tashlab, nomahram erkak bilan birga yurgani uchun uni toshbo'ron qilmoqchi bo'libdurlar.

– Muhabbat qurboni bo'lg'on bul ikki yoshni qutqarib olmoq kerak.

Umarxon yerga qarab bosh chayqadi.

– Buning iloji yo'q. Men sayid va xojalar, shayxlar, ulamolar irodasig'a qarshi borolmayman. Ularning nu-fuzlari katta, xalq o'rtasida e'tiborlari zo'r. Men bul zabbardast guruhning ra'yiga qarab ish yuritmog'im kerak!

Amiral-mo'minin, ya'ni musulmonlarning hukmdori degan unvonga ega bo'lgan Umarxon amaldorlar, sayidlar, xojalar ko'ngliga qarab ish tutishga majbur ekanini – ojizligini xilvatda tan olishga majbur bo'ldi.

– O'g'limiz Ma'dali dovyurak, g'ayratli bola, ehtimol keyin aqli-hushini yig'ishtirib olib, kattalarning maslahati bilan ish tutadurg'on bo'lar, – deb so'zida davom etdi past ovoz bilan Umarxon. – Lekin hozir fikr-u xayoli dalada, ot-ulоqda, qulog'iga gap kirmaydur, xudo ko'rsatmasin, mendan keyin u shaddodlik qilib mutakkabir shayx va mullolarg'a qarshi ish olib borsa, xarob bo'lg'usidur...

– Qo'ying, yomon nafas qilmang, – dedi rangi o'chib ketgan Nodira. – Uni ikkimiz jilovlab olib, to'g'ri yo'lga solarmiz.

Ular avloqda, Nodiraning xonayi xosida, baxmal ko'rpa ustida o'tirib, suhbatlashar edilar. Shiftga osilgan oltin qandildan taralgan nur ostida malikaning baxmal jiyakli atlas ko'ylagi turli tusga kirib tovlanar, lekin yuzi borgan sari sarg'ayar edi.

– Nahotki bir iloj topib, o'shal begunoh qizning hayotini saqlab qolish mumkin bo'lmasa? – deb uh tortdi u.

– Iloji yo'q.

– Ustozim Jahon opamg'a qaysi yuz bilan qarayman. Ular yalinib-yolvorib, O'g'iloyni qutqarib qolishni rijo

qilg'on edilar. Shahrimizda sizga ixlosmand bo'lg'onlar ham bor-ku! Nahotki, ular bir hiylayi shar'iy ishlatib, zulm-vahshatning oldini olib qololmasalar!

Umarxon yerga qarab, o'yga toldi. Birpasdan keyin najot yo'lini topgan kishidek jilmayib:

– Toshbo'ron qilishdan oldin o'shal qizni yana bir marotaba so'roq qilishni talab etamiz, – dedi. – Agar O'g'iloy, men terlama kasaliga yo'liqib, sochim to'kila boshlagan edi, tekis o'sib chiqsin, deb tagi bilan oldirib tashlatdim, desa uni qutqarib qolish uchun yo'l topilar...

Ko'zlarida umid uchquni chaqnagan Nodira erining gaplarini oxirigacha tinglab, o'rnidan turdi-da:

– Ruxsat bersalar, Jahon opamni bul gapdin xabar-dor qilsam. Pastda sabrsizlik bilan meni kutib turib-durlar, – dedi.

VII

Bosh rais o'z mahkamasida tasbeh o'girib o'tirgani-da mirshabboshi kirib ta'zim qildi-da:

– Eski paranji yopingan ikki ayol toshbo'ron qilinadig'on qiz bilan ko'rishishni istab kelibdilar, – dedi.

– Kim ekan ular?

– Biri egachisi, ikkinchisi, bilmadim, otinoyisi shekilli.

– Mayli, ruxsat. O'lim oldidan ul mahkuma yaqin aqrabolari bilan vidolashsin.

Ikki ayol paranji-chachvonlarini qo'lga olib, panjrali darichasidan xira yorug'lik tushib turgan hujraga kirishlari bilan turgan yerlarida bir zum dong qotib qolishdi. Ro'parada beqasam to'n kiygan chust do'ppili, rangi siniqqan yoshgina bir yigit turar edi. Ulfatoy yugurib borib singlisini quchoqlab oldi. O'g'iloy o'pkasini tutolmay hiqillab, opasi bilan, keyin Jahon otin bilan ko'rishdi.

– Yaxshi keldingiz... Hozir sizlarni o'ylab turuvdim.
Ayam, dadam omonmilar?

– Hammalari sog'-salomat. Sening eson-omon qu tulib chiqishingni kutib o'tiriptilar, – dedi Ulfatoy yuziga dumalab tushgan ko'zyoshlarini qo'li bilan artib.

O'g'iloy bosh chayqab qo'ydi:

– Mendan rozi bo'lsinlar, sizlar ham...
– Hammamiz sendan rozimiz, ammo umidingni uzma.

– Noumid bo'l mang, amiral-mo'minin rahm-shafqat qilib sizni shayxlar, amaldorlar zulmidan xalos qilmoqchilar. Agar kattalarning so'ziga kirsangiz, siz jallodlar qo'lidan qutulasiz, – dedi Jahon otin va shoshmasdan xonning taklifini bir-bir bayon qildi.

– Yo'q, – deb bosh chayqadi O'g'iloy qomatini tiklab. – Men Hayotjon bilan birga o'lishni istayman. Terlama kasaliga yo'liqib, sochim to'kilgan edi, deb aytishga tilim ham bormaydi. Yolg'on-yashiq gaplar bilan men qutulib qolsam-u, u begunoh yigitni toshbo'ron qilib o'ldirsalar, menga yashashning nima keragi bor! Uning bu yerda hech kimi yo'q, musofir. Bugun ertalab rais kelib: "Erta-indin seni Hayotjon bilan birga toshbo'ron qilamiz, tavba-tazarru qil", deb aytib chiqib ketdi. Agar qazo qilsak, ikkimizni bir go'rga qo'yinglar!

Shoira haqiqiy muhabbat uchun jonini qurbon qiliшга тайор турган O'g'iloyни mahkam quchoqlab, peshonasidan o'pdi, Ulfatoy esa ho'ngrab yig'lab yubordi.

VIII

Qo'qon xoni Olim zolim boshlab chala qoldirgan, uning inisi Umarxon qurib bitkazgan katta masjidи jomega odam sig'may, hovli sahnida ham ular

ko'pchilikni tashkil qilar edi. Odamlar ko'cha tomon yo'l olganlarida katta minora tagida ko'kragigacha yerga ko'milgan ikki yigitni ko'rib hayron qoldilar. Bosh rais jamoatga muftining fatvosi va qozikalonning hukmini o'qib eshittira boshladи.

– Xayr, endi u dunyoda ko'rishamiz, – dedi O'g'iloy ro'parasidagi Hayotjonga mo'ltirab qarab.

Shu payt bir chumchuq uning chap yelkasi ustidan uchib o'tib, minora ro'parasidagi tolga qo'ndi. O'g'iloy o'z uyida dasturxonda qolgan non uvoqlarini hovlining bir burchagiga separ, shunda chumchuqlar chug'urlashib uchib kelar edilar. "O'shalardan biri bo'lsa kerak, – deb o'yladi u pichirlab. – E jonivor, menga achinyapsan, lekin odamlarda shafqat yo'q, tosh otib meni o'ldiradilar. Ruhim xuddi sendek uchib ketishini bilding!"

– Xayr, u dunyoda ko'rishguncha, – dedi Hayotjon eshitilar-eshitilmас.

– Fisq-fasod yo'liga kirgan yigit bilan erkaklardek sochini oldirgan qizni tosh bilan urib o'ldiringlar! – deb xitob qildi bosh rais xaloyiqqa qarab.

Shayxlar, qalandarlar, bo'z chopon kiygan amadorlar hayqirishib, tosh ota boshladilar. Yelkasiga, bo'yniga tosh, g'isht parchasi kelib tekkanda O'g'iloy tishini tishiga qo'yib, tovush chiqarmaslikka urinib ko'rdi, lekin ro'parasidagi yigitning yuz-ko'zlaridan qon oqib, bo'yni "shilq" etib tushganini ko'rgach, o'zini tutib turolmay, ho'ngrab yig'lab yubordi. Shu zahoti tomog'inining o'ng tomonida handalakdek bo'qog'i shishib turgan bo'z choponli bir jallod uning tepasiga keldi-da, chap tomonga qiyshayib turib, mushtum-dek tosh bilan boshiga urgan edi, qiz faryod qilishdan to'xtadi. Toldagi chumchuqlar qattiqroq chirqillay boshladilar.

3. Farzand dog'i

Jahon otin bolalarni "ozod" qilib yuborgandan keyin oyog'ining chigilini yozish uchun hovliga tushdi. Ayvonning to'riga solingan po'stak ustida chordana qurib o'tiraverib oyoqlari uvishgan, baland ovoz bilan hijjalab kitob, haftiyak o'qigan qizlarning shovqinidan qulog'i bitgan edi. O'ziga kelish uchun qo'lliga obdasta olib, yuz-qo'lini yuvdi-da, ayvonga chiqib qoziqdagi bo'z sochiqqa artindi.

Uning to'rt yashar nevarasi Xadicha bo'yra cho'pdan yasalgan qo'g'irchoqlari bilan gaplashib, ularni yotqizib-turg'izar edi. Shoira har safar uni ko'rganda: "Xuddi onasining o'zginasi-ya, umri uzoq bo'lsin. Xudo uni oldi-yu, buni qo'limga tutqazdi", deb o'ylar, ko'zlaridan tirqirab yosh oqib ketar edi. Uning qizi Quyoshbibining qazo qilganiga bir yil to'lib, odat bo'yicha ustiga oq ko'ylak kiyib olgan bo'lsa ham, ichi motamda, hasrat tikani ko'ksini tirnar edi. "Taqdir shafqatsiz va qudratli kuch, u bilan olishmoqchi bo'lsang, seni yiqitadi, nevarang kimsasiz qoladi", deb o'zini yupatar edi u.

Xadichaning o'yinini biroz tomosha qilib turdi-da, nimqorong'i uyga kirib, ko'r pacha ustiga cho'zildi. Xayol kemasi o'z yo'nalishini o'zgartirib, uni uzoqlarga olib ketdi. Shoira to'g'risida o'lay boshladi: U yerlarda ahvoli nima kechdiykin, tan-joni sog'mikin? Nega anchadan beri xat-xabar kelmay qo'ydi?.."

Uning yuragi o'rtab, o'zini qayoqqa qo'yishini bilmay qoldi, o'rnidan turib o'tirdi-da: "O'lgudek vahimachiman, – deb o'ziga o'zi taskin berishga urindi. – U hali yosh, tan-joni sog', yonida qo'qonlik yor-do'stlari bor, yaqin qarindoshimiz Abdulahad bor. Ammo baribir, oshna-og'aynilar bilan birga bo'lsa ham, yegan-ichgani

tatimaydi, o‘z yurtini, meni eslab yuragiga o‘t ketadi. Hammasiga o‘zim aybdor. Nima qilardim, yoshligida uni o‘zim bilan birga Qo‘qonga oborib? Muhammadxon u yerda qorovulbegi, yasovullarning bolalari bilan “urush-urush” o‘yini o‘ynab, botir bo‘lishni orzu qilib qoldi. Men esam Umarxon saroyida mushoiralarga qatnashish, kanizaklarni o‘qitish, nazm-navo bilan ovo-ra, o‘g‘lim ot minish, o‘q otish bilan mashg‘ul. Oqibati nima bo‘ldi? Umarxon qazo qilgandan keyin Qashg‘arni fath etish orzusiga tushgan Ma‘dalixon o‘g‘limni o‘zi bilan birga o‘sha yoqqa olib ketdi. Xon saroyiga yaqin bo‘lishning oqibati bu!”

Og‘ir hasrat yuki uni ezib yuborgudek edi, nafasi siqilib, o‘rnidan turib o‘tirdi-da, o‘zini chalg‘itish uchun boshqa narsalar to‘g‘risida o‘ylashga urindi – bo‘lmadi!

“Otasi rahmatli o‘lib ketmaganda o‘g‘limning taqdiri boshqacha bo‘larmidi! Oh, peshonam qursin! Keyingi pushaymon – o‘zingga dushman. Bo‘lar ish bo‘ldi!”

U hovliga tushib bir aylanib keldi. Keyin bir g‘azal bitib, yuragidagi hasratini qog‘ozga tushirmoqchi, ko‘nglini bo‘shatmoqchi bo‘ldi. Kelib xontaxta yoniga o‘tirdi-da, savag‘ich qalamni siyohdonga botirarkan, chuqur o‘yga tolib, yoza boshladi.

*Bukun, e do‘stlar, farzandi jononimni sog‘indim,
Gado bo‘lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog‘indim.
Tilimning zikri-yu ko‘nglimning fikri, yaxshi farzandim,
Azizim, yolg‘izim, davlatli sultonimni sog‘indim.
Kecha-kunduz yo‘lig‘a muntazirdurman, tikarman ko‘z,
Uyimning ziynati, ko‘z ravshanim, jonimni sog‘indim.*

G‘azalini yozib bo‘lgandan keyin yuragi bo‘shab, yengil tortgandek bo‘ldi. O‘rnidan turib yana hovliga chiqdi, o‘choqqa qumg‘on osib, tagiga olov yoqdi. Shu payt ko‘cha eshigini birov sekin taqillata boshladi.

- Kimsiz? – deb so‘radi u eshikka yaqin borib.
- Men, kenoyi, kiraverayimi?
- Voy, Abdulahadmisan? Kiraver, qochadig‘on kishi yo‘q... Eson-omon keldingmi? – deb so‘rasha ketdi uy bekasi eshikdan kirib ta’zim qilgan o‘ttiz yoshlar chamasidagi novchagina xushmo‘ylov yigitni yelkasi-dan qoqib. – Qachon kelding?
- Shu bugun erta bilan. O‘g‘lingiz soppa-sog‘, undan xat olib keldim.
- Umrindan baraka top! Voy o‘lay, seni ko‘rib o‘zimni yo‘qotib qo‘yibman. Yur, ichkari kir. Hozir Muhammadxon bilan seni o‘ylab turuvdim-a!
- Karomat qilibsiz-da! Sizda bir xislat bor, kenoyi. Ular ayvonga chiqib, ko‘rpachaga o‘tirganlaridan keyin yigit yuziga fotiha tortib:
- Quyoshbibi opamni ham berib qo‘yibsiz. Shu bu-gun eshitib, yuragim qon bo‘ldi. Xudo sizga sabr-toqat bersin, – dedi titragan ovoz bilan.
- Jahon otin ko‘zidan duvillab oqib tushgan yoshlari-ni ro‘molchasi bilan artib, yerga qarab qoldi.
- Abdulahad uni chalg‘itib, ko‘nglini ko‘tarish uchun qo‘ynidan naycha qilib o‘ralgan xatni chiqarib uzatdi. Shoira tomirlari bo‘rtib chiqqan titroq qo‘li bilan uni oldi-da, shoshib-pishib o‘qiy boshladi.
- Muhammadxon soppa-sog‘, ishlari joyida, – dedi yigit u xatni o‘qib bo‘lgandan keyin. – Oyiga o‘ttiz tanga moyana oladi, kunda ikkita non, bir tovoq issiq ovqat... Usti butun, qorni to‘q. Sizga yetmish tanga yubordi.
- U yonchig‘idan xaltacha olib, ta’zim bilan uzatdi.
- Iloyo, umri uzun bo‘lsin. Tejab-tergab yig‘gan pullarini yuboribdur-da, baraka topsin.
- Shu payt hovlida o‘ynab yurgan qizcha chopqilla-ganicha ayvon tagiga kelib:

- Qumg'on toshib ketyapti, buvi, - dedi.
- Voy o'lay, gap bilan ovora bo'lib, qumg'on osganim xotirimdan ko'tarilipti, - dedi uy bekasi qo'lidagi xaltachani yonidagi quticha ustiga qo'yib.

U choy damlab kelgandan keyin dasturxon yozib non ushatdi. Mehmon yigit sopol piyoladan choy ho'plab ichar ekan, yangasining ajin bosgan yuziga, oq oralagan sochlariga qarab: "Hojixon tog'am tirik bo'lganlarida yangam buncha tez qarimagan bo'lar edilar, nari borsa ellikka kirgandirlar, - deb o'yladi. - Ersiz xotin tez qarir ekan. Buning ustiga qizlari ham baxtsiz bo'ldi. Kuyovi Abdusamad qori pochcha ham o'lgudek ishyoqmas, bema'ni odam edi. Jahon opam bilganlari-da bitta-yu bitta qizlarini unga uzatmagan bo'lar edilar. Molning olasi tashida, odamning olasi ichida, deb be-korga aytmaganlar. Yuvosh odamga o'xshab ko'ringan qorining o'lgudek dangasa, tamagir, topganini ko'cha-da yeydigan odam ekanligini qayoqdan bilsinlar... Bunday odamga tekkan qiz baxtli bo'larmidi?.."

Abdulahad yangasining yarasini yangilamaslik uchun o'ylagan narsalari to'g'risida og'iz ochmay, gapni boshqa yoqqa burdi:

- Oz bo'lmasa, xitoylar bizni qirib tashlar edilar, - dedi ko'zlarini chaqchaytirib. - Tag'inam xudo asra-di-da. Yarash-yarash bo'lmaganda omon qolishimiz gumon edi. Tavba, Ma'dalixon nega Qashg'arni bosib olish vasvasasiga tushdi-a?

Uy bekasi qumg'onnei engashtirib, sopol piyola-ga choy quydi-da, uni qo'liga olib, shoshmasdan gap boshladи:

- Men o'sha vaqtda Qo'qonda edim. Xon huzuri-ga Qashg'ar hukmdorining inisi Muhammad Yusuf yordam so'rab kelibdur, degan gapni eshitib qoldik.

Keyin ma'lum bo'ldiki, xitoylar Qashg'arni bosib olib, Ofoqxo'janing avlodlaridan bo'lgan Jahongirxo'jani asir qilib olibdurlar. Uning inisi Muhammad Yusuf o'z odamlari bilan Farg'onaga qochib kelibdur²⁵. O'zgalar-ning yurtlarini zabit etib, o'lja olish payida bo'lgan Ma'dalixon uning iltimosini qabul qilib, Qashg'ar ustiga askar tortdi, o'g'lim bilan birga seni ham o'zi bilan birga olib ketdi. Keyin eshitdikki, sizlar Qashg'arni olibsizlar, oradan ko'p vaqt o'tmay xitoylardan yengilbsizlar. Ehtimol, Ma'dalixon katta bir xatoga yo'l qo'ygan, o'sha yerli xalqlarning mol-mulkini talatgandir...

– Topdingiz, – dedi u sopol piyolani uzatar ekan kulimsirab. – Bizlar xitoy, qalmoqni, o'sha yerda qolgan Qashg'arlik boylarni talay boshladik. Xo'tan gilamlari, kumush, tilla asboblarni, shoyi, zarbof matolarni aravalarga ortib, Qo'qong'a jo'nataverdik. Oradan ko'p vaqt o'tmay, Chin-mochin askarlari ustimizga bostirib kelganda mol-mulki talangan yerli xalq ular tomonig'a o'tib ketdi. Biz yengilib orqaga chekendik, Qo'qondan yordam kelishini kutdik. Shu mahalda Xitoy mingboshisi xon oldiga elchi yuboripti, yarashaylik, shahar savdogarlarini, kosiblar to'laydig'on tamg'a solig'i seniki bo'lsin, lekin askarlarining opchiqib ket, debdi. Qara-sa bo'lmaydig'on, xon orqag'a chekinib, tamg'achilarni saqlash uchun ozgina sarboz qoldirdi.

– Sen bilan Muhammadxonni o'shal sarbozlar qatorida qoldirg'oni yomon bo'lgan-da!

– Xonning o'zi, falonchi-falonchilar Qashg'arda qoladi, deb buyruq bergen, deyishadi. Qanchalik rost, bilmayman, ammo musofirlik jonga tegdi, beradig'on moyanasi ham, kiyim-boshi ham ko'zga ko'rinxay qoldi. Men mingboshiga, Qo'qong'a jo'natalidigan

⁵ 1829-yil.

karvonni qo'riqlab boraman, deb arznama yozdim, iltimosimni qabul qildi. Muhammadxonning arizasi inobatga o'tmadni.

– Ha, eshittdim, xonning buyrug'i bilan o'g'limni o'shal yerda qoldirishgan. Bilmadim, nima yomonlik qildimki, u bizga taaddi qiladur. Ma'dalixon otasiga yaqin bo'lgan odamlarni ta'qib ostig'a olib, ularni besabab jazolay boshladi. U o'z sultanatidan mag'rurlanib, aqli hushini yo'qotib qo'ydi shekilli, dono odamlardan bemaslahat ish ko'ra boshladi. Uzoqqa bormay, bu jabr-u zulmlarning halokatli oqibatlarini ko'rар...

Abdulahad uning hamma so'zlariga tushunmagan bo'lsa ham indamay qulqoq solib o'tirdi. Jahon otin gapirib ko'nglini bo'shatgandan so'ng jim bo'lib qoldi-da, unga tikilib:

- Sen qachon jo'nab ketmoqchisan? – deb so'radi.
- Ertaga, azon paytida karvon yo'lga tushadi.
- Unday bo'lsa, senga xat yozib beray. O'z qo'ling bilan uni Muhammadxon o'g'limga topshir, sog'-salamat yurganimizni ayt. Vaqtি-soati kelganda diydor ko'risharmiz. Bizdan xavotir olmasin.

Jahon otin xontaxta yoniga o'tirdi-da, bir varaq qog'oz olib, boyaga yozgan she'rini oqqa ko'chirdi, uni to'rt buklab, Abdulahadning qo'liga tutqazdi.

MOHLAROYIM VA XONPOSHSHA

I

– Bahodirxo'ja, uydamisan? – deb baland bo'yli, soch-soqoli oqara boshlagan bir odam eshikni taqilatmay hovliga kirdi.

– Assalomu alaykum, keling amaki, dadam uyda dam olib yotiptilar, – dedi o'n ikki-o'n uch yoshdagi ko'hlikina bir qiz ichkaridan chiqib. – Anchadan beri kelmaysiz, kelinoyim, opalarim eson-omon yuriptilarmi?

– Xudog'a shukur, hammalari sog'-salomat. Biznikiiga boray ham demaysan?

– Uyda ish ko'p... Dadam meni ko'chaga chiqarmay qo'ydilar...

Shu payt mehmonxonadan rang-ro'yi siniqqan o'rta yoshli, novcha bir kishi chiqib:

– E, keling ako, ko'pdan beri dom-daragingiz yo'q. Tan-joningiz sog'mi? – deb so'rasha ketdi.

– Xudog'a shukur, o'zing qalaysan?

Aka-uka hol so'rashib, o'n bir yog'ochli mehmonxonaga kirdi.

To'rga to'shalgan ko'rpa chaga o'tirib, yuzlariga fotha tortganlaridan keyin yana hol-ahvol so'rasha boshladilar. Bahodirxo'janing qizi Xonposhsha amakisi oldiga dasturxon yozib, ichkariga kirib ketdi.

O'rateganing sobiq hokimi, hozir Qo'qonda nazorat ostida yashovchi Mahmudxonxo'ja somon suvoq bilan suvalgan devor, tokchalarga ijirg'anib qarab:

– Uka, tuzukroq bir uyni ijaraga olmagansan-da, – dedi-da, darichani ochib yubordi. – Uy dimiqib ketib-dur. Uxlab yotkonmiding? Xastamisan, ranging siniq?

– Yo‘q, sihat-salomatman. Yuragim g‘ash, xayol surib yotkon edim.

– Xafa bo‘lma, yo‘qolgan davlat qushi yana qaytib kelar, – ukasi uzatgan piyolaning chetiga yopishgan shamanı bosh barmog‘i bilan olib tashlab, so‘zida davom etdi: – Xayol surib yotkondan ko‘ra harakat qilib, davlat orttirmoq kerak. Yotib qolgandan otib qol, degan maqol bor.

– E, ako, qo‘ying bu gaplarni. Yaxshisi, boriga qanoat qilib o‘ltirgan yaxshi. Xudoga shukur, birovga muhtoj emasmiz. Axir, o‘zingiz martabam ulug‘ bo‘lsin, deb bor-yo‘qdan mahrum bo‘ldingiz-ku! Umarxon sizga inonardi, hamma ishni qo‘lingizga topshirib qo‘ygan-di. Shunga qanoat qilmay, amir Haydarga noma yozib, nima qilar edingiz? Xat Umarxonning xufiyaları qo‘liga tushdi-yu, biz o‘z yurtimizdan badarg‘a bo‘ldik.

– Shu gapni sendan nechanchi martaba eshitishim! Bir aytib qo‘ymaysan, ikki aytib qo‘ymaysan, men sen-ga sababini aytgan edim-ku, xatimda duoyi salomdan boshqa gap yo‘q edi, deb...

Bahodirxo‘ja akasining ikki uchi dikkaygan o‘sinqoshlariga qarab: “Umarxon keyingi vaqlarda unga inonmay qo‘ygan, akamga orqa tayanch kerak edi, – deb o‘yladi. – Agar Buxoro amirining qo‘li ustun chiqib, O‘ratepani olsa, o‘z mavqeyimni saqlab qolay, deb shu bema’ni ishni qilgan. Qo‘qon xoni uning orqasidan xufiyalar qo‘yib, har bir qadamin kuzatib yurganini bilmagan-da!”

Birozdan keyin Xonposhsha ikki kosa suyuq osh keltirib, birini dadasi, ikkinchisini amakisi oldiga qo‘yib, orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

– Sening boyliging shul qizing, – dedi O'ratepaning sobiq hokimi yog'och qoshiq bilan suyuq oshni kavlab. – Agar uni ulug' martabali, badavlat odamga uzatsang, qizing ham baxtli, o'zing ham davlatga erishgan bo'lur eding.

– Qizim o'rtahol, mo'minqobil bir yigitga tegsa baxtliroq bo'ladur, – dedi uy egasi akasiga qarab. – Uni xolamning o'g'li Ahmadxo'jaga uzatmoq niyatidaman. Yuvosh, mehnatkash bola.

Mahmudxo'ja ko'zlarini qisib:

– Ahmadxo'ja qo'ydek yuvosh, sodda, to'g'ri yigit. Bunday mo'minqobil odamning noni doim yarimta, – dedi. – Qashshoqlik vabodek yuqumli kasal, och kambag'aldan qoch kambag'al, degan gap bor. Osilsang baland dorga osil.

U: "Sening qizing xonga kanizak yoki jufti halol bo'lishga loyiq", demoqchi edi-yu, tashvishdan peshonasi tirishgan ukasining holatini ko'rib, istihola qildi. "Xonposhsha o'z nomi bilan xon saroyining zeb-ziyнати bo'lishga loyiq, – deb o'yladi. – Husnda ham, aql-zakovatda ham unga teng keladigan qiz yo'q. Savodxon, Hofiz va Navoiy g'azallarini o'qiy biladi. Agar Umarxon uning ta'rifini eshitsa, oyog'ini yerga tegizmay, haramxonaga kanizak qilib olar edi. U kamning qo'yni-qo'nji to'lib, mening martabam oshgan bo'lur edi. Shoshma, bizning o'rategpalik Rohila Umarxonning singlisi Oftob oyimning cho'risi-ku! Agar u Xonposhshani mehmonga chaqirib, bekasiga ko'rsatsa..."

Bahodirxo'ja gap mavzuyini o'zgartirish uchun:

– Ako, – dedi. – Kuni kecha qiziq gap eshitdim. Shohruhbek Toshkand shahridan kelayotganida qaroqchilarg'a yo'liqib, halok bo'libdur. Nahotki yonida soqchi yigitlari bo'lmasa!...

– E, soddasan-da, inim. Uni xuddi o'shal soqchi yigitlari o'ldirishgan. "Amiral-muslimin"ning buyrug'i bilan.

– Nima aybi bor ekan?

– Hech qanday! Olim zolimning to'ng'ich o'gli Shohruhbek nihoyatda aqli, xushmuomala yigit edi. Toshkand shahrida istiqomat qilib turgan bu jiyanining obro'si oshib ketayotganidan qo'rqib ketgan Umarxon uni bartaraf qilish niyatiga tushgan. Shohruhbek huzuriga Nazarbekni sovg'a-salomlar bilan yuborib, uni Qo'qonga taklif etgan. Xonning iltifotidan mamnun bo'lgan yigit xursand bo'lib yo'lga chiqadur. Oydinli tunda "Payg'ambar ota" mozori yaqinida Nazarbekning yigitlari uning kallasini olib, xurjunga soladilar-da, tanasini o'shal mozorg'a dafn etadurlar...

– Tavba, "Jannatmakon"ning qilgan shu ishlariga hayronman! – deb yubordi Bahodirxo'ja nihoyatda xafa bo'lib.

– Buning ajablanarli joyi yo'q. Barcha islom podsholari taxt da'vogirlari bo'lg'on begunoh qarindoshlarini bartaraf qilg'onlar. Bir kun emas bir kun Shohruh Umarxonni taxtdan ag'darib tashlashi mumkin edi...

II

Imorati zarrinni supurib-sidirib, tartibga solib yuruvchi yosh kanizaklarning rangi o'chgan, quti qochgan. Hujrayi xosdan Amiriyning²⁶ g'azabnok tovushi eshitilar edi:

– Kim yig'ishtirib qo'yg'on edi mening kitob-daftarlarimni? Xontaxta ustidagi qog'ozlarim ham taribsiz holda. Kitoblarimning o'rni o'zgargan, axtarib hech narsani topib bo'lmaydur.

²⁶ Amiriyy – Umarxonning taxallusi

Xon keyingi vaqtarda hardamxayol bo'lib, kerakli buyumlarini qayerga qo'yanini esidan chiqarib qo'yadigan, arzimagan narsaga ko'pirib ketadigan bo'lib qolgan edi. Uyqusida ham halovat yo'q, tushida begunoh jiyanining qonga belangan kallasini ko'rib cho'chib uyg'onib ketar, bir piyola may ichgandan keyin o'ziga kelar edi.

U o'z qog'ozlarini titkilab, chala qolgan g'azalini topib oldi-da: "E, bu yerga qo'yg'on ekanman", deb g'o'ldirab qo'ydi. Shu payt Mohlaroyim kirib:

– Hujrayi xosni matcholik kanizak Mohro'y yig'ishtirgan ekan, – dedi aybdordek uzun kipriklari ni iltijoli pirpiratib. – Savodsiz, tog'li qiz-da! Gunohi dan o'ting, uni boshqa ishga qo'yamiz.

– Maylingiz. Sizning qadamingiz yetdi-yu, yo'qol gan g'azalimni topdim, – dedi Amiri yarmi qorangan yaltiroq qog'ozni ko'rsatib.

– Janoblarig'a bir gapni aytgani keldim. Hamshirangiz Oftob oyim o'g'li Hakimxon bilan dargohimiz ga tashrif buyurgan ekanlar, haramxonada sizni kutib o'tiribdurlar.

– Hozir, – dedi Amiri kulimsirab, qog'ozlarini tartibga solar ekan. U singlisini, uning o'g'lini yaxshi ko'rар, ularni ko'rganda g'am-tashvishlarini unutib, yayrab ketar edi.

– Assalomu alaykum, – deb ta'zim qildi, balog'atga yetib, tovushi do'rillay boshlagan Hakimxon kattalardek. Yoshi o'ttizdan oshgan bo'lsa ham, xalq ta'biri bilan aytganda, o'n gulidan biri ochilmagan, yuzi anordek, qiyiq ko'zli Oftob oyim atlas ko'ylagini hilpiratib, akasiga ta'zim qildi. Keyin baxmal ko'rpachaga o'tirib, fotihaga qo'l ochdi. Hol-ahvol so'rashganlardan keyin Umarxon quyiroqda tiz cho'kib o'tirgan jiyani Hakimxonga nazar tashlab:

– Ot minmoq, qilich urmoqni mashq qilib turadur-mi? – deb so'radi.

– Kitobxonlikdan bo'shagan vaqtlarida, – dedi ona bolasiga yaxshi tarbiya berolmagan xonzodalardek uyalinqirab. – Qachon qarasang – qo'lida kitob. Kuni kecha qo'lidan kitobni olib qo'ydim.

– Nima mutolaa qilayotg'on eding? – so'radi tog'a jiyaniga o'girilib.

– Jome'i tavorixni.

– Juda soz. Tarix muqaddas ilm, o'qiy bersin...

Ular gaplashib o'tirganlarida kanizaklar dasturxon yozib, choy keltirdilar.

– Mening o'rategalik bir cho'rim bor, – dedi Oftob oyim yosh kanizak qo'lidan piyolani olib. – Kuni kecha u biznikiga o'n uchga qadam qo'yg'on ko'hlik bir qizni boshlab keldi. Oti ham o'ziga yarashib tushgan: Xonposhsha! Imtihon qilib ko'rdim. Savodxon, xush-xat. Navoiy va Fuzuliyning ko'p g'azallarini yod biladur. Shoir va fozil og'amg'a shunday kanizak kerak, deb o'yladim ichimda.

– Kimning qizi ekan?

– O'rategalik Bahodirxo'janing.

– E... anavi ikki yuzli Mahmudxo'janing inisi. Endi yodimg'a tushdi. – U kulimsiragan holda peshonasini tirishtirib: "Ertagayoq Bahodirxo'janing uyiga Xush-holbibini yuborish kerak, ko'rib kelsin" deb o'yladi.

III

Xushholbibi atlas ko'ylagi ustidan baxmal nim-chasini kiyib, oltin ziragini taqib yo'lga hozirlanayot-ganda Mohlaroyim uni ko'rib qolib:

– Yo'l bo'lsin! – dedi.

– Onhazratdan buyruq oldim, bir joyg'a borib kelaman. – U ikkilanib turib, keyin nima ish bilan keta-yotganini batafsil gapirib berdi. Rangi biroz siniqqan shoira xiyol qiyiq ko'zlarini unga tikib:

– Bugun yomon tush ko'rgan edim, bul kirdikorning oqibati yaxshi bo'lmasa kerak, – dedi. – Siz ko'pni ko'rgan dono ayolsiz. Bir bahona topib, shul ishni yo'qqa chiqaring.

– Agar, qiz menga yoqmadi, ko'hlik bo'lsa ham be-andisharoq ekan desam, Oftob oyimni yolg'onchig'a chiqargan bo'laman. Onhazrat hamshiralarining gaplarini eshitib, bir qarorg'a kelib qo'yg'on bo'lsalar kerak.

Mohlaroyim: "Bo'lar ish bo'ldi, taqdirga tan berishdan boshqa iloj yo'q", deb o'yladi va kanizaklar bekasini yo'ldan urmoqchi bo'lganidan pushaymon yedi.

Xushholbibi qiz ko'rgani borib, Oftob oyimning gaplarini tasdiqlaganidan keyin Umarxon qat'iy qarorga kelib, Bahodirxo'janikiga sovchi yubordi. U esa: "Qizimning boshi bog'liq, uni katta xolamning o'g'liga unashtirib qo'yganman", deb turib oldi. "Qizi borning nozi bor", deb o'yladi xon. Bu safar obro'li bir odamni – Abdukarim dasturxonchini qalin, sovg'a-salomlar bilan yubordi. U Bahodirxo'janing roziligini olib keldi. Hur singari chiroyli Xonposhshaning saroyga kelishini eshitib terisiga sig'may qolgan "jannatmakon" qizning otasiga Chust yaqinidagi Saroy qishlog'ini, Mahmudxonxo'jaga Xo'janddan uncha uzoq bo'lмаган mash-hur Qushtegirmon qishlog'ini in'om qildi.

* * *

Xonposhsha endi o'n uchga qadam qo'ygan bo'lsa ham, novchagina, beli xipcha, kipriklari uzun, quray ko'zli qiz edi. Shiftiga qandil osilgan, qizil, ko'k, sariq, yashil oyinalaridan yerga rang-barang nur

tushib tovlanib turadigan imorati zarrinda xizmat qilish unga topshirildi. U mayda o'rilgan qop-qora sochlarini sariq gulli shol ro'mol bilan tang'ib, qizil shoyi ko'ylagini hilpiratib, ishva bilan yurar, yordam-chi kanizaklarga mayin ovoz bilan buyruq berardi.

Bir kuni Amiriy ertalab o'z kengashchilar bilan birga nonushta qilib, kayfi ko'tarilgan holda hujrayi xosiga kirdi-da, chala qolgan bir g'azalini tugatish uchun xontaxta yoniga o'tirdi. Saroy tartiblarini darrov o'zlashtirib, har ishni bilib qiladigan hushyor Xonposhsha qalam-davot keltirib, tavoze bilan taxta ustiga qo'ydi. Amiriy kulimsirab, ingichka qora savag'ich qalamni qo'liga olib, davotga botirgan edi, si-yoh to'kilib ketmasligi uchun uning ichiga bo'ktirib solib qo'yilgan los-xom ipak tolalaridan biri qalam uchiga ilinib chiqdi. Shoir nima qilishini bilmay qolgan edi, Xonposhsha engashib qalamni uning qo'li-dan oldi-da, qoshiga surtib tozaladi.

Shoshib qolgan Amiriy:

– Qoshingga tegizmagin qalamni, – deb yubordi. Og'zidan beixtiyor chiqib ketgan bu gap bir o'tirishdayoq yozilgan ajoyib g'azalning birinchi misrasi bo'lib xizmat qildi.

Xonposhsha nihoyatda ziyrak, hushyor, lekin beibo qiz bo'lib, xon oldida o'zini uyatchan qilib ko'rsata bilar, noz-karashmalar, hozirjavobligi bilan Amiriyni ilhom-lantirar edi. Biroq uzoqqa bormay u o'zining tabiatan uyatsiz ekanligini bir qilig'i bilan fosh qilib qo'ydi. Bir kuni Mohlaroyim bu ustamon kanizakning ovloqda yosh Ma'daliga tirsagini tegizib, gap otib o'tib ketganini payqab qoldi va g'azabga kelib, uni qo'lidan ushladi-da:

– Ikkinchi bor shul ish sizdan sodir bo'lsa, saroy-dan haydatib yuborg'ayman! – dedi. – O'g'lim sizning tengingiz emas.

– Xonim oyim, bilmasdan qo'lim tegib ketdi. Ikkinchı bor bu ishni qilmayman, – dedi Xonposhsha uzr so'rab.

Malla sochli, chag'ir ko'zli Ma'dali endi o'n uch yosha qadam qo'ygan bo'lsa ham, ishtahasi karnay, bedana, kaklik, kiyik go'shtidan tayyorlangan laziz taomlarni kattalar bilan barobar yeb, yetilib qolgan edi. Birinchi ko'rgan kishi uni o'n to'rt-o'n beshga borib qolgan o'spirin deb gumon qilar edi. Mohlaroyim shu yosh-danoq o'g'lining yomon yo'lga kirishidan qo'rqrar, uning uyatsiz, go'zal kanizak bilan ovloqda uchrashuviga yo'l qo'ymaslikka urinar edi. Xalqda, egasi ming poylasin, o'g'ri bir poylasin, degan gap bor. Ikki yosh ahyon-ahyonda ovloqda uchrashib qolar, shunda Xonposhsha beixtiyor yosh xonzodaning qalbida hali u nimaligini bilmagan muhabbat hissini uyg'otishga urinar edi. Yuragi bir falokat yuz berishini sezgan Mohlaroyim bir kuni yostiqdoshi Umarxonga dedi:

– Xonposhsha juda ziyrak, qo'l-oyog'i chaqqon qiz. U kelgandan buyon "Imorati zarrin"ni ozoda saqlab kelmoqda. Behayo bo'lsa ham, o'zini uyatchan qilib ko'rsatishga usta, bilimdon qiz. Tasodifan Ma'dali bilan uchrashib qolganda noz-karashma bilan yonginasidan o'tib ketadur...

– Bir joyda istiqomat qilg'on kishilar albatta bir-birlari bilan uchrashib qoladurlar. Buning ajablanarli joyi yo'q. Sizning shubhalaringiz o'rinsiz bo'lsa kerak. Nazarimda, bul kanizak naqqoshi azalning qudrat qalami bilan chizgan naqshiga o'xshaydur. Uni hayrat bilan tomosha qilishdan nari o'tmayman. Ammo siz uchun o'zimni ham qurban qilishga tayyorman. Agar uni yonimda ko'rishni istamasangiz, otasi va amakisi bilan o'z yurtiga qaytarib yuborg'ayman.

"Bu ayyor qiz erimning nazarida shoirlarning homiysi bo'lgan Atorid yulduziga o'xshab ko'rinadur.

Ehtimol, uning ta'siri bilan ko'proq g'azal yozadigan bo'lib qolgandir", deb o'yladi shoira:

– Yo'q, qolaversin. Ehtimol, men yanglishayotgan-dirman, – dedi.

IV

Oradan bir yil o'tar-o'tmas Umarxonning mazasi qochib, xayol surib yotadigan bo'lib qoldi. Vijdon azobi uni ichkilik ichish, ustma-ust chilim chekishga majbur qilar edi. Ko'zi ilinishi bilan begunoh Shohruhbekning qonli kallasi, ba'zan maxfiy buyruq bilan o'dirilgan keksa vazir Rajabbek qushbegi tushiga kirib, cho'chib uyg'onib ketar edi. "Mahmud A'zamiyning so'zlar qanchalik to'g'ri ekanligini tekshirib ko'rish kerak edi. Rajabbekni chaqirib, Olim akamning o'g'li Ibrohimbekka yozgan xatingiz qalbakimi yoki uni o'z qo'lingiz bilan bitganmisiz, deb so'rashim kerak edi. Chol yo aybini bo'yniga olar yoki xatni boshqa odam yozganligini aytgan bo'lur edi. Shuncha yil menga sadoqat bilan xizmat qilgan qushbegi nahotki xiyonat qilib, o'rning Ibrohimbekni o'tirg'izish niyatida bo'lsa?!"

Uch oy ilgari yuz bergen voqeа uning ko'z oldida jonlandi. O'sha vaqtida bir kosa may ichib, qushbegini o'z huzuriga chaqirtirgan edi. Xufton namozidan keyin oppoq soqolli xushro'y vazir oltin qandillar nur sochib turgan mahkamayi oliyga kirib, ta'zim qildi.

– Beriroq kelib o'tirsinlar, – dedi to'rdagi baxmal ko'rpacha ustida chordana qurib o'tirgan xon. Rajabbek cho'k tushib, uning haqqiga duo o'qidi-da, qo'l qovushtirib, boshini ko'tardi.

– Nazarbekni Quramadan chaqirib olib, uni To'raqo'rg'ong'a hokim qilib yuborish niyatidaman, – dedi xon gapni aylantirmay. – Siz ul viloyatning ahvoli-

ni yaxshi bilursiz. Ernazarbek bilan birga borib, uni o'sha viloyat amaldorlari bilan tanishtirib qaytg'aysiz.

– Bosh ustiga. O'zim ham shahar tashqarisig'a chiqib, sayohat qilish orzusida yurur edim.

Xon uning gapidan mamnun bo'lgandek bosh irg'ab qo'yib:

– Taxt-u toj oldida sizning xizmatingiz katta, mu-kofot tariqasida janoblarig'a tuhfa hozirlab qo'yg'on edik, – dedi qars urib.

Sayid bo'xchador kirib, zar aralashtirib to'qilgan qimmatbaho beqasam to'nni qushbegiga kiygizdi...

Xonning iltifotidan mammun bo'lgan qushbegi er-tasigayoq Nazarbek bilan birga yo'lga tushdi. Kech-qurun Axsiga borib, tunab qoldi. Yarim kechada yo'g'on gavdali pahlavon Nazarbek uyqu og'ushida yotgan cholning og'ziga latta tiqib, qo'l-oyog'ini bog'ladi-da, uni qopga tiqib ko'tarib oldi, oborib daryoga tashlab yubordi. Bu vaqtida Rajabbek oltmish olti yoshda edi.

Shuni o'ylab vijdon azobida to'lg'anayotgan Umar-xon uh tortib, alamlı ovoz bilan: "Chilim!" deb yubordi. Mahmud chilimdor keyingi vaqtida kashanda bo'lib qol-gan hukmdorning xizmatiga doim tayyor turar edi.

Mohlaroyim erining sarg'aya boshlagan chehrasiga qarab: "Sayid, xojalar uni sekin-asta zaharlashayotgan bo'lsalar kerak, – deb o'ylar edi. – O'tgan kuni Eshonxon to'raning ziyofatidan mazasi qochib keldi. Chetdan bir tabibi hoziq chaqirish kerak. O'rda tabibi Ashurqulga ishonchim yo'q". Erining ich-etini kemirayotgan vijdon azobidan bexabar bo'lgan Mohlaroyim tabiblar orqali uning dardlarini bilib olmoqchidek bo'lar edi.

– Ko'pdan buyon ovga chiqmog'on bo'lsalar kerak, – dedi pakanagina, oq soqolli tabib, shoyi ko'rpacha usti-da chalqanchasiga yotgan bemorning tomirini ushlab.

– Xo'qand shahrining havosi og'ir va rutubatli, ammo

cho'l va o'rmon shamoli janoblari uchun shifobaxshdur, dori-darmon iste'mol qilib yotish o'rniga ovg'a chiqsalar, tezroq quvvatg'a kirib ketgan bo'lur edilar.

– Rost, – deb o'rnidan turib o'tirdi ko'zlari chaqnab ketgan Umarxon. – Kiyiklar, quyonlar orqasidan quv'on itlarning uvillashi mansabparast a'yonlarning ovozidan ko'ra yoqimliroqdur. G'oz va turnalar orqasidan qanot qoqqan lochinlarning parvozi ko'nglimni ko'klarga ko'targusidur.

U ko'nglidagi gapni topgan tabibga qimmatbaho sovg'alar berib, yelkasiga kumush yoqali ipak to'n tashlashni buyurdi; so'ng itboqari va qushchisini chiqirib, ovga hozirlik ko'rish to'g'risida farmon berdi, sarg'ayib ketgan yuzining ikki yonog'i qizarib, ko'zlari g'ayritabiyy holda yaltiray boshladi.

Biroq xonning bardamligi uzoqqa bormadi – ikki kundan keyin darmoni qurib, ko'rpa-to'shak qilib, yotib oldi. Tabiblarning dori-darmoni ham, azayimxonlarining kuf-sufi ham kor qilmadi, so'yilgan qo'ylar, xudoyi oshlar ham foyda bermadi. Umarxon o'n yetti kun yotib, erta bilan jon taslim qildi. Bu xabarni xalqqa yetkazishdan oldin saroy ahli: shayxulislom, qozikalon, devonbegilar, qushbegi, dasturxonchi, eshik og'asi, mirzaboshi va hokazolar Ma'dalini xon deb e'lon qilish to'g'risida bir qarorga keldilar. Shayxulislom Ma'sumxon bir chekkada turgan o'gli Hakimxonga ishora qilgan edi, u haramxonaga kirib, shohona kiyimlarga bezanib, taxtga o'tirishga hozirlanib turgan o'n to'rtga qadam qo'ygan Ma'dalini yetaklab chiqdi. Hovlida to'planib turgan a'yonlar uni oq namatga o'tirg'izib, baland ko'tardilar.

Chag'ir ko'zları ro'parasidagi odamni teshib yuborguday o'tkir, malla sochli, g'o'labirdan kelgan Ma'dali otasidan qolgan arbob va a'yonlarga shubha ko'zi bilan qarar, birin-ketin ularni dargohidan haydab, o'rinlariga yangi odamlarni tayinlashga qaror qilgan edi. Xususan, shu mahalgacha shayxulislom lavozimida turgan Ma'sumxon to'ra uning ko'nglida shubha uyg'otgan edi. O'zidan besh yosh kichik bo'lsa ham, ot minish, o'q otishda tengdoshlaridan o'zib ketgan ukasi Sulton Mahmudni ham ko'rarga ko'zi yo'q edi.

Bir kuni Ma'sumxon Sulton Mahmud bilan gaplaphib turib, uning yelkasiga qoqib qo'yanini ko'rib qoldi-yu, o'z qarorini tezroq amalga oshirishga ahd qildi.

– O'g'lim, bu niyatingizdan keching, sultanat imoratining bir ustunini o'z qo'lingiz bilan olib tashlamang, – dedi taxtga endi o'tirgan o'g'lining niyatidan xabardor bo'lган Mohlaroyim. – Ma'sumxon o'z o'rnida qolsin. U tamagir sayidlar, xojalar, shayxlarni jilovlab, yurtimizda tartib-intizom o'rnatib kelgan, bizga xayrixoh odam. Yodingizzadir, sizni oq namatga o'tirg'izib, xon qilib ko'targan ham o'sha ulug' zot-ku!

Ma'dali onasining gaplariga indamay quloq solar, ukasi Sulton Mahmud bilan pochchasi o'rtasidagi yaqinlikdan pinhona o'rtanayotgani to'g'risida og'iz ochishga jur'at etolmasdi.

Ular imorati zarrindagi xonning hujrayi xosida suhbatlashib o'tirgan edilar. Ikkovlarining peshonalari tirishgan, yuraklarini tirnagan dardlarini ochib solishga jur'at etolmas edilar. Mohlaroyim egnidan motam libosini yechib tashlagan bo'lsa ham, yaltiroq atlas ko'yłak, zardo'z duxoba nimcha kiyishni o'ziga

ep ko'rmay, odmi ko'yak, ko'k duxoba kamzul kiyib olgan edi. Rang-barang oynalardan tushgan oftob nuriда yosh xonning ustidagi zardo'z choponi yaltirardi.

– Hakimxon to'rani To'raqo'rg'onga jo'natganingiz ham yaxshi bo'lindi. U ham otasi singari bizga xayrixoh, sof ko'ngilli yigit edi, – deb gapida davom etdi Mohlaroyim. – Uni poytaxtdan uzoqlashtirib, imoratimizning bir sinchini olib tashlagandek bo'ldingiz. Do'stni dushmanidan, yaxshi niyatli kishini badniyat odamdan ajrata bilish kerak.

– Ona, mening ko'makdoshlarim, maslahatgo'ylarim bor, o'z bilgimcha ish qilayotg'onim yo'q.

– Bundan ham xabarim bor. Maslahatdoshlaringdan biri mingboshi Haqqulimi? U, yurtni tinch saqlash uchun qilichning o'zi kifoya, deb o'laydur. Bu...

– Rost-da! – deb onasining so'zini bo'ldi Ma'dali. – Saltanat qilichi qo'limda. Marhum otam vaqtlarida had-didan oshib ketgan a'yonlarning paylarini qirqish vaqt keldi. Men ikkilanib yuradurgan hukmdor emasmen...

Chag'ir ko'zlaricha qilaygan, tishlarini g'ichirlatib gapiradigan o'g'lining avzoyiga qarab, Mohlaroyim unga nasihat kor qilmasligini anglatdi.

VI

Oppoq soqoli ko'ksiga tushgan, qoshlari o'siq Ma'sumxon to'ra boshini baland ko'targanicha mahkamayi oliyga kirib keldi. To'rdagi atlas ko'rpachada yonma-yon o'tirib suhbatlashayotgan mingboshi Haqquli bilan devonbegi o'rinalidan turib uni qarshi olishdi.

Hayajonlanganidan ikki beti qizarib, ko'zlaricha qinidan chiqqan sobiq shayxulislom salomga alik olishni ham unutib, qo'lidagi naycha qilib o'ralgan yorliqni baland ko'targanicha:

– Podshoning amri vojib, – dedi harsillab. – Ertaga-yoq safar otig'a minib, Makkayi mukarrama sari... ravona bo'lg'aymen... Jo'nab ketish oldidan zoti oliv bilan vidolashib... haqlariga duo o'qishni istar edim.

– Hozir hudaychini yuborg'aymiz, u sizning iltimosingizni xon hazratlarig'a ma'lum qilg'ay, – dedi qirg'iz bashara, sariq ko'zli mingboshi.

Hujrayi xosda o'tirgan Ma'dalixon hudaychining gapini eshitib qizarib ketdi. U otasi vaqtida eng obro'li odamlardan biri bo'lgan shayxulislom Ma'sumxon bilan yuzma-yuz uchrashib, ko'ziga tik qarashga jur'at etolmay, haramxonaga qochib kirib ketdi. Qiyin ahvolga tushib qolgan hudaychi qaytib kelib mingboshiga ta'zim qildi-da:

– Onhazratni topolmadim, – dedi tutilib. – Haramxonaga kirib ketgan ekanlar.

Xonning nima uchun yashiringanini payqagan Haqquli nima deyishini bilmay, yerga qarab qoldi.

– Mayli, xon bilan vidolashish menga muyassar bo'ljadi, g'oyibona unga uzoq umr, ishlariga kushoyish tilaymen...

Ma'sumxon belidan gavharlar bilan bezalgan oltin kamarini yechib Haqquliga uzatdi:

– Buni soting-da, pulig'a bug'doy xarid etib, beva-bechoralarg'a ulashing. Oxirgi vasiyatim shul...

– Xo'p taqsir, xuddi aytg'oningizdek, kamarni o'z bahosig'a pullab, g'arib-u benavolarni xursand qilurmiz. Mana shu yerda turganlar guvoh, – dedi mingboshi qushbegi bilan hudaychiga qarab. U kamarni chamalab, unga qadalgan gavharlarni ko'zi bilan sanab chiqdi-da:

– Buning narxi olti ming tilla! – deb qo'ydi.

VII

Yurtning ichki va tashqi ahvoldidan, o‘z ishlarining rivoj topmayotganidan norozi bo‘lgan xon bir necha kungacha imorati zarrinda sharob ichib yotdi. Raqqosa kanizaklarning o‘yinlari ham, xonanda qizlarning xonishlari ham uning ko‘nglini ochmas, oshpazi tayyorlagan xilma-xil taomlar ham unga tatimas edi. Nihoyat, o‘zini ovutish uchun O‘ratepaga borib hordiq chiqarishga ahd qildi. “Zora Mug‘tepa ustiga qurilgan saroyda orom olib, o‘zimga kelsam, ro‘paradagi tog‘ ustiga qurilgan ko‘k gumbazga qarab o‘tirib yuragim-dagi g‘am-alamlardan forig‘ bo‘lsam”, deb o‘yladi u.

Biroq, O‘ratepaga yetib kelgandan keyin bu yerning ajoyib havosi ham, go‘zal manzarasi ham ko‘nglini ochmadi, tashvishlarini unutish uchun sharob ichib o‘tirganida hudaychi hujrayi xosga kirib ta’zim qildi-da:

– Mahmudxon xo‘ja huzuri oliylariga kirmoqni istaydurlar, – dedi.

– Qaysi Mahmudxon? Kim o‘zi u? – dedi Ma‘dali chag‘ir ko‘zlarini chaqchaytirib.

– O‘ratepaning ilgarigi hokimi...

– E, anavi... Bahodirxo‘janing og‘asi! – deyarkan, Ma‘dalining ko‘z o‘ngida sarviqomat, oq yuzli, qora qosh Xonposhsha namoyon bo‘ldi. “Marhum otam o‘lganlaridan keyin onam ularni O‘ratepaga jo‘natib yuborgan edilar”, deb o‘yladi u eshik oldida qo‘l qovushtirib turgan keksa hudaychiga tikilib.

– Mayli, kirsin!

Soch-soqoli oqargan bo‘lsa ham, ikki beti qip-qizil Mahmudxo‘ja ostonadan o‘tib, salom berdi.

– Vaalaykum assalom, kelsinlar. Beriroq o‘tirsinlar, – xon chag‘ir ko‘zlarini bilan o‘ng tomondagi shoyi ko‘rpachani ko‘rsatdi. Chol o‘tirib, duoga qo‘l ko‘tardi.

Yuzlariga fotiha tortganlaridan keyin hol-ahvol so'rasa boshladilar. Ma'dali Xonposhsha to'g'risida savol bergisi kelar, lekin choldan iymanar, gapni uzoqdan boshlash kerakligini fahmlab turardi.

– Xo'sh... ishlar qalay, daromad-buromadlari burung'idekmi?

– Xudoyg'a shukur, baharnav, kunimiz o'tib turib-dur, – dedi chol xo'rsinib. – Ammo Qo'shtegirmon qo'ldan ketgandan keyin daromad manbayi qurib, nonimiz yarimta bo'lib qoldi, shunisiga ham shukur, birovg'a muhtoj emasmiz... – U Xonposhshani xonga yana ro'para qilib, davlatini oshirish ustida bosh qotirardi. U ukasi Bahodirxo'janing g'oyibona salomini yetkazgandan keyin maqsadga ko'cha qoldi. – Jiyanim Xonposhsha poytaxtni, Mohlaroyimni va kanizak dugonalarini sog'inganini aytib, quloq-miyamizni yeydur. Meni bezor qilavergani uchun: "Vaqtি-soati kelganda seni Qo'qong'a olib borib, muborak dargohni ziyyarat qildirib kelgaymen", deb va'da qildim.

– Sizlar uchun eshigimiz doimo ochiq, marhamat qilsinlar, – dedi ko'zlar chaqnab ketgan xon.

Xonposhshaning aytgan gaplarini eshitib, uning boshi aylanib ketgan edi. Havoyi ishq vodiysidan esib kelgan shabboda uni mast qilib qo'ydi. U o'z xotinlarini chin ko'ngildan sevmas edi. Yoshligida unga amakisi Olim zolimning nabirasi (Murodbekning qizi) Ulug'jonne nikohlab olib bergen edilar. Ma'dali unga ko'ngilsiz bo'lgani uchun ikkinchi marta uylan-gan, lekin yurish-turishidan go'zallik barq urib turgan Xonposhsha bilan uni solishtirib bo'lmas edi. Dasturxon ustida Mahmudxonxo'ja bilan u yoq bu yoqdan gaplashib o'tirdi-da, tilining uchidagi gapni aytolmay, sabr qilib turdi. Mehmon yuziga fotiha tortib, orqasi bilan yurib chiqib ketgandan keyin Ma'dali hayajonga

kelib, hujrayi xosda o'tira olmadi. Tashqariga chiqib, ko'kragini ochib tashladi. Ro'paradagi yam-yashil tog'dan, oftobda zumrad kabi tovlangan ko'k gum-baz tomondan xushbo'y hid kelar edi: "Ertagayoq shu ishni bitiray, Bahodirxo'janing uyiga sovg'a-salomlar bilan Matkarim dasturxonchini sovchi qilib yuboray, – deb o'yladi u hayajon bilan. – O'ratepa aholisiga osh, beklar, ulamo-fuzaloga munosib hadyalar berib, Xon-poshshani nikohdab olay. Agar osmon shayxlar, sayid va xojalar qo'lida bo'lsa, ustimdan tashlab yuborsinlar! Xonposhshaga albatta uylanaman. Agar Mahmud-xonxo'ja to'yga bosh bo'lsa, unga munosib hadyalar bilan birga Qo'shtegirmon qishlog'ini qaytarib beraman".

VIII

– Yangi gapdan xabarlari bormi, taqsir? O'ratepada Ma'dalixon katta to'y-tomosho berib, o'gay onasig'a uylanibdur, – dedi qozi askar Sultonxon.

– A, nima dedilar? – shoshib so'radi Qo'qon shahrining sobiq qozikaloni Eshonxon, o'ng qo'lini qulog'i ustiga qo'yib.

– Quloqlari og'ir bo'lib qolg'onmi, taqsirim?

– Eshitdim, ammo aqlim bovar qilmag'oni uchun qaytalab so'radim-da. Qaysi o'gay onasig'a?

– Umarxon umrining oxirg'i yili o'ratepalik Bahodirxo'janing qizini kanizak qilib olg'on edi, – deb sekin gap boshladi Sultonxon to'ra. – O'n uch yoshg'a qadam qo'yg'on bu qizni xon o'z ahdi nikohig'a olmoqchi ekan, ammo niyatiga yetolmay dunyodan ko'z yumgan, lekin biz ulamolar bir yoqadan bosh chiqarib, jannat-makon Bahodirxo'janing qizini nikohlab olg'on edi, deb aytishimiz lozim. Shu yo'l bilan biz sayidlar, xojalarni

oyoqosti qilg'on Ma'dalixonning ostig'a suv quyib qulata olurmiz. – U gapimni birov eshitib qolmadimikin degandek, u yoq bu yoqqa qarab qo'ydi.

– Ko'nglimdag'i gapni aytdilar, – dedi soqolmo'ylovi ga oq oralagan bo'lsa ham, hali tetik, pakana gina Eshonxon to'ra. – Tokaygacha chidaymiz bu zulm-taaddig'a? Ma'dali qotillar yollab, o'ziga yoqmag'on sayidlar, umaro va fuzalolarning yostiqlarini quritmoqda. Agar bu zolim bartaraf qilinmasa, siz bilan bizning ham kallamiz ketadur...

– Lekin hozircha bu zolimning dasti daroz, sarboz, sipohiylari unga sodiq. O'n yildan beri boshimizda yong'oq chaqib keladur. Qanchadan-qancha sayid va xojalarning boshini yemadi bu zolim. Shul sababdan siz bilan biz ehtiyotkorlik bilan ish olib borishimiz kerak. Eng oldin xalq orasida: "Xon shariatni oyoqosti qilib, o'gay onasig'a uylandi" deb ovoza tarqatishimiz, asta-sekin faqir-fuqaro yuragida unga nafrat uyg'otishimiz lozim. Avomni aldash oson, ko'pchilik Madalidan yuz o'girgandan so'ng Buxoro amiridan yordam so'raymiz.

– Buxoroyi sharif hamma yurtlardan ulug' turur, – dedi Eshonxon to'ra boshini baland ko'tarib. Olampanoh amir Haydarning o'g'li, yaqindag'ina taxtga o'tirgan amir Nasrullo zora yordamg'a kelsa...

– Shoyad! Hozircha bu to'g'rida og'iz ochilmasa... Keyinroq yig'ilishib, maslahatni bir yerga qo'yarmiz.

– To'g'risini aytsam, men yaqin orada Makkaga jo'nab ketmoq ilojini topsam o'sha muqaddas dargohda bir-ikki yil istiqomat qilmoq niyatidaman. Shoyad... yurtimiz tinchib, davlat boshig'a insofli bir hukmdor kelsa...

– Omin! Illoho niyatimizga yetayik!

IX

Mohlaroyim uchun eng og'ir kunlar boshlangan, taqdir uning ko'ksiga o'z nayzasini yana bir marta san-chib olgan edi. O'g'lining bemaslahat uylanishi, xalq orasida yurgan duv-duv gaplar uni tashvishga solib qo'ygan edi. Aqli va irodali hukmdor bo'lib, shon-shavkatimizni ko'taradi, deb umid qilgani – to'ng'ich o'g'li Ma'dali o'lgudek qaysar, bemaslahat ish qiladigan hukmdor bo'lib chiqdi. U Xonposhshani O'rategapan boshlab kelgandan beri haramxonadan chiqmaydigan bo'lib qoldi. U vaqtini yori-dildori yonida o'tkazar, mahkamayi oliyda uni kutib, sarg'ayib o'tirgan ulamo va amaldorlar kechqurun nochor tarqalib ketar edilar.

O'z yog'iga o'zi qovurilayotgan ona sho'rlik o'g'li bilan gaplashib olish uchun payt poylab yurdi. Oradan bir necha hafta o'tgandan keyingina dard-u hasratlarini aytib, ko'nglini bo'shatishga imkon topdi. Kechki ovqatdan so'ng Ma'dali bilan yolg'iz qolganida:

– O'g'lim, boshimiz uzra to'planayotg'on falokat bulutlarini tarqatish uchun bir chora topish kerak, – dedi.

Shirakayf o'g'il onaning gapini tushunmagandek chag'ir ko'zlarini chaqchaytirib:

– Nima deyapsiz, volidayi mehribon, qanday falokat bulutlari? – deb so'radi.

– Nima demoqchi ekanimni o'zingiz bilib turibsiz-ku! Shaharda, Ma'dalixon o'z o'gay onasig'a uylanib-dur, degan mish-mish tarqalmoqda. Bunday gaplarni oldini olish uchun bir chora ko'rish kerak.

– Chorasi – shu bema'ni gapni aytg'on kishining tilini kesish!

– Yo'q. Davlatni boshqarishda har vaqt ham qilich va xanjar ish bera bilmaydi. Hukmdor ba'zan siyosat

bilan xalqni qo'rqtishi, ba'zan ustamonalik bilan ish yurg'izib, ularni o'z tomonig'a og'dirishi kerak. – U: "Xonposhshani qo'yib yubor, qo'liga taloq xati berib, O'rategaga jo'nat!" demoqchi edi-yu, o'g'lining vajohatini ko'rib, gapni boshqa yoqqa burdi. – Bu bo'hton so'zlar bartaraf bo'lg'uncha Xonposhshani yashirincha biror shaharga jo'natsak.

Ma'dali onasining ma'yus chehrasiga qarab, unga rahmi kelgandek bo'ldi: "Agar yorimni Marg'ilonga yuborib, shahar ixtiyorini uning qo'liga topshirsam, bir xursand bo'lar edi, – deb o'yladi. – Yormozordagi o'rda mustahkam devorlar bilan o'ralgan, jannatdek mevazor bog'i bor. U yerda kundoshlardan, qaynonadan uzoqda rohat ichida yashaydi!.."

– Yaxshi maslahat. Shu bugun xuftondan keyin Xonposhshani Marg'ilong'a jo'natganim bo'lsin. Har holda uning poytaxtdan uzoqda bo'lgani yaxshi.

Har gal go'zal, lekin o'taketgan makkora kelini ni ko'rganda Mohlaroyim g'ijinar, xonadon boshiga uning falokat keltirishini sezib turar edi. Xonposhsha yashirincha Marg'ilonga jo'natilgandan keyin u bir necha vaqtgacha o'zini yengil sezib, erkin nafas ola boshladi. Biroq makkor xoja, sayidlar va saroy mulozimlarini aldash oson emasdi. Ular o'z xufiyalari orqali Ma'dalixonning vaqtı-vaqtı bilan Marg'ilonga borib turishini bilib olgan, Umarxon kanizagining poytaxtdan uzoqlashtirilishi hiylayı nayrang ekanini payqagan edilar. Keyin qat'iy bir chora ko'rish kerakligini angladi.

– Xonposhshani... qo'liga taloq xatini bering, o'z yurtiga jo'nating! – dedi u bir kuni o'g'li bilan yana yolg'iz suhbatlashganida. – Nega menga tikilib qoldingiz? Shahardagi mish-mish gaplarni eshitma-yapsizmi? Qora choponlilar ham, qipchoqlar ham,

xojalar, to'ralar ham bizdan norozi bo'lib, yuzlarini teskari o'giryaptilar.

– Ulardan qo'rqaqidig'on kishi yo'q! – deb xirilladi kecha to'yib may ichgan Ma'dalixon. – G'iybat ahli ning tilini kesib, isyonkor to'ra, qoralarni boshini olish uchun xanjarimizni charxlab qo'yg'onmiz.

– Ulamo-fuzalo va a'yonlar Buxoro amirini yordamg'a chaqirib, unga xat yuboriptilar.

– Hammasidan xabardorman. To'g'risini aytSAM, o'sha amir Nasrullo bilan jang maydonida bellashib ko'rish niyatidaman.

– Yo'q, o'g'lim, hadeb qilichni peshlayverish yaramaydi. Ba'zan hiyla ishlatib, murosasozlik qilish, ba'zan yon bosib orqag'a chekina bilish ham kerak. Agar Xonposh-shag'a taloq xati berib, tavba qilsangiz, soliq va xirojlarni biroz kamaytirsangiz, ish boshqacha tus olar edi.

– Yo'q, men orqag'a chekinishni istamayman. Hadeb yon bosabersam, to'ralar ham, qoralar ham ko'kraginiq'a oyoq qo'ya boshlaydilar. Yaxshisi, qilichni ishga solish kerak.

– Urush chiqsa, narx-navo ko'tarilib, qahatchilik boshlanadi, beva-bechoralar och qolib, yurt xarob bo'ladi. Axir, el-yurtni, xalqni o'ylash kerak-ku!

– Amir Nasrullo bostirib kelsa, u bilan chopqilla-shib, adabini berish qo'limdan keladi.

"Amakisi Olimxonga tortgan, jang nog'orasini chaldirib, qonni ko'rishdan zavq oladi, – deb o'yaladi ona sho'rlik chaqchaygan ko'zлari qizarib ketgan o'g'liga qarab. – Xalq ichki urushlardan bezgan, jang qilishdan boshqa ermag'i bo'lмаган Olim zolimni ulus uloqtirib tashladi-ku! Bunga ham nasihat kor qilmaydi. O'zboshimchalik qilib o'z boshiga falokat keltirmasa edi. Xudo bizni o'sha kunlardan asrasin!"

X

Endi balog‘at yoshiga qadam qo‘ygan Sulton Mahmud – Mohlaroyimning ikkinchi o‘g‘li o‘z xonasida Sayid Eshonquldan arab tilidan dars olar edi. Bir kuni darsdan keyin u soch-soqoli oqarib ketgan bo‘lsa ham, ikki beti qip-qizil muallimiga qarab:

– Ustoz, nega rahmatli dadam sayidlar, xo‘jalar, qozi, muftilarining ra'yilariga qarab ish tutar edilar? – deb so‘rab qoldi. – Axir, askar, yasovul, mirshablar u kishining ixtiyorlarida edi-ku!

– Ha, padari buzurgvoringiz amir Umarxon ehti-yotkor bo‘lib, ulamolar bilan kelishib ish yuritar edilar, – deb javob qildi Eshonqul soqolini silab. – Yurt peshvolarining qo‘llarida mablag‘ ko‘p, vaqf yerlari, do‘konlari ular ixtiyorida, avom xalq ularga ixlos-mand. Bas – shunday ekan, ular bilan murosa qilib ish yuritish kerak. – Domla o‘z shogirdiga sinchkov nazar tashlab, so‘zida davom etdi. – Men sizga ishonaman, halol va pokiza yigitsiz. Og‘angiz birinchi qadami-dayoq xato qila boshladi. Ahli din bilan davlat o‘rtasida turib, ularni yarashtirib kelgan ehti-yotkor Ma’sum-xonni poytaxtdan badarg‘a qildi, odam yollab o‘ziga yoqmog‘on shariat va tariqat peshvolarining yostig‘ini quritdi. O‘n yetti-o‘n sakkiz yildan beri ahvol shu. Bizdan Buxorog‘a qochib borayotganlarning son-sanog‘i yo‘q. – Sayid Eshonqul ketib qolgan a‘yonlar, xojalar, lashkarboshilarni bir-bir sanab chiqdi. Boshini chay-qab, ko‘zlarini o‘ynatib gapirishidan uning xiyonatchi-larga xayrixoh ekanligi bilinib turardi.

“Men ham shular qatori amiri Buxoro dargohiga qo-chib borsam, uning yordami bilan yurt ixtiyorini qo‘lga olar edim, – deb o‘yladi Sulton Mahmud. – Hech kimni mensimaydigan bu zolim og‘amning zulm-taaddisi-

dan qutulgan bo'lar edim. Xuddi devorlarning qulog'i bordek, u yoq bu yoqqa alanglab qaradi-da, ustozining qulog'iga bir narsa deb shivirladi. Domla Eshonqul shogirdining gaplariga diqqat bilan qulqolar ekan, birdan yuzlari yorishib, ko'zlari chaqnab ketdi.

* * *

Oradan uch kun o'tgandan keyin Sulton Mahmud o'z ustozи bilan bir kechada g'oyib bo'ldi. Ularni qidirib hech qayerdan topolmadilar. Qalandar qiyofasida shaharma-shahar yuradigan xufiyalar ularning Buxoroga qochib o'tganlari to'g'risida xabar keltirdilar. Bu sovuq gap Mohlaroyimning bag'riga nayzadek sanchildi-yu ko'ngli ozib yiqilib qoldi. Yuziga suv sepib, arang o'ziga keltirdilar, uni yupatishga urinib ko'rdilar. Ona sho'rlik ikkala o'g'li o'rtasidagi nifoq oila va yurtning boshiga qanday falokatlar keltirishini o'ylab, hasrat chekar, alam va nadomat o'tida o'rtanar edi. Buning ustiga Ma'dali undan bemaslahat ish yuritadigan bo'lib qolgan edi. Bir kuni u Buxorodan kelgan vakillarni qamatib qo'yib, endi jallodlar qo'liga topshirmoqchi bo'lganidan xabar topgan ona darhol o'g'lini o'z huzuriga chaqirtirdi.

– Bu nima qilg'oningiz? Elchiga o'lim yo'q, degan qoidag'a xi洛 ish qilyapsiz-ku! – dedi u atrofini ajin bosgan ko'zlari bilan unga tikilib.

– Bular elchilar emas, e validayi mehribon! Bu nomardlar keltirgan nomani o'qib g'azabim qaynab ketdi. Amir Nasrullo: "Sen o'z o'gay onangga uylanib, shariatni xor qilding", deb meni tahqirlabdi. Uning nomard vakillarini o'ldirtilib, Buxoro amirini jangga chorlamoq niyatidaman. Tentak inimning qilg'on kirdikori yuragimga xanjar bo'lib qadaldi. Nahotki, siz uning xiyonat yo'lig'a kirishidan bexabar bo'lsangiz?

– Kecha senga aytdim-ku, bor gapni! Nega menga azob beraverasan! O'limdan xabarim bor, ammo bundan xabarim yo'q edi!..

Ona o'zini tutolmay yig'lab yubordi, o'jar, lekin vahshiy o'g'liga gap uqtirish, uni fikridan qaytarish endi mumkin emasligini sezgan edi. Nochorlik, g'am va hasrat domiga tushgan Mohlaroyim: "Qanday og'ir zamonda dunyoga keldim! – deb unsiz fig'on chekdi. – Ellik yil oldin yoki keyin tug'ilganimda, ehtimol, bu qadar badbaxt bo'lmas edim. Qanday falokatli zamonda dunyoga keldim-a. Aka ukaga pichoq qayradi, o'zbek urug'lari bir-birlarining mollarini talash, bir-birlarini o'ldirish payida. E-e, Parvardigor, bu falokatlarning oxiri ko'rinxayotir-ku!"

Ma'dalixon safarga otlangandan keyin Mohlaroyim o'zini qayerga qo'yishini bilmay qoldi, uyqusida ham halovat yo'q, kechalari dahshatli tushlar ko'rib chiqardi.

XI

– Yana bir piyola ichsinlar, – dedi banoras to'nli, miqtidan kelgan uy egasi mis choynakdan choy quyib.

Hazmi taom uchun ko'k choyga teng keladigan ichimlik yo'q.

– Rahmat, – dedi Eshonxon to'ra hurmat bilan uzatilgan piyolani qo'lga olib. – Hijozdan kelganimdan buyon bir marotaba uchrashdig-u, lekin bafurja gaplasha olmadik. Men yo'g'imda ko'p hodisalar yuz bergandir, bat afsil gapirib bersalar...

– Rostini aytsam, charxi falak siz bilan bizning rejamizga muvofiq aylana boshladi, – deb gap boshladi uy egasi. – Ma'dalixon amir vakillarini qatl ettingandan keyin eldan burun otini qamchilab buxoroliklar ustiga

yurish boshladi. Jizzax bilan O‘ratepa o‘rtasidagi Pisho-g‘or qo‘rg‘onini mustahkamlab, jangi jadalga hozirlik ko‘rayotganida amiri Buxoro uning ustiga sarkarda Abdusamadni katta qo‘sishin bilan yuborg‘on. Mustahkam qo‘rg‘on Ma‘dalini mag‘lubiyatdan saqlay olmadi. Abdusamad to‘plari bilan qal‘a devorlarini buzib, ichkari kirgach, Ma‘dali sharmanda bo‘lib, to‘qqiz askari bilan Qo‘qong‘a qochib keldi. Amir Nasrullo orqasidan quvib kelib, Qo‘qonni qamal qildi²⁷, ammo uni zabit etolmay uzoq turib qoldi. Ma‘dalixon Xo‘jand shahrini berib, urush xarajatlarini to‘lashni bo‘yniga olgandan keyingina amir u bilan sulhnama tuzib, orqasig‘a qaytib ketdi. Shunday qilib, Qo‘qon xonligi qoq belidan sinib, ikki qismg‘a bo‘lindi, birida yengilib sharmanda bo‘lgan Ma‘dali hukmdor, Xo‘jandda amirga tobe bo‘lg‘on Sulton Mahmud farmonbardor.

– Bir narsa meni hayratda qoldirdi, nahotki shu qadar qudratli bo‘lgan amir Qo‘qonni zabit etolmagan va bu mal‘unning jazosini berolmagan bo‘lsa... Nega u shoshib-pishib orqag‘a chekindi?

– Sababi shulki, Xiva xoni paytdan foydalanib Buxoro ustiga yurish boshlagan ekan, agar amir poytaxtiga qaytmasa, holi xarob bo‘lar edi.

– E, gap bu yoqda ekan-da. Eshitishimcha, Ma‘dali tanobi solig‘ini oshirib, qo‘sish pulini ko‘paytirib, askar to‘playotg‘on emish.

– Endi u hech narsa qilolmaydur. Soliq to‘layverib, xonavayron bo‘lgan xalq undan yuz o‘girgan. Buxoro amiri eng oldin og‘a bilan inisini biri-biriga to‘qnashtirib, keyin to‘qson ikki jamoani qo‘lg‘a kiritish niyatida. Ulamo-yi kiromdan bir necha kishi, chunonchi Sayid Muhammad Xalil, Shodmonxo‘ja, Xojikalon Xo‘jandg‘a jo‘nash uchun yo‘l hozirlig‘ini ko‘rmoqdalar, shular qatorida

²⁷ 1841-yil, oktabr

men ham bor. Agar istasangiz, biz bilan birga bo'ling? Bul yerda qolish xatarlidur. Mag'lub bo'lib qaytg'on Ma'dalidan har ishni kutish mumkin.

Oralaridan qil o'tmaydigan bu ikki din peshvosi allavaqtgacha suhbatlashib o'tirishdi. Zarrin naqshli tokchalarni yoritgan shamlar lipillab, bir-birlariga ko'z qisayotganga o'xshar edilar.

* * *

Ishtahasi bo'g'ilgan Mohlaroyim uch-to'rt qoshiq sho'rva ichib, kosani nari surib qo'ydi.

– O'zingizni zo'rlab bo'lsa ham yana ozroq iching. Judayam shirin bo'pti, – deya ishtaha bilan non chaynab, sho'rvani atayin xo'rillatib icha boshladi haramxona bekasi Xushholbibi. Uning yoshi ellikka borib qolgan bo'lsa ham, hali tetik, ancha ko'hlikkina edi.
– Ishtaha ochish uchun mayi nobdan bir qultum bir qultum ichib olsak, yaxshi bo'lar edi.

Mohlaroyimning indamaganini ko'rib, sekin o'rnidan turdi-da, o'z xonasiga kirib, ipak ro'molga o'ralgan shishani olib chiqdi, ikki piyolaga may quydi. Birov ko'rib qolmadimi, degandek u yoq bu yoqqa qarab, piyolani bo'shatishdi-da, kosaga qoshiq solishdi. Besh-olti daqiqadan keyin yoshgina dasturxonchi ayol likobchada to'rt six kabob keltirdi-da, ta'zim qilib, chiqib ketdi. Ozgina may ichib, ishtahasi biroz ochilgan Mohlaroyim qo'liga bir six kabob oldi.

"Bu noz-ne'matlar, izzat-hurmat, shoni shavkatlar ko'ngliga sig'maydi, – deb o'yladi Xushholbibi rangi ro'yi bir holatda bo'lgan bekasiga qarab. – Yostiqdoshi tirikligida, o'g'illari balog'atga yetmagan paytda anordek yuzlaridan nur yog'ilib, husnlari xotirjamlik shu'lesi bilan yorishib turardi. Mana endi bolalari voyaga yetganda yuraklariga hasrat tikani sanchilib, yuzlarini ajin bosdi".

Mohlaroyim xodimasining nimalar to'g'risida o'ylayotganini sezib turgandek bosh irg'ab qo'ydi-da:

– Shu tobda miyamga ajoyib bir fikr keldi, – dedi qo'lini sochiqqa artib. – Ertagayoq ikkimiz soyavon aravaga o'tirsag-u, muhofiz yigitlar soqchiligidagi Xo'jand shahri sari ravona bo'lsak. O'zim ham kenja o'g'lim Sulton Mahmudni sog'indim. Gaplashib o'tirib diydorig'a to'ysam-u yurakdagagi gaplarni aytib, ko'nglini yumshatsam. Zora insofga kelsa-yu so'zimga kirib akasi bilan yarashsa. Unga aytadig'on gaplarim tilimning uchida turipti. Hozir aystsam, siz ham yig'lab yuborasiz.

– Yo'q, aytmang, o'zimni zo'rg'a tutib turibman. – Negadir Xushholbibining ko'ngli erib, ko'ziga yosh qalqdi. – Xayolingizga ajoyib fikr kelibdi. Ertagayoq siz bilan birga Xo'jand sari jo'nashga tayyorman. Gapingizni eshitib, Sirdaryo bo'yidagi o'rikzorlarni, xushmanzara bog'-rog'larni ko'rgim kep ketdi.

* * *

Sulton Mahmud volidayi mehribonining kelayotganidan darak topib, shahar bo'sag'asida munosib izzat-ikrom bilan kutib olish to'g'risida buyruq berdi. Baland tepa ustiga qurilgan o'rданing darvozasi ustida karnay-surnay, nog'ora chalinib turar edi.

Endi yigirma uchga qadam qo'yan, ko'zlaricha qanoq, baland bo'yli xonzodaning yuzida bolalik alovmatlari saqlanib qolgan edi. Sochlariqa oq oralagan, yuzini ajin bosgan onasini ko'rishi bilan o'pkasini tutolmay, yig'lab yubordi va engashib yelkasini tutdi. Ona sho'rlik ko'z yoshlarni tiyolmay o'g'lining yelkasiga qoqib, yuzidan, peshonasidan o'pdi. Sulton Mahmud tanish-bilishlari, saroy xizmatchilarining sog'lig'ini so'rasha ham, akasini tilga olmadi.

– Hammalari sog‘-salomat, sening duoyi joning-ni qilib yotibdilar. Shahar atrofidagi anorzor, anjir-zor bog‘lar hammasi yashnab turipti, hamma – osh-na-og‘ayni, yor-birodarlarling seni ko‘rishga mushtoq...

Sochlariqa oq oralagan ona sho‘rlik hayajon bilan poyma-poy gapirar ekan, yosh yigitning ko‘z ol-dida shahar yaqinidagi saroy bog‘lari: Afg‘on bog‘i, Urganch bog‘i namoyon bo‘lib, yuragiga qaynoq bir shu‘la oqib kirgandek bo‘ldi. Ziyofat tugab, dasturxon yig‘ishtirib olingandan so‘ng ona-bola o‘rtasida mu-zokara boshlandi.

Mohlaroyim yurtning birligi, butunligini saqlash, faqir-u fuqaroning tinchligi, yetim-yesirlarning oso-yishtaligi to‘g‘risida kuyib-pishib gapirar, Buxoro amiri va sayid, xojakalonlarning makriga uchmaslik kerakligini uqtirar edi.

– Agar ona sutim halol bo‘lsin, uning ko‘z yoshlari to‘kilmasin, padari buzrukvorimning arvohi shod bo‘lsin desang, akang bilan yarash. O‘zing bilasan, seni jondan ortiqroq sevaman, boshingdagi bir tu-kingni ham to‘kilishiga yo‘l qo‘ymayman.

– Bilaman, siz tirik ekansiz, meni akamning zulm-taaddisidan saqlab qolasiz, bunga aminman, – dedi shahdidan tushgan xonzoda. – Ammo yonimg‘a qochib kelgan a‘yonlar, amaldorlarning taqdirlari ustida o‘ylab, ikkilanib o‘tiribman. Agar akam ularning aybidan o‘tib, xohlagan yerlarida istiqomat qilishlariga imkon bersa, shartningizni qabul qilaman.

– Bundan xavotir olma, o‘g‘lim. Ularning sog‘-sa-lomat qolishlarig‘a men kafil. Agar... taslim bo‘lsang, senga Toshkand shahrini berurmiz, Qo‘qong‘a boj-xiroj to‘lab turish va xutbani xoni zamon – akang Ma’dali nomig‘a o‘qitish sharti bilan.

– Sizning ro'y xotiringiz uchun shartlaringizni qabul qilish, itoat zanjirini bo'ynimg'a solishga tayyorman.

Mohlaroyim o'g'lini quchoqlab, yuzidan o'pdi, xursandligidan yig'lab yubordi. Hujrayi xosning eshigi orqasida ularning gaplariga qulq solayotgan Xushholbibi ko'z yoshlarini tiyolmay, yig'lamoqda edi...

XII

Sulton Mahmud buxoroliklar qo'liga o'tib qolgan Toshkandni jang bilan ishg'ol qilib, juma namozida xutbani Ma'dalixon nomiga o'qita boshladi. Aka-ukanning yarashgani, ikkiga bo'lingan Qo'qon xonligining tiklanib, bir butun holiga kelishidan hamma mammun, Mohlaroyim esa hammadan ko'proq sevinar edi.

Shunday paytda fuqarog'a g'amxo'r bo'lган, unga muhabbat ko'zi bilan qaraydigan hukmdor kerak edi. Ma'dalixon esa yurtni emas, poytaxtdan uzoqda istiqomat qiluvchi yori to'g'risida ko'proq o'ylar, yo'lida paydo bo'lган g'ovlar esa uning ishtiyoqini kuchaytirar, muhabbat gulxaniga o't qalar edi. U ba'zan tun qorong'isida otini qamchilab, Yormozorga jo'nab qolar, Xonposhsha har safar tovusday turlanib, egniga yangi atlas ko'ylagini kiyib, sutday oq bo'yniga yangi zebigardonini taqib, ishva bilan uni qarshi olar edi.

Bir kuni baxmal nimcha kiyib, tilla gajak taqib, qo'liga dutor olgan yorining xonishini eshitmoqchi bo'lib turganda eshikochar xola kelib, ta'zim qildi-da, Qo'qondan chopar kelganini bildirdi. Xon qovog'ini solib, o'rnidan turdi. Mohlaroyim zudlik bilan uni Qo'qonga chaqirtirgan edi.

– Tinchlikmi? Nima gap? – so'radi poytaxtga yetib kelgan Ma'dali salom-alikni ham unutib.

– Tinchlik, xotirjamlik bo‘lg‘onda sizni chaqirti-rarmi edim? Uzoqdan nog‘ora tovushi eshitilayotgan paytda siz dutor ovozig‘a qulq solasiz.

– Gaplaringizga tushungan bo‘lsam o‘lay agar! – dedi Ma’dali riyokorlik bilan.

– Hozir O‘ratepadan kelgan chopar amir Nasrullo-ning qo‘sishin tortib chiqqanidan bizni xabardor qildi.

– Jizzaxda qo‘slinik bor, chegara mustahkam! Gala botirlar, Ko‘lob, Qorategin merganlari menga sodiq, buxoroliklar bilan otishib, chopishaman, ularni mag‘lub etaman.

Mohlaroyim bilaklarini sariq jun bosgan, chag‘ir ko‘zlar chaqnab ketgan o‘g‘lining vajohatini ko‘rib: “Bu juda g‘ayratli va qo‘rquv nimaligini bilmaydi, zora, zafar bunga yor bo‘lsa-yu balo-qazoday bostirib kelayotgan dushmani daf etsa”, – deya o‘ziga tasalli berdi.

* * *

O‘g‘liga oq fotiha berib, safarga jo‘natganidan keyin onayizor o‘zini qayerga qo‘yishni bilmay qoldi. U ko‘ngliga ozor berayotgan fikrlardan o‘zini qutqarish uchun saroy bog‘iga tushib, endi barg chiqarayotgan daraxtlar orasida sayr qilar, ammo xiyobon chetidan oqayotgan ariqlarning shildirashi ham, qushlarning sayrashi ham ozurda dilig‘a malham bo‘lolmas edi. Ko‘m-ko‘k o‘tlar, gullagan mevali daraxtlarning hididan mast bo‘lgan shamol u yoqdan bu yoqqa yugur-rar, go‘yo bir falokatdan darak berayotgan bo‘lar edi.

Uning ketidan ergashib yurgan kanizak va o‘n ikki yoshga endi qadam qo‘ygan qul bolalar osmonga – ufqni qoplab olgan bulutlarga qarab, bezovtalana boshladilar. Birozdan keyin uzoqda borayotgan janglarning aksi sadosiday ko‘k guldirab ketdi. Kanizaklardan biri malikaga yaqin kelib:

– Oyi xonim, tezroq qaytayiq, yomgir yog‘adi, – dedi. Mohlaroyim ko‘kka qaradi, so‘ng yenglariga zarhal gul tikilgan baxmal kamzulini tugmalab, boshidagi shol ro‘moli bilan tomog‘ini o‘rab, haramxona tomon asta yo‘l oldi.

Uning ko‘ziga hech narsa ko‘rinmas, fikr-xayoli uzoqda, jang nog‘orasi chalinayotgan O‘ratepa, Jizzax tomonda, ko‘ngliga hech narsa sig‘mas, yakka o‘zi qolib xayol surishni istardi.

Oradan bir hafta o‘tgandan keyin qulog‘iga yetib kelgan shumxabar nogahoniy tungi bo‘rondek uning umid chirog‘ini so‘ndirib yubordi. Darakchilar O‘ratepa bilan Jizzax o‘rtasidagi Pishog‘orda Ma‘dalixonning mag‘lubiyatga uchrab, ozgina askar bilan qochib kelayotgani to‘g‘risida shumxabar keltirdilar. Ko‘p vaqt o‘tmay, mingtacha askari bilan qochib kelib, shahar qo‘rg‘oniga bekinib olgan o‘g‘li bilan ko‘rishmadi ham, u bilan hol-ahvol so‘rashmadi ham, chunki nima hodisa yuz bergenini endi so‘rab-surishtirishning hojati yo‘q, hamma narsa o‘z-o‘zidan ayon edi.

Ma‘dalixon ham onasining betiga tik qaray olmas, chang bosgan yuzi so‘lg‘in, ko‘zлari ich-ichiga tushib ketgan edi. U o‘nda hammomida yuvinib, sartaroshdan soqoli va mo‘yloving ostini qirdirib, ozoda kiyinib dasturxon yoniga o‘tirdi. Indamasdan ovqatlanib bo‘lganlardan so‘ng:

– Endi bu yog‘i nima bo‘ladi? – deb so‘radi Mohlaroyim qo‘lini sochiqqa artarkan, o‘g‘liga ma‘yus qarab.

– Nima bo‘lardi, darvozalarni mahkam berkitib, jang-u jadalga tayyor bo‘lib turamiz. Erta-indin dushman qo‘smini yetib kelishi kerak. Shinaklardan ular ustiga o‘q yogdiramiz, paytini poylab, darvozadan chiqib chopqilashamiz. Shahar ichidagi hamma er-kaklarni qo‘smin safiga chaqiramiz.

Mohlaroyim o'g'lining so'z ohangidan uning g'ala-baga ishonchi yo'qligini sezdi-da:

– Men jang rusumini bilmayman, o'zlarining oliv kengashda bir qarorga kelarsizlar, – dedi. – Bemaslahat ish qilinmasin.

XIII

Mohlaroyim ulug' xonadonning ertasini o'ylab, unsiz oh urar – aziyat chekar edi. Xonadon taqdiri qil uchida osilib turar, ilkis shamol uni chirpirak qilib ketishi mumkin edi. U yotgan joyida ko'zlarini yumib, mizg'ib olishga urinib ko'rdi – bo'lmasdi. Azonga yaqin ko'zi ilinib, aloq-chaloq tushlar ko'rib chiqdi. Ertalab tahorat olib, bomdod namozini o'qimoqchi bo'lib turganida o'g'li kelib, amir Nasrullo behisob askarlari bilan shaharni qurshab olganini, oliv kengash dushman bilan muzokara olib borib, ixtilofni tinchlik yo'li bilan hal qilish to'g'risida qarorga kelganini bildirdi.

– Mayli, ishqilib urush bo'lmasin, janjal sulh yo'li bilan bartaraf etilsin! – dedi Mohlaroyim hayajon bilan. – Amirga urush xarajatlarini to'lab, Xo'jand bilan Toshkentni bersak ham mayli, shu shart bilanki, u poytaxt bo'sag'asidan nari ketsin. Tinchlik bo'lsa, ishlarimizni yana o'nglab olurmiz. Yo parvardigor, o'zing rahm ayla, zolimning zulmidan o'zing asra!

Shahar bo'sag'asida turgan amir bilan muzokara olib borish uchun Ma'dalixonning to'ng'ich o'g'li Muhammad Aminni vakil qilib yubordilar. Bu hushyor yigitcha mamlakatning ichki ishlariga aralashib turar, ba'zan dadasiga yaxshi maslahatlar berib, uni hayratda qoldi-rardi. Buvisi bu zehnli nevarasining aqlli va tadbirkor hukmdor bo'lishiga ishonar edi, yirik amaldorlar ham

bu xushmuomala xonzodaga xayrixoh bo'lib, amir bilan muzokara olib borish uchun uni munosib topgan edilar.

Egniga zar hoshiyali chakmon kiygan Muhammad Amin darvozadan chiqishi bilan shaharni qurshab olgan amir askarlari uni o'rab oldilar. U nima maqsadda chiqqanini e'lon qilgach yuzboshilardan biri uni chodir tomon boshlab ketdi va qorovulbegiga topshirdi.

Oradan o'n-o'n besh daqiqa o'tgach, hudaychi uni qo'lidan ushlab ichkariga boshlab kirdi.

– Kimsan o'zing, hoy bola? – deb so'radi to'rdagi baxmal to'shak ustida gerdaiib o'tirgan amir uning salomiga alik olmay.

"Bilib turib so'raydi-ya!" o'yladi xonzoda egniga zardo'z chopon kiygan, qora soqolli amirga tikilib, ammo kimning oldida turgani esiga tushib, bosh egib qo'ydi-da:

– Men xoni zamon Muhammad Alixonning o'g'li Muhammad Amindurman, – dedi izzatini qo'ldan bermay. – Zoti oliy bilan muloqot qilg'oli keldim...

– Otang yoshi ulug'roq bir odam topolmapti-da, – dedi amir miyig'ida kulib. – Men ona suti og'zidan ketmagan bola bilan muzokara olib borishni istamayman. Yer bilan yakson bo'lgan g'anim so'zsiz taslim bo'lishi lozim. Shartim shulki, padaring o'zi kelib ayoqimg'a yiqilsin. Kafolat uchun seni olib qolurman. Ma'dali mehribon ota bo'lsa, kelib o'g'lini qutqarur. – Shunday deya u qars urgan edi, hudaychi kirib ta'zim qildi. – Mana bu yigitni Ibrohim dodxoh qo'lig'a topshir, atosi kelguncha chohda asrasin!

* * *

Ma'dalixon bosh egib dushman oldiga borishni istamay, onasi va o'g'illarini tashlab, otini qamchiladi-yu qolgan-qutgan askarlari bilan shahardan chiqib qochdi. U Namanganga borib, askar to'plash va urush-

ni davom ettirish niyatida edi. Biroq qolgan-qutgan askarlari uning omadi ketganini ko'rgach, aravalarda ortilib ketayotgan boyliklarni talab, har yoqqa to'zib ketdilar. Ma'dali uchta askari bilangina Marg'ilon shahriga yetib keldi va Namangan safaridan voz kechib, shu yerda dushmanga qarshilik ko'rsatishga jazm qildi. Marg'ilon shahriga tiralib solingan, baland qo'rg'on bilan o'ralgan Yormozor o'r dasini mustah-kamlab jon saqlamoqchi bo'ldi. Miyasi aynigan xon xomxayolni haqiqatdan ustun qo'yib, biror tasodif yuz berishi, omadi o'ngidan kelishiga umid bog'lar edi.

O'rda darvozasi yopiq, uning ikki chetida ustlariga yo'l-yo'l bo'z chopon kiygan, bellaridagi qayish kamalariga qilich osgan qorovullar qaqqayib turardilar.

– Darvozani och! – deb baqirdi horib-charchab kelgan Ma'dali xirillab.

– Ruxsatsiz hech kimni kiritmanglar, deb buyruq bergenlar Xonposhsha oyim, – dedi darvoza tepasida turgan qop-qora, cho'tir yuzli qorovulbegi.

– Hoy, tagi past, nahotki meni tanimagan bo'lsang!
Och darvozani deyapman, yo'qsa, kallangni olaman!

– Hozir, biroz sabr qilib tursinlar... – Rangi o'chgan qorovulbegi tik zinadan pastga, o'rda sahniga tushib, o'ng tomonga qarabyurdi. Devonxona eshigi oldida qotib turgan qorovul yonidan o'tib, devorlari naqshinkor dahlizga kirdi va nafasini rostlab, shiftiga oltin qandil osilgan, oyoqostiga lola gulli xo'tan gilami solingan katta xonaga ta'zim qilib kirdi. To'rda Mahmudxonxo'ja bilan Xonposhsha yuz bergen hodisalar to'g'risida gaplashib o'tirar edilar. Ular darakchilar orqali Qo'qoning buxoroliklar tomonidan zabit etilgani, Ma'dalixon ozgina askari bilan qochib kelayotgani to'g'risida xabar olgan va uning yetib kelishini kutib turgan edilar.

Qorovulbegi ostonadan hatlab o'tishi bilan Xonposhsha boshidagi shol ro'moli bilan tomog'ini o'rabi oldi va uning gapini eshitib:

– Darvozani ochib, Ma'dalini bir o'zini ichkari kiring va qo'l-oyog'ini bog'lab qorovulkxonag'a qamab qo'ying! – dedi e'tirozga yo'l qo'ymaydigan ovoz bilan.

– Nega qarab turibsiz? Boring, buyruqni bajo keltiring!

Yaqindagina xon oldida ta'zim qilib, uning har amrini so'zsiz bajarishga o'rganib qolgan qorovulbegi bu gapni eshitib, shoshib qolgan edi.

– Sizning har amringizga tobe, buyrug'ingizni bajarishga tayyorman, – dedi u orqasi bilan yurib chiqib ketar ekan.

– Xuddi tilim uchida turgan gapni aytding, – dedi Mahmudxonxo'ja Xonposhshaga shivirlab. – Qorovulbegiga bir xat yozib beraman, u qo'l-oyog'i bog'lang'on Ma'dalini amir Nasrulloha oborib topshirsin.

– Amir bu xizmatingizdan minnatdor bo'ladi, deb o'ylaysizmi?

– Yo'q, podsholikdan mast bo'lgan, zulm-vahshatdan zavq oladigan hukmdordan yaxshilik kutib bo'lmaydi. Avvalo oldimizdagи bir g'ovni olib tashlaylik, keyinги to'siqni chetlab o'tarmiz. Bul yerdan qochib ketish uchun tayyorgarlik ko'rib qo'yish kerak. Bizga ortiqcha narsa kerak emas, sening zebi-ziynatlarining-u bir xalta tillo olib qochsak – bas. Bir soat o'tar-o'tmas uchqur ot-larg'a minib, sadoqatli menganlar bilan Ko'lob sari ravona bo'lg'aymiz. U yerda qarindoshlarim bor, zamona tinchiguncha Ko'lobda jon saqlaymiz.

Poytaxtga qarshiliksiz kirgan amir Nasrullo imorati zarrinda, katta tanobiy uyning to'ridagi shahnishinda o'tirib, uni zafar bilan qutlayotgan ulamolar, a'yonlar, sarkardalarining tabriklariga sipolik bilan quloq solar, rang-barang deraza oynalaridan tushgan oftob nurida uning zardo'z choponi turli tusda tovlanar edi. Amir xursandligini yashirishga, qomatini tik tutib, yuziga ulug'vor tus berishga urinar edi. Shahar esa motam ichida – mol-mulki talanayotgan, qarshilik ko'rsatib jon berayotgan faqir-u fuqaroning shovqin-suroni bilan to'lgan. Dini islomning quvvati hisoblangan Buxoro amiri Qo'qon shahar musulmonlarining bor-yo'g'ini talon-toroj etishga, qarshilik ko'rsatgan ahli islomni o'ldirishga ruxsat bergen edi. Sotqin ulamolar, shayxlar, umarolar "sarupoyi oliv" va qimmatbaho sovg'alar kel-tirib uning oyog'i ostiga qo'ya boshladilar.

– E, jahonpanoh xoni zamon! – dedi Sultonxon to'ra ikki bukilib. – Marhamat aylab bizlarning hadyalari-mizni qabul qiling va yurt ixtiyorini qo'lingizga oling. Zafar sizga yor bo'ldi. Janoblari hamma podsholardan afzal, Buxoroyi sharif hamma yurtlardan ulug' turur. To'qson ikki jamoa janoblarig'a mute, bizlar amri farmoningizga tobedurmiz.

Amir Nasrullo xursandligini yashira olmay:

– Zafar xudovandi karimdandur, har bir ish aning amri bilan voqe' bo'lur, – dedi. – Sovg'a-salomlar va sizlarning sadoqatingizdan behad minnatdormen. Ammo jinoyatni jazosiz qoldirmoq dini islomg'a xilof ishdir. Shariatni ayoq osti qilib, o'gay onasiga uylan-gan xon va bunga yo'l qo'ygan anosi, ularning uy ichlari o'limga mahkumdurlar...

- Shundog'... - deya bosh egib qo'ydi qo'l qovushtirib turgan Sultonxon to'ra.

* * *

Amir Nasrullo har safar g'alaba qozonib o'z poytaxtiga qaytayotganida xursand bo'lganidan terisiga sig'mas, yayrab nafas olar edi. Bu galgi muzaffariyat, behisob o'ljalar unga tatimadi. Tilla jabduqli ot ustida, yosh navkarlar qurshovida Buxoroga qaytar ekan, uning yuragi g'ash, qulog'i ostida Nodiraning o'lim oldidan aytgan achchiq gaplari jaranglar edi. Xojalar, sayidlar, shayxlarga qarshi siyosat yurg'izgan, ularni mazax qilib she'rlar yozgan Nodiraga og'ir jazo bermoqchi bo'lib yurar edilar. Onayizor uchun ikki o'g'il, yosh nevaralar va kelinlarning qo'ydek so'yilayotGANI ko'rib turishdek og'ir azob bormi dunyoda?! Amir shoiraning chekkan azob-uqubatidan zavqlanmoqchi edi, biroq otgan o'qi o'ziga qaytib, o'zini yaraladi.

Hali balog'at yoshiga yetmagan nevarasi Muzaffarni bo'g'izlayotganlarida Nodira amirga qarab: "E berahm jallod, hech bo'lmasa shu norasida bolaga rahm qilsang bo'lmasmidi?! - deya xitob qildi. - Sendek diyonatsiz amirdan men rahm-shafqat so'ramayman, ammo begunoh bolalar, iffatli kelinlarni o'dirishdan nima zavq olasan?! Tuhmat sening quroling, nohaq qon to'kish - kasbing. Sen - imonsiz, birov larning mol-mulkini tortib olish uchun shariatni qurol qilib olg'onsem! Bu ishlaring uchun u dunyoda ham, bu dunyoda ham javob berarsan, sening avlodlaring ham o'z qoniga belanar!"

"Eng oldin uning kallasini oldirsam bo'lar ekan!" deb o'yładi amir tishlarini g'ijirlatib. U g'ijinib otiga bir qamchi urdi, atrofini o'rabi borayotgan yosh navkarlar undan orqada qolmaslik uchun arg'umoqlarining jilovini bo'sh qo'yib yubordilar.

MUNDARIJA

Singan setor.....	3
Jayhun ustida bulutlar	77
Iskandar va Spitamen	118
Temur Malik	141
Nur va zulmat.....	155
Mohlaroyim va Xonposhsha.....	185

17.300 c.

Adabiy-badiiy nashr

MIRKARIM OSIM

AJDODLARIMIZ FOJIASI

Tarixiy qissalar

Direktor
Ma'mura QUTLIYEVA

Muharrir
Sayyora MELIQO'ZIYEVA

Badiiy muharrir
Firdavs DO'STMATOV

Kompyuterda sahifalovchi
Nigora UMARQULLOVA

Texnik muharrir
Hamidulla IBOTOV

Litsenziya raqami: AA № 0009. 2019-yil 6-mayda berilgan.
Bosishga o6.06.2019-yilda ruxsat etildi.


Bichimi 84x108 1\32.
Bosma tabog'i 6,5. Shartli bosma tabog'i 10,92.
Garnitura «Constantia». Ofset qog'ozi.
Adadi 3 000 nusxa. Buyurtma № 399.
Bahosi kelishilgan narxda.

«ZABARJAD MEDIA» xususiy korxonasida tayyorlandi.
Tel.: (+998 97) 409-04-84; (+998 94) 935-00-25

«Print Line Group» XK bosmaxonasida chop etildi.
100097, Toshkent shahri, Bunyodkor shohko'chasi, 44-uy.

YOSH KITOBXON

KUTUBXONASI



Mirkarim Osim

Ajdodlarimiz fojiasi



ZABARJAD
MEDIA

ISBN 978-9943-5841-3-6

9 789943 584136